

T.Q. QUDRATOV, M.M. IBROHIMOV,
Z.H. KARIMOVA

IQTISODIY TAHLIL



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

T.Q. QUDRATOV, M.M. IBROHIMOV, Z.H. KARIMOVA

IQTISODIY TAHLIL

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

5-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2012

УДК: 338 (075)


ББК 65.405

Q73

Oliy va o'rtq maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

O'quv qo'llanmada iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti, vazifalari, usullari hamda sanoat, qishloq xo'jaligi va savdo korxonalarining boshqaruv, moliyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonlarning natijalarini qiyos-lama va omilli tahlil qilishning nazariy hamda uslubiy asoslari yoritilgan. O'quv qo'llanma «Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi», «O'rtq va kichik korxonalarda buxgalteriya hisobi», «Budjet korxonalarida buxgalteriya hisobi» ixtisosliklari bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilarga, shuningdek, yuqoridagi ixtisosliklar bo'yicha ishlayotgan mutaxassislarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar: **K. O'ROZOV** — Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasi dotsenti;
N. BARATOV — Samarqand savdo-tijorat kolleji direktorining o'rinbosari, iqtisod fanlari nomzodi.



ISBN 978-9943-303-83-6

© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2011-y.

© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2012-y.

KIRISH

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining taraqqiyoti ko'p jihatdan malakali kadrlar tayyorlash darajasiga bog'liq. Ushbu qonuniyatni hisobga olgan davlatimiz rahbari va mamlakat hukumati tomonidan kadrlar tayyorlash masalasiga mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab katta e'tibor berib kelinmoqda. Natijada, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga mo'ljallangan Davlat Ta'lim standartlari va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalari ishlab chiqilib, tatbiq etildi.

Hozirgi paytda ular sinovdan o'tib, tizimli ravishda takomillashib bormoqda, ularning yangi-yangi variantlari ishlab chiqilmoqda. Shular asosida mamlakatimiz o'quv yurtlarida o'quv jarayonlari ham takomillashib, sifat bosqichiga kirib, malakali kadrlar tayyorlanib kelinyapti.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash ko'p jihatdan o'quvchi va talabalarining zamon talablariga javob beradigan darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Kasb-hunar kollejarining «Buxgalteriya hisobi» yo'nalishi o'quvchilari uchun mo'ljallangan «Iqtisodiy tahlil» fanidan tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma ham shunday o'quv adabiyotlari sirasiga kiradi.

Mamlakatimiz xo'jaliklarida mavjud bo'lgan yer-suv, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va ularni boshqarish hamda moliyaviy faoliyatga jalb etishning asosiy vositasi bo'lib, iqtisodiy tahlil hisoblanadi. Shuning uchun ham iqtisodiy tahlilni amalga oshirish va uning natijalaridan iqtisodiyotni mustahkamlashda foydalanish uchun bo'lajak mutaxassislar o'quv jarayoni davrida uning asoslarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak. Shu qonuniyat Davlat Ta'lim standartlarini tuzishda hisobga olingan bo'lib, unda o'zlashtirilishi zarur bo'lgan fanlar aks ettirilgan, shu jumladan, «Iqtisodiy tahlil» faniga ham muhim o'rin ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi tomonidan 2001-yilda «Kasb-hunar kollejarida mutaxassislar tayyorlash uchun mo'ljal-

langan o'quv reja va dasturlari» tasdiqlangan. Ushbu hujjatlarda aks ettirilgan «Buxgalteriya hisobi» yo'nalishi tarkibidagi fanlar orasida «Iqtisodiy tahlil» faniga salmoqli o'rin ajratilgan. Mazkur fanning nazariy va uslubiy asoslarini qamrab olgan ushbu o'quv qo'llanma mualliflar tomonidan yaratildi. Ushbu o'quv qo'llanmaga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2006-yilda tasdiqlangan «Iqtisodiy tahlil» o'quv dasturiga muvofiq, ayrim qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi O'ylaymizki, o'quv qo'llanmadan «Buxgalteriya hisobi» yo'nalishining barcha ixtisosliklari bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar unumli foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanma me'yoriy hujjatlar va haqiqiy ma'lumotlar asosida yozildi, shuning uchun ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lishi mumkin. Shu bois mualliflar mazkur o'quv qo'llanma bo'yicha bildirilgan fikr va mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qilishadi.

1-bob. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. Iqtisodiy tahlil to'g'risida tushuncha, uning bozor munosabatlari sharoitidagi mazmuni va ahamiyati

Tahlil yunoncha «*analysis*» so'zidan olingan bo'lib, sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlarni bo'laklarga bo'lib, qismlarga ajratib, parchalab o'rganishni bildiradi. To'liqroq bayon qilinganda, *tahlil* — makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyotda sodir bo'lgan, bo'layotgan hodisa hamda jarayonlar to'plamini bo'laklarga, qismlarga bo'lib, ajratib, ularning o'zgarishini va o'zaro bog'liqligi hamda o'zgarishiga omillar ta'sirini o'rganishni bildiradi. O'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni qism-bo'laklarga ajratishda ularning umumiylik, birlik va bog'liqlik xususiyatlari saqlanib qolishi lozim.

Iqtisodiy tahlilning bozor munosabatlari sharoitidagi mazmuni deganda nima tushuniladi? Bu savolga javob berishdan oldin «Bozor munosabatlari» tushunchasining mazmunini bilish zarur.

Bozor munosabatlari deganda, sotuvchi bilan xaridor o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy aloqalar tushuniladi. Oldi-sotdi xususida tovar va pul egalari o'rtasida shunday iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladiki, ularning aniq ijro etuvchilari bo'lib, korxon va tashkilotlar hisoblanadi. Ushbu korxon va tashkilotlar o'z iqtisodiyotini mustahkamlash va rivojlantirish uchun bozor munosabatlari jarayonida «Talab va taklif» bilan «Pul muomalasi» qonun-qoidalariga amal qilgan holda iqtisodiy tahlilni tashkil qilishi va uning natijalaridan samarali foydalanishi zarur.

Demak, iqtisodiy tahlilning bozor munosabatlari sharoitidagi mazmuni nimani ifodalaydi? Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxon faoliyatining barcha tomonlarida sodir bo'lgan va bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini uzviy bog'lagan holda maqsadli, tezkor, joriy va istiqbolli o'rganish asosida uning ta'minot, ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy holatlarini yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatib, har tomonlama chuqur baho berish hamda nuqsonlarni tugatish yo'llarini ko'rsatish iqtisodiy tahlilning bozor munosabatlari sharoitidagi mazmunini ifodalaydi.

Iqtisodiy tahlilni o'z vaqtida uyushtirish va uning natijalaridan hayotda samarali foydalanish iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Tahlil korxonalar faoliyatining barcha tomonlari (ta'minot, ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatlari)da sodir bo'lgan va bo'layotgan iqtisodiy hodisa hamda jarayonlarning o'zgarishini, o'zgarishning sabablarini o'rganadi. Natijada, mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlaydi, ularni xo'jalik faoliyatiga jalb etish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, ya'ni tabiiy, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar bilan taminlanish va ulardan foydalanish darajasini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, foydani ko'paytirish va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish bilan iqtisodiy tahlil iqtisodiyotda katta ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda u korxonaga iqtisodiyotini, qolaversa, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsata bilishligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

1.2. «Iqtisodiy tahlil»ning iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni

«Iqtisodiy tahlil» iqtisodiy fanlar tarkibiga kiruvchi mustaqil fandir. «Iqtisodiy tahlil» xo'jalikni samarali, maqsadli boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni beradi, barcha yashirin imkoniyatlarni topib, ularni xo'jalik faoliyatiga jalb etishda, asosiy dastak bo'lib xizmat qiladi, oqibatda, korxonaning rivojlanishiga olib kelib, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun o'quvchi iqtisodiy tahlilning mazmun-mohiyatini va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligini yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lishi kerak. Iqtisodiy fanlar bo'lib, iqtisodiy nazariya, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, statistika, moliya, kredit, audit, buxgalteriya hisobi va boshqa fanlar hisoblanadi.

Iqtisodiy nazariya iqtisodiy kategoriyalarni, ya'ni qiymat, tovar, ish haqi, mehnat unumdorligi, foyda kabi kategoriyalar haqidagi tushunchalarni hamda iqtisodiy qonunlarning mohiyatini bayon qiladi. Uning qonuniyatlari va metodologiyasi barcha iqtisodiy fanlar uchun, shu jumladan, «Iqtisodiy tahlil» uchun ham metodologik asos hisoblanadi. «Iqtisodiy tahlil» o'z navbatida iqtisodiyotda sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlarni chuqur o'rganish bilan «Iqtisodiy nazariya» fanining rivojlanishi uchun asos yaratib beradi.

«Iqtisodiy tahlil» bevosita «Statistika» fani bilan ham uzviy bog'liqlikda bo'ladi. «Statistika» jamiyatning barcha tomonlarida va shu jumladan, korxonalar faoliyatida sodir bo'lgan va

bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini o'rgatadi. «Iqtisodiy tahlil» esa ulardan tahlil jarayonida keng foydalanadi. Statistika hisobot ma'lumotlari — iqtisodiy tahlilda axborot manbai hisoblanadi. Xullas, statistik usullar va statistik ma'lumotlar iqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladi. Iqtisodiy tahlil ma'lumotlari statistik ko'rsatkichlarni takomillashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

«Iqtisodiy tahlil» fani «Buxgalteriya hisobi» bilan uzviy bog'liqdir. Iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobining mantiqiy davomi bo'lib hisoblanadi. Umuman olganda, tahlil buxgalteriya hisobi negizida yuzaga kelgan fandir. «Buxgalteriya hisobi» xo'jalik faoliyatining barcha tomonlarida sodir bo'lgan operatsiyalarni shotlarda hisobga olish va ularni umumlashtirgan holda hisobotlarda aks ettirish bilan shug'ullanuvchi fandir.

Buxgalteriya hisobi va hisobotlaridagi ma'lumotlar asosida iqtisodiy tahlil sodir bo'lgan jarayonlarni hamda natijalarini o'zaro bog'lagan holda o'rganadi. Natijada, u buxgalteriya hisobi va hisobot ko'rsatkichlarini takomillashtirish to'g'risida fikrlar beradi. Iqtisodiy tahlil ma'lumotlariga asosan, boshqaruv qarorlari qabul qilinadi, unda jarayon natijalariga baho beriladi. Demak, iqtisodiy tahlil va boshqaruv orasida ham bevosita bog'liqlik mavjud. «Iqtisodiy tahlil» moliya va kredit, audit va boshqa iqtisodiy fanlar bilan ham uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Bu esa fanlarning o'zaro bog'liqligini kengaytirib, mazmun-mohiyatini boyitadi.

1.3. «Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti va uning usullari

«Iqtisodiy tahlil» fani ham boshqa fanlar kabi o'zining maxsus predmeti va usullariga ega. «Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti bo'lib nima hisoblanadi?

«*Iqtisodiy tahlil*» fanining predmeti bo'lib, barcha korxonalar faoliyatida obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida ro'y bergan va sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar hamda ularning natijalari hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tahlil obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlarning holati va harakatini hamda ularning natijalarini o'zaro bog'liqlikda o'rganadi. Tahlil o'z predmetini o'rganishda iqtisodiy axborotlardan foydalanadi, ya'ni iqtisodiy axborotlar asosida jarayonlarning o'zaro bog'liqligi keng qamrovda o'rganiladi.

Iqtisodiy tahlilning predmetida omillar asosiy o'rinni egallaydi, chunki korxonalarining xo'jalik faoliyatida yuzaga kelgan va kelayotgan hodisa-jarayonlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, ular qandaydir obyektiv-subyektiv omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Obyektiv-subyektiv omillarning ta'sirini boshqa fanlar o'rganmaydi, faqat bularning ta'siri iqtisodiy tahlilda o'rganiladi, shuning uchun ham «Iqtisodiy tahlil» fani predmetining negizida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar hamda ularning ta'sirini o'rganish bejiz qayd qilingan emas.

Xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonlarga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin: ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligi, moddiy resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi va hokazo. Shu ko'rsatkichlarning har biri shakllanishi va o'zgarishiga ma'lum miqdordagi omillar ta'sir qiladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga birinchi navbatda xodimlar soni bilan mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishi ta'sir qiladi. Demak, ishlab chiqarish faoliyatida band bo'lgan xodimlar soni bilan mehnat unumdorligi ta'siri ostida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va uning o'zgarishini o'rganish iqtisodiy tahlil predmetiga misol bo'la oladi. Boshqa iqtisodiy jarayonlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar ham shunga o'xshash namoyon bo'ladi va omillar ta'siri ostida o'rganiladi.

Iqtisodiy tahlilning predmetini o'rganish usullari uning metodini tavsiflaydi. Boshqacha aytganda, predmetni o'rganishda qo'llaniladigan usullar yig'indisi tahlilning metodi bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

1. Statistik usullar. 2. Iqtisodiy matematik usullar.

Keng tarqalgani statistik usullardir. Ular jumlasiga solishtirish, ko'rsatkichlar farqi, zanjirli bog'lanish, balansli bog'lanish, indeks usullari kiradi. Ular orasida iqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladiganlari ko'rsatkichlar farqi va zanjirli bog'lanish usullari kiradi. Shuning uchun bu ikki usul mazmun mohiyatiga to'xtaldik.

Ko'rsatkichlarni farqlash usuli

Ko'rsatkichlar farqi usuli — bu hodisalar orasidagi bog'lanish funksional ko'rinishda bo'lgan taqdirda ishlatiladi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini aniqlash uchun ta'siri aniqlanayotgan omillar orasidagi farqni qolgan omillarning miqdoriga ko'paytiriladi.

Iqtisodiy hodisaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar o'z navbatida ikki guruhga bo'linib o'rganiladi, ya'ni miqdoriy va sifatii omillarga bo'linadi. Agar hodisa (natija)ning o'zgarishiga ikki omil ta'sir qilsa, ularning ta'siri quyidagi tartib bo'yicha aniqlanadi. Natijaning o'zgarishiga miqdor omilining ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi miqdor omil bilan bazis davridagi (yoki rejalashtirilgan) miqdor omil orasidagi farqni bazis davridagi sifatii omilga ko'paytiriladi. Masalan, ish haqi fondining o'zgarishiga xodimlar soni tasirini aniqlashni misol qilib ko'rsatish mumkin:

$$(T_1 - T_0) \cdot P_0 = \pm \Delta T,$$

bu yerda, T_1 — hisobot yilidagi xodimlar soni; T_0 — bazis yili (yoki reja)dagi xodimlar soni; P_0 — bazis davridagi o'rtacha bir xodimning ish haqi.

Natijaning o'zgarishiga sifatii omilning ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi sifat omil bilan bazis davridagi sifat omil orasidagi farqni hisobot davridagi miqdoriy omilga ko'paytiriladi. Masalan, ish haqi fondi o'zgarishiga o'rtacha ish haqi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlashni misol qilib ko'rsatish mumkin:

$$(P_1 - P_0) \cdot T_1 = \Delta P,$$

bu yerda, P_1 — hisobot yilidagi o'rtacha bir xodimning ish haqi.

U yoki bu hodisaning o'zgarishiga bir necha miqdoriy va sifatii omillar ta'sir qilgan taqdirda ham yuqoridagi qoidalarga amal qilib, ularning ketma-ket joylashishi bo'yicha ta'siri aniqlanadi. Masalan, ish haqi fondining o'zgarishiga quyidagi uch omil ta'sir qilsa:

1. Ishlovchilarning o'rtacha yillik soni (T).
2. Bir ishlovchiga to'g'ri keladigan kishi-soatlar soni (Ch).
3. Bir kishi-soat hisobiga to'g'ri keladigan mehnat haqi darajasi (Z).

Ushbu omillarning ko'paytmasi ish haqi fondi hajmiga teng bo'ladi:

$$\Sigma T \cdot Ch \cdot Z.$$

Shulardan birinchi ko'rsatkich miqdoriy omil (T), ikkinchi va uchinchi ko'rsatkichlar sifatii omillar hisoblanadi. Demak, birinchi navbatda miqdoriy omil ta'siri, keyin sifatii omillar ta'siri navbati bilan (ketma-ket joylashishi saqlangan holda) aniqlanadi, ya'ni quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Mehnat haqi fondi o'zgarishiga xodimlar soni o'zgarishining ta'siri

$$(T_1 - T_0) \cdot Ch_0 \cdot Z_0 = \pm \Delta T.$$

2. Mehnat haqi fondi o'zgarishiga bir ishlovchiga to'g'ri keladigan kishi-soatlar soni o'zgarishining ta'siri

$$(Ch_1 - Ch_0) \cdot T_1 \cdot Z_0 = \Delta Ch.$$

3. Bir kishi-soat hisobiga to'g'ri keladigan mehnat haqi darajasi o'zgarishining ta'siri

$$(Z_1 - Z_0) \cdot T \cdot Ch_1 = \Delta Z.$$

Zanjirli bog'lanish usuli

Ushbu usul ham farqlash va qayta hisoblash usullari kabi qachonki, o'rganilayotgan jarayonni ifodalovchi ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish, ya'ni natija bilan omillar orasidagi bog'lanish funksional xarakterga ega bo'lgan taqdirda ishlatiladi. Bu usulda har bir ta'sir etuvchi omilning natijaga ta'sirini aniqlash yo'li uslubiy ketma-ketlikka ega. Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashdagi uslubiy ketma-ketlik tamoyili shundan iboratki, rejadagi yoki o'tgan yildagi ko'rsatkichlarni hisobot ko'rsatkichlari bilan navbatli almashtirishni to'g'ri belgilashdan iborat hisoblanadi. Rejadagi yoki o'tgan yildagi omilli ko'rsatkichlarni almashtirishda miqdor va sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor beriladi.

Ko'rsatkichlarni qatorlashda, tahliliy jadval tuzishda dastlab miqdor ko'rsatkichlar, so'ngra sifat ko'rsatkichlari joylashtiriladi. Boshqacha aytganda, dastlabki qatordagi ko'rsatkichlar haqiqiy qatordagi ko'rsatkichlar bilan joy almashib, oxirgi qatordagi haqiqiy ko'rsatkichlar holatiga keltiriladi. Bunda birinchi qator ko'rsatkichlar har doim reja (bazi yili)dagi ko'rsatkichlar (dastlabki ko'rsatkichlar)ni, oxirgi qator esa haqiqiy (hisobot yilidagi) ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Birinchi qator bilan oxirgi qator orasidagi qatorlar «shartli ko'rsatkichlar» hisoblanadi. Yonma-yon turgan qatorlar orasidagi o'zgarish natijaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi bir omilning ta'sir darajasini ko'rsatadi. Omillar ta'sirining yig'indisi har doim umumiy o'zgarish (natijaning o'zgarishi)ga teng kelishi kerak.

Buni ish haqi fondini tahlil etish uslubi misolida ko'rib chiqamiz. Ish haqi fondining o'zgarishiga uch omil ta'sir qiladi:

1. Ishlovchilarning o'rtacha yillik soni (T)ning o'zgarishi.
2. Bir ishlovchining o'rtacha yillik ishlagan kishi-soatlar (Ch) o'zgarishi.

3. Bir kishi-soat hisobiga hisoblangan ish haqi darajasi (Z) o'zgarishi.

Ushbu ko'rsatkichlarning o'zaro ko'paytmalari yig'indisi ish haqi fondi hajmiga teng bo'ladi:

$$T \cdot Ch \cdot Z = \Sigma TChZ.$$

Ish haqining umumiy o'zgarishi:

$$\Sigma T_1 Ch_1 Z_1 - \Sigma T_0 Ch_0 Z_0 = \pm \Delta TChZ.$$

Demak, ish haqi fondining o'zgarishiga uch omil ta'sir qiladi. Bularning ta'sirini aniqlashdan oldin, quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari (ya'ni, ish haqi fondi ko'rsatkichlari) aniqlab olinadi:

- I. $\Sigma T_0 Ch_0 Z_0$ — bazis davridagi ish haqi fondi.
 - II. $\Sigma T_1 Ch_0 Z_0$ — shartli ish haqi fondi (1-shartli).
 - III. $\Sigma T_1 Ch_1 Z_0$ — shartli ish haqi fondi (2-shartli).
 - IV. $\Sigma T_1 Ch_1 Z_1$ — hisobot davridagi ish haqi fondi.
- Shundan so'ng omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi:
1. Xodimlar soni o'zgarishining ta'siri:

$$\Sigma T_1 Ch_0 Z_0 - \Sigma T_0 Ch_0 Z_0 = \pm \Delta T.$$

2. Bir kishi ishlagan soatlar o'zgarishining ta'siri:

$$\Sigma T_1 Ch_1 Z_0 - \Sigma T_1 Ch_0 Z_0 = \pm \Delta Ch.$$

3. Bir kishi-soat hisobiga hisoblangan ish haqi darajasi o'zgarishining ta'siri:

$$\Sigma T_1 Ch_1 Z_1 - \Sigma T_1 Ch_1 Z_0 = \pm \Delta Z.$$

Shundan so'ng omillar ta'siri umumlashtirilib, natija o'zgarishiga baho berilgan holda imkoniyatlar ko'rsatiladi. Iqtisodiy tahlilda statistik usullar bilan bir qatorda matematik usullar ham qo'llaniladi. Shular jumlasiga korrelatsiya, dispersiya, integral usullarini ko'rsatish mumkin.

Matematik usulni qo'llash asosida:

- iqtisodiy tahlilni bajarish muddati tezlashadi;
- o'zgarishlar va ularning ta'sirini aniq hisoblash mumkin bo'ladi;
- oddiy, an'anaviy usullar bilan hisoblab bo'lmaydigan murakkab omillar va ko'p omilli ko'rsatkichlarni to'liq o'rganish imkoniyati tug'iladi;
- hisoblash texnikalaridan foydalanish osonlashadi va h.k.

1.4. Iqtisodiy tahlilning maqsadi va bozor iqtisodiyoti sharoitidagi vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlilning roli keskin oshadi, chunki erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanadi. Iqtisodiy tahlilning maqsadi bo‘lib nima hisoblanadi?

Iqtisodiy tahlilning maqsadi bo‘lib, har bir subyektda mavjud bo‘lgan ichki va tashqi imkoniyatlarini aniqlash va ularni amaliyotga jalb qilish hisoblanadi. Imkoniyatlar orqali mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va uning sifatini oshirish, tannarx va mehnat sarfini kamaytirish, barcha resurslardan foydalanish samarasini oshirish, pirovard natija bo‘lmish foydani ko‘paytirish va rentabellikni oshirish mumkin.

Tahlilning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi asosiy vazifalari:

1. Korxonaning biznes-rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta‘minlash.
2. Biznes-reja bajarilishi korxonaning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashi uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarini o‘rganish.
3. Har bir yo‘nalishga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta‘sirini hisoblash va safarbar qilish.
4. Mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish.
5. Xo‘jalikning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning to‘lovga qodirligiga baho berish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Tayanch iboralar

- | | |
|------------------------|-------------------------------|
| ✓ mikroiqtisodiyot | ✓ obyektiv omillar |
| ✓ makroiqtisodiyot | ✓ iqtisodiy axborotlar |
| ✓ korxonalar faoliyati | ✓ statistik usullar |
| ✓ boshqaruv faoliyati | ✓ iqtisodiy-matematik usullar |
| ✓ moliyaviy faoliyat | ✓ taqqoslash usuli |



NAZORAT SAVOLLARI

1. «Tahlil» so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?
2. Iqtisodiy tahlil predmeti deganda nimani tushunasiz?
3. «Iqtisodiy tahlil» fanining obyekti deganda nimani tushunasiz?
4. Tabiat va jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisa-jarayonlarni o‘rganish usuli qanday nomlanadi? Uning mazmunini tushuntiring.
5. Iqtisodiy tahlilning qanday usullarini bilasiz?

2-bob. KORXONALAR YILLIK HISOBOTLARINING TO'G'RI TUZILGANLIGINI TEKSHIRISH

2.1. Hisobotlarning tarkibi, mazmuni va ahamiyati

Iqtisodiyotning taraqqiyoti ko'p jihatdan boshqaruv tizimini zarur axborot manbalari bilan ta'minlash darajasiga ham bog'liqdir. Boshqaruvni axborot manbalari bilan ta'minlashda, muhim o'rinni buxgalteriya va statistika hisobotlari egallaydi.

Hisobotlar o'z navbatida moliyaviy va maxsus hisobotlarga bo'linadi. Ular orasida moliyaviy hisobotlar mulk shaklidan qat'iy nazar, barcha korxonalar tomonidan tuziladi va tegishli organlarga taqdim qilinadi.

Yillik moliyaviy hisobot tarkibi quyidagi hisobotlarni o'z ichiga oladi:

1. Buxgalteriya balansi — *1-shakl*.
2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot — *2-shakl*.
3. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot — *3-shakl*.
4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot — *4-shakl*.
5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot — *5-shakl*.
6. Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida ma'lumotnoma — *2a-shakli*.

Buxgalteriya balansi — xo'jalik yurituvchi subyektlarning ma'lum sanaga mavjud bo'lgan asosiy va aylanma mablag'lari, o'z mablag'larining manbalari hamda majburiyatlarini aks ettiruvchi jadval.

Balans *aktiv va passiv* qismlarga bo'linadi. Balansning aktiv qismida xo'jalik mulki uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar tariqasida aks ettirilgan. Balansning passivida mulk tashkil bo'lish manbalari, korxonalar o'z mablag'larining manbalari va majburiyatlar tariqasi ikki bo'limda aks ettirilgan. Buxgalteriya balansi ma'lumotlari xo'jalik moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy manbayidir.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda sodir bo'lgan foyda (yoki zarar)ning quyidagi besh turi aks ettirilgan:

- mahsulot sotishdan olingan foyda (zarar);
- asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (zarari);

- umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (zarari);
- soliq to‘langunga qadar bo‘lgan foyda (zarar);
- sof foyda (zarar).

Bu hisobot xo‘jalik bo‘yicha moliyaviy faoliyat natijasini tahlil qilishning asosiy manbai hisoblanadi. Korxonaning foydasi oshgan sayin, xo‘jalik moliyaviy jihatdan mustahkam bo‘ladi. Foydaning oshishi, nafaqat, xo‘jalik uchun, hatto mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash uchun ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, foydaning oshishi mamlakat budjetini mustahkamlanishiga sababchi bo‘ladi.

Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobotda asosiy vositalarning barcha turlari va guruhlari bo‘yicha holati hamda harakatini ifodalovchi mutlaq ko‘rsatkichlar aks ettiriladi. Ushbu hisobotda asosiy vositalarning hajmi boshlang‘ich va qoldiq qiymatlari hamda yig‘ilgan amortizatsiya hajmi ko‘rsatkichlari ifodalangan. Shuning uchun ham ushbu hisobot asosiy vositalarning holati va harakatini ifodalovchi nisbiy ko‘rsatkichlarni aniqlab, ularga baho berishda katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, asosiy vositalardan foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlarini (fond qaytimi, fond sig‘imini) aniqlashda ham asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotda xo‘jalik faoliyatidagi pul mablag‘lari harakati, investitsiya foydasi va moliyaviy xizmat ko‘rsatishdagi pul mablag‘lari harakati, investitsion faoliyatdagi pul mablag‘lari harakati, moliyaviy faoliyatdagi pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks ettiriladi. Ushbu hisobot ma‘lumotlari balans ma‘lumotlari bilan birga pul oqimlari holati va harakatini tahlil qilish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu hisobot ma‘lumotlari asosida tahlilni uyushtirish ishlab chiqarishni kengaytirish uchun mablag‘lar jalb qilish, ulardan samarali foydalanish, istiqbolli imkoniyatlarni belgilash, moliyaviy holatni yaxshilash bo‘yicha ma‘lum yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Shuning uchun ham ushbu hisobotdagi ma‘lumotlarning obyektiv aks ettirilganligi katta ahamiyatga egadir.

Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotda xususiy kapitalning (ustav, qo‘shilgan, zaxira kapitallari va taqsimlanmagan foyda — qoplanmagan zarar) holati va harakati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar aks ettiriladi, ya‘ni uning yil boshi va oxiridagi qoldig‘i, yil davridagi uning ko‘payishi va kamayishi hamda unga qo‘shilgan badallar kabi ko‘rsatkichlar qayd qilinadi. Ushbu hisobot ko‘rsatkichlari xususiy kapitalni tahlil qilish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida ma'lumotnomada debitorlik va kreditorlik qarzlari bilan bog'liq bo'lgan barcha ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: umumiy qarzarlar, umumiy qarzlardan muddati o'tgani, korxonaga tegishli bo'lmagan sabablar bo'yicha vujudga kelgan qarzarlar.

Ushbu ma'lumotnoma ko'rsatkichlari debitor va kreditor qarzarlarini o'rganish va xulosalar chiqarish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Maxsus hisobotlar ham korxonaning boshqaruv va moliyaviy faoliyatlarini o'rganishda asosiy axborot manbayi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, qishloq xo'jaligi korxonalarida yuqorida qayd qilingan moliyaviy hisobotlar bilan bir qatorda quyidagi maxsus hisobotlar tuziladi va ular dehqon-fermer xo'jaliklari faoliyatining natijalarini o'rganishda hamda ularga baho berishda manba bo'lib xizmat qiladi. Ular jumlasiga quyidagi hisobotlarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

- Xodimlarning soni va iste'molga yo'naltirilgan mehnat haqi fondi (5-ASK shakli).
- Tashkilot, korxonalarining asosiy faoliyati ko'rsatkichlari (6-ASK shakli).
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish (7-ASK shakli).
- O'simlik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning tannarxi (9-ASK shakli).
- Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning tannarxi (13-ASK shakli).

2.2. Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlarining o'zaro mosligi va to'g'ri tuzilganligini tekshirish

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ma'lum sanaga mavjud bo'lgan mol-mulki va ularning tashkil bo'lish manbalarini pul shaklida aks ettiruvchi maxsus jadval *buxgalteriya balansi*, deb ataladi.

Hisobotlar va shu jumladan, buxgalteriya balansi amaldagi tartib-qoidalar va me'yoriy hujjatlarga muvofiq bosh daftar, tegishli hisob-kitob registrlari hamda yillik inventarizatsiya ma'lumotlari asosida tuziladi. Balans tuzishga qadar, yil oxirida tahliliy schotlarning aylanmalari va qoldiqlari bosh daftar schotlarining aylanmalari va qoldiqlari bilan solishtirilib, o'zaro mos kelishligi aniqlanadi.

Tahliliy schotlar bilan bosh daftar schotlari ko'rsatkichlari o'zaro mos kelgandan keyin, buxgalteriya balansini tuzishga kirishiladi. Buxgalteriya balansi ikki qismdan iborat bo'lib, uning aktiv

tomonida xo'jalik mol-mulkinging joylashishi, passiv tomonida mol-mulkning tashkil bo'lish manbalari ko'rsatiladi.

Balansning aktivi va passivida barcha balans moddalari ikki bo'limda guruhlariga bo'lingan holda o'z ifodasini topadi. Balansning aktivida xo'jalikning mablag'lari (mulki) quyidagi ikki bo'limda aks ettirilgan:

1. Uzoq muddatli aktivlar.
2. Joriy (aylanma) aktivlar.

Xo'jalik mablag'larining manbayi ham balans passivida quyidagi ikki bo'limda aks ettirilgan:

1. O'z mablag'larining manbalari.
2. Majburiyatlar.

Uzoq muddatli aktivlar quyidagi guruhlarini o'z ichiga oladi:

1. Asosiy vositalar.
2. Nomoddiy aktivlar.
3. Kapital qo'yilmalar.
4. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar.

Joriy (aylanma) aktivlar quyidagi uch guruhni o'z ichiga oladi:

1. Zaxira va sarflar.
2. Pul mablag'lari.
3. Debitorlik qarzlari.

O'z mablag'larining manbalari quyidagi moddalarni o'z ichiga oladi:

1. Ustav kapitali.
2. Qo'shilgan kapital.
3. Zaxira kapitali.
4. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar).
5. Maqsadli tushumlar va jamg'armalar.
6. Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar.
7. Kelgusi davr daromadlari.

Majburiyatlar o'z navbatida uch guruhga bo'linadi:

1. Uzoq muddatli qarzlilar va kreditlar.
2. Qisqa muddatli qarzlilar va kreditlar.
3. Kreditorlik qarzlari.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-fevraldagi 40-buyrug'i bilan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish qoida»lari tasdiqlangan. Ushbu hujjatga ko'ra, buxgalteriya balansini tuzish va uning to'g'ri tuzilganligini tekshirishda quyidagi bog'lanish qoidalariga amal qilinadi: balans aktiv qismi I bo'limi (110-satr)ning summasi 012, 022, 030, 040, 050, 060, 070, 080,

090, 100-satrlardagi summalar yig'indisiga teng bo'lishi kerak; balans aktivi II bo'limi (310-satr)ning summasi 120, 130, 140, 150, 160, 170, 180, 190, 200, 210, 220, 230, 240, 250, 260, 270, 280, 290-satrlardagi summalar yig'indisiga teng bo'lishi kerak.

Balans aktiv qismining jami I va II bo'limlari yig'indisiga, ya'ni 110 va 310-satrlardagi summalar yig'indisiga teng bo'lishi lozim. Balans passivi I bo'limi (400-satr)ning summasi 320, 330, 340, 350, 360, 370, 380-satrlardagi summalar yig'indisiga teng bo'lishi kerak. Balans passivi II bo'limi (550-satr)ning summasi 410, 420, 430, 440, 450, 460 satrlardagi summalar yig'indisiga teng bo'lishi zarur.

Balans passivining jami (560-satr) I va II bo'limlardagi summalar yig'indisiga (400 va 550-satrlar yig'indisi) teng bo'lishi darkor.

Balans aktivi (320-satr) va passivi (560-satr) summolari yil boshi va yil oxirida teng bo'lishi lozim. Balans moddalari orasidagi ichki bog'liqlikdan tashqari tashqi bog'liqlik ham mavjud. Bu bog'liqlik balansning ayrim ko'rsatkichlari boshqa moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga mos kelishligida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, balansning ayrim satrlaridagi aks ettirilgan ko'rsatkichlar moliyaviy hisobotning boshqa shakllarida qayd qilingan ma'lumotlarga teng kelishi kerak. Balans ko'rsatkichlari 2, 3, 4, 5-shakldagi hisobotlarning ma'lumotlari bilan uzviy bog'langan. Masalan, balans (1-shakl)ning 170-satri 3-ustunida «Yil boshiga» ko'rsatilgan pul mablag'lari summasi «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» (4-shakl)ning 070-satrlarini 3-ustunida «Yil boshiga» ko'rsatilgan summasiga teng bo'lishi kerak. Balansning 170-satri 4-ustunida «Yil oxirida» ko'rsatilgan pul mablag'lari summasi 4-shaklning 080-satri 3-ustunida «Yil oxirida» ko'rsatilgan summasiga teng bo'lishi kerak. Agar shu ko'rsatkichlar o'zaro teng bo'lmasa, hisobotlardagi ma'lumotlarni noto'g'ri, deb hisoblash mumkin.

Balans (1-shakl) bilan «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» (3-shakl) o'rtasida ham o'zaro bog'liq mavjud, ya'ni ularning umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari o'zaro teng bo'lishi kerak. Bu tenglik (bog'liqlik)ni quyidagicha ifodalash mumkin:

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati bo'yicha

1-shakl 010-satr 3-ustun = 3-shakl 130-satr 3-ustun;

1-shakl 010-satr 4-ustun = 3-shakl 130-satr 6-ustun.

Asosiy vositalarning eskirish summasi bo'yicha

1-shakl 011-satr 3-ustun = 3-shakl 130-satr 7-ustun;

1-shakl 011-satr 4-ustun = 3-shakl 130-satr 10-ustun.

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati bo'yicha

1-shakl 012-satr 3-ustun = 3-shakl 130-satr 11-ustun;

1-shakl 012-satr 4-ustun = 3-shakl 130-satr 12-ustun.

Buxgalteriya balansi (1-shakl) va «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot» (5-shakl) ko'rsatkichlari orasida ham uzviy bog'liqlik mavjud. Buxgalteriya balansining passiv qismida joylashgan «Xo'jalik mablag'larining manbalari» deb nomlangan 1-bo'limda aks ettirilgan ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda summalari 5-shakldagi hisobot ma'lumotlariga to'liq mos kelishi kerak. Ushbu ikki hisobotda aks ettirilgan xususiy kapital turlari bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarning o'zaro teng kelishligi haqidagi fikrlar «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning to'g'riligini tekshirish» bo'limida bayon qilingan. Shuning uchun ularga bu yerda to'xtalmadik.

Buxgalteriya balansi bilan «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» orasida ham uzviy bog'liqlik bor. Ushbu bog'liqlik «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning to'g'riligini tekshirish» bo'limida keltirilgan, shuning uchun ular ham bu yerda yoritilmadi.

Buxgalteriya balansi bilan «Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnoma» (2a-shakli)ning umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari orasida ham bog'liqlik mavjud, ya'ni ularning ko'rsatkichlari ham o'zaro teng bo'lishi kerak. 1-shakl ma'lumotlari bilan 2a-shakli ma'lumotlarining o'zaro tengligini quyidagi bog'lanishdan ko'rish mumkin:

Debitorlik qarzlari bo'yicha

1-shakl 220-satr 4-ustun=2a-shakli 1-satr 3-ustun;

1-shakl 220-satr 4-ustun=2a-shakli balansga ilova jami 3-ustun.

Kreditorlik qarzlari bo'yicha

1-shakl 460-satr 4-ustun=2a-shakli 4-satr 3-ustun;

1-shakl 460-satr 4-ustun=2a-shakli balansga ilova jami 4-ustun.

Yuqorida bayon qilingan tartibda hisobotlardagi ma'lumotlar to'g'riligi tekshiriladi. To'g'riligi aniqlangandan keyin, xo'jalikning moliyaviy holatini tahlil qilishga kirishiladi.

2.3. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro mosligi va to'g'riligini tekshirish

Moliyaviy natijalar deganda, xo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki ko'rilgan zararni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tushunmoq kerak.

«Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi

to'g'risidagi nizom»ga muvofiq moliyaviy natijalar besh turga bo'linib hisoblanadi va tahlil qilinadi. Biz ushbu bo'limda «foyda» ko'rsatkichini bayon qilishga harakat qildik.

1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda:

$$YaF = SST - IT,$$

bu yerda, YaF — mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda; SST — sotishdan olingan sof tushum; IT — sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (AFF):

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ,$$

bu yerda, DX — davr xarajatlari; BD — asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan boshqa daromadlar; BZ — asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan ko'rilgan zararlar.

3. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (UFF):

$$UFF = AFF + MD - MX,$$

bu yerda, MD — moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar; MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari.

4. Foyda solig'i to'langungacha bo'lgan foyda (STF):

$$STF = UFF + FP - FZ,$$

bu yerda, FP — favqulotdagi foyda; FZ — favqulotda ko'rilgan zarar.

5. Sof foyda (SF):

$$SF = STF - DS - BS,$$

bu yerda, DS — daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq; BS — boshqa soliq va to'lovlar.

Xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan foyda (zarar) moliyaviy natijalar tariqasida «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»da aks ettiriladi. Ushbu hisobot (2-shakl) mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladi. Ushbu hisobot (2-shakl) 9000, 9100, 9300, 9410, 9420, 9430, 9440, 9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560, 9591, 9610, 9620, 9630, 9710, 9720, 9810, 9910-schotlar (hisobvaraqlar) ma'lumotlari asosida tuziladi.

Moliyaviy natijalar rejasining bajarilishi yoki dinamikasini tahlil etishning asosiy axborot manbayi bo'lib, ushbu hisobot (2-shakl)

ning ma'lumotlari hisoblanadi. Tahlil qilishdan oldin, ushbu hisobot ko'rsatkichlarining to'g'ri tuzilganligi qayta tekshirish orqali nazoratdan o'tkaziladi. Shuning uchun ham ushbu hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi hamda undagi ma'lumotlar moliyaviy hisobotning boshqa turdagi hisobot ma'lumotlariga mos kelishligini tekshirib ko'rish zarur. Buni quyidagi tartibda amalga oshirish kerak.

Birinchi navbatda ushbu hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi tekshiriladi. Hisobotning 050-satrida aks ettirilgan «Sotishdan olingan sof tushum» summasi to'g'riligini tekshirish lozim. Buning uchun 010-satr summasidan 020, 030, 040-satrlar summalarini ayirib tashlash kerak. Bu bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$050\text{-satr } 3\text{-ustun } 010\text{-satr } 3\text{-ustun} = 020, 030, 040\text{-satr } 4\text{-ustun};$$

$$050\text{-satr } 5\text{-ustun } 010\text{-satr } 5\text{-ustun} = 020, 030, 040\text{-satr } 6\text{-ustun}.$$

Hisobotning 070-satridagi «Sotishdan olingan foyda (zarar)» summasi 050-satr summasidan 060-satr summasini ayirish orqali mos kelishligi tekshiriladi, ya'ni 050-satrdagi summa bilan 060-summa orasidagi farqqa teng bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi orasidagi farqqa yalpi foyda summasi teng bo'lishligi tekshiriladi.

Hisobotning 110-satridagi «Asosiy ishlab chiqarish faoliyati foydasi (zarari)» 070-satr summasi bilan 080, 090, 100-satrlar summalari orasidagi farqqa teng bo'ladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$110\text{-satr } 3\text{-ustun} = 070\text{-satr } 3\text{-ustun} - 080, 090, 100, 105\text{-satr } 4\text{-ustun} + 100\text{-satr } 3\text{-ustun}.$$

$$110\text{-satr } 5\text{-ustun} = 070\text{-satr } 5\text{-ustun} - 080, 090, 100, 105\text{-satr } 6\text{-ustun} + 100\text{-satr } 5\text{-ustun}.$$

Hisobotning 150-satridagi «Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)» asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasiga moliyaviy faoliyat foydasini qo'shib va moliyaviy faoliyat xarajatini ayirib tashlagandan keyin qolgan farqiga teng bo'ladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$150\text{-satr } 3\text{-ustun} = 110\text{-satr } 3\text{-ustun} + 120, 125, 130, 135, 140, 145\text{-satr } 3\text{-ustun} - 130, 135, 140, 145\text{-satr } 4\text{-ustun};$$

$$150\text{-satr } 5\text{-ustun} = 110\text{-satr } 5\text{-ustun} + 120, 125, 130, 135, 140, 145\text{-satr } 5\text{-ustun} - 130, 135, 140, 145\text{-satr } 6\text{-ustun}.$$

$$\text{Foyda solig'i to'langunga qadar bo'lgan foyda teng bo'lishi kerak: } 170\text{-satr } 3\text{-ustun} = 150\text{-satr } 3\text{-ustun} \pm 160\text{-satr } 3, 4\text{-ustun};$$

170-satr 5-ustun = 150-satr 5-ustun ± 160-satr 5, 6-ustun.
Sof foyda teng bo'ladi:

200-satr 3-ustun = 170-satr 3-ustun - 180, 190, 195-satr 4-ustun;

200-satr 5-ustun = 170-satr 5-ustun - 180, 190, 195-satr 6-ustun.

Hisobot ichidagi o'zaro bog'lanish bilan bir qatorda ushbu hisobotning ayrim ma'lumotlari boshqa moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan bog'liqlikka ega. Masalan, ushbu hisobotda ko'rsatilgan sof foyda (taqsimlanmagan tariqasida) buxgalteriya balansi (1-shakl) va «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot» (5-shakl)da aks ettirilgan foyda summolari bilan bog'liqlikda bo'lishi kerak. Hisobot (2-shakl)ning 200-satri 5-ustunida ko'rsatilgan sof foyda summasi 5-shakldagi hisobotning 080-satri 6-ustundagi «Joriy yilning taqsimlanmagan foyda summasi»ga teng kelishligi, 1-shakldagi hisobotning 360-satridagi 4-ustun summasi bilan 3-ustun summasi orasidagi farqqa teng kelishi kerak. Bundan tashqari, «Mahsulotlarni sotish» hisobotida aks ettirilgan jami pul tushumi, jami ishlab chiqarish tannarxi, jami foydasi 2-shakldagi hisobotning tegishli ko'rsatkichlariga teng kelishi darkor.

Masalan, «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish» hisoboti (7-ASK shakli) 400-satr 3, 4, 5, 6-ustunlarining summolari 2-shakldagi hisobotning 010-satri 5-ustuni, 060-satri 6-ustuni, 070-satri 5-ustuni summalariga teng kelishi lozim. Aniqroq qilib aytganda, ikki hisobot ko'rsatkichlari orasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

2-shakl 010-satr 5-ustun = 7-ASK shakli 400-satr 3-ustun;

2-shakl 060-satr 6-ustun = 7-ASK shakli 400-satr 2-ustun;

2-shakl 070-satr 5-ustun = 7-ASK shakli 400-satr 4-ustun — 5-ustun.

«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl) ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi (tengligi) va boshqa moliyaviy hisobotlarning tegishli ko'rsatkichlari bilan mosligi, tengligi tekshirilib, to'g'riligi aniqlangandan keyin, moliyaviy natijalarni tahlil qilishga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2.4. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro mosligi va to'g'riligini tekshirish

Xususiy kapital, bu — korxonaga egalari tegishli bo'lgan aktivlarning bir qismini tashkil qiluvchi manba.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan «Buxgalteriya hisoboti to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, xususiy kapital quyidagi kapitallarni o'z ichiga oladi:

1. Ustav kapitali.
2. Qo'shilgan kapital.
3. Zaxira kapitali.
4. Taqsimlanmagan foyda.

Ustav kapitali bo'lib, ta'xis hujjatlarida belgilangan hissalar-ning pul ifodasidagi umumiy yig'indisi hisoblanadi.

Qo'shilgan kapital bo'lib, aksiyalarni nominal qiymatidan yuqori narxlarda sotishdan olinadigan emissiya daromadlari hisoblanadi. Ushbu kapitalni tarkibiy qismlari bo'lib, ustav kapital hisobiga hissalarini to'lashda sodir bo'ladigan valuta kursidagi farqlari hamda qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mulki hisoblanadi.

Zaxira kapitali asosiy vositalar, aylanma mablag'larni (pul mablag'laridan tashqari) o'tgan yillardagi qayta baholash, taqsimlanmagan foyda, ishlatilmay qolgan jamg'armalar hisobotidan tashkil qilinadi.

Zaxira kapitali zararlarni, ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash, boshqa qoplash manbalari bo'lmaganda ayrim qarzlarga hamda boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Taqsimlanmagan foyda xususiy kapitalning tarkibiy qismidir. U o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

1. Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi.
2. Jamg'arilgan foyda.

Jamg'arilgan foyda bo'lib, subyekt tashkil topgandan buyon olgan sof foydasi hisoblanadi. Undan mulk egasining qaroriga ko'ra zararlar, dividendlar va xususiy kapitalga investitsiyalangan foyda chiqariladi. Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi korxonaning hisobot yilidagi natijasi hisoblanadi. Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasidan dividendlar chiqarilgach, uning qolgan jamg'arilgan foydaga qo'shiladi.

Xususiy kapital tahliliga o'tishdan oldin, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro mosligini va boshqa hisobotlardagi ma'lumotlar bilan uzviy bog'langan holda tuzilganligini tekshirib ko'rish zarur.

«Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish qoidalari to'g'risidagi nizom»ga binoan, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarining o'zaro bog'liqligini ustav kapitali misolida tekshirish tartibiga to'xtaldik. Hisobot (5-shakl)ning yil boshi (010-satr 3-ustun)dagi qoldig'iga xususiy kapitalning o'sishi (ko'payishi)ni qo'shib, xususiy kapitalning kamayishini chegirib tashlab, xususiy kapitalning yil oxiridagi qoldig'i (100-satr 3-ustun)ni aniqlash kerak. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

010-satr 3-ustun ± 020, 030, 040, 050, 051, 052-satrlar
3-ustun = 100-satr 3-ustun.

Ustav kapitali mablag'larining o'zaro mosligini tekshirish tartibi kabi qo'shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda ham tekshirib chiqiladi. Shundan keyin ushbu hisobot ma'lumotlarini buxgalteriya balansining ma'lumotlariga mos kelishligi, ya'ni teng kelishi tekshiriladi. Masalan, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot tarkibidagi ustav kapitalining yil boshidagi qoldig'i (010-satr 3-ustun summasi). Buxgalteriya balansi (1-shakl)ning passiv qismidagi 1-bo'limda aks ettirilgan «Ustav kapitali»ning yil boshidagi qoldig'i (330-satr 3-ustun)ga teng kelishligi, uning yil oxiridagi qoldig'i (100-satr 3-ustun summasi) balansda ko'rsatilgan yil oxiridagi qoldig'i (330-satr 4-ustun summasi) nizomga ko'ra, teng kelishi kerak. Bu bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

5-shakl 010-satr 3-ustun = 1-shakl 330-satr 3-ustun;

5-shakl 100-satr 3-ustun = 1-shakl 330-satr 4-ustun.

5-shaklda aks ettirilgan qo'shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi ma'lumotlar ham buxgalteriya balansida aks ettirilgan ma'lumotlarga mos kelmog'i kerak. Bular orasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalasa bo'ladi.

Qo'shilgan kapital bo'yicha

5-shakl 010-satr 4-ustun = 1-shakl 340-satr 3-ustun;

5-shakl 100-satr 4-ustun = 1-shakl 340-satr 4-ustun.

Zaxira kapitali bo'yicha

5-shakl 010-satr 5-ustun = 1-shakl 350-satr 3-ustun;

5-shakl 100-satr 5-ustun = 1-shakl 350-satr 4-ustun.

Taqsimlanmagan foyda bo'yicha

5-shakl 010-satr 6-ustun = 1-shakl 360-satr 3-ustun;

5-shakl 100-satr 6-ustun = 1-shakl 360-satr 4-ustun.

«Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot»ning ma'lumotlarini qayta tekshirish natijasida ularning to'g'riligi aniqlangandan keyin, xususiy kapital holatini tahlil qilish mumkin.

2.5. Mahsulotlarni sotish to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro mosligi va to'g'riligini tekshirish

Moliyaviy hisobotlar bilan bir qatorda, maxsus hisobotlar ham korxonaning xo'jalik faoliyatini o'rganishda, asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Maxsus hisobotlar har xil tarmoqlar faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi,

shuning uchun ham ular bir-biridan farq qiladi. Masalan, sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqa tarmoqlarning korxonalari moliyaviy hisobotlarni bir xil shaklda tuzishadi va tegishli organlarga topshirishadi, ammo ularning maxsus hisobotlari esa bir-biridan farq qiladi.

Masalan, qishloq xo'jaligi korxonalari quyidagi maxsus hisobotlarni tuzishadi:

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish to'g'risidagi hisobot (7-ASK shakli);
- O'simlik mahsulotlari ishlab chiqarish va uning tannarxi (9-ASK shakli) to'g'risidagi hisobot;
- Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va uning tannarxi (13-ASK shakli) to'g'risidagi hisobot va boshqalar.

Ushbu hisobotlarni sanoat, savdo va boshqa tarmoq korxonalari tuzishmaydi, ular faqat qishloq xo'jaligi korxonalariga tegishli hisobotlardir, ammo ularda ham shularga o'xshash maxsus hisobotlar mavjud.

Maxsus hisobotlar ko'rsatkichlari o'zaro bir-biri bilan hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan bog'langan bo'ladi. Maxsus hisobot ko'rsatkichlari birinchi navbatda moliyaviy hisobotlar tarkibiga kiruvchi «Buxgalteriya balansi» va «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. Bu bo'limda qishloq xo'jaligi korxonalarining maxsus hisobotlaridan biri bo'lgan «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish» to'g'risidagi hisobot (7-ASK shakli) ma'lumotlarining to'g'riligini tekshirish usullari bayon qilindi.

Hisobot (7-ASK shakli)ning 010-satri 1—9-ustunlari summasi mos holda uning 011, 012, 013, 014, 015, 016, 017, 018, 019, 020-satrlar 1—9-ustunlari summasiga teng bo'lishi kerak. Masalan, sotilgan boshqali va dukkakli donning jami miqdori (010-satr 1-ustun summasi)ning 011—020-satrlar birinchi ustunda aks ettirilgan miqdorlar summasiga teng bo'lishi kerak, xuddi shunga o'xshash «Tannarx», «Pul daromadi», «Foyda», «Zarar» summalarining jami (010-satr 2—9-ustunlar jami summalari) mos holda 011—020-satrlar bo'yicha 2—9-ustunlar summalari yig'indisiga teng bo'lishi lozim.

Hisobotning 210-satri 2, 3, 4, 5, 8, 9-ustunlari jami summalari mos holda 010, 030—160, 161, 170, 180, 200-satrlarning 2, 3, 4, 5, 8, 9-ustunlaridagi summalari yig'indisiga teng bo'ladi.

Sotilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari summasini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar (490-satrdan qayd qilingan) hajmi 210, 460, 480-satrlar summalari yig'indisiga teng bo'lishi lozim. Masalan, 490-satr 3-ustunda aks ettirilgan «Mahsulotlarni sotishdan olingan pul daromadi (pul tushumi)» summasi 210-satr 3-ustun «O'simlik mahsulotlari sotishdan olingan pul daromadi», 460-satr 3-ustun «Chorvachilik mahsulotlari sotishdan olingan pul daromadi», 470-satr 3-ustun «Sanoat mahsulotlari sotishdan olingan pul daromadi», 480-satr 3-ustun «Boshqa mahsulotlarni sotishdan olingan pul daromadi» summalarining yig'indisiga teng bo'lishi kerak. Bu bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$490\text{-satr } 3\text{-ustun} = 210\text{-satr } 3\text{-ustun} + 460\text{-satr } 3\text{-ustun} + \\ 470\text{-satr } 3\text{-ustun} + 480\text{-satr } 3\text{-ustun}.$$

Jami sotilgan mahsulot tannarxi bilan o'simlik, chorvachilik va boshqa mahsulotlar tannarxi orasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$490\text{-satr } 2\text{-ustun} = 210\text{-satr } 2\text{-ustun} + 460\text{-satr } 2\text{-ustun} + \\ 470\text{-satr } 2\text{-ustun} + 480\text{-satr } 2\text{-ustun}.$$

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan jami foyda hajmi uning tarkibiy qismlaridan olingan foyda yig'indisiga teng bo'ladi. Ushbu tenglikni quyidagi bog'liqlik bo'yicha tekshirish kerak. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$490\text{-satr } 4\text{-ustun} = 210\text{-satr } 4\text{-ustun} + 460\text{-satr } 4\text{-ustun} + \\ 470\text{-satr } 4\text{-ustun} + 480\text{-satr } 4\text{-ustun}.$$

Ushbu hisobot (7-ASK shakli) ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi, umumiy ko'rsatkichlarga xususiy ko'rsatkichlarning mosligini ichki tekshiruvdan o'tkazib, to'g'riligi aniqlangandan keyin, ushbu shakl ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotning boshqa shakllari ko'rsatkichlariga solishtirilib, mos kelishi tekshirilishi kerak. Bu hisobot (7-ASK shakli) ko'rsatkichlari moliyaviy hisobotning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl) ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'langan. Ushbu hisobotlardagi mahsulotlarni sotishdan olingan jami pul daromadi (pul tushumi hajmi), sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxining jami summasi, sotishdan olingan yalpi foyda (zarar) summasi ko'rsatkichlari bir-biriga o'zaro mos kelishi kerak, agar mos kelmasa, ko'rsatkichlar noto'g'ri hisoblangan, deb xulosa chiqarish mumkin. Ushbu ikki hisobotda aks ettirilgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan umumlashgan ko'rsatkichlar bog'liqligining bir-biriga mos kelishini quyidagicha ifodalash mumkin:

7-ASK shakli 490-satr 2-ustun = 2-shakl 060-satr 6-ustun;

7-ASK shakli 490-satr 3-ustun = 2-shakl 050-satr 5-ustun;

7-ASK shakli 490-satr 3–4 ustun = 2-shakl 070-satr 5-ustun.

Ushbu tengliklar mavjud bo'lsa, 7-ASK shaklidagi hisobot to'g'ri tuzilgan hisoblab, mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda va sotilgan mahsulotlar rentabelligining tahlilini amalga oshirish mumkin.

Tayanch iboralar

✓ axborot manbalari	✓ debitorlik qarzi
✓ moliyaviy hisobot	✓ kreditorlik qarzi
✓ maxsus hisobot	✓ balans aktivi
✓ buxgalteriya balansi	✓ balans passivi
✓ moliyaviy natija	✓ foyda
✓ xususiy kapital	✓ zarar
✓ pul oqimi	✓ sof pul tushumi

?

NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya balansi deganda nimani tushunasiz?
2. Buxgalteriya balansining aktiv qismida nima aks ettiriladi?
3. Balansning passiv qismida nima aks ettiriladi?
4. Buxgalteriya balansi ma'lumotlarining to'g'riligini qanday tekshirish mumkin?
5. Moliyaviy natijalar deganda qanday ko'rsatkichlarni tushunasiz?
6. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda nechta moliyaviy natija turlari aks ettirilgan?
7. Moliyaviy natija to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining to'g'riligini qaysi hisobot ko'rsatkichlari bilan solishtirib, aniqlash mumkin?
8. Xususiy kapital tarkibiga qaysi kapitallar kiritiladi va ular moliyaviy hisobot tarkibidagi nechanchi shaklda aks ettirilgan?
9. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini qaysi hisobot ko'rsatkichlari bilan solishtirilib, tuzilganligini tekshirish mumkin?
10. Mahsulotlarni sotish to'g'risidagi hisobotda qaysi moliyaviy ko'rsatkichlar aks ettirilgan?
11. Mahsulotlarni sotish to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan moliyaviy natijalar summasi qaysi hisobot ko'rsatkichlariga mos kelishi kerak?
12. 7-ASK shakli asosida tuzilgan hisobot bo'yicha moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar) qanday aniqlanadi?

3-bob. SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH VA SOTISH HAJMINING TAHLILI

3.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari

Jamiyat ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonida mehnat, moddiy va tabiiy resurslar ishtirokida yaratiladi. Ushbu moddiy ne'matlar sanoat korxonalarida mahsulotlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish jarayonini bozor iqtisodiyoti sharoitida talab-taklif qonuni tamoyillariga amal qilgan holda tashkil qilish hamda ushbu jarayonning natijalarini uzluksiz ravishda tahlil etish iqtisodiyotni yanada mustahkamlash uchun asos bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining natijalarini uzluksiz o'rganish, ularni ko'paytirish va sifatini yaxshilash, tan-narxini pasaytirish hamda foydani oshirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash va ularni xo'jalik faoliyatiga jalb qilish bo'yicha shart-sharoitlar yaratadi.

Tahlilning maqsadi bo'lib nima hisoblanadi?

Tahlilning maqsadi bo'lib, bozor iqtisodiyoti talablari asosida mahsulot yetishtirish, sotish jarayoni ko'lamini kengaytirish va hajmini ko'paytirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda samaradorligini oshirish uchun mavjud bo'lgan, ammo foydalanilmay yotgan imkoniyatlarni aniqlash hisoblanadi. Tahlilning maqsadini ro'yobga chiqarish uchun mahsulot yetishtirish va sotish jarayonini uzviy bog'langan ketma-ketlikda o'rganish zarur. Demak, tahlilning asosiy vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasi hamda rejasi-ning bajarilishini baholash.

2. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar sifatini o'rganish.

3. Ishlab chiqarish va sotish hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini o'rganish.

4. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishni kengaytirish hamda ko'paytirish uchun xo'jalikda mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni aniqlash.

5. Mahsulot yetishtirish va sotishni ko'paytirish, mahsulot turlari hamda sifatini yaxshilash uchun aniqlangan ichki imkoniyatlarni xo'jalik faoliyatiga jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni tahlil qilishda, ularning o'sishiga xalaqit berayotgan sabablarni aniqlab, ularni tugatish yo'llarini ko'rsatish zarur. Bu esa tahlilning asosiy vazifasidir.

Ishlab chiqarishning o'sishiga to'sqinlik qiluvchi sabablarga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

1. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilish davrida yo'l qo'yilgan kamchiliklar.

2. Moddiy va mehnat resurslaridan hamda pul mablag'laridan samarasiz foydalanish.

3. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yaroqsizligi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat natijalarini tahlil qilish uchun axborot manbalari bo'lib, asosan, quyidagi hisobot va reja ma'lumotlari hisoblanadi:

1. Ixtisoslangan statistik hisobot — «Yetishtirilgan mahsulot turlari bo'yicha sanoat korxonasi hisoboti».

2. Sanoat mahsulotlarini sotish to'g'risidagi statistik hisobot (25-shakl).

3. Korxonada moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi statistik hisobot (1f-shakli).

4. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl).

5. Tovar mahsulotlari balansi.

6. Biznes-reja.

Sanoat korxonasi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar tahlili Samarqand viloyatidagi «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi ma'lumotlari asosida amalga oshirildi.

3.2. Mahsulotlar turi va assortimenti bo'yicha ishlab chiqarishning taqqoslama tahlili

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turlari bo'yicha reja bajarilishini tahlil qilish uchun hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning har bir turi bo'yicha haqiqiy miqdorini reja bo'yicha ko'zda tutilgan miqdoriga solishtiriladi hamda o'zgarishi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda aniqlanib, baho beriladi. Mahsulotlarning turlari bo'yicha dinamikasini tahlil qilish uchun hisobot yilida yetishtirilgan mahsulotning haqiqiy miqdorini bazis yilida yetishtirilgan mahsulotning haqiqiy miqdoriga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi va baho beriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha hisobot yilgi reja bajarilishi tahlilini «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi misolida ko'rib chiqamiz. Paxta xomashyosini qayta ishlash natijasida korxonada 6 xil mahsulot ishlab chiqargan. Ushbu mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish rejasi bajarilishi va dinamikasining qiyoslama tahlilini 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

1-jadval

Mahsulotlar turlari bo'yicha ishlab chiqarish rejasi bajarilishi va dinamikasining tahlili

T/r	Mahsulot turlari	Bazis yili	Hisobot yili		Rejaga nisbatan		Bazis yiliga nisbatan	
			Reja bo'yicha	Amalda bajarilishi	Farqi (+, -)	Bajarilishi, %	Farqi (+, -)	Dinamikasi, %
1.	Tola	5403	8362	8775	+ 413	104,9	+ 3372	162,4
2.	Chigit	8510	14618	15038	+ 420	102,9	+ 6528	176,7
3.	Momiq	412	935	344	- 591	36,8	- 68	83,5
4.	Katta momiq	286	761	1175	+ 414	154,4	+ 889	410,8
5.	Uluk	48	450	64	- 386	14,2	+ 16	133,3
6.	Kuyindi	-	2039	2027	- 12	99,4	-	-

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida sanoat mahsulotining asosiy turlari — tola va chigit bo'yicha ishlab chiqarish rejasi ortig'i bilan bajarilgan. Masalan, paxta tolasi bo'yicha haqiqiy ishlab chiqarilgan miqdori rejaga nisbatan 413 tonnaga yoki 4,9 % ga, chigit bo'yicha esa 420 tonnaga yoki 2,9 % ga ko'p ishlab chiqarilgan. Ushbu mahsulotlarning miqdori bazis yiliga nisbatan keskin oshgan. Paxta tolasi bo'yicha 3372 tonna yoki 62,4 %, chigit bo'yicha 6528 tonnaga yoki 76,7 % mahsulot ko'p ishlab chiqarilgan.

Paxta tolasi chiqimining tahlili shuni ko'rsatadiki, hisobot yili reja oshig'i bilan bajarilgan, ammo bazis yiliga nisbatan u keskin kamaygan. Korxonada paxtani qayta ishlashga bazis yilida 14659 tonna, hisobot yilida 27423 tonna xomashyo sarf bo'lgan.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, qayta ishlangan paxta xomashyosidan olingan tola bazis yilida 36,9 % ni ($5403 \cdot 100/14659$), hisobot yilida reja bo'yicha 30,5 % ni ($8362 \cdot 100/27423$), haqiqatda esa u 32 % ni ($8775 \cdot 100/27423$) tashkil qildi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, paxta tolasi bo'yicha chiqim darajasi rejaga nisbatan 1,5 % ga oshgan, ammo bazis yiliga nisbatan 13,3 % ga kamaygan:

$$\left(100 - \frac{32,0 \cdot 100}{36,9}\right) = 100 - 86,7 = -13,3 \%$$

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonada paxta tolasi bo'yicha chiqimini oshirish imkoniyatini to'liq foydalanmagan. Mahsulotlarning turlari bo'yicha reja bajarilishining tahlili bilan bir qatorda assortimenti tahlilini ham amalga oshirish zarur. Mahsulot assortimenti deganda nima tushuniladi? Mahsulotning tarkibi bo'yicha turlanishi mahsulot assortimenti hisoblanadi. Masalan, paxta tolasining navlar bo'yicha turkumlanishi assortimentga misol bo'la oladi.

Mahsulotlar assortimentining tahlilida ishlab chiqarish uchun rejalashtirilgan mahsulotlarning miqdori va hajmi bo'yicha bo'ladigan o'zgarishlar aniqlanib, ularga baho beriladi. Assortiment bo'yicha rejaning bajarilish darajasiga baho berish uchun yakuniy ko'rsatkich aniqlab olinadi. Mahsulot assortimenti bo'yicha reja bajarilishini ifodalovchi yakuniy ko'rsatkichni aniqlash uchun ishlab chiqarilib, assortiment tarkibiga qabul qilingan mahsulot jami miqdori (hajmi)ni reja bo'yicha ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan jami mahsulot hajmiga bo'lish kerak:

$$Kar = \frac{\text{Assortimentga qabul qilingan mahsulot hajmi}}{\text{Rejalashtirilgan mahsulot hajmi}}$$

Ishlab chiqarilib, assortiment tarkibiga qabul qilingan jami mahsulot miqdori (hajmi) qanday aniqlanadi? Bu ko'rsatkichni aniqlashda, har bir mahsulot turi bo'yicha rejaga nisbatan sodir bo'lgan ikki holat ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Birinchidan, agar haqiqiy yetishtirilgan mahsulot hajmi rejaga nisbatan oshgan bo'lsa, assortimentga rejalashtirilgan mahsulot hajmi qabul qilinadi. Ikkinchidan, agar haqiqiy yetishtirilgan mahsulot rejaga nisbatan kam ishlab chiqarilgan bo'lsa, assortimentga faqat haqiqiy yetishtirilgan mahsulot hajmi qabul qilinadi. Shu ikki holat natijasida hisobga olingan mahsulotlar hajmining yig'indisi assortimentga qabul qilingan jami mahsulot hajmini tashkil qiladi. Mahsulotlar assortimenti bo'yicha reja bajarilishi tahlilini «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi ishlab chiqargan tola misolida ko'rib chiqamiz. Bu 2-jadval ma'lumotlarida aks ettirilgan.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxonada bo'yicha hisobot yilida paxta tolasini ishlab chiqarish rejasi 104,9 % ga bajarilgan. Boshqacha aytganda, rejalashtirilgan 8362 tonna o'rmiga amalda 8775 tonna tola ishlab chiqarilgan bo'lib, u 413 tonnaga (8775-8362=+413 tonna)

Paxta tolasi navlari bo'yicha assortiment rejasi bajarilishining tahlili (hisobot yili), tonna

Tola navlari	Reja bo'yicha	Amalda bajarilishi	Assortiment tarkibiga qabul qilingan mahsulot	Rejaning umumiy bajarilishi, %	Assortiment bo'yicha rejaning bajarilishi, %
1	5340	5610	5340	x	x
2	1160	1219	1160	x	x
3	480	501	480	x	x
4	480	441	441	x	x
5	902	1004	902	x	x
Jami	8362	8775	8323	104,9	99,5

yoki 4,9 % ga oshgan. Tola bo'yicha assortiment rejasi 99,5 % ga bajarilgan. Ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibi deyarli rejaga mos keladi.

3.3. Mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilishi va dinamikasining omilli tahlili

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori va hajmi bo'yicha dinamikasi yoki rejasi bajarilishining tahlili qiyoslashdan boshlanadi. Hisobot yilidagi mahsulot miqdorini rejadagi yoki o'tgan yildagi mahsulot miqdoriga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi. Ushbu o'zgarish ekstensiv va intensiv omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Ushbu omillarning mahsulot miqdori o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «zanjirli bog'lanish», «ko'rsatkichlar farqi», «indeks» usullaridan foydalanish mumkin. Biz ushbu bo'limda «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, natijaning o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqladik. Paxta tolasi misolida uning o'zgarishini taqqoslama tahlilini 3.2-bandda ko'rib chiqdik. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi bazis yiliga nisbatan 3372 tonnaga oshgan. Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil ta'siri ostida yuzaga kelgan:

1. Qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdorining o'zgarishi (ekstensiv omil).

2. Tola chiqimi koeffitsientining o'zgarishi (intensiv omil).

Ushbu omillarning ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlandi.

Omillarning ta'sirini aniqlagunga qadar, quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlarini aniqlab olish zarur:

I. $\Sigma Q_0 Ch_0$ — bazis yili (yoki reja)dagi tola miqdori.

II. $\Sigma Q_1 Ch_0$ — shartli tola miqdori.

III. $\Sigma Q_1 Ch_1$ — hisobot yilidagi tola miqdori.

Bu yerda, Q_0, Q_1 — mos holda bazis va hisobot yillarida qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori; Ch_0, Ch_1 — mos holda bazis va hisobot yillarida paxta tolasi chiqimi koeffitsienti.

Ushbu ko'rsatkichlar aniqlangandan keyin, ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdorining o'zgarishi aniqlanadi va ushbu o'zgarishga omillarning ta'siri aniqlanib, tahlil qilinadi. Paxta tolasi miqdorining o'zgarishi (ko'payishi yoki kamayishi)ni aniqlash uchun hisobot yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdori (III bog'lanish)dan bazis yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdori (I bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$\Sigma Q_1 Ch_1 - \Sigma Q_0 Ch_0 = \pm \Delta Q, Ch$ — bu o'zgarish ikki omil ta'siri ostida yuzaga kelgan.

Paxta tolasi miqdorining o'zgarishiga qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «shartli paxta tolasi miqdori» (II bog'lanish)dan bazis yilidagi paxta tolasi miqdori (I bog'lanish)ni ayirib tashlash kerak:

$$\Sigma Q Ch_0 - \Sigma Q_0 Ch_0 = \pm \Delta Q.$$

Paxta tolasi miqdorining o'zgarishiga paxta tolasi chiqimi koeffitsienti o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi paxta tolasi miqdori (III bog'lanish)dan shartli paxta tolasi miqdori (II bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$\Sigma Q_1 Ch_1 - \Sigma Q_1 Ch_0 = \pm \Delta Z.$$

Shu ikki omil ta'sirining yig'indisi paxta tolasi miqdorining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta Q \pm \Delta Ch = \Delta QCh.$$

Endi, yuqorida bayon qilingan «zanjirli bog'lanish» usuli qoidalari asosida paxta tolasi dinamikasining omilli tahlilini 3-jadvaldagi ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz.

3-jadval

Korxonada bo'yicha paxta tolasi dinamikasining omilli tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilida qayta ishlangan xomashyosi miqdori va bazis yilidagi tola chiqimi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)	Sh. j. jami o'zgarishi (+, -)	
						Paxta xomashyosi miqdoriga hisobiga	Tola koeffitsienti hisobiga
1.	Qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori, tonna	14659	27423	27423	+ 12764	x	x

2.	Paxta tolasi chiqimi koeffitsienti	0,369	0,369	0,320	- 0,049	x	x
3.	Paxta tolasi miqdori, tonna	5409	10119	8775	+ 3366	+ 4710	- 1344

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada bo'yicha ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdori hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 3372 tonna ko'paygan. Bu o'zgarish miqdoriy omilning ijobiy, sifatiiy omilning salbiy ta'siri ostida paydo bo'lgan. Miqdoriy omilning, ya'ni qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdorining ortishi ijobiy ta'sir qilib, paxta tolasi miqdorini 4716 tonna ortishiga olib kelgan:

$$\Sigma Q_1 Ch_0 - \Sigma Q_0 Ch_0 = (27423 \cdot 0,369) - (14659 \cdot 0,369) = 10119 - 5409 = + 4710 \text{ tonna.}$$

Demak, qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 12764 tonnaga oshgan, natija ushbu omil hisobiga paxta tolasi miqdori 4710 tonna ko'paygan.

Paxta tolasi miqdorining o'zgarishiga intensiv (sifatiiy) omilning o'zgarishi salbiy ta'sir qilgan. Paxta tolasi chiqimi koeffitsienti hisobot yilida bazis yiliga nisbatan nisbatan 0,049 miqdorga kamaygan (4,9 % ga pasaygan), natijada, shu omil hisobiga paxta tolasi miqdori 1344 tonnaga kamaygan:

$$\Sigma Q_1 Ch_1 - \Sigma Q_1 Ch_0 = (27423 \cdot 0,320) - (27423 \cdot 0,369) = 8775 - 10119 = - 1344 \text{ tonna.}$$

Agar hisobot yilida paxta tolasi chiqimi koeffitsienti kamaymasdan bazis yili darajasida saqlanib qolganda, hisobot yilida qayta ishlangan paxta xomashyosidan olingan paxta tolasi 8775 tonna o'rniga 10119 tonnani tashkil qilgan bo'lar edi. Demak, paxta tolasi miqdorini ko'paytirishning asosiy zaxirasi bo'lib, paxta chiqimi koeffitsientini oshirish hisoblanadi, ammo korxonada hisobot yilida ushbu imkoniyatdan foydalangan emas.

3.4. Sanoat yalpi mahsuloti hajmining omilli tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish o'zaro bog'langan iqtisodiy ko'rsatkichlardir. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining hajmi sanoat korxonasi faoliyatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Sanoat mahsuloti hajmining o'zgarishi qo'llagan iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga sababchi bo'ladi, jumladan, mahsulotni sotish hajmi, mahsulot tannarxi darajasi, foyda summasi, rentabellik

darajasi, korxonaning to'lov qobiliyati moliyaviy barqarorligi va boshqa sanoat mahsulotini ishlab chiqarish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ishlab chiqarish hajmi yalpi va sof mahsulotlar orqali ta'riflanadi, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi tovar hamda tayyor mahsulot bilan, sotilgan mahsulotlar hajmi esa jo'natilgan tovar mahsulotlari hajmi bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari natura, shartli natura va qiymat ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi.

Ishlab chiqarishning umumiy hajmi yalpi mahsulot orqali ifodalanadi. Yalpi mahsulot hajmi resurslar va ulardan foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ushbu bog'liqlikni omillarning ta'sirini tahlil qilgan paytda ko'rib chiqamiz.

Mahsulotning umumiy hajmi sof ulgurji narxlarda baholanadi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz va maxsus soliqlar chegirib tashlangandan keyingi ulgurji narxlar bo'yicha baholanib, maxsus hisobotda aks ettiriladi.

Yalpi mahsulotning tahlili ham taqqoslashdan boshlanadi. Hisobot yilidagi yalpi mahsulotning haqiqiy hajmi uning rejadagi hajmiga yoki bazis yilidagi hajmiga solishtirish orqali uning o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$YaM_1 - YaM_0 = \pm \Delta,$$

bu yerda, YaM_1 , YaM_0 — mos holda hisobot va bazis yillaridagi yalpi mahsulot hajmi.

Ushbu ifodadan omilli tahlilda foydalanish mumkin emas, chunki yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiluvchi birinchi tartibli omillar o'z aksini topgan emas (ular ko'rinmaydi). Shuning uchun yalpi mahsulot hajmini omillar ko'paytmalarining yig'indisi tariqasida aniqlab, ifodalash zarur. Ishlab chiqarilgan sanoat yalpi mahsuloti hajmi mehnat resurslari va ulardan foydalanish, asosiy vositalar hamda ulardan foydalanish, moddiy resurslar va ulardan foydalanish darajalariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu resurslar va ulardan foydalanish darajasi o'zgarishi yalpi mahsulot hajmi o'zgarishiga ta'sirining tahlilini navbati bilan ushbu bandeda ko'rib chiqamiz.

Mehnat resurslari va ulardan foydalanish ta'sirining tahlili

Mehnat resurslari xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'rsatkichi bilan ulardan foydalanish esa bir xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (ya'ni, mehnat unumdorligi) bilan ifodalanadi.

Bular yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi bevosita omillar hisoblanadi. Demak, yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga quyidagi ikki omil ta'sir qiladi:

1. Xodimlar o'rtacha yillik sonining o'zgarishi.
2. Mehnat unumdorligining o'zgarishi.

Ushbu omillar bilan yalpi mahsulot orasida bevosita funksional bog'liqlik mavjud. Shu ikki omil ko'paytmalarining yig'indisi yalpi mahsulot hajmiga, ularning yig'indisi yalpi mahsulot hajmi umumiy o'zgarishiga teng bo'ladi.

Ushbu omillarning yalpi mahsulot hajmi o'zgarishiga ta'sirini «zanjirli bog'lanish», «ko'rsatkichlar farqi», «indeks» usullari yordamida aniqlash mumkin. Biz bu yerda «ko'rsatkichlar farqi» usuli bo'yicha aniqlash tartibini keltirdik. Yalpi mahsulot hajmining tahlili uning umumiy o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Hisobot yilida yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmidan rejalashtirilgan (yoki bazis yilida yetishtirilgan) yalpi mahsulot hajmini chegirilib tashlash orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\Sigma T_1 V_1 - \Sigma T_0 V_0 = \pm \Delta T, V,$$

bu yerda, T_1, T_0 — mos holda hisobot va bazis yillaridagi xodimlarning o'rtacha soni, V_1, V_0 — mos holda hisobot va bazis yillaridagi mehnat unumdorligi darajasi (hajmi). Shundan keyin ushbu o'zgarishga yuqorida ko'rsatilgan omillar ta'siri aniqlanadi.

Yalpi mahsulot hajmi o'zgarishiga ishlovchi xodimlar o'rtacha yillik soni bo'yicha o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi xodimlar soni bilan bazis yilidagi (yoki rejalashtirilgan) xodimlar soni orasidagi farqi ($T_1 - T_0$) bazis yilidagi (yoki rejalashtirilgan) mehnat unumdorligi darajasiga (V_0) ko'paytiriladi:

$$\Sigma (T_1 - T_0) \cdot V_0 = \pm \Delta T.$$

Yalpi mahsulot hajmi o'zgarishiga mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi mehnat unumdorligi darajasi (V_1) bilan bazis yilidagi (yoki rejalashtirilgan) mehnat unumdorligi darajasi (V_0) orasidagi farqni ($V_1 - V_0$) hisobot yilidagi ishlovchilarning o'rtacha yillik soniga ko'paytiriladi:

$$\Sigma (V_1 - V_0) \cdot T_1 = \pm \Delta V.$$

Shu ikki omil ta'siri yig'indisi yalpi mahsulot hajmining umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi kerak:

$$\Delta T \pm \Delta V = \Delta T, V.$$

Shundan so'ng, har bir omilning ta'siriga baho berilib, xulosa chiqarilishi mumkin.

Endi, yuqorida keltirilgan usul qoidasi asosida «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi misolida paxta tolasi bo'yicha yalpi mahsulot dinamikasining omilli tahlilini ko'rib chiqamiz. Buni 4-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

4-jadval

«Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi bo'yicha yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining omilli tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	Hisobot yili, % hisobida	Mutlaq o'zgarishi (+, -)
1.	Ishlovchi xodimlarning o'rtacha yillik soni, kishi	387	400	103,4	+ 13
2.	Bir kishi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (mehnat unumdorligi), ming so'm	6323,5	9925,2	157,0	+ 3601,7
3.	Yalpi mahsulot, ming so'm	2447195	3970073	162,2	+ 1522876
Shu jumladan, o'zgarishiga omillar ta'siri:					
	a) xodimlar soni o'zgarishi hisobiga, $(T_1 - T_0) \cdot V_1$	x	x	x	+ 82206
	b) mehnat unumdorligi darajasi hisobiga, $(V_1 - V_0) \cdot T_1$	x	x	x	+ 1440670

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi bazis yiliga nisbatan 1522876 ming so'mga yoki 62,2 % ga oshgan. Jumladan, xodimlarning o'rtacha yillik soni 13 kishiga ko'paygan, natijada, shu omil hisobiga yalpi mahsulot hajmi 82206 ming so'mga oshgan.

$$\Sigma (T_1 - T_0) \cdot V_0 = (400 - 387) \cdot 6323,5 = + 82206 \text{ ming so'm.}$$

Bir kishi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (ya'ni, mahsulot unumdorligi) 3601,7 ming so'mga yoki 57 % ga oshgan, natijada, yalpi mahsulot hajmi bazis yiliga nisbatan shu omil hisobiga 1440670 ming so'mga ko'paygan:

$$\Sigma(V_1 - V_0) \cdot T_1 = (9925,2 - 6323,5) \cdot 400 = +1440670 \text{ ming so'm.}$$

Ikki omil ta'sirining yig'indisi yalpi mahsulot hajmi o'zgarishiga teng kelishi lozim:

1. Xodimlar soni o'zgarishining ta'siri +82206 ming so'm.
 2. Mehnat unumdorligi o'zgarishining ta'siri +1440670 ming so'm.
- Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi (jami) +1522876 ming so'm.

Asosiy vositalar va ulardan foydalanish yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'siri tahlili

Asosiy vositalar deganda, asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati ko'rsatkichi tushuniladi. Asosiy vositalardan foydalanishning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, fond qaytimi ko'rsatkichi hisoblanadi.

Fond qaytimini (FQ) aniqlash uchun yalpi mahsulot hajmini (YaM) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga (AIF) bo'lish kerak:

$$FQ = \frac{YaM}{AIF}.$$

Yalpi mahsulot hajmi shu ikki omil ko'paytmaning yig'indisiga teng bo'ladi:

$$YaM = AIF \cdot FQ.$$

Demak, yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

1. Asosiy ishlab chiqarish vositalari hajmining o'zgarishi.
2. Fond qaytimining o'zgarishi.

Yalpi mahsulot hajmi o'zgarishiga omillar ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlash tartibiga to'xtalamiz. Omillar ta'sirini aniqlaganga qadar quyidagi uch bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlab olinishi kerak:

I. $AIF_0 \cdot FQ_0$ — bazis yilidagi (yoki rejalashtirilgan) yalpi mahsulot hajmi.

II. $AIF_1 \cdot FQ_0$ — shartli yalpi mahsulot hajmi.

III. $AIF_1 \cdot FQ_1$ — hisobot yilidagi yalpi mahsulot hajmi.

Shundan keyin yalpi mahsulot o'zgarishiga omillarning ta'siri aniqlanadi. I omilning ta'siri, ya'ni asosiy vositalar o'rtacha yillik hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli yalpi mahsulot summasi (II bog'lanish)dan bazis yilidagi (yoki rejalashtirilgan) yalpi mahsulot summasi (I bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$(AIF_1 \cdot FQ_0) - (AIF_0 \cdot FQ_0) = \pm \Delta AIF.$$

II omilning ta'siri, ya'ni fond qaytimi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi yalpi mahsulot hajmi (III bog'lanish)dan shartli yalpi mahsulot hajmi (II bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$(AIF_1 \cdot FQ_1) - (AIF_1 \cdot FQ_0) = \pm \Delta FQ.$$

Endi, «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi hisobot ma'lumotlari asosida yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga asosiy fondlar va ulardan foydalanish darajasi o'zgarishi ta'siri tahlilini ko'rib chiqamiz. Buni 5-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

5-jadval

Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga asosiy fondlar hajmi va fond qaytimi ta'sirining tahlili (joriy baholar bo'yicha)

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili asosiy fond qiymati va bazis yili fond qaytimi bo'yicha	Hisobot yili	Umumiy o'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, omillar ta'siri	
					Fondlar hajmining o'zgarishi hisobiga	Fond qaytimining o'zgarishi hisobiga
	$AIF_0 \cdot FQ_0$	$AIF_1 \cdot FQ_0$	$AIF_1 \cdot FQ_1$	5=4-2	6=3-2	7=4-3
Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm (AIF)	31165	83052	83052	+ 51887	x	x
Asosiy ishlab chiqarish fondlari qaytimi, so'm (FQ)	78,5	78,5	62,8	- 15,7	x	x
Yalpi mahsulot, ming so'm (AIF · FQ)	2446452	6519582	5215665	+ 2768713	+4073130	- 1303917

Hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha yalpi mahsulot hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2768713 ming so'mga oshgan. U o'zgarish ekstensiv omilning ijobiy va intensiv omilning salbiy ta'siri ostida sodir bo'lgan. Ekstensiv omil bo'lib, fondlarning o'rtacha qiymati (hajmi) o'zgarishi hisoblanadi. Intensiv omil, bu — fond qaytimidir.

Asosiy fondlarning o'rtacha yillik hajmi hisobot yilida 83052 ming so'mni tashkil qilib, bazis yiliga nisbatan 51887 ming so'mga yoki 2,7 martaga oshgan, natijada, yalpi mahsulot hajmi shu omil hisobiga 4073130 ming so'mga oshgan:

$$(AIF_1 \cdot FQ_0) - (AIF_0 \cdot FQ_0) = (83052 \cdot 78,5) - (31165 \cdot 78,5) = 6519582 - 2446452 = +4073130 \text{ ming so'm.}$$

Fond qaytimi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 15,7 so'mga kamaygan, natijada, shu omilning salbiy ta'siri ostida yalpi mahsulot hajmi 1303917 ming so'mga kamaygan:

$$(AIF_1 \cdot FQ_1) - (AIF_1 \cdot FQ_0) = (83052 \cdot 62,8) - (83052 \cdot 78,5) = 5215665 - 6519582 = -1303917 \text{ ming so'm.}$$

Yalpi mahsulotni ko'paytirishning asosiy rezervi bo'lib, fond qaytimini, oshirish hisoblanadi, ya'ni bir so'mlik fond hisobiga olinadigan yalpi mahsulot hajmini oshirish zarur.

3.5. Sanoat tovar mahsulotlari sotish rejasining bajarilishi va dinamikasi tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlar ishlab chiqarishdan ko'ra, ko'proq ularni sotish muammosi birinchi o'ringa chiqadi. Mahsulotlar sotish hajmi ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Mahsulot xaridorgir bo'lsa, shunga yarasha ishlab chiqarish o'sadi, agar tovarning talablari bo'lmasa, ishlab chiqarish qisqaradi. Demak, ishlab chiqarish ko'lamini rivojiga tovarning xaridorgirliги ijobiy ta'sir qiladi.

Sotilgan tovarlarning hajmi ikki xil usul bilan hisoblanadi: *kassali usul* va *hisobga olish usuli*. «**Kassali usul**»da sotib oluvchilarga ortib jo'natilgan tovarlar puli korxonaning hisob raqamiga kelib tushgandan keyin u sotilgan deb hisoblanib, uning hajmi (summasi) aniqlanadi.

«**Hisobga olish usuli**»da sotib oluvchilarga tovar ortib jo'natilgan va ularning hujjatlari tegishli banklarga taqdim etilgan bo'lsa, tovar sotilgan deb hisoblanib, uning hajmi hujjatlardagi summalar bo'yicha aniqlanadi. «**Hisobga olish usuli**»dan aksariyat sanoat korxonalari foydalanadi. «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasida ham sotilgan mahsulotlar bo'yicha ushbu usul qo'llanilib kelinmoqda.

Tahlilda mahsulotlarni sotish rejasining bajarilishi va dinamikasi hamda ularning o'zgarishiga omillar ta'siri o'rganiladi va xulosalar

chiqariladi. Sotilgan tovar hajmining o'zgarishini tahlil qilishda «Tovar balansi» va «Sanoat mahsulotlarini sotish to'g'risidagi hisobot» (25-shakl) ma'lumotlaridan foydalaniladi. Sotilgan tovar mahsulotlari hajmi «Hisobga olish usuli» bo'yicha hisoblanganda, tovar balansi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$TM_1 + IT = SM + TM_2,$$

bu yerda, TM_1 — yil boshidagi tayyor tovar mahsuloti qoldig'i; TM_2 — yil oxiridagi tayyor tovar mahsuloti qoldig'i; IT — yil davrida ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qiymati; SM — yil davrida sotilgan tovar mahsuloti qiymati.

Tovar balansi bo'yicha sotilgan tovar mahsulot hajmi teng bo'ladi:

$$SM = TM_1 + IT - TM_2.$$

Demak, sotilgan tovar mahsuloti hajmining o'zgarishiga uch omil ta'sir qiladi:

1. Yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'i bo'yicha hajmi (qiymati)ning o'zgarishi ($TM_1 - TM_0$).

2. Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qiymatining o'zgarishi ($IT_1 - IT_0$).

3. Yil oxiridagi tayyor mahsulot qoldig'i bo'yicha qiymatining o'zgarishi ($TMQ_1 - TMQ_0$).

Ushbu omillarning sotilgan tovarlar hajmining o'zgarishiga ta'sirini solishtirish, «ko'rsatkichlar farqi» va «zanjirli bog'lanish» usullari orqali aniqlash mumkin. Agar sotilgan mahsulotlar hajmi «Kassa usuli» bo'yicha aniqlanganda, ya'ni to'langan pul tushumi hajmi bo'yicha aniqlanganda tovar balansi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$TM_1 + IT + JM_1 = SM + JM_2 + TM_2,$$

bu yerda, JM_1 — jo'natilgan tovar mahsulotining yil boshidagi qoldig'i; JM_2 — jo'natilgan tovar mahsulotlarining yil oxiridagi qoldig'i.

Sotilgan tovar mahsulot hajmi (ya'ni, pul tushumi hajmi) teng bo'ladi:

$$SM = TM_1 + IT + JM_1 - JM_2 - TM_2.$$

Demak, ushbu ifodadan ko'rinib turibdiki, tovarlarni sotishdan olingan pul tushumi hajmining o'zgarishiga besh omil ta'sir qiladi. Ushbu omillarning pul tushumi o'zgarishiga ta'sirini ham yuqorida ko'rsatilgan usullar orqali aniqlash mumkin.

Biz «Hisobga olish usuli»dan foydalanib, paxta tolasini sotish misolida ko‘rib chiqamiz. Sotilgan paxta tolasini dinamikasining tahlilini amalga oshirish uchun tovar balansi asosida tuzilgan quyidagi ifodadan foydalanish zarur:

$$SM = TM_1 + IT - TM_2.$$

Ifodadan ko‘rinib turibdiki, sotilgan paxta tolasini hajmining o‘zgarishiga uch omil ta‘sir qiladi. Ushbu omillarning ta‘sirini solishtirish usuli orqali aniqlash tartibiga to‘xtaldik.

Sotilgan paxta tolasini summasi (pul tushumi) o‘zgarishiga yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig‘i o‘zgarishining ta‘sirini aniqlash uchun hisobot yili boshidagi tayyor mahsulot qoldig‘idan bazis yili boshidagi tayyor mahsulot qoldig‘ini chegirib tashlash kerak:

$$TMI_1 - TMI_0 = \pm \Delta TMI.$$

Hisobot yilining boshidagi paxta tolasini qoldig‘i hajmi bazis yili boshidagi qoldig‘i hajmiga nisbatan ko‘p bo‘lsa, sotilgan paxta tolasini hajmi o‘zgarishiga ijobiy ta‘sir qilib, uning ko‘payishiga olib keladi. Aksincha bo‘lsa, uni kamaytiradi.

Sotilgan paxta tolasini hajmi (summasi)ning o‘zgarishiga yil oxiridagi tayyor mahsulot qoldig‘i o‘zgarishi ta‘sirini aniqlash uchun hisobot yili oxiridagi tayyor mahsulot qoldig‘idan bazis yili oxiridagi qoldig‘ini chegirib tashlash lozim:

$$TMQ_1 - TMQ_0 = \pm \Delta TMQ.$$

Hisobot yili oxiridagi paxta tolasini qoldig‘i hajmi bazis yili oxiridagi uning qoldig‘i hajmiga nisbatan kam bo‘lsa, sotish hajmining o‘zgarishiga ijobiy ta‘sir qiladi, natijada, uning hajmini oshiradi. Aksincha bo‘lsa, uni kamaytiradi.

Sotilgan paxta tolasini hajmining o‘zgarishiga ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot hajmi o‘zgarishi ta‘sirini aniqlash uchun hisobot yilida yetishtirilgan tovar mahsuloti hajmidan bazis yilida yetishtirilgan tovar mahsuloti hajmini chegirib tashlash kerak:

$$IT_1 - IT_0 = \pm \Delta IT.$$

Hisobot yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasini hajmi bazis yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasini hajmiga nisbatan ko‘p bo‘lsa, u sotish hajmining o‘zgarishiga ijobiy ta‘sir qiladi, natijada, pul tushumi summasi oshadi. Aksincha bo‘lsa, pul tushumi kamayadi.

Endi, paxta tolasini sotish dinamikasining tahlilini «Sotilgan paxta tolasini balansi» asosida yuqorida bayon qilingan usul qoidasiga amal qilgan holda ko'rib chiqamiz. Buni 6-jadvaldan ko'rish mumkin.

6-jadval

Sotilgan paxta tolasini tovar mahsulotining omilli tahlili (ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Paxta tolasining yil boshidagi qiymati qoldig'i	Ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulot – paxta tolasini	Paxta tolasining yil oxiridagi qiymati qoldig'i	Sotilgan paxta tolasini hajmi
Bazis yili	127796	2217807	254333	2091270
Hisobot yili	254338	4902227	139466	5017099
Paxta tolasini sotish hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri	+ 126542	+ 2684420	+ 114867	+ 2925829

6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida sotilgan paxta tolasini bazis yiliga nisbatan 2925829 ming so'mga oshgan. Ushbu ko'payish uch omilning ham ijobiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Shu jumladan:

1) paxta tolasining yil boshidagi qoldig'i oshish hisobiga 126542 ming so'mga sotish hajmi oshgan ($254338 - 127796 = +126542$ ming so'm).

2) ishlab chiqarilgan paxta tolasini hajmi ko'payish hisobiga sotish hajmi 2684420 ming so'mga oshgan ($4902227 - 2217807 = +2684420$ ming so'm);

3) paxta tolasining yil oxiridagi qoldig'i kamayishi hisobiga sotish hajmi 114867 ming so'mga oshgan ($139466 - 254333 = +114867$). Bu yerda natija minus o'rniga plus bilan chiqarilgan, sababi qoldiq kamayishi sotish hajmiga ijobiy ta'sir qilib, ko'paytiradi, shuning uchun natija plus bilan qayd qilingan.

Sotilgan tovar mahsuloti umumiy hajmining tahlilini ko'rib chiqdik. Endi, tovar mahsulotini turi bo'yicha sotilgan mahsulot hajmining tahliliga to'xtalamiz. Har bir sotilgan mahsulot turi bo'yicha hajmining o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\sum Q_j P_j - \sum Q_0 P_0 = \pm \Delta QP,$$

bu yerda, Q_p, Q_0 — mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulot miqdori; P_p, P_0 — mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan bir birlik mahsulotning ulgurji bahosi.

Sotilgan mahsulot turi bo'yicha hajmining o'zgarishi quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

- 1) sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi hisobiga;
- 2) ulgurji sotish bahosining o'zgarishi hisobiga.

Ushbu omillarning sotilgan mahsulot hajmi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «zanjirli bog'lanish», «ko'rsatkichlar farqi», «indeks» usullaridan foydalanish mumkin. Biz «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalandik. Buning uchun omillar ta'sirini aniqlashdan oldin, quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlab olinadi:

I. $\Sigma Q_0 P_0$ — bazis yilida (yoki reja bo'yicha) sotilgan mahsulot qiymati.

II. $\Sigma Q_1 P_0$ — sotilgan mahsulotning shartli qiymati.

III. $\Sigma Q_1 P_1$ — hisobot yilida sotilgan mahsulotning haqiqiy qiymati.

Shundan keyin sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

1. Sotilgan mahsulot miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun sotilgan mahsulot shartli hajmi (II bog'lanish)dan bazis yilida (yoki reja bo'yicha) sotilgan mahsulot hajmi (I bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$\Sigma Q_1 P_0 - \Sigma Q_0 P_0 = \pm \Delta Q.$$

2. Sotilgan mahsulot bir birligi bo'yicha ulgurji sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan mahsulot hajmi (III bog'lanish)dan sotilgan mahsulotning shartli hajmi (II bog'lanish)ni chegirib tashlash lozim:

$$\Sigma Q_1 P_1 - \Sigma Q_1 P_0 = \pm \Delta P.$$

Shu ikki omil ta'siri yig'indisi sotilgan mahsulot hajmining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta Q \pm \Delta P = \pm \Delta QP.$$

Endi, yuqorida keltirilgan «zanjirli bog'lanish» usuli qoidasi asosida «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi misolida mahsulot turlari bo'yicha hajmi dinamikasining omilli tahlilini ko'rib chiqamiz (7-jadval).

Sotilgan mahsulotlar bo'yicha sotish hajmining omilli tahlili

Mahsulot turlari	Bazis yili			Shartli sotish hajmi, ming so'm	Hisobot yili			Sotish hajmining o'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, o'zgarishi	
	miqdori, tonna	I t bahosi, so'm	summasi, ming so'm		miqdori, tonna	I t bahosi, so'm	summasi, ming so'm		miqdori hisobiga	bahosi hisobiga
Paxta tolasi	4962	421457	2091270	3998362	9487	528839	5017099	+ 2925829	+ 1907092	+ 1018737
Texnik chigit	7543	23699	178762	294578	12430	19718	245101	+ 66339	+ 115816	- 49477
Urug'lik chigit	3586	50316	180435	108280	2152	219077	471455	+ 291020	- 72155	+ 363175

7-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha mahsulot turlari bo‘yicha sotish hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan oshgan. Bu o‘zgarish omillarning ijobiy va salbiy ta’sirlari ostida yuzaga kelgan. Shu jumladan, paxta tolasini sotish hajmining o‘zgarishiga ikki omil ham ijobiy ta’sir qilgan, ya’ni paxta tolasini miqdorining 4525 tonnaga (9487–4962) oshishi natijasida sotish hajmi 1907092 ming so‘mga, ulgurji sotish bahosining 107382 so‘mga (528839–421457) oshishi natijasida tolasini sotish hajmi 1018737 ming so‘mga oshgan. Natijada, shu ikki omil hisobiga tolasini sotish hajmi bazis yiliga nisbatan 2925829 ming so‘mga ko‘paygan. Texnik chigitni sotish hajmi o‘zgarishiga uning miqdori oshishi ijobiy, ulgurji sotish bahosining pasayishi salbiy ta’sir qilgan, urug‘lik chigitni sotish hajmi o‘zgarishiga uning miqdori kamayishi salbiy, ulgurji bahosining oshishi ijobiy ta’sir qilgan.

3.6. Mahsulot sifatining tahlili

Sanoat korxonasi faoliyatining muhim samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati hisoblanadi. Mahsulot sifatining oshishi o‘z navbatida sotilgan mahsulot hajmi oshishiga va foyda ko‘payishiga, oqibatda, rentabellik darajasining yuqori bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Mahsulot sifati oshishi unga bo‘lgan talabning oshishiga olib keladi. Mahsulot sifatining oshishi bozorda raqobat kurashida yutib chiqish yoki o‘z mavqeyini ushlab turish imkoniyatini yaratadi. Sifatli mahsulot bozorda yuqori baholarda sotilib, qo‘shimcha daromad olib kelish manbayiga aylanadi. Mahsulot sifatini tahlil qilishning asosiy maqsadi, bu — ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatiga baho berish hamda mahsulot hajmi va foydaning o‘zgarishiga tegishli ta’sirini aniqlash hisoblanadi.

Mahsulot sifati, asosan, quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi va o‘rganiladi:

- 1) o‘rtacha navlik koeffitsienti;
- 2) o‘rtacha sotish bahosi koeffitsienti.

O‘rtacha navlik koeffitsienti qanday aniqlanadi?

Ushbu koeffitsientni aniqlash uchun I navga aylantirilgan mahsulotlar qiymatining jami summasini navlar bo‘yicha joriy baholarda hisoblangan mahsulotlar qiymatining jami summasiga bo‘lish kerak. I navga aylantirilgan mahsulotlar qiymatining jamini

aniqlash uchun har bir nav bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatini birinchi navga aylantirish koeffitsientiga ko'paytirib, ularning hajmini jamlash kerak.

I navga aylantirish koeffitsienti qanday aniqlandi?

I navning bahosi I koeffitsientga teng deb olinadi, qolgan navlarning bahosini I nav bahosiga bo'lish orqali I navga aylantirish koeffitsienti aniqlanadi. Masalan, hisobot yilida 1 tonna paxta tolasining bahosi I nav uchun 636,6 ming so'mni, II nav bahosi esa 526,5 ming so'mni tashkil qilgan. I navning bahosi 636,6 ming so'mni I koeffitsient deb, ikkinchi navning koeffitsienti 0,83 ga teng ($526,5/636,6=0,83$) deb olinadi, boshqalari ham shunga o'xshash usulda aniqlanadi.

Mahsulot sifatining tahlili hisobot yilidagi o'rtacha navlik koeffitsientini bazis yilidagi yoki rejalashtirilgan o'rtacha navlik koeffitsientiga solishtirishdan boshlanadi. Solishtirish orqali o'rtacha navlik koeffitsientining o'zgarishi (oshgan yoki pasayganligi) aniqlanadi. Koeffitsient oshgan bo'lsa, mahsulot sifati oshganligidan dalolat beradi, agar pasaygan bo'lsa, aksincha, sifatning pasayganligini bildiradi.

Endi, «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi misolida ishlab chiqarilgan paxta tolasini sifatining tahlilini ko'rib chiqamiz (8-jadval).

8-jadval

Paxta tolasini sifatining tahlili (hisobot yili)

Navlar	1 tonna paxta tolasining haqiqiy ulgurji bahosi, ming so'm	Birinchi navga aylantirish koeffitsienti	Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati, ming so'm		Birinchi navga aylantirilgan mahsulotlar qiymati, ming so'm		O'rtacha navlik koeffitsienti	
			Reja bo'yicha	Amalda	Reja bo'yicha	Amalda	Reja bo'yicha	Amalda
1	636,6	1,0	3259565	3571260	3259565	3571260	x	x
2	526,5	0,83	587812	641775	487884	532673	x	x
3	502,4	0,79	230366	251724	181989	198862	x	x
4	418,7	0,66	169166	184660	111650	187875	x	x
5	189,3	0,30	173551	190055	52053	57076	x	x
Jami	551,5	x	4420420	4839474	4093141	4547686	0,926	0,940

Hisobot yilida korxonada bo'yicha paxta tolasining o'rtacha navlik koeffitsienti 92,6 % ni tashkil qilgan ($4093141/4420420 = 0,926$ yoki 92,6 %), haqiqatda esa uning darajasi 94 % ga teng bo'lgan ($4547686/4839474=0,94$ yoki 94 %), natijada, o'rtacha navlik koeffitsienti rejaga nisbatan 1,4 % ga oshgan. Mahsulot sifatining oshishi natijasida paxta tolasini sotish bo'yicha 66831 ming so'mlik qo'shimcha daromad olingan:

$$4420420 \cdot 0,94/0,926 - 4420420 = 4487251 - 4420420 = + 66831 \text{ ming so'm.}$$

O'rtacha navlik koeffitsientini o'rganish bilan bir qatorda o'rtacha sotish bahosining o'zgarishini ham tahlil qilish mahsulot sifatini o'rganish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'rtacha sotish bahosini o'rtacha arifmetik miqdorlar ifodasidan foydalanib aniqlash zarur. Bu 9-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida amalga oshirildi.

9-jadval

Paxta tolasini bo'yicha o'rtacha bahoni hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Tola navlari	Paxta tolasini miqdori, tonna		Bir tonna paxta tolasining bahosi, ming so'm		Mahsulotning navlari bo'yicha qiymati, ming so'm		Shartli mahsulot qiymati, ming so'm
	Reja bo'yicha	Haqiqiy	Reja bo'yicha	Haqiqiy	Reja bo'yicha	Haqiqiy	
	Q_0	Q_1	P_0	P_1	Q_0P_0	Q_1P_1	
1	5340	5610	610,4	636,6	3259565	3571260	3424344
2	1160	1219	506,7	526,5	587812	641775	617667
3	480	501	479,9	502,4	230366	251724	240430
4	480	441	352,4	418,7	169166	184660	155408
5	902	1004	192,4	189,3	173511	190055	193170
Jami	8362	8775	-	-	4420420	4839474	4631019

O'rtacha sotish bahosining oshganligi, mahsuloti sifati oshganligidan dalolat beradi. Yuqoridagi 9-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'rtacha sotish bahosi koeffitsientini doimiy tarkibidagi baho indeksi bilan hisoblash maqsadga muvofiqdir:

$$J_p = \frac{\sum Q_1 P_1}{\sum Q_1} \cdot \frac{\sum Q_1 P_0}{\sum Q_1} = \frac{4839474}{8775} \cdot \frac{4631019}{8775} = 551,5 : 528,0 = 1,045 \text{ yoki } 104,5 \%$$

Hisobot yilida o'rtacha 1 t paxta tolasining bahosi rejada ko'zda tutilgan bahosiga nisbatan 23,5 ming so'mga yoki 4,5 % ga oshgan. Bu esa mahsulot sifatining oshishi natijasida yuzaga kelgan. O'rtacha sotish bahosining oshishi xo'jalik moliyaviy faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi, boshqacha aytganda, foyda hajmining oshishiga olib keladi.

O'rtacha sotish bahosining oshishi natijasida hisobot yilidagi paxta tolasini sotishdan olinadigan foyda summasi 207967 ming so'mga oshadi, ya'ni ushbu foyda summasi hisobot yilidagi o'rtacha sotish bahosi bilan rejadagi o'rtacha bahosi orasidagi farqni hisobot yilidagi paxta tolasining haqiqiy miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi:

$$(P_1 - P_0) \cdot Q_1 = (551,5 - 527,8) \cdot 8775 = +23,7 \cdot 8775 = +207967 \text{ ming so'm.}$$

Demak, mahsulot sifatining yaxshilanishi hisobiga o'rtacha baho oshgan, natijada, hisobot yilida rejaga nisbatan 207967 ming so'mlik qo'shimcha foyda olingan.

Tayanch iboralar

- | | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> ✓ ishlab chiqarish ✓ ishlab chiqarish resurslari ✓ reja bajarilishi ✓ ishlab chiqarish dinamikasi ✓ assortiment koeffitsienti ✓ tola chiqimi koeffitsienti ✓ ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar ✓ sotilgan mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillar | <ul style="list-style-type: none"> ✓ mehnat resurslari ✓ moddiy resurslar ✓ mehnat unumdorligi ✓ fond qaytimi ✓ kassa usuli ✓ hisobga olish usuli ✓ o'rtacha navlik koeffitsienti ✓ I navga aylantirish koeffitsienti |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

? NAZORAT SAVOLLARI

1. Ishlab chiqarish va sotish jarayonini tahlil qilishning maqsadi nimadan iborat?
2. Tahlil manbalari bo'lib, qaysi axborot ma'lumotlari hisoblanadi?
3. Mahsulot turlari bo'yicha dinamikasining tahlili qanday amalga oshiriladi?
4. Mahsulotlarning assortimenti bo'yicha rejaning bajarilishi qanday aniqlanadi?
5. Assortiment tarkibiga qabul qilinadigan jami mahsulot miqdori qanday aniqlanadi?
6. Sanoat mahsuloti miqdorining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
7. Omillarning ta'sirini qaysi usullardan foydalanib, aniqlash mumkin?
8. Sanoat yalpi mahsuloti hajmi o'zgarishiga xodimlar soni o'zgarishining ta'sirini qanday aniqlash mumkin?
9. Mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishining yalpi mahsulot hajmi o'zgarishiga ta'siri qanday hisoblanadi?
10. Fond qaytimi darajasi o'zgarishining yalpi mahsulot hajmi o'zgarishiga ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlash yo'lini tushuntiring.
11. «Hisobga olish usuli» bo'yicha sotilgan sanoat mahsuloti hajmi qanday aniqlanadi?
12. Mahsulot sifati bilan mahsulot hajmi orasidagi bog'lanishni bayon qiling.
13. O'rtacha navlik koeffitsienti qanday aniqlanadi?
14. I navga aylantirish koeffitsientining mazmunini tushuntiring.
15. Mahsulot sifatining o'rtacha sotish bahosi darajasi o'zgarishga ta'siri qanday aniqlanadi?
16. O'rtacha sotish bahosini qaysi usul bilan aniqlash to'g'riroq bo'ladi, sababini tushuntiring.

4-bob. SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH TANNARXINING TAHLILI

4.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari

Mahsulot ishlab chiqarish sarf-xarajatlari yuzaga kelmaydi. Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari, deb ataladi. Bular — xomashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, ish haqi va boshqalarning sarfi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish xarajatlari tayyor va tayyor bo'lmagan mahsulotlarning sarf-xarajatlariga bo'linadi. Tayyor mahsulotlarga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari tannarx, deb yuritiladi. Tayyor bo'lmagan mahsulotlarga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari esa tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari, deb ataladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga baho berishda, ko'p sonli sifat ko'rsatkichlari qo'llaniladi, shular jumlasiga mahsulot tannarxi ham kiradi.

Tannarx deb nimaga aytiladi?

Tannarx deb, mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni pul shaklida ifodalanishiga aytiladi.

Xo'jalik faoliyatining natijalari ko'p jihatdan tannarx darajasiga bog'liq bo'ladi, ya'ni tannarx kamayishi foyda ko'payishiga, oqibatda, ishlab chiqarishning kengayishiga va moliyaviy holat mustahkamlanishiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun ham tannarxni o'rganish bo'yicha tahlilni samarali tashkil qilish katta ahamiyatga egadir.

Iqtisodiy tahlilning maqsadi nimadan iborat?

Tahlilning maqsadi — bu mahsulot ishlab chiqarishda ishlatilayotgan barcha resurslardan samarali foydalanish asosida mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini ko'rsatish hisoblanadi.

Mavjud imkoniyatlarni aniqlash va ularni ishlab chiqarishga jalb qilish uchun tannarx tahlili oldida quyidagi vazifalar turadi:

- mahsulot tannarxi dinamikasi va rejasi bajarilishini o'rganish va baho berish;
- mahsulot tannarxi darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;

- mahsulot tannarxi darajasining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash va har birining ta'siriga baho berish;

- tannarx tarkibidagi har bir modda bo'yicha xarajatlarni tahlil qilish va ularni kamaytirish imkoniyatlarini ko'rsatish.

Mahsulot tannarxi tahlili quyidagi axborot manbalari asosida amalga oshiriladi:

- mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi statistik hisobot (5 s-shakli);

- tovar mahsulotining tannarxi to'g'risidagi hisobot;

- muhim mahsulotlarning ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha tuzilgan haqiqiy va rejali kalkulyatsiya ma'lumotlari;

- sanoat mahsulotlarini sotish to'g'risidagi hisobot (25-shakl);

- buxgalteriya hisobi ma'lumotlari.

4.2. Mahsulot tannarxi umumiy hajmining tahlili

Mahsulot tannarxining umumiy hajmi ishlab chiqarish xarajatlari tariqasida namoyon bo'ladi. Tahlilda ularni kamaytirish yo'llarini aniqlash birinchi o'ringa qo'yildi. Tahlilda ishlab chiqarish xarajatlari rejaga va bazis yiliga nisbatan o'sib ketishining sabablari o'rganiladi.

Tahlil hisobot yilida u yoki bu mahsulot uchun sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari summasiga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Buni quyidagi ifoda bilan aniqlash mumkin:

$$\sum Q_1 Z_1 - \sum Q_0 Z_0 = \pm \Delta QZ,$$

bu yerda, Q_1, Q_0 — mos holda hisobot va bazis yillarida yetishtirilgan sanoat mahsulotlari miqdori; Z_1, Z_0 — mos holda hisobot va bazis yillarida bir birlik mahsulot uchun sarflangan xarajat darajasi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hajmi bevosita ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

- 1). Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi hisobiga;

- 2). Bir birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan xarajatlar darajasining o'zgarishi hisobiga.

Ushbu omillarning ishlab chiqarish xarajatlari hajmi o'zgarishiga ta'sirini «ko'rsatkichlar farqi», «indeks» va «zanjirli bog'lanish» usullaridan foydalanib aniqlash mumkin. Biz bu yerda «ko'rsatkichlar farqi» usuli bo'yicha omillar ta'sirini aniqlash tartibini keltirdik.

1-omil. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori o'zgarishi ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan uning bazis yilidagi (yoki rejalashtirilgan) miqdori orasidagi farqni bazis

yilida (yoki rejalashtirilgan) bir birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan xarajat darajasiga ko'paytirmoq kerak:

$$(Q_1 - Q_0) \cdot Z_0 = \pm \Delta Q.$$

2-omil. «Bir birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan xarajatlar darajasi» o'zgarishining ishlab chiqarish xarajatlari hajmi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida bir birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan xarajat summasi bilan uning bazis yilidagi summasi orasidagi farqni hisobot yilida yetishtirilgan mahsulot miqdoriga ko'paytirmoq lozim:

$$(Z_1 - Z_0) \cdot Q_1 = \pm \Delta Z.$$

Ushbu ikki omil ta'sirining yig'indisi ishlab chiqarish xarajatlari hajmining umumiy o'zgarishiga teng kelishi dardkor:

$$\Delta Q \pm \Delta Z = \Delta Q, Z.$$

Shundan keyin har bir omilning ta'siriga baho berilib, xulosa qilinadi.

Yuqorida keltirilgan «ko'rsatkichlar farqi» usuli qoidalariga amal qilib, «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi misolida paxta tolasi ishlab chiqarish xarajatlari hajmi o'zgarishining omilli tahlilini 10-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

10-jadval

Paxta tolisini ishlab chiqarish xarajatlari rejasi bajarilishining qiyoslama tahlili (hisobot yili)

Nav-lar	Paxta tolasi, tonna			Bir tonna xarajati, so'm			Ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm		
	Reja bo'yicha	Haqiqiyi	Farqi (+, -)	Reja bo'yicha	Haqiqiyi	Farqi (+, -)	Reja bo'yicha	Haqiqiyi	Farqi (+, -)
	Q_0	Q_1	$Q_1 - Q_0$	Z_0	Z_1	$Z_1 - Z_0$	$Q_0 Z_0$	$Q_1 Z_1$	$Q_1 Z_1 - Q_0 Z_0$
1	5340	5610	+ 270	600220	575706	- 24514	3205178	3229709	+ 24531
2	1160	1219	+ 59	498627	476462	- 22165	578407	580807	+ 2400
3	480	501	+ 21	472729	455214	- 17515	226910	228062	+ 1152
4	480	441	- 39	347319	379578	+ 32259	166713	167394	+ 681
5	902	1004	+ 102	190000	171674	- 18326	171377	172361	+ 984
Jami	8362	8775	+ 413	520041	498955	- 21086	4348585	4378333	+ 29748

10-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi jami ishlab chiqarish xarajati summasi rejaga nisbatan 29748 ming so'mga yoki 0,7 % ga oshgan:

$$\Sigma Q_1 Z_1 - \Sigma Q_0 Z_0 = 4378333 - 4348585 =$$

$$+29748 \text{ ming so'm yoki } 0,7 \%$$

Ushbu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'lgan, shundan *ekstensiv omil* xarajat hajmining oshishiga, *intensiv omil* uning kamayishi sababchi bo'lgan.

Ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdori rejaga nisbatan 413 tonna ko'paygan, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish xarajati hajmini 214766 ming so'mga oshishiga olib kelgan:

$$\Sigma (Q_1 - Q_0) \cdot Z_0 = (8775 - 8362) \cdot 520041 = +413 \cdot 520041 =$$

$$+214766 \text{ ming so'm.}$$

Bir tonna paxta tolasi xarajati rejaga nisbatan 21086 so'mga kamaygan, natijada, shu omil hisobiga paxta tolasini ishlab chiqarish xarajatining umumiy hajmi 185018 ming so'mga kamaygan.

$$\Sigma (Z_1 - Z_0) \cdot Q_1 = (498955 - 520041) \cdot 8775 = -21086 \cdot 8775 =$$

$$-185018 \text{ ming so'm.}$$

Omili tahlil natijalari 11-jadvalda aks ettirilgan.

11-jadval

Paxta tolasi tannaxining rejaga nisbatan o'zgarishi omili tahlili (hisobot yili)

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqiy bajarilishi	O'zgarishi (+, -)
1.	Ishlab chiqarilgan paxta tolasi, tonna	8362	8775	+ 413
2.	Bir tonna paxta tolasining tannaxi, so'm	520041	498955	- 21086
3.	Jami ishlab chiqarish xarajati, ming so'm	4348585	4378333	+ 29748
	Shu jumladan, umumiy xarajat o'zga-rishiga omillar ta'siri			
	1). Paxta tolasi miqdorining o'zgarishi hisobiga, $(Q_1 - Q_0) \cdot Z_0$	x	x	+ 214766
	2). Bir tonna tola tannaxining o'zgarishi hisobiga, $(Z_1 - Z_0) \cdot Q_1$	x	x	- 185018

11-jadvaldan ko'rinib turibdiki, jami xarajat hajmi 29748 ming so'mga oshgan. Bu asosan, ishlab chiqarilgan paxta tolasining oshishi hisobiga sodir bo'lgan. Buni ortiqcha xarajat bo'lgan, deb hisoblash mumkin emas, aksincha, xarajat hajmi keskin kamaygan. Tannarx arzonlashgan, natijada, xarajat hajmi 185018 ming so'mga qisqargan.

4.3. Bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajatining omilli tahlili

Bir soʻmlik tovar mahsulotiga boʻlgan xarajat tannarx bilan foyda orasidagi bogʻliqlikni aniq koʻrsatadi. Mahsulotlarni yetishtirish uchun ketgan xarajatlar jami summasini shu mahsulotlarning ulgurji baho boʻyicha hisoblangan hajmiga boʻlish orqali bir soʻmlik tovar mahsulotiga sarf boʻlgan xarajat summasi aniqlanadi:

$$ITMX = \frac{\sum QZ}{\sum QP}$$

bu yerda, $ITMX$ — bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati; Q — ishlab chiqarilgan natural mahsuloti miqdori; Z — bir birlik mahsulotning tannarxi; P — bir birlik mahsulotning ulgurji bahosi.

Bir soʻmlik tovar mahsulotining xarajati koʻrsatkichi mahsulot tannarxi dinamikasini oʻrganishda keng qoʻllaniladi. Ushbu koʻrsatkich, nafaqat, xoʻjalik ichidagi tahlilda, hatto xoʻjaliklararo taqqoslama tahlilda ham qoʻllaniladi.

Tahlil hisobot yilidagi bir soʻmlik tovar mahsulotiga sarf boʻlgan xarajatdan bazis yilida bir soʻmlik tovar mahsulotiga sarf boʻlgan xarajatni chegirib, farqi (oʻzgarishi)ni aniqlashdan boshlanadi:

$$\frac{\sum Q_1 Z_1}{\sum Q_1 P_1} - \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum Q_0 P_0} = \pm \Delta QZ.$$

Ushbu ifodadan koʻrinib turibdiki, bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati darajasining oʻzgarishi quyidagi uch omil hisobiga yuzaga keladi:

- tovar mahsulotining hajmi va tarkibiy tuzilishi oʻzgarishi hisobiga;
- mahsulot tannarxining oʻzgarishi hisobiga;
- mahsulot ulgurji bahosining oʻzgarishi hisobiga.

Xarajat darajasining oʻzgarishiga ushbu omillar taʼsirini aniqlash va tahlil qilish uchun «zanjirli bogʻlanish» usuli qoʻllaniladi.

Omillarning taʼsiri aniqlagunga qadar, quyidagi toʻrt bogʻlanish koʻrsatkichi aniqlab olinadi:

$$I. ITMX_0 = \sum Q_0 Z_0 : \sum Q_0 P_0.$$

$$II. ITMX_{sh1} = \sum Q_1 Z_0 : \sum Q_1 P_0.$$

$$III. ITMX_{sh2} = \sum Q_1 Z_1 : \sum Q_1 P_0.$$

$$IV. ITMX_1 = \sum Q_1 Z_1 : \sum Q_1 P_1.$$

Ushbu bogʻlanish koʻrsatkichlari asosida bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajatining oʻzgarishi va unga omillar taʼsiri aniqlanadi.

Hisobot yilidagi bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati darajasi (IV bogʻlanish)dan bazis yilidagi bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati (I bogʻlanish)ni chegirish orqali umumiy oʻzgarishi aniqlanadi:

$$(\Sigma Q_1 Z_1 : \Sigma Q_1 P_1) - (\Sigma Q_0 Z_0 : \Sigma Q_0 P_0) = \pm \Delta QZP.$$

Bir soʻmlik tovar mahsulotining birinchi shartli xarajati (II bogʻlanish)dan bazis yilidagi bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati (I bogʻlanish)ni ayirish orqali xarajat oʻzgarishiga tovar mahsuloti hajmi va strukturasi oʻzgarishining taʼsiri aniqlanadi:

$$(\Sigma Q_1 Z_0 : \Sigma Q_1 P_0) - (\Sigma Q_0 Z_0 : \Sigma Q_0 P_0) = \pm \Delta Q.$$

Jami mahsulot ichida bir soʻmlik tovar mahsuloti darajasi past boʻlgan mahsulot turlari (navlar)ning salmogʻi yuqori boʻlsa, bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati reja yoki bazis yiliga nisbatan kamayadi, agar aksi boʻlsa, oshadi.

Mahsulot tannarxi oʻzgarishining bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati oʻzgarishiga taʼsirini aniqlash uchun ikkinchi shartli xarajat summasi (III bogʻlanish)dan birinchi shartli xarajat summasi (II bogʻlanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$(\Sigma Q_1 Z_1 : \Sigma Q_1 P_0) : (\Sigma Q_1 Z_0 : \Sigma Q_1 P_0) = \pm \Delta Z.$$

Tannarx oʻzgarishi bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati oʻzgarishiga bevosita taʼsir qiladi. Tannarx darajasi pasaysa, bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati ham kamayadi va aksincha.

Baho oʻzgarishining bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati oʻzgarishiga taʼsirini aniqlash uchun hisobot yilidagi bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati (IV bogʻlanish)dan ikkinchi shartli xarajat summasi (III bogʻlanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$(\Sigma Q_1 Z_1 : \Sigma Q_1 P_1) - (\Sigma Q_1 Z_1 : \Sigma Q_1 P_0) = \pm \Delta P.$$

Baho oʻzgarishi xarajat summasining oʻzgarishiga bilvosita taʼsir qiladi. Agar ulgurji baho darajasi pasaysa, bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati oshadi, va aksincha, baho oshsa, pasayadi.

Endi, yuqorida bayon qilingan «zanjirli bogʻlanish» usuli qoidasiga amal qilib, «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi misolida yetishtirilgan paxta tolasi boʻyicha bir soʻmlik tovar mahsuloti xarajati dinamikasining tahlilini koʻrib chiqamiz. Buning uchun 12-jadval maʼlumotlaridan foydalanish mumkin.

Bir soʻmlik paxta tolasi tovar mahsuloti xarajati uchun zarur boʻlgan maʼlumotlar

Paxta tolasi navlari	Paxta tolasi miqdori, t		Bir tonna lannarxi, ming soʻm		Bir tonna bahosi, ming soʻm		Jami lannarxi, ming soʻm			Jami qiymati, ming soʻm		
	Bazis yili Q_0	Hisobot yili Q_1	Bazis yili Z_0	Hisobot yili Z_1	Bazis yili P_0	Hisobot yili P_1	Q_0Z_0	Q_1Z_0	Q_1Z_1	Q_0P_0	Q_1P_0	Q_1P_1
1	3219	5610	386,3	575,7	447,5	636,6	1243545	2167143	3229709	1440557	2510475	3571260
2	1016	1219	364,2	476,5	417,5	526,5	370040	443960	580807	424467	508932	641775
3	450	501	427,8	455,2	388,6	502,4	192496	214327	228062	174870	194688	251724
4	195	441	319,5	379,6	362,8	418,7	62295	140900	167394	70738	159995	184660
5	529	1004	104,3	171,7	117,9	189,3	55183	104717	172361	62351	118372	190055
Jami	5409	8775	355,6	499,0	410,0	551,5	192359	3071047	4378333	2217807	3492468	4839474

12-jadvaldagi ma'lumotlar asosida, bir so'mlik tovar mahsuloti xarajatlari hisoblab olinadi.

Bazis davridagi bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati:

$$ITMX_0 = \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum Q_0 P_0} = \frac{1923559}{2217807} = 0,867 \text{ yoki } 86,7 \text{ tiyin.}$$

Hisobot yilidagi bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati:

$$ITMX_0 = \frac{\sum Q_1 Z_1}{\sum Q_1 P_1} = \frac{4378333}{4839474} = 0,905 \text{ yoki } 90,5 \text{ tiyin.}$$

Hisobot yilidagi bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati bazis yiliga nisbatan 3,8 tiyinga oshgan ($90,5 - 86,7 = \pm 3,8$ tiyin).

Ushbu o'zgarishga uch omil ta'sir qilgan.

1-omil. «Tovar mahsuloti hajmi va strukturasi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$(\sum Q_1 Z_0 : \sum Q_1 P_0) - (\sum Q_0 Z_0 : \sum Q_0 P_0) = \frac{3071047}{3492468} - \frac{1923559}{2217807} =$$

$$0,879 - 0,867 = +0,012 \text{ yoki } 1,2 \text{ tiyin.}$$

Demak, hisobot yilida yetishtirilgan paxta tolasi tarkibiy tuzilishida V navning salmog'i oshishi natijasida, bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati 1,2 tiyinga yoki 1,4 % ga oshgan.

2-omil. «Mahsulot tannarxi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$\frac{\sum Q_1 Z_1}{\sum Q_1 P_0} - \frac{\sum Q_1 Z_0}{\sum Q_1 P_0} = \frac{4378333}{3492468} - \frac{3071047}{3492468} = 1,254 - 0,879 =$$

$$+0,375 \text{ yoki } 37,5 \text{ tiyin.}$$

Demak, bir tonna paxta tolasining tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 143,6 ming so'mga ($499,0 - 355,6 = +143,6$ ming so'm) oshishi oqibatida bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati 37,5 tiyinga oshgan.

3-omil. Ulgurji bahoning o'zgarishi ta'siri:

$$\frac{\sum Q_1 Z_1}{\sum Q_1 P_1} - \frac{\sum Q_1 Z_1}{\sum Q_1 P_0} = \frac{4378333}{4839474} - \frac{4378333}{3492468} = 0,905 - 1,254 =$$

$$-0,349 \text{ yoki } -34,9 \text{ tiyin.}$$

Demak, bir tonna paxta tolasining ulgurji bahosi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 141,5 ($551,5 - 410,0 = +141,5$) ming so'mga oshgan, natijada, shu omil hisobiga bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati 34,9 tiyinga kamaygan.

Ushbu omillar ta'sirlari yig'indisi bir so'mlik tovar mahsuloti xarajatining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

1. Mahsulot hajmi va strukturasi o'zgarishining ta'siri +1,2 tiyin.
2. Mahsulot tannarxi o'zgarishining ta'siri +37,5 tiyin.
3. Ulgurji baho o'zgarishining ta'siri -34,9 tiyin.

Bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati o'zgarishi (jami) +3,8 tiyin.

Demak, bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati ikki omilning salbiy ta'siri ostida 38,7 tiyinga oshgan, ammo bahoning ijobiy ta'siri ostida (ya'ni, uning oshishi tufayli) 34,9 tiyinga kamaygan, natijada, bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati 3,8 tiyinga oshgan, oqibatda, jami ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti uchun qancha ortiqcha xarajat bo'lgan? Buni aniqlash uchun, bir so'mlik tovar mahsuloti uchun bo'lgan ortiqcha xarajat summasini jami ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti hajmiga ko'paytirish kerak: $3,8 \text{ tiyin} \cdot 4839474/100 = 183900$ ming so'm.

Demak, 183900 ming so'mlik ortiqcha xarajat sodir bo'lgan.

4.4. Mahsulot tannarxi tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlili

Har bir mahsulot tannarxi bir necha xarajat moddalarini o'z ichiga oladi. Tannarxning tahlili xarajat moddalari bo'yicha o'rganishni, ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlarga baho berishni va o'zgarish sabablarini aniqlash hamda o'shalar asosida tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini ko'rsatishni taqozo etadi. Bu esa tahlilning asosiy maqsadidir. Tahlil xarajat moddalari bo'yicha mutlaq o'zgarishni aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun har bir moddadagi xarajatlar summasi bir-biriga solishtirilib, o'zgarish aniqlanadi. Boshqacha aytganda, har bir moddada aks ettirilgan hisobot yilidagi haqiqiy xarajat summasini rejada ko'zda tutilgan xarajat summasiga yoki o'tgan yildagi xarajat summasiga solishtirib, mutlaq o'zgarishi aniqlanadi.

Shundan keyin har bir modda bo'yicha nisbiy o'zgarishi aniqlanadi. Buni aniqlash uchun mutlaq o'zgarish summasini 100 % ga ko'paytirib, rejalashtirilgan summasiga bo'linadi.

Har bir modda bo'yicha aniqlangan mutlaq va nisbiy o'zgarishlar bilan bir qatorda tannarxning tarkibiy tuzilishi o'rganiladi. Buning uchun har bir moddadagi xarajatning tannarxga nisbatan salmog'i aniqlanadi. Buni aniqlash uchun har bir moddadagi xarajat summasini 100 % ga ko'paytirib, natijasi tannarxning jamiga bo'linadi. Shundan so'ng har bir modda salmog'i bo'yicha o'zgarishi aniqlanadi.

Buning uchun hisobot yilidagi salmog'idan bazis yilidagi yoki rejadagi salmog'i chegirib tashlanadi. Hisoblangan mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar asosida tannarx darajasiga baho beriladi hamda uni pasaytirish imkoni ko'rsatiladi.

Endi, «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasida ishlab chiqarilgan paxta tolasi bo'yicha tannarxning tahliliga to'xtalamiz (13-jadval).

13-jadval

I nav bo'yicha bir tonna paxta tolasi tannarxining tahlili (hisobot yili)

T/r	Xarajat moddolari	Reja bo'yicha		Haqiqiyisi		O'zgarishi (+, -)	
		Summasi, so'm	Salmog'i, %	Summasi, so'm	Salmog'i, %	Summasi, so'm	Salmog'i, %
1.	Paxta xomashyosi	527494	93,0	535870	93,1	+ 8376	+ 0,1
2.	O'rash xarajatlari	17013	3,0	17031	3,0	+ 18	-
3.	Asosiy va qo'shimcha mehnat haqi	6585	1,2	6592	1,1	+ 7	- 0,1
4.	Ijtimoiy va tibbiy sug'urta	2456	0,4	2459	0,4	+ 3	-
5.	Umum-ishlab chiqarish xarajatlari	13740	2,4	13754	2,4	+ 14	-
6.	Ishlab chiqarish tannarxi	567288	100	575706	100	+ 8418	-

13-jadvaldan ko'rinib turibdiki, bir tonna paxta tolasining haqiqiy tannarxi hisobot yilida rejaga nisbatan 8418 so'mga oshgan. Ushbu o'zgarish barcha moddalardagi xarajatlar hajmining oshishi hisobiga yuzaga kelgan, shulardan 99,5 % faqat paxta xomashyosi xarid narxining oshishi hisobiga sodir bo'lgan ($8376 \cdot 100:8418 = 99,5 \%$).

Tannarxning tarkibiy tuzilishida deyarli o'zgarish sodir bo'lmagan.

Xulosa sifatida shuni qayd qilish kerakki, bir tonna paxta tolasi tannarxini pasaytirish uchun paxta xomashyosini qayta ishlash bilan bog'liq xarajatni kamaytirish choralarini ko'rish lozim.

Tayanch iboralar

- | | |
|----------------------------------------|------------------------------------------------|
| ✓ tannarx | ✓ tannarx o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar |
| ✓ ishlab chiqarish tannarxi | ✓ tannarx rejasi |
| ✓ jami tannarx | ✓ tannarx dinamikasi |
| ✓ mahsulot birligi tannarxi | ✓ tannarx tarkibi |
| ✓ bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati | ✓ tannarx tarkibiy tuzilishi |

? NAZORAT SAVOLLARI

1. Tannarxni tahlil qilishning maqsadi nimadan iborat?
2. Tannarxni tahlil qilishda qaysi axborot manbalaridan foydalanish mumkin?
3. Tannarx deb nimaga aytiladi?
4. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining umumiy o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
5. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining umumiy o'zgarishiga mahsulot miqdori o'zgarishi ta'sirini qanday aniqlash mumkin?
6. Bir so'mlik tovar mahsuloti xarajati qanday aniqlanadi va uning o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
7. Bir birlik mahsulot tannarxi bo'yicha reja bajarilishi qanday tahlil qilinadi?

5-bob. SANĀOT KORXONALARI MOLIVAVIY NATIJARINING TAHLILI

5.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari

Foyda va rentabellik iqtisodiy samaradorlikning asosiy koʻr-satkichlari hisoblanadi. Foyda oshganligi xoʻjalikning xarajatlar va resurslardan samarali foydalanganligidan dalolat beradi. Foyda-ning oshishi, nafaqat, sanoat korxonasi iqtisodiyotini mustah-kamlashga sababchi boʻladi, hatto u mamlakat iqtisodiyoti negizini tashkil qiluvchi budjet daromadini oshishiga olib keladi. Shu nuq-tayi nazardan foydani yanada koʻpaytirish imkoniyatlarini to-pish va ularni faoliyatga jalb qilib, ishga solish uchun iqtisodiy tahlilni samarali tashkil qilish katta ahamiyatga ega.

Tahlilning maqsadi nimadan iborat?

Tahlilning maqsadi boʻlib, sanoat korxonasining moliyaviy faoliyati boʻyicha moliyaviy natijalarini chuqur va oʻzaro bogʻliqlikda oʻrganish asosida foydaning jami turlarini koʻpaytirish uchun zarur boʻlgan barcha imkoniyatlarni topish, aniqlash hisoblanadi.

Tahlilning maqsadini amalga oshirish uchun tahlil oldida maʼ-lum vazifalar turadi. Tahlilning asosiy vazifalari quyidagilar hi-soblanadi:

1. Mahsulotlar sotishdan olingan foyda (zarar)ni aniqlash va uning oʻzgarishiga omillar taʼsirini oʻrganish.
2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyati boʻyicha moliyaviy natija-larni aniqlash va ularning oʻzgarishiga omillar taʼsirini oʻr-ganish.
3. Umumxoʻjalik faoliyatidan olingan natijalarni hisoblash va oʻzgarishiga baho berish.
4. Soliq toʻlangunga qadar boʻlgan foyda (zarar)ni aniqlash va oʻzgarishini omilli tahlil qilish.
5. Sof foyda va uning oʻzgarishini omilli tahlil qilish.
6. Barcha foyda turlari hajmini koʻpaytirish uchun ichki im-koniyatlarni aniqlash va ularni xoʻjalik faoliyatiga jalb qilish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning asosiy manbalari quyidagi axborot ma'lumotlari hisoblanadi:

1. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl).
2. Sanoat mahsulotlarini sotish to'g'risidagi statistik hisobot (25-shakl).
3. Korxonada moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi hisobot (1f-shakli).
4. Korxonada sarf-xarajatlari to'g'risidagi hisobot (5s-shakli).

5.2. Foyda va rentabellik ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash usullari

Foyda — iqtisodiy samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi. Foyda oshgan sayin, xo'jalik moliyaviy jihatdan mustahkamlanadi. Foydaning oshishi xo'jalikning iqtisodiyotiga ham, mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir qilib, mustahkamlanishiga sababchi bo'ladi. Foyda (zarar) hozirgi vaqtda besh turga bo'linib, hisobga olinadi va tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»da foyda (zarar)ning besh turi batafsil bayon qilingan.

1. *Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda*. Bu foydani aniqlash uchun mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushumdan (*ST*) sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxini chegirib tashlash kerak:

$$YaF = ST - IT,$$

bu yerda, *YaF* — yalpi foyda; *ST* — sotishdan olingan sof tushum; *IT* — sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. *Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi*. Bu foydani aniqlash uchun mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaga asosiy faoliyatning boshqa jarayonlardan olingan daromadlarni qo'shib, davr xarajatlari bilan asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlarni chegirib tashlash kerak:

$$AFF = YaF + BD - (DX + BZ),$$

bu yerda, *AFF* — asosiy faoliyat foydasi; *DX* — davr xarajatlari; *BD* — asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daro-

madlar; *BZ* — asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko‘rilgan zararlar (xarajatlar);

3. *Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar)*. Buni aniqlash uchun asosiy faoliyatdan olingan foyda summasiga moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni qo‘shib, moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan zararlarini chegirib tashlash kerak:

$$UXF = AFF + MD - MZ,$$

bu yerda, *UXF* — umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda; *MD* — moliyaviy faoliyatdan olingan foyda (daromad); *MZ* — moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan zarar.

4. *Soliq to‘langunga qadar bo‘lgan foyda*. Bu foyda umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga favqulodda olingan foydani qo‘shib, favquloddagi ko‘rilgan zararni chegirish orqali aniqlanadi:

$$STF = UXF + FF - FZ,$$

bu yerda, *STF* — soliq to‘langunga qadar bo‘lgan foyda; *FF* — favqulodda foyda; *FZ* — favquloddagi zarar.

5. *Hisobot davrining sof foydasi*. Bu foyda soliqqa tortiladigan daromadlar (foyda) summasidan daromad solig‘i va qonunda ko‘rsatilgan boshqa soliqlar hamda to‘lovlar summasini chegirib tashlash orqali aniqlanadi:

$$SF = STF - (DS + BST),$$

bu yerda, *SF* — sof foyda; *DS* — daromad solig‘i; *BST* — boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Rentabellik — korxonaning foydalilik darajasini xarakterlaydi. Rentabellik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, xarajatlar, resurslar, kapitalardan foydalanish samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi. Demak, rentabellik darajasi xarajatlarga nisbatan, kapitalarga va fondlarga nisbatan hisoblanadigan nisbiy ko‘rsatkichdir.

Rentabellik asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Sotilgan mahsulotlar rentabelligi.
2. Xususiy kapital rentabelligi.
3. Permanent kapital rentabelligi.
4. Aktivlar rentabelligi.
5. Asosiy vositalar rentabelligi.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligi bir so‘mlik yoki 100 so‘mlik pul tushumi hisobiga olingan foyda darajasini ifodalaydi.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligi koeffitsientini (Kr) topish uchun sotishdan olingan yalpi foyda summasini (YaF) sotishdan olingan sof tushumga (ST) bo'lish kerak:

$$Kr = \frac{YaF \cdot 100}{ST}$$

Xususiy kapital rentabelligi sof foyda summasini (SF) xususiy kapitalning o'rtacha qiymatiga (XK) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$Kxkr = \frac{SF \cdot 100}{XK}$$

Ushbu rentabellik xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Xususiy kapital o'z navbatida to'rt turga bo'linadi: *ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda.*

Permanent kapital rentabelligi sof foydani (SF) permanent kapitalning o'rtacha qiymatiga (XK) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$Kpkr = \frac{SF \cdot 100}{XK}$$

Ushbu rentabellik xususiy va qarz kapitalaridan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Permanent kapital xususiy kapital bilan uzoq muddatli qarz kapitalini o'z ichiga oladi.

Aktivlar rentabelligi. Soliq to'langunga qadar bo'lgan foydani (STF) aktivlarning o'rtacha qiymatiga (AQ) bo'lish orqali aktivlar rentabelligi koeffitsienti aniqlanadi:

$$Kar = \frac{STF \cdot 100}{AQ}$$

Bu koeffitsient aktivlardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Asosiy vositalar rentabelligi. Sof foyda summasini (SF) asosiy vositalarning o'rtacha qiymatiga bo'lish orqali asosiy ishlab chiqarish vositalari bo'yicha rentabellik koeffitsienti aniqlanadi:

$$Kavr = \frac{SF \cdot 100}{AIF}$$

Bu koeffitsient asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligi darajasini ifodalaydi.

5.3. Sanoat mahsulotini sotishdan olingan yalpi foyda hajmining omilli tahlili

Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda sof tushum summasidan sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi. Yalpi foydaning tahlili ko'rsatkichlarni qiyoslab, farqini aniqlashdan boshlanadi.

Hisobot yilida mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydani rejadagi foyda summasiga yoki o'tgan yildagi foyda summasiga solishtirib, o'zgarishi (ko'payganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$(\Sigma Q_1 P_1 - \Sigma Q_1 Z_1) - (\Sigma Q_0 P_0 - Q_0 Z_0) = \pm \Delta QPZ$$

$$\text{yoki } Q_1 (P_1 - Z_1) - Q_0 (P_0 - Z_0) = \pm \Delta QPZ.$$

bu yerda, Q_1, Q_0 — hisobot va bazis yillarida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (yoki Q_0 — rejadagi mahsulot miqdori); P_1, P_0 — hisobot va bazis yillarida bir birlik mahsulotning o'rtacha sotish ulgurji bahosi (yoki P_0 — rejadagi bahosi); $Q_1 P_1$ — hisobot yilida sotishdan olingan sof tushum; $Q_0 P_0$ — bazis yilidagi (yoki rejadagi) sof tushum; $Q_1 Z_1$ — hisobot yilidagi sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi summasi; $Q_0 Z_0$ — bazis yilidagi (reja bo'yicha) sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi summasi.

Ushbu ifodadan ko'rinib turibdiki, har bir mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda summasini o'zgarishiga uch omil ta'sir qiladi:

- 1) sotilgan mahsulot fizik miqdorining o'zgarishi;
- 2) sotilgan bir birlik mahsulot o'rtacha ulgurji sotish bahosining o'zgarishi;
- 3) sotilgan bir birlik mahsulot o'rtacha tannarxining o'zgarishi.

Yalpi foydaning o'zgarishiga ushbu omillar ta'sirini aniqlash va ularga baho berish uchun ko'rsatkichlar farqi usulidan foydalaniladi. Yalpi foydaning o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash quyidagi tartib (qoida) bo'yicha amalga oshiriladi.

1-omil. «Sotilgan mahsulot fizik miqdori o'zgarishi»ning yalpi foyda o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun, hisobot yilida sotilgan miqdori (Q_1) bilan bazis yilida sotilgan mahsulot miqdori (Q_0) orasidagi farqni ($Q_1 - Q_0$) bazis yilida bir birlik mahsulotni sotishdan olingan foyda ($P_0 - Z_0$) summasi ko'paytirmoq kerak:

$$(Q_1 - Q_0) \cdot (P_0 - Z_0) = \pm \Delta Q.$$

2-omil. «O'rtacha ulgurji sotish bahosi o'zgarishi»ning yalpi foyda summasi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun, hisobot yilidagi o'rtacha sotish bahosi bilan bazis yili (yoki reja)dagi o'rtacha sotish bahosi orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdoriga ko'paytiriladi:

$$(P_1 - P_0) \cdot Q_1 = \pm \Delta P.$$

3-omil. «O'rtacha tannarx o'zgarishi»ning yalpi foyda summasi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi bir birlik mahsulot tannarxi bilan bazis yili (yoki reja)dagi bir birlik mahsulot tannarxi orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdoriga ko'paytiriladi:

$$(Z_1 - Z_0) \cdot Q_1 = \pm \Delta Z.$$

Shu uch omil ta'sirining yig'indisi yalpi foyda summasi umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta Q \pm \Delta P \pm \Delta Z = \Delta QPZ.$$

Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib, umumiy xulosa qilinadi.

Endi, yuqoridagi «ko'rsatkichlar farqi» usuli qoidalariga amal qilib, «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasida tola sotishdan olingan yalpi foyda hajmining o'zgarishi tahlilini ko'rib chiqamiz (14-jadval).

14-jadval

Paxta tolasini sotishdan olingan yalpi foyda rejasi bajarilishining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		O'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, omillar ta'siri		
	Reja bo'yicha	Amalda bajarilishi		Tola miqdori o'zgarishi hisobiga	Baho o'zgarishi hisobiga	Tannarx o'zgarishi hisobiga
Sotilgan paxta tolasini miqdori, t	8362	8775	+ 413	x	x	x
Bir tonna tola-ni sotish bahosi, ming so'm	528,6	551,5	+ 22,9	x	x	x
Bir tonna tola-ni sotish tannarxi, ming so'm	520,0	499,0	- 21,0	x	x	x

Bir tonna tolani sotishdan olingan foyda, ming so'm	+ 8,6	+ 52,5	+ 43,9	x	x	x
Yalpi foyda, ming som	71913	460687	+ 388774	+ 3552	+ 200948	+ 184274

14-jadvaldan ko'rinib turibdiki, paxta tolasini sotishdan olingan yalpi foyda hisobot yilida rejaga nisbatan 388774 ming so'mga ko'paygan:

$$(P_1 - Z_1) \cdot Q_1 - (P_0 - Z_0) \cdot Q_0 = (551,5 - 499,0) \cdot 8775 - (528,6 - 520,0) \cdot 8362 = 52,5 \cdot 8775 - 8,6 \cdot 8362 = 460687 - 71913 = +388774 \text{ ming so'm.}$$

Yalpi foydaning o'zgarishiga uch omil ham ijobiy ta'sir qilgan.

1-omil. «Sotilgan paxta tolasi miqdori»ning 413 tonnaga oshishi natijasida yalpi foyda summasi 3552 ming so'mga ko'paygan:

$$(Q_1 - Q_0) \cdot (P_0 - Z_0) = (8775 - 8362) \cdot (528,6 - 520,0) = +413 \cdot 8,6 = +3552 \text{ ming so'm.}$$

2-omil. «O'rtacha ulgurji sotish bahosining 22,9 ming so'mga oshishi tufayli yalpi foyda summasi 200948 ming so'mga oshgan:

$$(P_1 - P_0) \cdot Q_1 = (551,5 - 528,6) \cdot 8775 = +22,9 \cdot 8775 = +200948 \text{ ming so'm.}$$

3-omil. «Paxta tolasining o'rtacha tannarxi» 21 ming so'mga arzonlashgan, natijada, shu omil hisobiga yalpi foyda summasi 184274 ming so'mga oshgan:

$$(Z_1 - Z_0) \cdot Q_1 = (499,0 - 520,0) \cdot 8775 = -21 \cdot 8775 = +184274 \text{ ming so'm.}$$

5.4. Sotilgan sanoat mahsuloti rentabelligining omilli tahlili

Sotilgan mahsulotlar rentabelligi nisbiy ko'rsatkich bo'lib, u xo'jalikning moliyaviy faoliyatiga baho berishda eng asosiy mezon hisoblanadi. U bir so'mlik sof pul tushumi hisobiga yoki bir so'mlik xarajat hisobiga olingan foyda darajasini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, xarajatlari va resurslardan foydalanish samaradorligi shuncha baland bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan rentabellik darajasini o'rganish va uni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish tahlilning eng muhim vazifasi hisoblandi.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligining tahlili hisobot davridagi uning haqiqiy ko'rsatkichini rejadagi yoki o'tgan yillardagi darajasiga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. So'ngra ushbu o'zgarish qaysi omillar hisobiga sodir bo'lganligi aniqlanadi va har birining ta'sir doirasi tahlil qilinib, baho beriladi.

Sotilgan sanoat mahsuloti rentabelligi o'zgarishiga ikki omil bevosita ta'sir qiladi. Bular quyidagi omillardir:

1. Mahsulotni sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi.
2. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'zgarishidir.

Rentabellik darajasining o'zgarishiga ushbu omillar ta'sirini aniqlash va baho berish uchun «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalaniladi. Omillar ta'sirini aniqlagunga qadar, quyidagi uch bog'lanish bo'yicha rentabellik ko'rsatkichlari hisoblab olinadi:

I. Bazis yili (yoki reja)dagi rentabellik ko'rsatkichi:

$$K_{mr_0} = \frac{YaF_0}{ST_0}.$$

II. Shartli rentabellik ko'rsatkichi. Bu bazis yili (yoki reja)dagi yalpi foyda summasini hisobot yilidagi mahsulotni sotishdan olingan sof tushum (ST)ga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$K_{mr_{sh}} = \frac{YaF_0}{ST_1}.$$

III. Hisobot yilidagi haqiqiy rentabellik ko'rsatkichi:

$$K_{mr_1} = \frac{YaF_1}{ST_1}.$$

Shu ko'rsatkichlar aniqlangandan keyin, rentabellikning umumiy o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi.

Rentabellikning umumiy o'zgarishi:

$$III - I. \frac{YaF_1}{ST_1} - \frac{YaF_0}{ST_0} = \pm \Delta ST, YaF.$$

Rentabellik umumiy o'zgarishiga birinchi omil «Mahsulotni sotishdan olingan sof tushum summasi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$II - I. \frac{YaF_0}{ST_1} - \frac{YaF_0}{ST_0} = \pm \Delta ST.$$

Rentabellik umumiy o'zgarishiga ikkinchi omil «Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda summasi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$III - II. \frac{YaF_1}{ST_1} - \frac{YaF_0}{ST_1} = \pm \Delta YaF.$$

Shu ikki omil ta'siri yig'indisi rentabellik darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta ST \pm \Delta YaF = \pm \Delta ST, YaF.$$

Endi, «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi misolida paxta tolasini sotish rentabelligi bo'yicha reja bajarilishining tahlilini ko'rib chiqamiz (15-jadval).

15-jadval

Paxta tolasini sotish rentabelligi rejasining bajarilishi tahlili

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		O'zgarishi (+, -)
	Reja bo'yicha	Haqiqiyi	
Paxta tolasini sotishdan olingan pul tushumi, ming so'm	4420420	4839474	+ 419054
Sotilgan paxta tolasining ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	4348507	4378787	+ 30280
Paxta tolasini sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	71913	460687	+ 388774
Rentabellik, %	1,6	9,7	+ 8,1
Shartli rentabellik, %	x	1,5	x
Sotilgan paxta tolasini rentabelligi-ning o'zgarishiga omillar ta'siri: 1). Sof pul tushumi o'zgarishi hisobiga $\frac{YaF_0}{ST_1} - \frac{YaF_0}{ST_0}$	x	x	- 0,1
2). Yalpi foyda o'zgarishi hisobiga $\frac{YaF_1}{ST_1} - \frac{YaF_0}{ST_1}$	x	x	+ 8,2

15-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, paxta tolasi rentabelligi hisobot yilida rejaga nisbatan 8,1 % ga oshgan:

$$\frac{YaF_1 \cdot 100}{ST_1} - \frac{YaF_0 \cdot 100}{ST_0} = \frac{460687 \cdot 100}{4839474} - \frac{71913 \cdot 100}{4420420} = 9,7 - 1,6 = + 8,1\%.$$

Demak, bir so‘mlik pul tushumi hisobiga reja bo‘yicha 1,6 tiyinli foyda olish ko‘zda tutilgan, amalda 9,7 tiyinli foyda olingan, natijada, rejaga nisbatan 8,1 tiyinga foyda oshgan. Rentabellik darajasi o‘zgarishiga pul tushumi o‘zgarishi salbiy, foyda o‘zgarishi ijobiy ta’sir qilgan.

Sof pul tushumi hisobiga rentabellik darajasi 0,1 % ga pasaygan:

$$\frac{YaF_0 \cdot 100}{ST_1} - \frac{YaF_0 \cdot 100}{ST_0} = \frac{71913 \cdot 100}{4839474} - \frac{71913 \cdot 100}{4420420} = 1,5 - 1,6 = - 0,1\%.$$

Demak, bir so‘mlik pul tushumi hisobiga 0,1 tiyinli foyda kam olingan.

Foydaning o‘zgarishi hisobiga rentabellik 8,2 % ga oshgan:

$$\frac{YaF_1 \cdot 100}{ST_1} - \frac{YaF_0 \cdot 100}{ST_0} = \frac{460687 \cdot 100}{4839474} - \frac{71913 \cdot 100}{4839474} = 9,7 - 1,5 = + 8,2\%.$$

Demak, bir so‘mlik pul tushumi hisobiga 8,2 tiyinli foyda oshig‘i bilan olingan.

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, rentabellikni oshirishning asosiy omili foyda summasini keskin ko‘paytirish hisoblanadi. Foydani keskin ko‘paytirish uchun sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish yo‘llarini izlab topish zarur.

Tayanch iboralar

- | | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> ✓ yalpi foyda ✓ asosiy faoliyat foydasi ✓ sof foyda ✓ sof tushum ✓ xususiy kapital rentabelligi ✓ jami ishlab chiqarish tannarxi ✓ yalpi foydaga ta’sir qiluvchi omillar | <ul style="list-style-type: none"> ✓ rentabellik ✓ sotilgan mahsulot rentabelligi ✓ aktivlar rentabelligi ✓ permanent kapital rentabelligi |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|



NAZORAT SAVOLLARI

1. Foyda va rentabellikni tahlil qilishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Foyda va rentabellik tahlilining manbalari bo'lib, qaysi axborot ma'lumotlari hisoblanadi?
3. Foyda necha turga bo'linadi?
4. Yalpi foyda qanday aniqlanadi va uning o'zgarishiga necha omil ta'sir qiladi?
5. Yalpi foyda o'zgarishiga sotilgan mahsulot miqdori o'zgarishining ta'siri qanday aniqlanadi?
6. Yalpi foyda o'zgarishiga o'rtacha sotish bahosining ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlash yo'lini bayon qiling.
7. Rentabellik deb nimaga aytiladi?
8. Sotilgan mahsulotlar rentabelligi qanday aniqlanadi va uning o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
9. Sotilgan mahsulotlar rentabelligining o'zgarishiga o'rtacha sotish bahosi o'zgarishi ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlash yo'lini tushuntiring.
10. Bir birlik mahsulot tannarxi o'zgarishining rentabellik darajasi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash usulini tushuntiring.

6-bob. SANOAT KORXONALARI MOLIVAVYI HOLATINING TAHLILI

6.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari

Korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini moliyaviy hisobotlar, buxgalteriya hisobi va boshqa axborotlar ma'lumotlari asosida o'rganib, mavjud moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash va moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish usuli *moliyaviy tahlil*, deb ataladi.

Moliyaviy tahlilning, asosiy maqsadi bo'lib, korxonada aktivlari, kapitali va majburiyatlarini, moliyaviy barqarorlik darajasini, to'lovga qodirlik holatini, o'z va qarz mablag'lari bilan ta'minlanish darajasini, moliyaviy mustaqillik holatini, debitorlik va kreditorlik qarzlarning muayyan davrga bo'lgan holatini o'rganish asosida korxonada moliyaviy holatiga baho berish va uni yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan moliyaviy holat tahlilining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Korxonaning aktivlari, kapitali, majburiyatlari holatini aniqlash va o'zgarishiga baho berish.
2. Moliyaviy holatning barqarorligini aniqlash va uning o'zgarishiga baho berish.
3. Balans likvidligi ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning o'zgarishini tahlil qilish.
4. Korxonaning to'lov layoqati koeffitsientini aniqlash va uning o'zgarishiga baho berish.
5. Moliyaviy koeffitsientlarni aniqlash va ularning o'zgarishiga baho berish.
6. Debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini o'rganish.

Moliyaviy holatni tahlil qilishning asosiy manbalari quyidagi axborotlar hisoblanadi:

1. Buxgalteriya balansi (1-shakl).
2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl).
3. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot (3-shakl).

4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (4-shakl).
5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl).
6. Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida ma'lumotnoma (2a-shakli).

6.2. Buxgalteriya balansi asosida korxonaning mulki, kapitali va majburiyatlari bo'yicha umumiy moliyaviy holatini tahlil qilish

Buxgalteriya balansi korxonaning mulki, kapitali va majburiyatlari hajmini ma'lum sanada aks ettiruvchi maxsus jadvaldir. U ikki qismdan iborat bo'lib, aktiv qismida korxonaning asosiy va aylanma mablag'lari (mulki), passiv qismida kapitali va majburiyatlari aks ettiriladi. Balans aktiv va passiv tomonlari o'zaro teng bo'ladi.

Korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar buxgalteriya balansi — netto moddalari asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi. Buxgalteriya balansi aktividagi moddalar «Mablag'larni pul shakliga aylanish tezligi (likvitlik darajasi)» belgisi bo'yicha, passividagi moddalar esa «Majburiyatlarning to'lov muddati darajasi» belgisi bo'yicha maxsus guruhlariga bo'lib o'rganiladi. Buni quyidagi balans shaklidan ko'rish mumkin:

Buxgalteriya balansi

Aktiv mulkning guruhlari	Yil boshida	Yil oxirida	Passiv mulk manbalarining guruhlari	Yil boshida	Yil oxirida
1. Uzoq muddatli aktivlar (U)			1. O'z mablag'larining manbalari (X)		
2. Aylanma aktivlar			2. Majburiyatlar		
2.1. Zaxira va sarflar (Z)			2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar (M)		
2.2. Debitorlik qarzlari (D)			2.2. Qisqa muddatli qarzlari va kreditlar (B)		
2.3. Pul mablag'lari (P)			2.3. Kreditorlik qarzlari (K)		
Balans			Balans		

Buxgalteriya balansi asosida birinchi navbatda, korxonaning umumiy moliyaviy holatiga baho beriladi. Buning uchun korxonaning mulki (aktivlari), kapitali va majburiyatlari (passivlari) tarkibi va tarkibiy tuzilish hamda ularning o'zgarishi tahlil qilinadi. Tahlilda

gorizontal va vertikal usullardan foydalaniladi. Tahlilda korxonada aktivlari va passivlari, ulardagi umumiy va tarkibiy o'zgarishlar balansning har qaysi tomoni bo'yicha alohida o'rganiladi. Gorizontal usul yordamida aktivning har bir bo'limi va har bir moddasi bo'yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga, passivning ham har bir bo'limi va har bir moddasi bo'yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga solishtirib, mutlaq va nisbiy o'zgarishi (ko'payganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi. Balans aktivi va passivi bo'yicha moliyaviy holatning tarkibini tahlil qilish bilan birgalikda ularning tarkibiy tuzilishi ham o'rganiladi. Buning uchun, avvalo, har bir bo'lim va moddalarning balans jamiga nisbatan salmog'i aniqlanadi. So'ngra yil oxiridagi salmog'ini yil boshidagi salmog'iga qiyoslab, tarkibiy tuzilishining o'zgarishi aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Endi, «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi misolida xojalikning umumiy moliyaviy holati tahlilini ko'rib chiqamiz (16-jadval).

16-jadval

Korxonada mulki, kapitali va majburiyatlari dinamikasining tahlili (ming so'm)

Korxonada aktivlari (mulki)	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+, -)	Korxonada passivlari (kapital majburiyatlari)	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+, -)
1. Uzoq muddatli aktivlar	100623	173481	+ 72858	1. O'z mablag'larining manbalari (X)	116663	331713	+ 215050
2. Alanma aktivlar, jami	3099436	4096278	+ 996842	2. Majburiyatlar, jami	3083396	3938046	+ 854650
2.1. Zaxira va sarflar	2674742	3652912	+ 978170	2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar (M)	181546	190978	+ 9432
2.2. Debitorlik qarzlari	409017	427651	+ 18634	2.2. Qisqa muddatli qarzlari va kreditlar	-	-	-
2.3. Pul mablag'lari	15677	15715	+ 38	2.3. Kreditlik qarzlari	2901850	3747086	+ 845218
Balans	3200059	4269759	+ 106970	Balans	3200059	4269759	+ 106970

16-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, korxonada mulki hisobot yilining oxirida shu yil boshiga nisbatan 1069700 ming so'mga yoki 33,4 % ga ($106970 \cdot 100 : 3200059 = 33,4$ %) ko'paygan. Shu jumladan, uzoq muddatli aktivlar 72858 ming so'mga (72,4 % ga), aylanma aktivlar 996842 ming so'mga (32,2 % ga) oshgan. Jami aylanma aktivlar tarkibida zaxiralarning hajmi 978170 ming so'mga (36,6 % ga), debitor qarzlari 18634 ming so'mga (4,5 % ga), pul mablag'lari 38000 so'mga (0,2 % ga) ortgan. Mulkning tashkil topish manbayida ham o'sish sodir bo'lgan. O'z mablag'lari manbayi 215050 ming so'mga (2,8 martaga), majburiyatlar hajmi 854650 ming so'mga (27,7 % ga) o'sgan. Kreditor qarzlari 845213 ming so'mga yoki 29,1 % ga oshgan.

Korxonaning moliyaviy holatiga baho berishda balans ma'lumotlari asosida nisbiy ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish katta ahamiyatga ega bo'ladi, chunki ular asosida moliyaviy holatni yaxshilash imkoniyatlari aniqlandi. Korxonaning moliyaviy holatiga baho berishda mutlaq ko'rsatkichlarga qaraganda, nisbiy ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi. Nisbiy ko'rsatkichlar amaliyotda moliyaviy koeffitsientlar, deb ataladi. Moliyaviy koeffitsientlarni hisoblashda mutlaq ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Korxonada moliyaviy holatiga baho berishda quyidagi moliyaviy koeffitsientlar ko'proq ishlatiladi:

1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti.
2. To'lovga qodirlik koeffitsienti.
3. O'z va qarz mablag'larining o'zaro nisbati koeffitsienti.
4. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti.
5. Moddiy aylanma mablag'lar hissasi koeffitsienti.
6. Jami aylanma mablag'larning jami mulk qiymatidagi hissasi koeffitsienti.

Ushbu koeffitsientlarning tahlili quyidagi paragraflarda aks ettirilgan.

6.3. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti tahlili

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti sanoat korxonasi moliyaviy holatiga baho berishdagi asosiy nisbiy ko'rsatkichlardan biridir. Bu koeffitsient korxonada o'z mablag'lari manbalarining balansi jamiga nisbati tariqasida aniqlanuvchi nisbiy ko'rsatkichdir. Boshqacha aytganda, moliyaviy mustaqillik koeffitsientini aniqlash uchun korxonaning o'z mablag'lari manbalari jami summasi balansining jami summasiga bo'lish kerak:

$$K_{mm} = \frac{PI}{BJ},$$

bu yerda, K_{mm} — moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (ko'rsatkichi); PI — balans passividagi 1-bo'limning jami (ya'ni, o'z mablag'lari manbalarining jami); BJ — balansning jami.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsientining minimal mo'tadil qiymati 0,5 va undan yuqori bo'lsa, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradi, ya'ni o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlay oladi.

Tahlil ushbu koeffitsientning yil oxiridagi qiymatini yil boshidagi qiymatiga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi:

$$\frac{PI_1}{BJ_1} - \frac{PI_0}{BJ_0} = \pm \Delta PI, BJ.$$

bu yerda, PI_1, PI_0 — mos holda yil oxiri va yil boshidagi o'z mablag'lari manbalari summasi; BJ_1, BJ_0 — mos holda yil oxiri va yil boshidagi balansning jami summalari.

Ushbu o'zgarish ikki omil ta'siri ostida yuzaga keladi:

- 1). Balans jami summasining o'zgarishi hisobiga.
- 2). O'z mablag'lari manbalarining o'zgarishi hisobiga.

Ushbu omillar ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Ammo omillar ta'sirini aniqlashdan oldin, quyidagi ko'rsatkichlar hisoblab olinadi:

I. $\frac{PI_0}{BJ_0}$ — *bazis yilidagi moliyaviy mustaqillik koeffitsienti;*

II. $\frac{PI_0}{BJ_1}$ — *shartli moliyaviy mustaqillik koeffitsienti;*

III. $\frac{PI_1}{BJ_1}$ — *hisobot yilidagi moliyaviy mustaqillik koeffitsienti;*

Shundan keyin koeffitsientning o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi:

1). Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti o'zgarishiga birinchi omil «balans jami summasi» o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «shartli moliyaviy mustaqillik koeffitsienti» dan bazis yilidagi moliyaviy mustaqillik koeffitsientini chegirib tashlash kerak.

$$\frac{PI_0}{BJ_1} - \frac{PI_0}{BJ_0} = \pm \Delta BJ.$$

2). Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti o'zgarishiga ikkinchi omil «o'z mablag'lari manbalari» o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi moliyaviy mustaqillik koeffitsientidan shartli moliyaviy mustaqillik koeffitsientini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{PI_1}{BJ_1} - \frac{PI_0}{BJ_1} = \pm \Delta PI.$$

Ko'rsatilgan omil ta'sirlarining yig'indisi moliyaviy mustaqillik koeffitsientining o'zgarishiga teng kelishi kerak. Endi, moliyaviy mustaqillik koeffitsientining tahlilini «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi misolida ko'rib chiqamiz (17-jadval).

17-jadval

Moliyaviy mustaqillik koeffitsientining tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili boshi	Hisobot yili oxiri	O'zgarishi (+, -)
1.	Korxonaning o'z mablag'lari manbalari (balans passividagi I bo'limning jami — P1), ming so'm	116663	331713	+ 215050
2.	Balansning jami (BJ), ming so'm	3200059	4269759	+ 1069700
3.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, %	3,6	7,8	+ 4,2
4.	Shartli moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, $PI_0 : BJ_1$	x	2,7	x
5.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti o'zgarishiga omillarning ta'siri: 1) balans jami summasining o'zgarishi hisobiga 2) o'z mablag'lari manbalari o'zgarishi hisobiga	x x	x x	- 0,9 + 5,1

17-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot yilining oxirida korxonada moliyaviy mustaqillik koeffitsienti 4,2 bandga oshgan. Ammo bu ko'rsatkich xo'jalikning moliyaviy jihatdan mustaqil ekanligiga dalil bo'la olmaydi, chunki uning qiymati juda ham past, me'yordan 6 marta kamdir ($50:7,8=6$ marta). Yil boshida ham, yil oxirida ham ushbu koeffitsient 50 % dan yuqori bo'lganda, moliyaviy jihatdan mustaqil xo'jalik, deb hisoblash mumkin edi.

Bu korxonada kreditorlarga qaram bo'lgan xo'jalik hisoblanadi. Yil boshida majburiyatlar hissasi 96,4 % ni, yil oxirida 92,2 % ni tashkil qilgan. Demak, korxonada qarzdorlik ko'rsatkichi hisobiga faoliyat ko'rsatib kelmoqda, xulosasiga kelish mumkin.

6.4. Korxonaning to'lovga qodirlik ko'rsatkichi tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga baho berish uchun boshqa moliyaviy koeffitsientlar bilan bir qatorda to'lovga qodirlik ko'rsatkichi ham muntazam o'rganiladi va tahlil qilinadi.

Korxonaning to'lovga qodirlik ko'rsatkichi to'lov mablag'larining to'lov majburiyatlariga nisbati tariqasida hisoblanadi. To'lov mablag'larini summasini qisqa muddatli majburiyatlar summasiga bo'lish orqali to'lovga qodirlik koeffitsienti aniqlanadi:

$$Ktq = \frac{A2}{P2 - UQK - Mum},$$

bu yerda, $A2$ — to'lov mablag'larini jami (aylanma mablag'lar jami summasi); $P2$ — majburiyatlarning jami; UQK — uzoq muddatli qarzlari va kreditlar; Mum — hukumat qarori bilan muddati uzaytirilgan majburiyatlar (qarzlari).

To'lov mablag'larini tarkibiga moddiy aylanma aktivlar, pul mablag'larini, qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar va debitorlik qarzlari kiritiladi; qisqa muddatli majburiyatlarga qisqa muddatli qarzlari, qisqa muddatli kreditlar va kreditorlik qarzlari kiritiladi. Qisqa muddatli majburiyatlar summasini hisoblashda, hukumat qarori bilan muddati uzaytirilgan qarzlari chegirib tashlanadi.

Korxonada to'lovga qodir bo'lishi uchun ushbu koeffitsient 2 va undan yuqori bo'lishi kerak.

To'lovga qodirlik darajasining tahlili taqqoslab, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Uning o'zgarishi to'rt omil hisobiga sodir bo'ladi. Omillarning ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlanadi. Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin 5 bog'lanish ko'rsatkichi hisoblab olinishi kerak. So'ngra ketma-ketlikni saqlagan holda bir-biriga solishtirib, har bir omilning ta'siri aniqlanadi. To'lovga qodirlik koeffitsientining tahlilini «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi misolida ko'rib chiqamiz. Tahlil 16-jadvaldagi ma'lumotlar asosida amalga oshirildi.

$$I. \frac{A_{2_0}}{P_{2_0} - UQK_0 - Mum_0} = \frac{3099439}{3083396 - 0 - 0} = 1,005 \text{ yoki } 100,5\%.$$

$$II. \frac{A_{2_0}}{P_{2_1} - UQK_0 - Mum_0} = \frac{3099439}{3938046 - 0 - 0} = 0,787 \text{ yoki } 78,7\%.$$

$$III. \frac{A_{2_0}}{P_{2_1} - UQK_1 - Mum_0} = \frac{3099439}{3938046 - 0 - 0} = 0,787 \text{ yoki } 78,7\%.$$

$$IV. \frac{A_{2_0}}{P_{2_1} - UQK_1 - Mum_1} = \frac{3099439}{3938046 - 0 - 0} = 0,787 \text{ yoki } 78,7\%.$$

$$V. \frac{A_{2_1}}{P_{2_1} - UQK_{01} - Mum_1} = \frac{4096278}{3938046 - 0 - 0} = 1,040 \text{ yoki } 104\%.$$

Tahlil koeffitsientlarni o'zaro qiyoslab, farqini aniqlashdan boshlanadi. Yil oxiridagi to'lovga qodirlik koeffitsienti (V bog'lanish)ni yil boshidagi koeffitsienti (I bog'lanish)ga solishtirib, uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi. Shundan so'ng omillar ta'siri ushbu o'zgarishga quyida tartibda aniqlanadi:

$$1,040 - 1,005 = + 0,035 \text{ yoki } 3,5 \%.$$

Demak, to'lovga qodirlik darajasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 3,5 % ga oshgan, xolos. II bog'lanish ko'rsatkichidan I bog'lanish ko'rsatkichini ayirish orqali koeffitsientning o'zgarishiga majburiyatlar jami hajmi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$0,787 - 1,005 = -0,218 \text{ yoki } 21,8 \%.$$

Demak, majburiyatlarning jami hisobot yili oxirida 3938046 ming so'mni tashkil qilib, yil boshidagi hajmiga nisbatan 854650 ming so'mga yoki 27,7 % ga oshgan, natijada, shu omil hisobiga to'lovga qodirlik koeffitsienti 21,8 % ga pasaygan.

III bog'lanish ko'rsatkichidan II bog'lanish ko'rsatkichini chegirish orqali ushbu koeffitsientning o'zgarishiga uzoq muddatli majburiyatlar summasi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi. Ammo korxonada uzoq muddatli qarz va kreditlar yo'qligi tufayli ularning ta'siri bo'lmagan:

III-II. 0,787-0,787=0.

IV bog'lanish ko'rsatkichi bilan III bog'lanish ko'rsatkichi orasidagi farq hukumat qarori bilan to'lash muddati cho'zilgan majburiyatlar summasi o'zgarishining ta'siri ko'rsatadi, ammo bunday majburiyat korxonada sodir bo'lgan emas, shuning uchun uning koeffitsientini o'zgarishiga ta'siri bo'lmagan:

IV-III. 0,878-0,878=0.

V bog'lanish ko'rsatkichidan IV bog'lanish ko'rsatkichini chegirish orqali to'lovga qodirlik koeffitsientining o'zgarishiga to'lov mablag'lari jami summasi o'zgarishi ta'siri aniqlanadi:

1,040-0,787=+ 0,253 yoki 25,3 %.

Demak, to'lov mablag'lari summasi hisobot yilining oxirida boshidagi summasiga nisbatan 996839 ming so'mga yoki 32,2 % ga oshgan, natijada, shu omil hisobiga to'lovga qodirlik koeffitsienti 25,3 % ga oshgan. Shunday qilib, to'lovga qodirlik darajasi bir omilning salbiy, ikkinchi omilning ijobiy ta'siri ostida o'zgaragan, qolgan ikki omil ta'sir etmagan.

Shuni qayd qilish kerakki, to'lovga qodirlik darajasida o'sish sodir bo'lgan bo'lsa ham, u mutlaqo talab darajasiga javob bermaydi, chunki korxonada to'lovga qodir bo'lishi uchun to'lovga qodirlik koeffitsienti 2 dan yuqori bo'lishi kerak, korxonada u yil boshida ham, yil oxirida ham 1 koeffitsient atrofidagi miqdorni tashkil qilgan, xolos.

6.5. Korxonaning o'z aylanma mablag'i bilan ta'minlanish darajasi tahlili

Xo'jalikning moliyaviy holatiga baho berishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan biri bo'lib, korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti hisoblanadi. O'z aylanma mablag'lari jamini aylanma mablag'larning jamiga bo'lish orqali ushbu koeffitsient aniqlanadi, ammo o'z aylanma mablag'lari hajmi balandsda tayyor holda berilgan emas, shuning uchun ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun korxonada o'z mablag'lari manbalari jami summasiga (*PI*) uzoq muddatli majburiyatlarni (*UQK*) qo'shib, uzoq muddatli aktivlar jamini (*AI*) chegirib tashlash kerak:

PI+UQK-AI.

Shundan keyin xo'jalikning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsientini aniqlash mumkin. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K_{OT} = \frac{P_1 + UQK - A_1}{A_2}$$

Ushbu ko'rsatkich 0,1 koeffitsientdan kam bo'lmasligi kerak. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti ham yil boshi, ham yil oxiriga aniqlab olingandan keyin, solishtirish orqali tahlil qilinadi.

Tahlil — tahlil qilinayotgan davrning oxiridagi koeffitsientdan boshidagi koeffitsientini ayirish orqali o'zgarishi aniqlanadi. So'ngra ushbu o'zgarishga omillar ta'siri aniqlanib, tahlil qilinadi.

Yuqoridagi ifodadan ko'rinib turibdiki, ushbu koeffitsientning o'zgarishiga to'rt omil ta'sir qiladi:

1. O'z mablag'lari manbalari hajmining o'zgarishi ($P_{1_1} - P_{1_0}$).
2. Uzoq muddatli majburiyatlar uzoq muddatli qarzlari (Q) va uzoq muddatli kreditlar (K) hajmining o'zgarishi ($QK_1 - KK_0$).
3. Uzoq muddatli aktivlar hajmining o'zgarishi ($A_{1_1} - A_{1_0}$).
4. Jami aylanma aktivlar hajmining o'zgarishi ($A_{2_1} - A_{2_0}$).

Ushbu omillarning koeffitsienti o'zgarishiga ta'siri «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, aniqlanadi.

Ushbu koeffitsient tahlili 16-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Omillar ta'sirini hisoblashdan oldin quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlab olinishi kerak:

$$I. \frac{P_{1_0} + UQK_0 - A_{1_0}}{A_{2_0}} = \frac{116663 + 181546 - 100623}{3099436} = \frac{197586}{3099436} = 0,064 \text{ yoki } 6,4\%$$

$$II. \frac{P_{1_0} + UQK_0 - A_{1_0}}{A_{2_0}} = \frac{331713 + 181546 - 100623}{3099436} = \frac{412636}{3099436} = 0,133 \text{ yoki } 13,3\%$$

$$III. \frac{P_{1_1} + UQK_1 - A_{1_0}}{A_{2_0}} = \frac{331713 + 190978 - 100623}{3099436} = \frac{422068}{3099436} = 0,136 \text{ yoki } 13,6\%$$

$$IV. \frac{P_{1_1} + UQK_1 - A_{1_1}}{A_{2_0}} = \frac{331713 + 190978 - 173481}{3099436} = \frac{349210}{3099436} = 0,113 \text{ yoki } 11,3\%$$

$$V. \frac{PI_1 + UQK_1 - AI_1}{A2_0} = \frac{331713 + 190978 - 173481}{4096278} = \frac{349210}{4096278} = 0,085 \text{ yoki } 8,5\%.$$

Ushbu hisob-kitob ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasida o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi hisobot yilining oxirida 8,5 % ni tashkil qilib, u yil boshidagi ta'minlanish darajasiga nisbatan 2,1 % ga oshgan:

$$\frac{PI_1 + UQK_1 - AI_1}{A2_1} - \frac{PI_0 + UQK_0 - AI_0}{A2_0} = 8,5 - 6,4 = +2,1\%.$$

Ushbu o'zgarish ikki omilning ijobiy va salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Birinchi omil «Korxonaning o'z mablag'lari manbalari»ning yil boshiga nisbatan 215050 ming so'mga oshishi natijasida, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 6,9 % ga oshgan:

$$II-I. 13,3 - 6,4 = + 6,9 \%$$

Ikkinchi omil «Uzoq muddatli majburiyatlar hajmi»ning yil oxirida yil boshiga nisbatan 9432 ming so'mga (190978-181546=+9432) oshishida natijasi o'z aylanma mablag'lar bilan korxonaning ta'minlanish darajasi 0,3 % ga oshgan:

$$III-II. 13,6 - 13,3 = + 0,3 \%$$

Uchinchi omil «Uzoq muddatli aktivlar hajmi»ning 72857 ming so'mga (173481-100624=+72857) oshishida o'z aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish darajasiga salbiy ta'sir qilib, uning koeffitsientini 2,3 % ga kamayishiga olib kelgan:

$$IV-III. 11,3 - 13,6 = - 2,3 \%$$

To'rtinchi omil «Jami aylanma mablag'lar hajmi»ning 996842 ming so'mga (4096278-3099436=996842) oshishi natijasida, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti 2,8 % ga kamaygan:

$$V-IV. 8,5 - 11,3 = - 2,8 \%$$

Shuni qayd qilish kerakki, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 2,1 % ga oshgan bo'lsa ham, belgilangan normativdan past. Normativ bo'yicha kamida

ushbu koeffitsient 10 % dan kam bo'lmisligi kerak. Demak, korxonaga o'z aylanma mablag'lari bilan yetarli darajada ta'minlangan emas. O'z aylanma mablag'lari hajmini oshirish imkoniyatlarini topish choralari ko'rilishi kerak.

6.6. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyaviy holati mustahkamlashning shart-sharoitlaridan biri bo'lib, hisob-kitob ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va moliyaviy intizomga qat'iy rioya qilish hisoblanadi. Moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan barcha hisoblashuvlar umuman olganda, «Debitor va kreditorlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar» tariqasida yuzaga keladi.

Aksariyat korxonalarda moliyaviy holatning yomonlashuvi ko'p jihatdan katta hajmdagi debitorlik va kreditorlik qarzlarning to'planib qolishiga bog'liq bo'ladi. Debitorlik qarzlarning katta hajmda paydo bo'lishi korxonaga mablag'larini muomaladan chiqaradi, o'z aylanma mablag'larining yetishmovchiligiga sababchi bo'ladi, natijada, kreditorlik qarzining oshishiga olib keladi, bular hammasi moliyaviy holatga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ushbu qarzlarning bilan bog'liq bo'lgan jarayonni uzluksiz ravishda tahlil etib turish zarur.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar, deb qanday qarzlarning tushuniladi?

Korxonaga tomonidan boshqa korxonaga va tashkilotlarga to'lanishi zarur bo'lgan majburiyatlar kreditor qarzlari deb, korxonaga boshqa korxonaga va tashkilotlar tomonidan to'lanishi zarur bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik qarzlari, deb tushuniladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini hisob-kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. To'lov muddatining cho'zilib ketishi korxonalar moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi.

Tahlilning asosiy maqsadi nimadan iborat?

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining mavjud holatini o'rganish asosida ular bo'yicha aylanish davrini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash negizida moliyaviy holatni yaxshilash tahlilining asosiy maqsadi hisoblanadi. Tahlil etishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga, tarkibiga, tarkibiy tuzilishiga, tashkil topish muddatlariga, dargumon qarzlarning yuzaga chiqishiga baho beriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlili taqqoslash usuli yordamida quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda

debitorlik va kreditorlik qarzlarning tarkibi hamda tarkibiy tuzilishi o'rganiladi. Buning uchun, avvalo, har bir qarz turi hajmi va uning hissasi aniqlanadi.

Buxgalteriya balansida ko'rsatilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning jamiga nisbatan har bir qarz turining hissasini shu qarz summasini 100 % ga ko'paytirib, jamiga bo'lish orqali aniqlanadi. Shundan keyin tahlil amalga oshiriladi. Hisobot davrining oxiridagi qarzlarning hajmini davr boshidagi qarzlarning hajmiga, davr oxiridagi hissasini davr boshidagi hissasiga solishtirilib, o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi. Ushbu o'zgarish mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Qarzlarning bo'yicha mutlaq o'zgarishini aniqlash uchun davr oxiridagi summasidan davr boshidagi summasi chegirilib tashlanadi, nisbiy o'zgarishini aniqlash uchun mutlaq o'zgarish summasi 100 % ga ko'paytirilib, natijasini davr boshidagi summasiga bo'lish kerak. Shundan keyin debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy holatiga baho beriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari tarkibi hamda tarkibiy tuzilishining tahlilini «Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasi miqosida ko'rib chiqamiz (18-jadval).

18-jadval

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tahlili (hisobot yili)

T/r	Ko'rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		O'zgarishi (+, -)	
		Summasi, so'm	Salmog'i, %	Summasi, so'm	Salmog'i, %	Summasi, so'm	Salmog'i, %
I. Debitorlik qarzlari							
1.	Xaridorlar bilan hisoblashishlar	7714	1,9	-	-	- 7714	- 1,9
2.	Budjet bilan hisoblashishlar	80862	19,8	109057	25,5	+ 28195	+ 5,7
3.	Xodimlar bilan hisoblashishlar	10997	2,7	-	-	- 10997	- 2,7
4.	Sho'ba korxonalarini bilan hisoblashishlar	125531	30,7	125531	29,4	-	- 1,3
5.	Uyushma korxonalarini bilan hisoblashishlar	181546	44,4	190978	44,7	+ 9432	+ 0,3
6.	Boshqa debitorlar	2367	0,5	2085	0,4	- 282	- 0,1
	Jami	409017	100	427651	100	+ 18634	-

II. Kreditorlik qarzlari

1.	Mol yetka zib beruvchilar	830506	28,6	1019620	27,2	+189114	- 1,4
2.	Budjet bo'yicha qarzlilar	-	-	191631	5,1	+ 191631	+ 5,1
3.	Mehnat haqi bo'yicha qarzlilar	28463	1,0	30231	0,8	+ 1768	- 0,2
4.	Mulkiy va shaxsiy sug'urtalar bo'yicha qarzlilar	38197	1,3	36077	1,0	- 2120	- 0,3
5.	Budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzlilar	52588	1,8	42086	1,1	- 10502	- 0,7
6.	Sho'ba korxonalariga qarzlilar	1948316	67,2	2421497	64,7	+ 473181	- 2,5
7.	Boshqa kreditorlar	3780	0,1	5926	0,1	+ 2146	-
Jami		2901850	100	3747068	100	+ 845218	-

18-jadvaldan ma'lumki, debitorlik qarzlari hisobot yilining oxirida 427654 ming so'mni tashkil qilib, u yil boshiga nisbatan 18634 ming so'mga yoki 4,5 % ga oshgan ($18634 \cdot 100:409017$). Shu jumladan, budjet tashkilotlarining qarzi 28195 ming so'mga yoki 34,9 % ga, uyushma korxonalarining qarzlari 9432 ming so'mga yoki 5,2 % ga oshgan. Boshqa debitorlik qarzlari bo'yicha kamayish sodir bo'lgan, ayrim qarzlilar undirib olingan. Masalan, xaridorlarning (7714 ming so'm) qarzi, xodimlarning (10997 ming so'm) qarzi to'liq undirib olingan, boshqa debitorlik qarzi 282 ming so'mga yoki 11,9 % ga kamaygan. Sho'ba korxonalaridan qarzlarni undirib olish choralari ko'rilmagan, ushbu korxonalar qarzi hajmi o'zgarimasdan qolgan.

«Chelak» paxtani qayta ishlash korxonasining boshqa tashkilotlarga bo'lgan kreditorlik qarzlari 845218 ming so'mga yoki 29,1 % ga oshgan ($845218 \cdot 100:2901850$). Shu jumladan, mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzi 189114 ming so'mga (22,8 % ga), budjetga bo'lgan qarzi 191621 ming so'mga (100 % ga), sho'ba korxonalariga bo'lgan qarzi 473181 ming so'mga (24,3 % ga), mehnat haqi bo'yicha qarzi 1768 ming so'mga (6,2 % ga), boshqa kreditorlarga bo'lgan qarzi 2146 ming so'mga (55,8 % ga) oshgan. Faqat ikki tur kreditorlik majburiyati bo'yicha qarzini kamaytirgan. Sug'urta tashkilotlariga bo'lgan qarzi 2120 ming so'mga (5,5 % ga), budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzi 10502 ming so'mga (20,0 % ga) kamaygan.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy tahlilidan keyin to'lov muddati o'tib ketgan qarzlarni maxsus tahlil etib, sabablarini aniqlash zarur. Bu tahlilni amalga oshirish uchun moliyaviy hisobot tarkibidagi 2a-shaklining «Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida ma'lumotnoma» ko'rsatkichlaridan foydalanish kerak.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni undirish muddati 90 kun qilib belgilangan. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari davlat tomonidan nazoratga olinadi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobdan chiqarish muddati qonun bilan 3 yil qilib belgilangan. Ushbu muddatda to'lanmagan kreditorlik qarzlari yoki undirib olinmagan debitorlik qarzlari korxonaning foyda va zararlar schotiga olib boriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlili paytida aylanuvchanligiga ham alohida e'tibor berish zarur, chunki majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasi korxonaga moliyaviy holatiga baho berishda ishlatiladigan muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi deganda nima tushuniladi? Debitorlik qarzlarni undirib olish muddati va ularning aylanish ko'rsatkichi tushuniladi. Bu ko'rsatkich esa majburiyatlarining necha kundan keyin naqd pulga, likvid mablag'ga aylanishini xarakterlaydi.

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsienti qanday aniqlanadi? Bu koeffitsientni aniqlash uchun mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushumni (*ST*) debitorlik qarzlarning o'rta hajmiga (*DQ*) bo'lish kerak:

$$K_{deb} = \frac{ST}{DQ}$$

Debitorlik qarzlarning aylanish davri kun hisobida qanday aniqlanadi? Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun debitorlik qarzlari jamini davrning kalendar kunlari soniga ko'paytirib, natijasini sotishdan olingan sof tushumga bo'lish kerak:

$$Ad_{deb} = \frac{DQ \cdot 360}{ST}$$

Shundan keyin debitorlik qarzlari aylanish koeffitsienti o'zgarishi, majburiyatlar aylanish davrining o'zgarishi hamda o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi.

Debitorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsientining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

1. Sof tushum hajmining o'zgarishi.
2. Debitorlik qarzlari summasining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi uch bog'lanish ko'rsatkichi hisoblab olinadi:

- I. $\frac{ST_0}{DQ_1}$ – bazis yilidagi debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti;
- II. $\frac{ST_1}{DQ_0}$ – debitorlik qarzlarning shartli aylanish koeffitsienti;
- III. $\frac{ST_1}{DQ_1}$ – hisobot yilidagi debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti.

Ushbu bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlangandan keyin, qarzlarning aylanish koeffitsienti o'zgarishi va unga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi.

Debitorlik qarzlari aylanish koeffitsientining umumiy o'zgarishi:

$$III - I. \frac{ST_1}{DQ_1} - \frac{ST_0}{DQ_0} = \pm \Delta ST, DQ.$$

Debitorlik qarzlari aylanish koeffitsientining o'zgarishiga sof tushum hajmi o'zgarishi ta'siri:

$$II - I. \frac{ST_1}{DQ_0} - \frac{ST_0}{DQ_0} = \pm \Delta ST, DQ.$$

Debitorlik qarzlari aylanish koeffitsientining o'zgarishiga debitorlik qarzlari summasi o'zgarishi ta'siri:

$$III - II. \frac{ST_1}{DQ_1} - \frac{ST_1}{DQ_0} = \pm \Delta DQ.$$

Ushbu omillar ta'sirlarining yig'indisi debitorlik qarzlari aylanish koeffitsienti o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta ST \pm \Delta DQ = \pm \Delta ST, DQ.$$

Shundan so'ng kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsientining o'zgarishi tahlil qilinadi. Tahlil qilish tartibi debitorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsientining tahliliga o'xshaydi. Bu yerda ham solishtirish va «zanjirli bog'lanish» usullari yordamida tahlilni amalga oshirish zarur.

Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsienti tahlilini quyidagicha amalga oshirish mumkin. Aylanuvchanlik koeffitsientining umumiy o'zgarishi:

$$\frac{IT_1}{KQ_1} - \frac{IT_0}{KQ_0} = \Delta IT, KQ.$$

Kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsientining o'zgarishiga sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishi ta'siri:

$$\frac{IT_1}{KQ_0} - \frac{IT_0}{KQ_0} = \Delta IT.$$

Kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik koeffitsientining o'zgarishiga kreditorlik qarzlari o'zgarishi ta'siri:

$$\frac{IT_1}{KQ_1} - \frac{IT_0}{KQ_0} = \Delta KQ.$$

bu yerda, IT_1, IT_0 — mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi; KQ_1, KQ_0 — mos holda hisobot va bazis yillaridagi kreditorlik qarzlarning o'rtta hajmi (summasi).

Omillar ta'sirining yig'indisi aylanuvchanlik koeffitsienti o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Tayanch iboralar

- | | |
|------------------------|-------------------------------------|
| ✓ buxgalteriya balansi | ✓ moliyaviy mustaqillik |
| ✓ balans – brutto | ✓ moliyaviy barqarorlik |
| ✓ balans – netto | ✓ to'lovga qodirlik |
| ✓ balans aktivi | ✓ o'z mablag'lari |
| ✓ balans passivi | ✓ qarz mablag'lari |
| ✓ mulk | ✓ o'z aylanma mablag'lari |
| ✓ kapital | ✓ debitorlik majburiyatlari |
| ✓ majburiyatlar | ✓ kreditorlik majburiyatlari |
| ✓ gorizontal usul | ✓ debitor qarzlari aylanuvchanligi |
| ✓ vertikal usul | ✓ kreditor qarzlari aylanuvchanligi |

? NAZORAT SAVOLLARI

1. Sanoat korxonasi moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Tahlilning asosiy manbalari bo'lib, qaysi hisobot ma'lumotlari hisoblanadi?
3. Tahlilning asosiy vazifalarini bayon qiling.
4. Buxgalteriya balansiga ta'rif bering va uning tahlildagi ahamiyatini ko'rsating.
5. Buxgalteriya balansi aktiv qismida xo'jalikning nimalari hisobga olinadi, har birini ta'riflang.
6. Buxgalteriya balansining passiv qismida nimalar hisobga olinadi?
7. Korxonada qay vaqtda moliyaviy barqaror xo'jalik bo'la oladi?
8. Moliyaviy mustaqillik koeffitsientining tahlilini tushuntiring.
9. Korxonaning to'lovga qodirlik koeffitsienti qanday aniqlanadi?
10. To'lovga qodirlik koeffitsientining tahlilini tushuntiring.
11. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari balans bo'yicha qanday aniqlanadi?
12. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlash koeffitsienti o'zgarishiga nechta omil ta'sir qiladi?
13. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning mazmunini tushuntiring.
14. Debitorlik qarzlarning tahlilini tushuntiring.
15. Kreditorlik qarzlarning tahlilini bayon qiling.

7-bob. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH HAJMINING TAHLILI

7.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari

Qishloq xo‘jaligi xalq xo‘jaligining ishlab chiqarish tarmoqlari orasida eng muhim o‘rinni egallaydi. Shuning uchun ham ushbu tarmoqning taraqqiyotiga xalq xo‘jaligi rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyoti ko‘p jihatdan bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan respublika hukumati o‘simlik va chorvachilik sohaslarini rivojlantirishga alohida e‘tibor berib kelmoqda. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ko‘paytirish va ularning samaradorligini oshirish aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning xomashyoga bo‘lgan talabini qondirishda hamda davlat zaxiralarini tashkil qilishda muhim shart-sharoit bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish imkoniyatlarini izlab topish va ularni ishlab chiqarishga jalb etish asosiy vazifadir. Ushbu vazifani hal qilish uchun ishlab chiqarish sohaslarini uzluksiz ravishda tahlil etib turish zarur.

Bu vazifa tahlilning maqsadi hisoblanadi. Tahlil barcha resurslardan samarali foydalanish asosida ishlab chiqarishni kengaytirish, rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlaydi va ularni jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Ushbu maqsadga erishish uchun tahlil oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi hamda tarkibiy tuzilishining o‘zgarishini o‘rganish.

2. Qishloq xo‘jaligi yerlari va chorva mollaridan foydalanish samaradorligini o‘rganish.

3. Resurslar bilan ta‘minlanish va ulardan foydalanish darajasini ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga ta‘sirini aniqlashni o‘rganish.

4. O‘simlik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hamda sotishni ko‘paytirish imkoniyatlarini ko‘rsatish.

Tahlilning asosiy manbalari quyidagi axborot ma‘lumotlari hisoblanadi:

1. O‘simlik mahsulotlari ishlab chiqarish va ularning tannarxi to‘g‘risidagi hisobot (9-ASK shakli).
2. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va ularning tannarxi to‘g‘risidagi hisobot (13-ASK shakli).
3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish to‘g‘risidagi hisobot (7-ASK shakli).
4. Mahsulot balansi (14-ASK shakli).
5. Biznes-reja.
6. Uzoq muddatli va aylanma aktivlar, o‘z mablag‘lari manbayi va majburiyatlari to‘g‘risidagi statistik hisobot (2f-shakli).
7. Korxonalar sarf-xarajatlari to‘g‘risidagi statistik hisobot (5s-shakli).

7.2. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi tahlili

Yer — umumiy boylik bo‘lib, u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yerdan inson hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida oqilona foydalanish zarur.

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari quyidagi ikki guruhga bo‘linadi:

1. Yer mahsuldorligi ko‘rsatkichlari.
2. Xarajatlar qaytimi ko‘rsatkichlari.

Yer mahsuldorligi 1 yoki 100 gektar hisobiga to‘g‘ri keladigan mahsulot chiqimi bilan o‘lchanadi. Yer mahsuldorligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi:

1. 1 yoki 100 gektar maydon hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qiymati (hajmi).

2. 1 yoki 100 gektar maydon hisobiga ishlab chiqarilgan sof mahsulot qiymati (hajmi).

3. 1 yoki 100 gektar maydon hisobiga olingan sof daromad summasi.

Yer mahsuldorligi ko‘rsatkichlarini davrlar bo‘yicha o‘rganishda mahsulot hajmini taqqoslama baho bo‘yicha hisoblash zarur. Yer mahsuldorligi ko‘rsatkichi taqqoslama baho (yoki tannarx) bo‘yicha hisoblangan mahsulot hajmini kadastr yoki ekin maydoniga bo‘lish orqali aniqlanadi. Taqqoslama baho tariqasida 1996-yil tannarxini yoki tahlil qilinayotgan davrlarning boshlang‘ich tannarxini qabul qilish mumkin. Biz 2001-yil tannarxini oldin va u asosida bazis hamda hisobot yillari uchun yalpi mahsulot hajmini hisoblab, natijasini tegishli davr ekin maydoniga bo‘lib, yer samaradorligini aniqladik. Buni qo‘yidagicha ifodalash mumkin:

Bazis yili uchun

$$Epm_0 = \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_0}$$

Hisobot yili uchun

$$Epm_1 = \frac{\sum Q_1 Z_1}{\sum M_1}$$

bu yerda, Q_1 — hisobot davrida yetishtirilgan har bir mahsulotning miqdori; Q_0 — bazis davrida yetishtirilgan har bir mahsulotning miqdori; Z_0 — bazis davrida yetishtirilgan har bir mahsulot bir birligining tannarxi (taqqoslama tannarxi); M_1, M_0 — mos holda hisobot va bazis davrdagi jami ekin maydoni; $\sum Q_0 Z_0, \sum Q_1 Z_1$ — mos holda bazis va hisobot yillarida yetishtirilgan mahsulotlarning taqqoslama hajmi.

Hisobot yilidagi yer mahsuldorligi ko'rsatkichini bazis yilidagi ko'rsatkichga solishtirilib, uning umumiy o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$\frac{\sum Q_1 Z_1}{\sum M_1} - \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_0} = \pm \Delta MQ.$$

Yer mahsuldorligining o'zgarishi, ushbu ifodadan ko'rinib turibdiki, ikki omil hisobiga sodir bo'ladi. Omillar ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlanadi.

Ushbu omillar yer mahsuldorligining o'zgarishiga ta'sirini aniqlashdan oldin «Shartli yer mahsuldorligi» ko'rsatkichi aniqlab olinishi kerak. «Shartli yer mahsuldorligi» ko'rsatkichini aniqlash uchun bazis yilidagi yalpi mahsulot qiymatini hisobot yilidagi ekin maydoniga bo'lmoq lozim:

$$Epm_{sh} = \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_1}$$

Shundan so'ng yer mahsuldorligining o'zgarishiga omillar ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlanadi. Yer mahsuldorligi o'zgarishiga ekstensiv omil, ya'ni ekin maydoni o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli yer mahsuldorligi ko'rsatkichidan bazis yilidagi yer mahsuldorligi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_1} - \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_0} = \pm \Delta M.$$

Yer mahsuldorligining o'zgarishiga intensiv omil, ya'ni mahsulot fizik miqdori o'zgarishining ta'siri hisobot yilidagi yer mahsuldorligi ko'rsatkichidan shartli yer mahsuldorligi ko'rsatkichini ayirib tashlash orqali aniqlanadi:

$$\cdot \frac{\sum Q_1 Z_0}{\sum M_1} - \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_1} = \pm \Delta Q.$$

Yuqoridagi omil ta'sirlari yig'indisi yer mahsuldorligining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart. Shundan so'ng omillar ta'siriga baho berilib, imkoniyatlar ko'rsatilishi kerak.

Endi, Paxtachi tumanidagi Q. Rajabov nomli shirkat xo'jaligi misolida yerdan foydalanish samaradorligining tahlilini ko'rib chiqamiz. Buni dehqonchilikning asosiy mahsulotlarini yetishtirish uchun ajratilgan ekin maydonidan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari asosida amalga oshiramiz. Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar 19-jadvalda keltirildi.

19-jadval

Yerdan foydalanishning tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ekinlar	1 s mahsulotning bazis yilidagi tannarxi, so'm	Ekin maydoni, ga		Yetishtirilgan mahsulot, s		Yalpi mahsulot qiymati, ming so'm	
		bazis yili	hisiobot yili	bazis yili	hisiobot yili	bazis yili	hisiobot yili
	Z ₀	M ₀	M ₁	Q ₀	Q ₁	Q ₀ Z ₀	Q ₁ Z ₀
Boshoqli ekinlar	3932	380	404	14402	18783	56626	73855
Paxta	8362	1074	1010	35997	31137	300997	260368
Kartoshka	1373	3	—	300	—	412	—
Sabzavot	3334	17	14	2605	3813	8686	12713
Poliz	1275	3	2	229	100	292	127,5
Jami	X	1477	1430	x	x	367013	347064

Ushbu ma'lumotlar asosida yerdan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi. Buning uchun birinchi navbatda bir gektar hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi aniqlanadi:

Bazis yili uchun

$$E_{pm_0} = \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_0} = \frac{367013}{1477} = 248,5 \text{ ming so'm.}$$

Hisobot yili uchun

$$Epm_1 = \frac{\sum Q_1 Z_0}{\sum M_1} = \frac{347064}{1430} = 242,7 \text{ ming so' m.}$$

Demak, hisobot yilida bir gektar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi bazis yilida bir gektar hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmiga nisbatan 5,8 ming so'mga kamaygan:

$$\frac{\sum Q_1 Z_0}{\sum M_1} - \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_0} = 242,7 - 248,5 = - 5,8 \text{ ming so' m.}$$

Demak, yerdan foydalanish samaradorligi darajasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 5,8 ming so'mga yoki 2,3 % ga pasaygan. Bu yuqorida qayd qilganimizdek, ikki omil hisobiga sodir bo'lgan:

1) ekin maydonining o'zgarishi hisobiga;

2) yetishtirilgan mahsulot fizik miqdorining o'zgarishi hisobiga.

Ushbu omillarning ta'siri aniqlanganligiga qadar, shartli yerdan foydalanish darajasi aniqlab olinadi:

$$\frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_1} = \frac{367031}{1430} = 256,7 \text{ ming so' m.}$$

Shundan so'ng yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash mumkin.

Hisobot yilida ekilgan asosiy ekinlarning maydoni 1430 gektar bo'lib, u bazis yilidagi maydonga nisbatan 47 gektarga ($1430 - 1477 = -47$ ga) yoki 3,2 % ga kamaygan, natijada, shu omil hisobiga yerdan foydalanish samaradorligi oshgan, ya'ni bir gektar hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmi 8,2 ming so'mga yoki 3,2 % ga oshgan:

$$\frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_1} - \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_0} = \frac{367013}{1430} - \frac{367013}{1477} = 256,7 - 248,5 = + 8,2 \text{ ming so' m.}$$

Hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori bazis yiida yetishtirilgan mahsulotlarning miqdoriga nisbatan 5,5 % ga kamaygan:

$$\frac{\sum Q_1 Z_0}{\sum Q_0 Z_0} = \frac{347064}{367013} = 0,945 \text{ yoki } 94,5 \text{ \%}.$$

Yetishtirilgan mahsulotlar miqdorining kamayishi tufayli yerdan foydalanish samaradorligi 14 ming so'mga yoki 5,5 % ga kamaygan:

$$\frac{\sum Q_1 Z_0}{\sum M_1} - \frac{\sum Q_0 Z_0}{\sum M_1} = \frac{347064}{1430} - \frac{367013}{1430} = 242,7 - 256,7 = -14 \text{ ming so'm yoki } 5,5\%.$$

Ushbu hisob-kitoblardan ma'lumki, yerdan foydalanish samaradorligining pasayishi, asosan, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining kamayishi hisobiga sodir bo'lgan. Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'sishiga erishish zarur. Buning uchun ekin maydonining kamayishiga yo'l qo'ymaslik, ayniqsa, ekinlar hosildorligining oshishiga erishish zarur.

7.3. Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligi tahlili

O'zbekistonda bir yilda o'rtacha 60 mlrd m³ suvdan foydalaniladi, uning 90 % qishloq xo'jaligida, qolgan qismi esa aholi ta'minoti, sanoat, qurilish va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida iste'mol qilinadi. Mamlakatimizda foydalanilayotgan suv resurslarining 10—12 % respublikamiz hududida shakllanadi, qolgan 88—90 % esa qo'shni davlatlardan oqib keladi. Shuning uchun ham iste'mol qilinayotgan suvni tejash va undan samarali foydalanish masalasi har bir xo'jalik oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Suvdan foydalanish samaradorligi qaysi ko'rsatkich orqali ifodalanadi?

Ushbu ko'rsatkich 1 ming m³ suv hajmi hisobiga olingan mahsulot hajmi bilan ifodalanadi. Buni aniqlash uchun bir gektar maydondan olingan mahsulot miqdori (hosildorlik)ni (H) bir gektar ekin maydoniga sarflangan suv hajmiga (SS) bo'lish kerak:

$$S_f = \frac{H}{SS},$$

bu yerda, S_f — suvdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi (1 ming m³ suv hisobiga olingan mahsulot).

Hisobot yilidagi suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichidan me'yordagi va bazis yilidagi samaradorlik ko'rsatkichini ayirish orqali uning o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$S_{f_1} - S_{f_0} = \frac{H_1}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_0} = \pm \Delta SS, H.$$

Ifodadan ko'rinib turibdiki, suvdan foydalanish samaradorligi darajasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

1) bir gektar ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan suv hajmining o'zgarishi;

2) bir gektar ekin maydonidan olingan mahsulot miqdori (ya'ni, hosildorlik)ning o'zgarishi.

Ushbu omillarning suvdan foydalanish samaradorligi o'zgarishiga ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib aniqlash qulayroq. Omillar ta'sirini aniqlashdan avval suvdan foydalanish samaradorligining shartli ko'rsatkichini aniqlab olish zarur. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun bazis yilida bir gektar ekin maydonidan olingan mahsulot miqdori (hosildorlik)ni hisobot yilida bir gektar ekin maydoniga sarf bo'lgan suv hajmiga bo'lish kerak:

$$S_{fsh} = \frac{H_0}{SS_1}$$

Shundan keyin suvdan foydalanish samaradorligiga omillarning ta'sirini aniqlash mumkin. Suvdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga bir gektar ekin maydoniga sarf bo'lgan suv hajmi o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun shartli suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichidan bazis yilidagi suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichini ayirish kerak.

$$\frac{H_0}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_0} = \pm \Delta SS$$

Suvdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga hosildorlik darajasi o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi shartli suvdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichidan shartli samaradorlik ko'rsatkichini ayirish lozim:

$$\frac{H_1}{SS_1} - \frac{H_0}{SS_1} = \pm \Delta H$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi suvdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin har bir omilning ta'siri ta'riflanib, suvdan foydalanish darajasiga baho beriladi va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rsatilib, xulosa chiqariladi.

7.4. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining tahlili

Dehqonchilik — qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i. Uning rivojlanishiga, nafaqat, qishloq xo'jaligining taraqqiyoti, hatto mamlakat iqtisodining rivojlanishi ham ko'p jihatdan bog'liq. Shuning uchun ushbu soha bo'yicha ishlab chiqarish jarayoni chuqur o'rganish va tahlil qilish asosida mavjud imkoniyatlarini ko'rsatish katta ahamiyatga ega.

Ushbu bo'limda mahsulotlar ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlil etish yo'llari yoritiladi. Dehqonchilik tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori yalpi hosil, deb yuritiladi. Har bir ekin turi bo'yicha hisobot yilida yetishtirilgan yalpi hosil miqdorini rejalashtirilgan miqdori bilan yoki bazis yilidagi miqdori bilan solishtirib, o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar hisobiga sodir bo'ladi. Ekstensiv omil bo'lib, ekin maydonlarining o'zgarishi, intensiv omil bo'lib, hosildorlik darajasining o'zgarishi hisoblanadi. Demak, yalpi hosil miqdorining o'zgarishi quyidagi ikki omil ta'sir qiladi:

- 1) ekin maydonining o'zgarishi;
- 2) bir gektar hisobiga yetishtirilgan hosil (ya'ni, hosildorlik)ning o'zgarishi.

Ushbu omillarning yalpi hosil o'zgarishiga ta'siri «zanjirli bog'lanish», «ko'rsatkichlar farqi», «indeks» usullari yordamida aniqlanib, omilli tahlil qilinadi. Biz bu yerda «zanjirli bog'lanish» usuli orqali tahlil qilish tartibini keltirdik.

Tahlilni bevosita amalga oshirishdan oldin quyidagi uch bog'lanish ko'rsatkichi aniqlab olinadi:

1. M_0H_0 — rejalashtirilgan (yoki bazis yilidagi) yalpi hosili.
2. M_1H_0 — shartli yalpi hosil. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun hisobot yilidagi maydonni (M_1) rejadagi (yoki o'tgan yildagi) hosildorlikka (H_0) ko'paytirish kerak.
3. M_1H_1 — hisobot yilidagi yalpi hosil.

Ushbu ko'rsatkichlar aniqlangandan keyin, yalpi hosil rejasining bajarilishi yoki dinamikasini tahlil qilish mumkin. Bu yerda, yalpi hosil dinamikasining tahlili yoritildi.

Hisobot yilidagi yalpi hosildan bazis yilidagi yalpi hosilni cheirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$M_1H_1 - M_0H_0 = \pm \Delta MH.$$

Yalpi hosilning o'zgarishiga ekstensiv (miqdoriy) omil, ya'ni ekin maydoni miqdori o'zgarishning ta'sirini aniqlash uchun shartli yalpi hosildan bazis yildagi yalpi hosilni chegirib tashlash kerak:

$$M_1H_0 - M_0H_0 = \pm \Delta M.$$

Yalpi hosilning o'zgarishiga intensiv (sifatiy) omil, ya'ni hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi yalpi hosil miqdoridan shartli yalpi hosil miqdorini ayirib tashlash kerak:

$$M_1H_1 - M_1H_0 = \pm \Delta H.$$

Shu ikki omil ta'siri yig'indisi yalpi hosilning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Yuqorida keltirilgan «zanjirli bog'lanish» usuli qoidasiga amal qilib, yetishtirilgan paxta yalpi hosili dinamikasining tahlilini ko'rib chiqamiz (20-jadval).

20-jadval

Q. Rajabov nomli shirkat xo'jaligi bo'yicha paxta yalpi hosili dinamikasining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi ekin maydoni va bazis yilidagi hosildorlik bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, o'zgarishi	
					Ekin maydoni hisobiga	Hosildorlik hisobiga
Ekin maydoni, ga	1074	1010	1010	- 64	x	x
Paxta hosildorligi, s/ga	33,5	33,5	30,8	- 2,7	x	x
Paxta yalpi hosil, s	35997	33835	31137	- 4860	- 2162	- 2698

20-jadvaldan ko'rinib turibdiki, paxta yalpi hosili hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 4860 s.ga yoki 13,5 % ga kamaygan:

$$M_1H_1 - M_0H_0 = (1010 \cdot 30,8) - (1074 \cdot 33,5) = 31137 - 35997 = -4860 \text{ s.}$$

Paxta ekin maydoni hisobot yilida 1010 ga.ni tashkil qilib, bazis yiliga nisbatan 64 gektarga kamaygan, natijada, shu omil hisobiga yalpi hosil 2162 s.ga kamaygan:

$$M_1H_0 - M_0H_0 = (1010 \cdot 33,5) - (1074 \cdot 33,5) = 33835 - 35997 = -2162 \text{ s.}$$

Paxta hosildorligi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 27 s.ga kamaygan. Paxta hosildorligi kamayishi yalpi hosilning o'zgarishiga salbiy ta'sir qilib, uni bazis yiliga nisbatan 2698 s.ga kamaytirgan:

$$M_1 H_1 - M_1 H_0 = (1010 \cdot 30,8) - (1010 \cdot 33,5) = 31137 - 33835 = -2698 \text{ s.}$$

Endi, paxta yalpi hosili dinamikasining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash yo'llarini «ko'rsatkichlar farqi» usuli yordamida bayon qilamiz.

Yalpi hosilning o'zgarishiga ekin maydoni o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi ekin maydoni (M_1) bilan bazis yilidagi ekin maydoni (M_0) orasidagi farqi ($M_1 - M_0$) bazis yilidagi hosildorlik darajasiga (H_0) ko'paytirmoq kerak:

$$(M_1 - M_0) \cdot H_0 = (1010 - 1074) \cdot 33,5 = -64 \cdot 33,5 = -2162 \text{ s.}$$

Demak, ekin maydonining bazis davriga nisbatan 64 gektar kamayishi natijasida, paxta yalpi hosili hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2162 s.ga kamaygan.

Yalpi hosilning o'zgarishiga hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi hosildorlik (H_1) bilan bazis yilidagi hosildorlik (H_0) orasidagi ($H_1 - H_0$) farqni hisobot yilidagi ekin maydoni (M_1) ga ko'paytirmoq kerak:

$$(H_1 - H_0) \cdot M_1 = (30,8 - 33,5) \cdot 1010 = -2,7 \cdot 1010 = -2698 \text{ s.}$$

Paxta hosildorligining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2,7 s.ga kamayishi natijasida, paxta yalpi hosili hisobot yilida 2698 s.ga kamaygan. Xullas, ikki omil ham salbiy ta'sir qilgan, natijada, paxta yalpi hosili hisobot yilida 4860 s kamaygan. Demak, xo'jalik mavjud imkoniyatlardan foydalanmagan.

7.5. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish rejasining bajarilishi tahlili

Chorvachilik — qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri. Aholi turmush darajasining o'sishi bilan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talab ortib boradi. Shuning uchun ham uni ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash zarur. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni tahlilini samarali uyushtirish zarur.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasining tahlili solishtirish orqali uning o'zgarishini aniqlab olishdan boshlanadi, ya'ni hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoridan reja-

lashtirilgan yoki o'tgan yilda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini chegirish orqali o'zgarishi, ya'ni ko'paygan yoki kamaygan miqdori aniqlanadi. So'ngra ushbu o'zgarishga omillar ta'siri aniqlanadi.

Rejadagi mahsulot miqdorining o'zgarishiga nisbatan omillar ta'sirini aniqlash tartibi (usuli) o'tgan yilda yetishtirilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga nisbatan omillar ta'sirini aniqlash tartibi (usuli)dan farq qilmaydi. Shuning uchun ushbu bo'limda mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilishi tahliliga to'xtaldik.

Bevosita amaliy tahlilga o'tishdan oldin, «zanjirli bog'lanish» usuli orqali omillar ta'sirini aniqlash tartibi bayon qilindi. Hisobot yilida haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini reja bo'yicha ko'zda tutilgan mahsulot miqdoriga solishtirib, umumiy o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$S_1 P_1 - S_0 P_0 = \pm \Delta SP,$$

bu yerda, S_1 — hisobot yilida mavjud bo'lgan chorva mollarining haqiqiy o'rtacha soni; S_0 — hisobot yilida rejalashtirilgan chorva mollarining o'rtacha soni; P_1 — chorva mollarining haqiqiy mahsuludorligi darajasi; P_0 — reja bo'yicha ko'zda tutilgan chorva mol lari mahsuludorligi darajasi.

Chorva mollari sonini ularning mahsuludorligiga (ya'ni, 1 bosh hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdoriga) ko'paytirish orqali ishlab chiqarilgan jami natura mahsuloti miqdori aniqlanadi:

$S_1 P_1$ — haqiqiy yetishtirilgan jami mahsulot miqdori;

$S_0 P_0$ — reja bo'yicha yetishtirish ko'zda tutilgan mahsulot miqdori.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning tahlilini yalpi yetishtirilgan sut misolida amalga oshirdik. Hisobot yilida yetishtirilgan haqiqiy yalpi sut miqdoridan rejalashtirilgan yalpi sut miqdorini ayirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$S_1 P_1 - S_0 P_0 = \pm \Delta SP.$$

Ushbu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1) sigirlar o'rtacha sonining o'zgarishi hisobiga;

2) sut mahsuludorligining o'zgarishi hisobiga.

Ushbu omillarning yalpi sut miqdori o'zgarishiga ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Omillar ta'siri aniqlangunga qadar, «shartli sut miqdori» aniqlab olinadi. Bu ko'rsatkich hisobot yilidagi haqiqiy sigirlarning o'rtacha yillik sonini (S_1) rejalashtirilgan sut mahsuludorligi (P_0) ga ko'paytirish orqali aniqlanadi: $S_1 \cdot P_0$.

Yalpi sut miqdorining o'zgarishiga sigirlar o'rtacha soni o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun shartli sut miqdoridan reja bo'yicha ko'zda tutilgan sut miqdorini chegirib tashlash kerak:

$$S_1 P_1 - S_0 P_0 = \pm \Delta S.$$

Yalpi sut miqdori o'zgarishiga sut mahsuldorligi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi haqiqiy yalpi sut miqdoridan shartli sut miqdorini chegirib tashlash kerak:

$$S_1 P_1 - S_1 P_0 = \pm \Delta P.$$

Yuqoridagi ikki omil ta'siri yig'indisi yalpi sutning umumiy o'zgarishiga to'g'ri kelishi shart:

$$\Delta S \pm \Delta P = \Delta SP.$$

Endi, yuqorida keltirilgan usul yordamida yetishtirilgan yalpi sut rejasi bajarilishining tahlilini 21-jadvaldagi ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz.

21-jadval

Hisobot yilida ishlab chiqarilgan yalpi sut rejasi bajarilishining tahlili

Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqiy sigirlar soni va rejadagi mahsuldorligi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, o'zgarishi	
					Sigirlar soni hisobiga	Sut mahsuldorligi hisobiga
Sigirlar o'rtacha soni, bosh	120	110	110	- 10	x	x
Sut mahsuldorligi, s/bosh	19,0	19,0	25,0	+ 6	x	x
Yalpi sut, s	2280,0	2090,0	2750,0	+ 470	- 190,0	- 660

21-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ya'ni sog'ib olingan sutning haqiqiy miqdori 2750 s.ni tashkil qilib, u rejaga nisbatan 470 s.ga oshgan:

$$S_1 P_1 - S_0 P_0 = (110 \cdot 25,0) - (120 \cdot 19) = 2750 - 2280 = + 470 \text{ s.}$$

Ushbu o'zgarish miqdoriy omilning salbiy, sifatiiy omilning ijobiy ta'siri ostida yuzaga kelgan.

Sigirlarning haqiqiy o'rtacha yillik soni rejadagiga nisbatan 10 boshga kamaygan, natijada, shu omil hisobiga yalpi sut miqdori 190 s kamaygan:

$$S_1 P_0 - S_0 P_0 = (110 \cdot 19) - (120 \cdot 19) = 2090 - 2280 = -190 \text{ s.}$$

Sut mahsuldorligining oshishi yalpi sut miqdori o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilib, uning oshishiga sababchi bo'lgan. Sut mahsuldorligi darajasi hisobot yilida 25 s.ni tashkil qilib, rejaga nisbatan 6 s.ga oshgan, natijada, shu omil hisobiga yalpi sut miqdori 660 s.ga ko'paygan:

$$S_1P_1 - S_1P_0 = (110 \cdot 25) - (110 \cdot 19) = 2750 - 2090 = + 660 \text{ s.}$$

Demak, yalpi sut miqdori o'zgarishi bir omilning salbiy, ikkinchi omilning ijobiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Agar sigirlar soni o'zgarimasdan rejada ko'zda tutilgan soni darajasida qolganda yoki ko'payganda, yalpi sut miqdori yanada oshgan bo'lar edi.

Tayanch iboralar

- | | |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> ✓ekin maydoni ✓yer mahsuldorligi ✓shartli yer mahsuldorligi ✓yerdan foydalanishga ta'sir qiluvchi omillar ✓yalpi hosil ✓hosildorlik ✓yalpi mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillar | <ul style="list-style-type: none"> ✓mahsuldorlik ✓yalpi hosilga ta'sir qiluvchi omillar ✓yalpi mahsulot ✓asosiy ishlab chiqarish fondlari ✓fond qaytimi |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
2. Yer mahsuldorligi ko'rsatkichi mazmunini tushuntiring va uni qanday hisoblash mumkin?
3. Shartli yer mahsuldorligi ko'rsatkichi nima uchun kerak va u qanday hisoblanadi?
4. Yer mahsuldorligining tahlili qaysi usullar orqali amalga oshiriladi?
5. Yalpi hosil qanday tahlil qilinadi?
6. Yalpi hosilning o'zgarishiga necha omil ta'sir qiladi, ular qaysilar?
7. Yalpi hosilning o'zgarishiga hosildorlik darajasi o'zgarishi ta'sirini qanday hisoblash mumkin?
8. Chorva yalpi natura mahsulotining tahlili qanday amalga oshiriladi?
9. Yetishtirilgan yalpi sut miqdorining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi va ularning ta'sirini qaysi usullardan foydalanib aniqlash mumkin?
10. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti o'zgarishiga fond qaytimi o'zgarishining ta'sirini qanday aniqlash mumkin?
11. Yalpi mahsulot hajmi o'zgarishiga asosiy vositalar hajmi o'zgarishining ta'siri qanday hisoblanadi?

8-bob. QISHLOQ HO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH TANNARXINING TAHLILI

8.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hajmini kamaytirish va mahsulot tannarxi darajasini pasaytirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi asosiy omillardan hisoblanadi. Shuning uchun ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar hajmi dinamikasini hamda mahsulot tannarxi darajasini, tarkibi va strukturasi uzluksiz ravishda tahlil etib turish muhim ahamiyatga egadir, chunki tahlil etish jarayonida xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari aniqlanadi, qanday omillar va sharoitlar hisobiga kamaytirish imkoniyatlari topiladi, natijada, ular-dan foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bu esa tahlilning asosiy maqsadidir.

Tannarxni tahlil etishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Ishlab chiqarish tannarxi hajmi va darajasini obyektiv baholash.
2. Tannarx dinamikasi va uning o‘zgarishini o‘rganish.
3. Tannarx tarkibi va strukturasi o‘zgarishi dinamikasini o‘rganish.
4. Tannarx darajasining o‘zgarishiga omillar ta‘sirini aniqlash.
5. Tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini ko‘rsatish.

Tahlilning asosiy manbalari bo‘lib, 9-ASK shaklidagi «Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va uning tannarxi», 13-ASK shaklidagi «Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va uning tannarxi» hisobotlari hamda 1-fermer shaklidagi «Fermer xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida»gi hisobot tarkibidagi 11-bo‘lim «Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari» va 12-bo‘lim «Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlar» jadvallari-ning ma‘lumotlari hisoblanadi. Ushbu hujjatlardagi ma‘lumotlari asosida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning jami tannarxi (jami ishlab chiqarish xarajati) va mahsulot birligi (1 s paxta, 1 s g‘alla, 1 dona qorako‘l teri va boshqa mahsulotlar)ning tannarxi

tahlil qilinadi, ularni kamaytirish, pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatiladi. Zarurat tug'ilganda, buxgalteriya hisobining «Asosiy ishlab chiqarish» bosh schoti va shu schotga tegishli bo'lgan analitik schotlar ma'lumotlari ham tahlil uchun jalb qilinadi.

8.2. Ishlab chiqarish xarajatlari umumiy hajmining tahlili

Tayyor mahsulotning jami ishlab chiqarish tannarxi (xarajati)ni tahlil etish uchun tahlilning solishtirish, ko'rsatkichlar farqi, zanjirli almashtirish kabi usullardan foydalanish mumkin. Tahlil hisobot yilidagi xarajatlar summasini bazis yilidagi yoki rejalashtirilgan xarajatlari summasiga solishtirib, umumiy o'zgarishni aniqlashdan boshlanadi. Demak, hisobot yilidagi ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini bazis yilidagi yoki rejadagi tannarxiga solishtirib, uning ko'payganligi yoki kamayganligi aniqlanadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning jami xarajatlari hajmini ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda aniqlash zarur, ya'ni ularni miqdoriy va sifatiy omillar ko'paytmalarining yig'indisi tariqasida aniqlash maqsadli bo'ladi, chunki ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rinib turadi.

Statistik hisobot 1-fermer shaklidagi «Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida»gi hisobot» tarkibidagi «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish» jadvali ma'lumotlari asosida bo'ladi:

$$\Sigma Q_1 Z_1 - \Sigma Q_0 Z_0 = \pm \Delta QZ,$$

bu yerda, Q_0, Q_1 — mos holda bazis va hisobot yillarida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar miqdori (s hisobida); Z_0, Z_1 — 1 s mahsulotning bazis va hisobot yillaridagi ishlab chiqarish tannarxi (so'm hisobida).

Demak, Q_0, Z_0 — bazis yilida yetishtirilgan mahsulot ishlab chiqarish xarajatining jami hajmini ko'rsatadi, ya'ni bazis yilida yetishtirilgan mahsulot miqdorini (Q_0) 1 s mahsulot tannarxiga ko'paytirib, uning umumiy hajmi aniqlanadi.

Q_1, Z_1 — hisobot yilida yetirshirilgan mahsulot ishlab chiqarish xarajatining jami hajmini ko'rsatadi. Demak, hisobot yilidagi mahsulot miqdorini (Q_1) bir birlik mahsulot tannarxiga (Z_1) ko'paytirib, ishlab chiqarish xarajatining summasi aniqlangan.

Ushbu yo'l bilan bazis va hisobot yillari uchun hisoblangan ishlab chiqarish xarajatlarning jami summasi 9-ASK va 13-ASK shakli bo'yicha tuzilgan hisobotlardagi xarajatlar jami summasiga

teng kelishi kerak. Ishlab chiqarilgan mahsulot jami xarajat hajmining o'zgarishiga yuqoridagi ifodadan ko'rinib turibdiki, ikki omil hisobiga yuzaga keladi:

1) ishlab chiqarilgan mahsulot fizik miqdorining o'zgarishi $(Q_1 - Q_0)$ hisobiga;

2) mahsulot birligi tannarxi (1 s tannarxi)ning o'zgarishi $(Z_1 - Z_0)$ hisobiga.

Ushbu omillarning xarajatlar hajmi umumiy o'zgarishiga ta'sirini «ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanib, aniqlash yo'llarini ko'rsatamiz. Ishlab chiqarish xarajatlari hajmi o'zgarishiga birinchi omilning, ya'ni mahsulot fizik miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi mahsulot miqdori (Q_1) bilan bazis yilidagi mahsulot miqdori (Q_0) orasidagi farqni bazis yilidagi 1 s mahsulotning tannarxi (Z_0) summasiga ko'paytiriladi:

$$(Q_1 - Q_0) \cdot Z_0 = \pm \Delta Q.$$

Xarajatlar umumiy hajmi o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni 1 s mahsulot tannarxi o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun, hisobot yilidagi 1 s mahsulot tannarxi (Z_1) bilan bazis yilidagi 1 s mahsulot tannarxi (Z_0) orasidagi farqni hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga (Q_1) ko'paytiriladi:

$$(Z_1 - Z_0) \cdot Q_1 = \pm \Delta Z.$$

Yuqoridagi ikki omil ta'siri yig'indisi ishlab chiqarish xarajatlarning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Endi, Q. Rajabov nomli shirkat xo'jaligida yetishtirilgan paxta misolida ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini ko'rib chiqamiz (23-jadval).

23-jadval

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)
Ekin maydoni, ga	1074	1010	- 64
Yalpi hosil, s	35997	31137	- 4860
Hosildorlik, s/ga	33,5	30,8	- 2,7
1 s donning ishlab chiqarish tannarxi, so'm	8362	16647	+ 8285
Jami xarajat, m/s	300997	518328	+ 217331
1 ga xarajati, m/s	280,3	513,2	+ 232,9

Keltirilgan hisobot materiallaridan ko‘rinib turibdiki, paxtaga sarf bo‘lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 217331 ming so‘mga oshgan:

$$(Q_1 Z_1 - Q_0 Z_0) = (31137 \cdot 16647) - (35997 \cdot 8362) = 518328 - 300997 = + 217331 \text{ ming so' m.}$$

Ushbu o‘zgarish ikki omil ta‘siri tufayli paydo bo‘lgan. Birinchi omil bo‘lib, mahsulot fizik miqdorining o‘zgarishi hisoblanadi. Yalpi hosil hisobot yilida 31137 s.ni tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan 4860 s.ga kamaygan, natijada, shu omil hisobiga ishlab chiqarish xarajatining summasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 40639 ming so‘mga kamaygan:

$$(Q_1 - Q_0) \cdot Z_0 = (31137 - 35997) \cdot 8362 = -4860 \cdot 8362 = -40639 \text{ ming so' m.}$$

Ikkinchi omil bo‘lib, 1 s paxta tannarxi darajasining o‘zgarishi hisoblanadi. 1 s paxta tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 8285 so‘mga oshgan (qimmatlashgan), natijada, jami xarajat hajmi shu omil hisobiga hisobot yilida 257970 ming so‘mga oshgan:

$$(Z_1 - Z_0) \cdot Q_1 = (16647 - 8362) \cdot 31137 = +8285 \cdot 31137 = + 257970 \text{ ming so' m.}$$

Ushbu tahlil ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, xarajatlari hajmi o‘zgarishi bir omilning ijobiy, ikkinchi omilning salbiy ta‘siri ostida yuzaga keladi. Asosiy sabab, mahsulot birligi tannarxining keskin qimmatlashib ketganligidir. Shuning uchun mahsulot birligi tannarxining tarkibi va unga ta‘sir qiluvchi omillar ta‘sirini o‘rganish zarur.

8.3. Mahsulot tannarxining tahlili

Tannarx, deb nimaga aytiladi? Mahsulot yetishtirish uchun sarf bo‘lgan ishlab chiqarish xarajatlarning pul shaklida ifodalanishi *tannarx*, deb ataladi. Tannarx o‘z navbatida jami mahsulot tannarxi, mahsulot birligi tannarxi va 1 so‘mlik yalpi mahsulotga to‘g‘ri keladigan xarajatlari ko‘rsatkichlariga bo‘linadi. Ushbu ko‘rsatkichlardan birinчисini tahlil etish tartibi yuqorida bayon qilindi. Bu bo‘limda bir birlik mahsulot tannarxini tahlil qilish tartibi yoritiladi.

Mahsulot birligining tannarxi tahlilini amalga oshirish solishtirish va «zanjirli bog‘lanish» usullari keng qo‘llaniladi. Biz «zanjirli bog‘lanish» usulidan foydalanamiz. Hisobot davridagi bir birlik mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini bazis davridagi (yoki rejalashtirilgan) mahsulotning tannarxiga solishtirib, mutlaq va nisbiy o‘zgarishlari aniqlanadi. So‘ngra «zanjirli bog‘lanish» usuli orqali

omilli tahlil etilib, omillarning ijobiy va salbiy ta'siri miqdori aniqlanib, uni pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatiladi. 1 s mahsulot tannarxining o'zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Bu omillar quyidagilar:

1). Bir gektar ekin maydoni (yoki 1 bosh chorva moli) hisobiga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishi.

2). Bir gektar ekin maydonidan olingan hosil (yoki 1 bosh moldan olingan mahsulot) miqdorining o'zgarishi (hosildorlik yoki mahsuldorlik o'zgarishi).

Tannarx tahlilini o'simlik mahsulotlari misolida ko'rib chiqamiz. Tannarxning o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlangunga qadar, 1 s mahsulotning shartli tannarxini aniqlab olish zarur. Shartli tannarxni (Z_{sh}) aniqlash uchun hisobot davri (yili)dagi bir gektar ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan xarajatlar hajmini (IX_1) bazis davri (yili)dagi hosildorlik darajasiga (H_0) bo'lish kerak:

$$Z_{sh} = \frac{IX_1}{H_0}$$

Bir gektar ekin maydoni hisobiga to'g'ri keladigan xarajatlar summasini aniqlash uchun u yoki bu ekin turi uchun qilingan jami xarajatlar hajmini (ΣQZ) shu ekin maydoniga (M) bo'lish kerak:

$$\frac{\Sigma QZ}{\Sigma M}$$

Shartli tannarx aniqlangandan keyin, mahsulot birligi tannarxini tahlil qilish mumkin. Birinchi navbatda 1 s mahsulot tannarxini o'zgarishi aniqlanadi. Buning uchun hisobot yilidagi 1 s mahsulot tannarxidan bazis yili (yoki reja)dagi 1 s mahsulot tannarxi chegirib tashlanadi:

$$\frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_0}{H_0} = \frac{513200}{30,8} - \frac{280300}{33,5} = 16647 - 8362 = + 8285 \text{ so'm.}$$

Demak, 1 s paxta tannarxi hisobot yilida o'tgan yildagi tannarxga nisbatan 8285 so'mga oshgan. Endi, ushbu o'zgarishga omillar ta'siri aniqlanadi. 1 s mahsulot tannarxi o'zgarishiga ekstensiv omilning, ya'ni 1 ga ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan xarajat summasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 s mahsulotning shartli tannarxidan uning bazis davridagi tannarxini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{IX_1}{H_0} - \frac{IX_0}{H_0} = \frac{513200}{33,5} - \frac{280300}{33,5} = 15319 - 8362 = + 6957 \text{ so'm.}$$

Demak, bir gektar hisobiga sarf bo'lgan xarajat hajmining bazis yiliga nisbatan 2329 ming so'mga oshishi 1 s paxta tannarxining 6957 so'mga oshishiga olib keladi. 1 s mahsulot tannarxining o'zgarishiga intensiv omilning, ya'ni hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 s mahsulotning hisobot yilidagi tannarxidan shartli tannarxni chegirib tashlash kerak:

$$\frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_1}{H_0} = \frac{513200}{30,8} - \frac{513200}{33,5} = 16647 - 15319 = + 1328 \text{ so'm.}$$

Demak, 1 s ekin maydonidan olingan hosil miqdorining (ya'ni, hosildorlik darajasining) hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2,7 s/ga (30,8–33,5 = –2,7 s/ga) kamayishi 1 s paxta tannarxini 1328 so'mga oshishiga (qimmatlashiga) olib kelgan. Ushbu hisob-kitob ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1 s paxta tannarxining o'zgarishiga ikki omil ham salbiy ta'sir qilgan, natijada, xarajatning keskin oshib ketishiga sababchi bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblar ma'lumotlariga asoslanib, mahsulot tannarxining omilli tahlili natijalari 24-jadvalda aks ettirildi. Tahlil usullarini yaxshi o'zlashtirib olgan iqtisodchi yuqorida keltirilgan hisob-kitoblarni tuzmasdan turib ham (ularga ko'p vaqt sarflamasdan turib ham), tahlilijadval asosida tannarxni omilli tahlil qilib, xulosa chiqarishi mumkin.

24-jadval

1 s paxta tannarxining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi 1 ga xarajati va bazis yilidagi hosildorlik bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, o'zgarishi	
					Bir gektar xarajati hisobiga	Hosildorlik hisobiga
Bir gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat, ming so'm	280,3	513,2	513,2	+ 232,9	x	x
Bir gektar ekin maydonidan olingan hosil (hosildorlik), s/ga	33,5	33,5	30,8	- 2,7	x	x
1 s paxta tannarxi, so'm	8362	15319	16647	+ 8285	+ 6957	+ 1328

24-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 1 s paxta tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 8285 so'mga qimmatlashgan. Bu o'zgarish ikki omilning salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Shu jumladan, bir gektarga qilingan xarajatning oshishi natijasida 6957 so'mga, hosildorlikning pasayishi natijasida 1328 so'mga tannarx qiimmatlashgan.

Tannarxni pasaytirishning asosiy imkoniyatlari bo'lib, bir gektarga qilinadigan xarajatlar hajmini keskin kamaytirish va hosildorlikni oshirish hisoblanadi. Tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini ko'rsatish uchun uning tarkibini xarajat moddalari bo'yicha ham o'rganish kerak.

Chorvachilik mahsuloti tannarxining tahlili tartibi dehqonchilik mahsuloti tannarxining tahlilidan farq qilmaydi, faqat ekin maydoni o'rniga chorva mollari sonini (S), hosildorlik o'rniga mahsuldorlik ko'rsatkichini olib, ularga tegishli ko'rsatkichlarni hisoblab, tahlil qilinsa, maqsadga erishiladi. Shuning uchun bu yerda unga alohida to'xtalmadik.

8.4. Xarajat moddalari bo'yicha tannarxning omilli tahlili

1 s mahsulot tannarxini tahlili bilan bir qatorda uning tarkibini xarajat moddalari bo'yicha ham tahlil etish zarur, ya'ni tannarx tarkibidagi har bir modda bo'yicha o'zgarishini tahlil qilish orqali ham uni arzonlashtirish imkoniyatlarini ko'rsatish mumkin. Tannarx tarkibidagi har bir moddada o'z aksini topgan xarajatlar hajmining o'zgarishi ekstensiv va intensiv omillar hisobiga sodir bo'ladi. Bu omillarni miqdoriy va sifatiy (qiymat) omillar, deb ham atash mumkin. Shu ikki omil ko'paytmasining yig'indisi har bir moddadagi xarajatlar hajmi (summasi)ga teng bo'ladi, demak, omillar ta'siri yig'indisi har bir moddadagi xarajatlar hajmining umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi shart. Masalan, ish haqi va unga tenglashtirilgan sarflar moddasini olaylik. Shu modda bo'yicha ko'rsatilgan hisobot yilidagi xarajatlar summasini bazis yilidagi xarajatlar summasiga solishtirib, uning o'zgarishi aniqlanadi. Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil hisobiga yuzaga keladi:

1) sarflangan kishi-soatlar miqdorining o'zgarishi hisobiga ($KS_1 - KS_0$);

2) 1 kishi-soatga hisoblangan mehnat haqi darajasining o'zgarishi hisobiga ($IKH_1 - IKH_0$).

Shu omillarning «Mehnat haqi» moddasidagi xarajatlar hajmini o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanmoq kerak. Yoki «Yem-xashak sarfi» moddasidagi xarajatlar hajmi o'zgarishiga omillar ta'siri tahlilini aniqlashni olaylik, ushbu o'zgarishga ham yuqorida ko'rsatganimizdek, ikki omil ta'sir qiladi:

1) sarf bo'lgan yem-xashak miqdorining o'zgarishi (ozuqa birligi hisobida);

2) 1 s yem-xashak qiymati (tannarxi)ning o'zgarishi.

Ushbu omillarning shu moddalardagi xarajatlar summasi o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatkichlar farqi yoki «zanjirli bog'lanish» usullari orqali aniqlash mumkin. Boshqa moddalardagi xarajatlar hajmi o'zgarishining tahlilini shu xil tartibda amalga oshirish tavsiya etiladi. Xarajat moddalari bo'yicha tannarxning tahlilini 25-jadvaldan ko'rish mumkin.

25-jadval

1 s paxta tannarxining xarajat moddalari bo'yicha tahlili

Xarajat moddalari	Bazis yili		Hisobot yili		O'zgarishi (+, -)	
	Summasi, so'm	Salmog'i, %	Summasi, so'm	Salmog'i, %	Summasi bo'yicha	Salmog'i bo'yicha
Mehnat haqi ajratmalari bilan	3344	40,0	5711	34,3	+ 2367	- 5,7
O'g'itlar	830	9,9	1460	8,8	+ 630	- 1,1
Urug'lik	223	2,7	851	5,1	+ 628	+ 2,4
Amortizatsiya	-	-	-	-	-	-
Ish-xizmatlar	1929	23,1	4552	27,3	+ 2623	+ 4,2
Yoqilg'i-moylash materiallari	541	6,5	1310	7,9	+ 769	+ 1,4
Sug'urta	36	0,4	61	0,4	+ 25	-
Umumishlab chiqarish xarajatlari	110	1,3	149	0,9	+ 39	0,4
Boshqa to'g'ri xarajatlar	1349	16,1	2553	15,3	+ 1209	0,8
1 s paxta tannarxi (jami)	8362	100,0	16647	100,0	+ 8285	-

25-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1 s paxta tannarxi 8285 so‘mga qimmatlashgan. Bu barcha xarajat moddalari hajmining oshishi hisobiga sodir bo‘lgan. Tannarx tarkibida asosiy ulushni mehnat haqi, yoqilg‘i-moylash materiallari, urug‘, o‘g‘it va boshqa to‘g‘ri xarajatlar tashkil qiladi. Shuning uchun ham ushbu xarajatlarni ortib ketish sabablarini omilli tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni aniq ko‘rsatadi. Ushbu xarajat moddalari bo‘yicha sodir bo‘lgan o‘zgarishning sababini «zanjirli bog‘lanish» usulidan foydalanib aniqladik. Masalan, «Mehnat haqi» xarajat (MH) moddasi bo‘yicha o‘zgarish ikki omil hisobiga sodir bo‘lgan. Ushbu omillar ta’siri mehnat haqi xarajati-ning o‘zgarishiga quyidagicha hisoblanib, aniqlanadi:

Bazis yilida mehnat haqi xarajati:

$$MH_0 = KS_0 \cdot IKH_0.$$

Shartli mehnat haqi xarajati:

$$MH_{sh} = KS_1 \cdot IKH_0.$$

Hisobot yilidagi mehnat haqi xarajati:

$$MH_1 = KS_1 \cdot IKH_1.$$

Hisobot yilidagi mehnat haqi xarajatidan bazis yilidagi mehnat haqi xarajati chegirish orqali, uning umumiy o‘zgarishi aniqlanadi:

$$(KS_1 \cdot IKH_1) \cdot (KS_0 \cdot IKH_0) = \pm \Delta KS, IKH.$$

Shartli mehnat haqi xarajatidan bazis yilidagi mehnat haqi xarajati chegirib tashlash orqali uning o‘zgarishi sarflangan kishi-soat (KS) miqdori o‘zgarishining ta’siri aniqlanadi:

$$(KS_1 \cdot IKH_0) \cdot (KS_0 \cdot IKH_0) = \pm \Delta KS.$$

Hisobot yilidagi mehnat haqi xarajatidan shartli mehnat haqi xarajati chegirib tashlash orqali, uning o‘zgarishi 1 kishi-soatga hisoblangan mehnat haqi darajasi (IKH) o‘zgarishining ta’siri aniqlanadi:

$$(KS_1 \cdot IKH_1) \cdot (KS_1 \cdot IKH_0) = \pm \Delta IKH.$$

Ikki omil ta’sirining yig‘indisi «Mehnat haqi» xarajatining umumiy o‘zgarishiga teng kelishi kerak. Endi, mehnat haqi xarajati o‘zgarishining omilli tahlilini ko‘rib chiqamiz (26-jadval).

Mehnat haqi xarajati dinamikasining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi kishi-soat va bazis yilidagi 1 kishi-soat haqi bo'yicha	Hisobot yil	O'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, o'zgarishi	
					1 s.ga bo'lgan kishi-soat hisobiga	1 kishi-soatga hisoblangan mehnat haqi hisobiga
1 s paxtaga sarf bo'lgan kishi-soat (KS)	28,9	52,7	52,7	+ 23,8	x	x
1 kishi-soatga hisoblangan mehnat haqi, so'm (1KH)	115,74	115,74	108,36	- 7,38	x	x
1 s paxta tannarxi tarkibidagi mehnat haqi xarajati, so'm (MH)	3344	6099	5711	+ 2367	+ 2755	- 388

26-jadvaldan ko'rinib turibdiki, mehnat haqi uchun bo'lgan xarajat ortib ketishining asosiy sababi, paxta yetishtirishga sarf bo'lgan vaqtning 2 baravarga oshib ketganligi hisoblanadi. Bazis yilida 1 s paxta uchun 28,9 kishi-soat sarflangan bo'lsa, hisobot yiliga kelib, u 52,7 kishi-soatni tashkil qilgan, ya'ni 23,8 kishi-soat oshiqcha sarf bo'lgan. Natijada, shu omil hisobiga xarajat hajmi 2755 so'mga oshgan.

Demak, tannarxni arzonlashtirishning asosiy rezervlaridan biri, mehnat sarfini keskin kamaytirish hisoblanadi. Agar 1 s paxtaga bo'lgan mehnat sarfi hisobot yilida bazis yilidagi 28,9 kishi-soat hajmida saqlanib qolganda edi, hisobot yilida mehnat haqi uchun sarf bo'lgan xarajat 5711 so'm o'rniga 3132 so'mni tashkil qilgan bo'lib, u 2579 so'mga tejalgan bo'lar edi, natijada, 1 s tannarxi shu summaga kamaygan bo'lar edi:

$$28,9 \cdot 108,36 = 3132 \text{ so'm.}$$

$$5711 - 3132 = -2579 \text{ so'm.}$$

Mehnat haqi xarajati bilan bir qatorda tannarx tarkibida, urug', o'g'it va yoqilg'i-moylash materiallar xarajati ham salmoqli o'rinni egallagan xarajatlardan hisoblanadi. Ularning qisqarishi tannarx kamayishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ushbu xarajatlar tahlili ham mehnat

haqi xarajatlarining tahlilidan farq qilmaydi. Mazkur xarajatlar moddalari bo'yicha o'zgarishi yuqorida qayd qilingan ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

1). Sarflangan xarajatlar miqdorining o'zgarishi hisobiga.

2). O'rtacha sotish bahosi (yoki tannarxi)ning o'zgarishi hisobiga.

Ushbu xarajatlar o'zgarishi va ularning o'zgarishiga omillar ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usuli orqali, quyidagi ifodalardan foydalanib, aniqlash mumkin.

O'g'it xarajati dinamikasi tahlili:

$$O'M \cdot O'B = O'X,$$

bu yerda, $O'M$ — 1 s mahsulot uchun sarf bo'lgan o'g'it miqdori; $O'B$ — 1 s o'g'itning o'rtacha bahosi; $O'X$ — 1 s mahsulot uchun sarf bo'lgan o'g'itning jami xarajati.

1 s mahsulot uchun sarf bo'lgan o'g'it xarajatining tahlili quyidagi ifodalar orqali amalga oshiriladi.

O'g'it xarajatining umumiy o'zgarishi:

$$(O'M_1 \cdot O'B_1) - (O'M_0 \cdot O'B_0) = \pm \Delta O'M, O'B.$$

O'g'it xarajatining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

1) sarflangan o'g'it miqdori o'zgarishining ta'siri

$$(O'M_1 \cdot O'B_0) - (O'M_0 \cdot O'B_0) = \pm \Delta O'M,$$

2) sarf bo'lgan o'g'it bahosining ta'siri

$$(O'M_1 \cdot O'B_1) - (O'M_1 \cdot O'B_0) = \pm \Delta O'B.$$

Urug' xarajati dinamikasining tahlili:

1 s tannarx tarkibidagi «Urug' xarajati» summasining o'zgarishi

$$(UM_1 \cdot UB_1) - (UM_0 \cdot UB_0) = \pm \Delta UM, UB,$$

bu yerda, UM_1, UM_0 — mos holda hisobot va bazis yillarida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug'lik miqdori; UB_1, UB_0 — mos holda hisobot va bazis yillarida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug'ning narxi; $(UM_1 \cdot UB_1)$ — hisobot yilidagi 1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug' xarajati; $(UM_0 \cdot UB_0)$ — bazis yilida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug' xarajati.

Urug' xarajati summasi o'zgarishiga omillarning ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

1-omil, ya'ni sarf bo'lgan urug' miqdori o'zgarishining ta'siri

$$(UM_1 \cdot UB_0) - (UM_0 \cdot UB_0) = \pm \Delta UM;$$

2-omil, ya'ni urug'ning o'rtacha narxi o'zgarishi ta'siri

$$(UM_1 \cdot UB_1) - (UM_1 \cdot UB_0) = \pm \Delta UB.$$

Shu ikki omil ta'siri yig'indisi urug' xarajati summasining o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta UM \pm \Delta UB = \Delta UM, UB.$$

Yoqilg'i-moylash materiallari xarajati dinamikasining tahlili. Xarajatning umumiy o'zgarishi:

$$(YoMM_1 \cdot YoMB_1) - (YoMM_0 \cdot YoMB_0) = \pm \Delta YoMM, YoMB.$$

Xarajatlarning o'zgarishiga omillar ta'siri:

1) yoqilg'i-moylash materiallari miqdori o'zgarishining ta'siri

$$(YoMM_1 \cdot YoMB_0) - (YoMM_0 \cdot YoMB_0) = \pm \Delta YoMM.$$

2) yoqilg'i-moylash materiallari bahosining ta'siri

$$(YoMM_1 \cdot YoMB_1) - (YoMM_1 \cdot YoMB_0) = \pm \Delta YoMB.$$

Ikki omil ta'sirining yig'indisi «Yoqilg'i-moylash materiallari» xarajatlar moddasi summasi o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta YoMM_1 \pm \Delta YoMB_1 = \Delta YoMM_0, YoMB_0,$$

bu yerda, $YoMM_1, YoMM_0$ — mos holda hisobot va bazis yil larida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallari miqdori; $YoMB_1, YoMB_0$ — mos holda hisobot va bazis yillarida 1 s paxta uchun sarf bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallarining o'rtacha narxi.

Endi, 1 s paxta uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar hajmini omilli tahlili yuqorida bayon qilingan usul qoidalari asosida ko'rib chiqamiz (27-jadval).

1 s paxta tannarxi tarkibidagi asosiy moddiy xarajatlar dinamikasining tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilida sarf bo'lgan materiallar miqdori va bazis yilida materiallar narxi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, o'zgarishi	
					sarf bo'lgan material miqdori hisobiga	materiallar narxi hisobiga
O'g'it sarfi bo'yicha: 1 s paxtaga sarf bo'lgan o'g'it, kg	25,8	6,4	6,4	- 19,4	x	x
Sarflangan 1 kg o'g'itning narxi, so'm	32,18	32,18	229,65	+ 197,47	x	x
1 s paxtaga sarf bo'lgan o'g'it xarajati, so'm	830	206	1460	+ 630	- 624	+ 1254
Urug' sarfi bo'yicha: 1 s paxtaga sarf bo'lgan urug', kg	1,97	3,02	3,02	+ 1,05	x	x
Sarf bo'lgan 1 kg urug'ning narxi, so'm	113,07	113,07	281,77	+ 168,70	x	x
1 s paxtaga sarf bo'lgan urug' xarajati, so'm	223	341	851	+ 628	+ 118	+ 510
Yoqilg'i-moylash materiallari bo'yicha: 1 s paxtaga sarf bo'lgan YoMM, kg	3,2	7,9	7,9	+ 4,7	x	x
Sarf bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallarining narxi, so'm	169,48	169,48	165,14	- 4,34	x	x
1 s paxtaga sarf bo'lgan xarajalar summasi, so'm	541	1339	1310	+ 769	+ 798	- 29

27-jadvaldagi ma'lumotlardan ma'lumki, 1 s paxta yetishtirish uchun sarf bo'lgan o'g'it xarajatining ortib ketishi, asosan, o'g'itni sotib olish narxining keskin ortib ketishi natijasida yuzaga kelgan. 1 kg o'g'it narxi tahlil qilinayotgan davrda 7,1 marta oshgan ($229,65:32,18 = 7,1$). Sarf bo'lgan o'g'it miqdori 19,4 kg yoki 4 martaga kamaygan, natijada, shu omil hisobiga o'g'it xarajati hajmi 624 so'mga kamaygan.

1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug' xarajatiga ikki omil ham salbiy ta'sir qilgan. 1 s paxta uchun sarf bo'lgan urug' miqdori 1,05 kg oshgan, natijada, shu omil hisobiga urug' xarajati oshib,

tannarx 118 so'mga qimmatlashgan. Urug'ni sotib olish narxi 168,7 so'mga yoki 2,5 marta oshgan, natijada, urug' xarajati shu omil hisobiga 510 so'mga oshgan, bu esa o'z navbatida paxta tannarxini shu summaga oshishiga olib kelgan.

1 s paxtaga sarf bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallari xarajati ortib ketishining asosiy sababi bo'lib, sarf bo'lgan miqdorining ortib ketish hisoblanadi. Bazis yilida 3,2 kg sarflangan bo'lsa, hisobot yiliga kelib 7,9 kg.ga yetgan, ya'ni 4,7 kg.ga yoki 2,5 martaga oshgan, natijada, xarajatlar hajmi keskin oshib, 1 s paxta tannarxining 798 so'mga oshishiga sababchi bo'lgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xo'jalikda paxta tannarxini pasaytirish imkoniyatlari mavjud, ammo ulardan yetarli darajada foydalanilmagan. Shular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Paxta mahsuldorligini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Buning uchun o'g'it bilan yetarli darajada ta'minlash kerak. O'g'itlash darajasi hisobot yilida to'rt marta kamaygan, natijada, hosildorlik pasaygan.

2. Mehnat sarfi hajmini keskin kamaytirish zarur. Mehnat sarfi (kishi-soat) miqdori hisobot yilida 82,4 % ga ortib ketgan, natijada, tannarx 2755 so'mga qimmatlashgan.

3. Urug' miqdori bo'yicha ortiqcha xarajatga yo'l qo'ymaslik kerak. Hisobot yilida 1 s paxtaga sarflangan urug' miqdori 1,05 kg yoki 53 % ga oshgan, natijada, 1 s paxta tannarxi 118 so'mga qimmatlashgan.

4. Sarflangan yoqilg'i-moylash materiallari miqdori ham keskin oshgan. 1 s paxta uchun sarf bo'lgan miqdori 3,2 kg.dan 7,9 kg.ga yetgan, ya'ni 4,7 kg.ga yoki 2,5 marta ortiqcha xarajat bo'lgan. Natijada, tannarx 798 so'mga qimmatlashgan.

5. Ish-xizmatlarga to'lanadigan mehnat haqi va boshqa xarajatlarni ham kamaytirish choralari ko'rilishi zarur.

Tayanch iboralar

- | | |
|-----------------------------------------|--------------------------------------------|
| ✓ tannarx | ✓ tannarxga ta'sir qiluvchi omillar |
| ✓ ishlab chiqarish xarajati | ✓ tannarxga ta'sir qiluvchi ekstensiv omil |
| ✓ shartli ishlab chiqarish xarajati | ✓ tannarxga ta'sir qiluvchi intensiv omil |
| ✓ mahsulot birligi tannarxi | ✓ xarajat moddalari |
| ✓ mahsulot birligining shartli tannarxi | |



NAZORAT SAVOLLARI

1. Tannarxni tahlil qilishning ahamiyati va maqsadi.
2. Tannarxni tahlil qilishning asosiy vazifalari va manbalari.
3. Ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni va omilli tahlili.
4. Ishlab chiqarish xarajatlari hajmi o'zgarishiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlang va ta'riflang.
5. Ishlab chiqarish xarajatlari hajmi o'zgarishiga mahsulot birligiga qilingan xarajatlar darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlang.
6. Mahsulot tannarxi deb nimaga aytiladi, ta'rif bering. Tannarx turlarini aniqlab, mazmunini tushuntiring.
7. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxining omilli tahlilini bajarish yo'llarini bayon qiling.
8. Dehqonchilik mahsulotlari birligi tannarxi o'zgarishiga bir gektarga qilingan xarajatlar hajmini o'zgarishining ta'sirini aniqlash usulini bayon qiling.
9. Mahsulot birligi tannarxi o'zgarishiga ekinlar hosildorligi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlang.
10. Chorvachilik mahsulotlari tannarxi tahlili.
11. Tannarx tarkibidagi ish haqi va urug' xarajatlari moddalari bo'yicha ularning o'zgarishiga miqdoriy hamda sifatiy omillarning ta'sirini aniqlash yo'llarini bayon qiling.

**9-bob. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINING
YALPI PUL DAROMADI VA FOYDASI HAJMINING
TAHLILI**

9.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalasi hozirgi taraqqiyot davrining eng asosiy muammosidir. Ushbu muammoni hal qilish uchun, nafaqat, ishlab chiqarish jarayonini, shu bilan bir qatorda, realizatsiya jarayonini ham chuqur o‘rganish va tahlil etish zarur. Shunday qilingan taqdirda, xo‘jalikning moliyaviy faoliyatini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlar aniqlanadi, birinchi navbatda uning foydasini ko‘paytirish va foydalilik darajasini oshirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar, omillar oydinlashadi, mavjud imkoniyatlar aniqlanib, safarbar etiladi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga sababchi bo‘ladi. Shuning uchun ham realizatsiya jarayoni va u bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy natijalari holatini chuqur o‘rganish katta ahamiyatga egadir. Shu nuqtayi nazardan tahlilning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Mahsulotlarning turlari bo‘yicha sotish jarayonini chuqur o‘rganish.
2. Sotilgan mahsulotlar hajmi dinamikasining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning ta’sir doiralarini aniqlash.
3. Mahsulotlarni sotishdan olingan moliyaviy natijalarni aniqlash va ularning o‘zgarishiga omillar ta’sirini o‘rganish.
4. Mahsulotlar sotish bo‘yicha rentabelligining o‘zgarishini va ushbu o‘zgarishga omillarning ta’sirini aniqlash hamda tahlil qilish.
5. Mahsulotlarni sotishdan olinadigan foydani ko‘paytirish va rentabellik darajasini oshirishg imkoniyatlarini aniqlash hamda safarbar etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Tahlilning asosiy manbalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Buxgalteriya hisobining 9000 va 9100-bosh schotlari ma'lumotlari.
2. Buxgalteriya hisoboti tarkibidagi «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotish to'g'risidagi hisobot» (7-ASK shakli), «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl) ma'lumotlari.
3. Statistik hisobot tarkibidagi «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotish to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari.
4. Biznes-reja ma'lumotlari.

9.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida mahsulotlarni sotishdan olingan pul daromadi rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlil qilish

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot chetga chiqariladigan va xo'jalikning o'zida iste'mol qilinadigan mahsulot turlariga bo'linadi. Yalpi mahsulotning asosiy qismi chetga sotiladi, boshqacha aytganda, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga iste'mol uchun tushadi. Demak, har bir qishloq xo'jaligi korxonasi o'zi ishlab chiqargan yalpi mahsulotning asosiy qismini chetga sotadi, undan tushadigan pul daromadi moliyaviy ahvolini belgilaydi, boshqacha aytganda, uning iqtisodiyoti taraqqiyoti mahsulotlarni sotishdan tushadigan jami pul daromadining hajmiga bog'liq bo'ladi. Pul daromadi hajmining ko'payishi sotiladigan mahsulotlar miqdorining ko'payishi va sifatining oshishi ta'siri ostida yuzaga keladi. Shuning uchun ham mahsulotlarni sotish jarayonida mavjud imkoniyatlarni izlab topish uchun tahlilni uzluksiz tashkil qilish katta ahamiyatga egadir.

Ushbu bo'limda mahsulotlarni sotishdan olingan jami pul daromadi dinamikasini tahlil qilish uslublari bayon qilindi. Jami pul daromadi (pul tushumi)ning hajmi o'zgarishini tahlil etish uchun solishtirish, «ko'rsatkichlar farqi» va «zanjirli bog'lanish» usullaridan foydalanish mumkin. Pul tushumining tahlili taqqoslashdan boshlanadi, ya'ni hisobot yilida mahsulotni sotishdan olingan pul tushumi hajmini bazis yilidagi pul tushumi hajmiga yoki rejadagi pul tushumi hajmiga solishtirib, uning mutlaq va nisbiy o'zgarishi aniqlanadi.

Mutlaq o'zgarishni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Q_1 P_1 - Q_0 P_0 = \pm \Delta QP,$$

bu yerda, Q_1 , Q_0 — mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar miqdori (yoki Q_0 — rejadagi mahsulot miqdori);

P_1, P_0 — mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar birligi (1 s)ning o'rtacha sotish bahosi (yoki P_0 — rejadagi o'rtacha sotish bahosi).

Ushbu ifodadan ko'rinib turibdiki, pul tushumining hajmi (QP) miqdoriy (Q) va sifatiy (P) omillarning ko'paytmasi tariqasida aniqlangan. Bu tahlil nuqtayi nazardan samarali usuldir, chunki har bir omil o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun imkoniyat yaratiladi.

Yuqorida keltirilgan ifodadan ma'lumki, mahsulotlarni sotishdan olingan pul tushumi hajmining o'zgarishi bevosita ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

- 1) sotilgan mahsulotlar fizik miqdorining o'zgarishi hisobiga;
- 2) o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi hisobiga.

Ushbu omillar pul tushumining o'zgarishiga ta'sirini «ko'rsatkichlar farqi» usuli orqali tahlil qilish tartibi yoritildi. Pul tushumi hajmining o'zgarishiga miqdoriy omil, ya'ni sotilgan mahsulotlar fizik miqdorining o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdori (Q_1) bilan bazis yilida sotilgan (yoki reja bo'yicha sotilishi ko'zda tutilgan) mahsulot miqdori (Q_0) orasidagi farqni ($Q_1 - Q_0$), bazis yili (yoki reja)dagi 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosi (P_0)ga ko'paytirish kerak:

$$(Q_1 - Q_0) \cdot P_0 = \pm \Delta Q,$$

bu yerda, $\pm \Delta Q$ — pul tushumining mahsulot miqdori o'zgarishi hisobiga oshgan yoki kamayganligini bildiruvchi miqdor.

Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga sifatiy omil, ya'ni 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishi ta'siri hisobot yilida sotilgan mahsulotning o'rtacha sotish bahosi (P_1) bilan bazis yilida (yoki reja bo'yicha) sotilgan mahsulotning o'rtacha sotish bahosi (P_0) orasidagi farqni ($P_1 - P_0$) hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdoriga (Q_1) ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$(P_1 - P_0) \cdot Q_1 = \pm \Delta P,$$

bu yerda, $\pm \Delta P$ — o'rtacha baho o'zgarishi hisobiga pul tushumining ko'paygan yoki kamayganligini ko'rsatuvchi miqdor.

Ushbu ikki omil ta'siri yig'indisi pul tushumining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta QP = \Delta Q \pm \Delta P.$$

Endi, Q. Rajabov nomli shirkat xo'jaligi ma'lumotlaridan foydalanib, bug'doyni sotishdan olingan pul tushumi hajmi o'zgarishining tahlilini ko'rib chiqamiz (28-jadval).

Pul daromadining tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)
Sotilgan bug'doy, s	14008	17242	+ 3234
1 s bug'doyning o'rtacha sotish bahosi, so'm	5530	6727	+ 1197
Pul tushumi, ming so'm	77460	115983	+ 38523

28-jadval ma'lumotlari asosida hisobot yilida bazis yiliga nisbatan bug'doyni sotishdan olingan pul tushumining umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$(Q_1 P_1 - Q_0 P_0) = (17242 \cdot 6727) - (14008 \cdot 5530) = 115983 - 77460 = + 38523 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu o'zgarish ikki omilning ta'siri ostida yuzaga kelgan. Shu jumladan, birinchi navbatda, miqdoriy omil, ya'ni sotilgan bug'doy miqdori o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$(Q_1 - Q_0) \cdot P_0 = (17242 - 14008) \cdot 5530 = 3234 \cdot 5530 = + 17884 \text{ ming so'm.}$$

Demak, sotilgan bug'doy miqdorining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 3234 s.ga ko'payishi tufayli bug'doyni sotishdan olingan pul tushumi 17884 ming so'mga oshgan. Endi, ikkinchi omilning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishi pul tushumiga ta'sirini aniqlaymiz:

$$(P_1 - P_0) \cdot Q_1 = (6727 - 5530) \cdot 17242 = + 1197 \cdot 17242 = + 20639 \text{ ming so'm.}$$

Demak, 1 s bug'doyning o'rtacha sotish bahosi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 1197 so'mga oshgan bo'lib, u pul tushumining hajmiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada, 20639 ming so'mga oshishiga olib kelgan.

Pul tushumi hajmining o'zgarishiga ikki omil ham ijobiy ta'sir qilib, uni 38523 ming so'mga oshishiga olib kelgan, agar sotilgan mahsulot miqdori hisobot yilida bazis yilidagi miqdor darajasida o'zgarimasdan qolganda, pul tushumi keskin ko'paygan bo'lar edi. Demak, pul tushumining ko'payishiga olib keluvchi asosiy imkoniyatlardan bo'lib, sotiladigan mahsulot miqdorining ko'payishi va sifatini oshishi hisoblanadi. Mahsulot sifatining oshishi o'rtacha sotish bahosi oshishiga sababchi bo'ladi. O'rtacha baho oshgan sayin pul tushumi hajmi ko'payadi.

*Pul tushumining «zanjirli bog'lanishli» usuli
bo'yicha tahlil qilish*

Pul tushumi hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlan-gunga qadar, «shartli pul tushumi» ko'rsatkichi aniqlab olinadi. «Shartli pul tushumi»ni aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdorini (Q_1) bazis yilidagi 1 s mahsulot (mahsulot birligi)ning o'rtacha sotish bahosiga (P_0) ko'paytiriladi. Bu ko'r-satkichni mahsulot turlari va barcha mahsulotlar bo'yicha, ya'ni quyidagi ifodalar yordamida aniqlash mumkin:

- 1) mahsulotlarning har bir turi bo'yicha — Q_1P_0 ;
- 2) jami mahsulotlar bo'yicha — ΣQ_1P_0 .

«Shartli pul tushumi» aniqlangandan keyin, bazis va hisobot yillaridagi «pul tushumi» ko'rsatkichlarini «shartli pul tushumi» ko'rsatkichi bilan solishtirish (biridan ikkinchisini ayirish) orqali omillar ta'siri «zanjirli bog'lanish» usulining qoidasiga ko'ra aniqlanadi.

Pul tushumining o'zgarishiga, yuqorida keltirilgandek, ikki omil ta'sir qiladi. Pul tushumi hajmi o'zgarishiga sotilgan mahsulot fizik miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «shartli pul tu-shumi» hajmidan (Q_1P_0) bazis yilida mahsulotni sotishdan olin-gan pul tushumi hajmini (Q_0P_0) chegirib tashlash kerak:

$$Q_1P_0 - Q_0P_0 = (17242 \cdot 5530) - (14008 \cdot 5530) = \\ 95344 - 77460 = +17884 \text{ ming so'm.}$$

Demak, sotilgan bug'doy miqdorining 3234 s.ga kamayishi tufayli, pul tushumi 17884 ming so'mga ko'paygan.

Mahsulot sotishdan olingan pul tushumi hajmi o'zgarishiga 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishi ta'sirini aniq-lash uchun hisobot yilidagi pul tushumi hajmidan shartli pul tu-shumi hajmini ayirib tashlash kerak:

$$Q_1P_1 - Q_1P_0 = (17242 \cdot 6727) - (17242 \cdot 5530) = \\ 115983 - 95344 = +20639 \text{ ming so'm.}$$

Demak, 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosi 1197 so'mga oshishi natijasida, bug'doyni sotishdan olingan pul daromadi bazis yiliga nisbatan 20639 ming so'mga ko'paygan. Yuqoridagi tahlil etish yo'llarini o'zlashtirib olgan iqtisodchi pul tushumining tahlilini «zanjirli bog'lanish» usuli yordamida quyidagi tahliliy jadval asosida bema'lol tahlil qilib, xulosa chiqarishi mumkin (29-jadval).

Bug'doy sotishdan olingan pul tushumi dinamikasining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi sotilgan mahsulot miqdori va bazis yilidagi 1 s mahsulot bahosi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)	Su jumladan, o'zgarishi	
					mahsulot miqdori hisobiga	baho hisobiga
Sotilgan bug'doy, s	14008	17242	17242	+ 3234	x	x
1 s.ning o'rtacha sotish bahosi, so'm	5530	5530	6727	+ 1197	x	x
Sof pul tushumi, ming so'm	77460	95344	115983	+ 38523	+ 17884	+ 20639

29-jadvaldan ko'rinib turibdiki, bug'doyni sotishdan olingan pul tushumi tahlil etilayotgan davrda 38523 ming so'mga oshgan. Shu jumladan, sotilgan bug'doy miqdorining 3234 s.ga oshishi tufayli pul tushumi hajmi 17884 ming so'mga oshgan. O'rtacha sotish bahosining 1197 so'mga oshishi natijasida 20639 ming so'mga oshgan.

Ikki omil ham pul tushumi o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada, bug'doyni sotishdan olingan pul tushumi hajmi 38523 ming so'mga ko'paygan. Demak, pul tushumini yanada oshirish imkoniyatlari bo'lib, mahsulot miqdorini ko'paytirish va uning sifatini oshirish mumkin, deb hisoblanadi.

Biz pul tushumining tahlilini bug'doyni sotishdan olingan pul daromadi misolida ko'rib chiqdik. Boshqa mahsulotlarni (paxta, sut va h.k.) sotishdan olingan pul daromadining tahlili ham bug'doy tahlilidan farq qilmaydi. Shuning uchun bu yerda ularga to'xtalmadik.

9.3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning omilli tahlili

Foyda ishlab chiqarish jarayonida tashkil topadi, ammo u tovarlar sotilgandan keyin aniq namoyon bo'ladi, yuzaga keladi. Sotilgan mahsulotlarning har bir turi bo'yicha yalpi foydani aniqlash sotishdan tushgan sof tushumdan sotilgan mahsulotlarning

ishlab chiqarish tannarxini chegirib tashlash kerak, ya'ni yalpi foydani quyidagi ifodadan foydalanib, aniqlash mumkin:


$$\Sigma QP - \Sigma QZ,$$

bu yerda, Q — sotilgan mahsulotning miqdori, s hisobida; P — 1 s mahsulotning o'rtacha bahosi, so'm hisobida; Z — 1 s mahsulotning tannarxi, so'm hisobida; QP — mahsulot sotishdan olingan sof pul tushumi, ming yoki so'm hisobida; QZ — sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, ming yoki so'm hisobida.

Hisobot yilidagi yalpi foyda hajmini biznes-reja bo'yicha ko'zda tutilgan foyda summasiga yoki bazis yilidagi foyda summasiga solishtirib, uning mutlaq va nisbiy o'zgarishi aniqlanadi. Boshqacha aytganda, hisobot yilidagi foydadan bazis yilidagi yoki rejalashtirilgan foyda summasini ayirib, uning o'zgarishi (ko'payganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi.

Hisobot yilidagi mahsulot sotishdan olingan yalpi foydaning bazis yiliga yoki rejaga nisbatan o'zgarishi (ko'payishi yoki kamayishi)ni quyidagi ifodadan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$(Q_1 P_1 - Q_1 Z_1) - (Q_0 P_0 - Q_0 Z_0) = \pm \Delta QPZ.$$



Ushbu ifodadan ko'rinib turibdiki, mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaning o'zgarishi bevosita quyidagi uch omil ta'siri ostida yuzaga keladi:

1. Sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi.
2. 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishi.
3. 1 s mahsulotning o'rtacha ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishi.

Biz quyida keltirilgan yalpi foydaning o'zgarishiga ushbu omillar ta'sirini «ko'rsatkichlar farqi» va «zanjirli bog'lanish» usullari yordamida aniqladik.

Hisobot yilida mahsulotni sotishdan olingan haqiqiy yalpi foydaning bazis yilidagi yalpi foydaga nisbatan o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash tartibi (usuli) hisobot yilidagi haqiqiy yalpi foydaning rejalashtirilgan yalpi foydaga nisbatan o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash tartibi (usuli)dan farq qilmaydi. Unisida

ham, bunisida ham tavsiya qilingan ifodalardan foydalanib, tahlil qilinadi. Shuning uchun bu yerda yalpi foyda dinamikasining omilli tahlili bayon qilindi. Tahlilda «ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanildi. Tahlil Q. Rajabov nomli shirkat xo'jaligi misolida amalga oshirildi.

Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaning omilli tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar 30-jadvalda keltirilgan.

30-jadval

Bug'doy sotishdan olingan yalpi foydaning tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar
(Paxtachi tumanidagi Q. Rajabov nomli shirkat xo'jaligi hisobot ma'lumotlari)

T/r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)
1.	Sotilgan bug'doy, s	14008	17242	+ 3234
2.	1 s bu'g'doy bahosi, so'm	5530	6727	+ 1197
3.	1 s bu'g'doy tannarxi, so'm	3930	6509	+ 2579
4.	1 s.ni sotishdan olingan foyda, so'm	1600	218	- 1382
5.	Yalpi foyda, ming so'm	22413	3757	- 18656

30-jadvaldan ko'rinib turibdiki, xo'jalik bug'doyni sotishdan hisobot yilida 3757 ming so'm foyda olgan, u o'tgan bazis yilida esa 22413 ming so'm olgan. Demak, hisobot yilidagi foyda 18656 ming so'mga kamaygan. Ushbu o'zgarish yuqoridagi uch omil hisobiga sodir bo'lgan. Bu omillar ta'sirini «ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanib, aniqlash kerak.

Yalpi foyda o'zgarishiga sotilgan mahsulot miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun, hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar miqdorlari orasidagi farqni bazis yilida 1 s mahsulot sotishdan olingan foyda summasiga ko'paytiriladi, ya'ni quyidagi ifodadan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$(Q_1 - Q_0) \cdot (P_0 - Z_0) = \pm \Delta Q = (17242 - 14008) \cdot (5530 - 3930) = + 3234 \cdot 1600 = + 5174 \text{ ming so'm.}$$

Demak, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan sotilgan don miqdorining 3234 s.ga ko'payishi natijasida, bug'doyni sotishdan olingan yalpi foyda summasi bazis yiliga nisbatan 5174 ming so'mga ko'paygan. Sotilgan bug'doy miqdorining oshishi foyda o'zgarishiga ijobiy ta'sir qiladi. Sotilgan don miqdori bilan olingan foyda hajmi orasidagi bevosita bog'liqlik mavjud. Demak, sotilgan mahsulot

miqdori oshsa, olinadigan foyda ham oshadi, kamaysa kamayadi. Bizning misolda sotilgan bug'doy miqdorining oshishi foyda summasini 5174 ming so'mga ko'paytirgan.

Foydaning o'zgarishiga ikkinchi omil, ya'ni 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun hisobot va bazis yillarida o'rtacha sotish baholari orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan mahsulotning haqiqiy miqdoriga ko'paytiriladi, ya'ni quyidagi ifodadan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$(P_1 - P_0) \cdot Q_1 = \pm \Delta P.$$

Bizning misol bo'yicha:

$$(6727 - 5530) \cdot 17242 = + 1197 \cdot 17242 = +20639 \text{ ming so'm.}$$

Hisobot yilidagi 1 s donning o'rtacha sotish bahosi bazis yiliga nisbatan 1197 so'mga oshishi, yalpi foyda summasini 20639 ming so'mga ko'paytirgan. O'rtacha sotish bahosining oshishi, yalpi foyda o'zgarishiga har doim ijobiy ta'sir qiladi. Demak, o'rtacha baho bilan foyda hajmi orasidagi bevosita bog'liqlik mavjud. Bahoning oshishi har doim foyda oshishiga olib keladi, kamayishi esa kamayishiga sababchi bo'ladi.

Foyda o'zgarishiga 1 s mahsulot tannarxi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun, hisobot va bazis yillarida 1 s mahsulot tannarxi orasidagi farq hisobot yilida sotilgan mahsulotning haqiqiy miqdoriga ko'paytiriladi, ya'ni quyidagi ifodadan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$(Z_1 - Z_0) \cdot Q_1 = \pm \Delta Z.$$

Bizning misolda:

$$(6509 - 3930) \cdot 17242 = +2579 \cdot 17242 = -44469 \text{ ming so'm}$$

Demak, 1 s bug'doy tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2579 so'mga oshgan. Bu esa o'z navbatida yalpi foydaga salbiy ta'sir etib, uni 44469 ming so'mga kamaytirgan.

Sotilgan mahsulot tannarxi bilan foyda o'rtasidagi bilvosita bog'liqlik mavjud. Tannarx qimmatlashsa, foyda kamayadi, aksincha, tannarx arzonlashsa, foyda ko'payadi. Bizning misolda 1 s bug'doy tannarxining qimmatlashishi (oshishi) umumiy xarajatni oshirib, yalpi foydani shu summaga kamayishiga sababchi bo'ladi.

Keltirilgan omillar ta'siri yig'indisi yalpi foydaning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Buni quyida keltirilgan jadvaldan ko'rish mumkin (31-jadval):

Bug'doy sotishdan olingan yalpi foyda dinamikasi o'zgarishining omilli tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)
1.	Sotilgan bug'doy, s	14008	17242	+ 3234
2.	1 s bahosi, so'm	5530	6727	+ 1197
3.	1 s tannarxi, so'm	3930	6509	+ 2579
4.	1 s foydasi, so'm	1600	218	- 1382
5.	Sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	22413	3757	- 18656
5.1.	Sotilgan bug'doy miqdorining o'zgarishi hisobiga $(Q_1 - Q_0) \cdot (P_0 - Z_0)$	x	x	+ 5174
5.2.	1 s sotish bahosining o'zgarishi hisobiga $(P_1 - P_0) \cdot Q_1$	x	x	+ 20639
5.3.	1 s tannarxining o'zgarishi hisobiga $(Z_1 - Z_0) \cdot Q_1$	x	x	- 44469

Ushbu ma'lumotlardan ma'lumki, yalpi foydani ko'paytirish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'llarini izlash zarur.

9.4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari rentabelligi tahlili

Qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, rentabellik hisoblanadi. Rentabellik darajasi qancha yuqori bo'lsa, xarajatlardan va resurslardan foydalanish darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Rentabellik darajasi qancha yuqori bo'lsa, xo'jalik moliyaviy jihatdan shuncha mustahkam bo'ladi.

Rentabellik hozirgi davrda bir necha turlarga bo'linib hisobga olinadi va o'rganiladi. Rentabellik turlari to'g'risidagi ma'lumotlar 5-bobda to'liq keltirilgan, shuning uchun bu yerda faqat sotilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari rentabelligining tahliliga to'xtaldik. Ushbu rentabellik ko'rsatkichi qishloq xo'jaligi korxonalarida sarf bo'lgan xarajatlar samaradorligini ifodalaydi, boshqacha aytganda, sotilgan mahsulotlar bo'yicha foydalilik darajasini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari rentabelligining tahlili taqqoslash orqali darajasi bo'yicha o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Hisobot yilidagi rentabellik darajasini rejadagi yoki o'tgan yildagi rentabellik darajasiga solishtirib o'zgarish aniqlanadi, so'ngra o'zgarishga omillarning ta'siri aniqlanadi va baho berilib, xulosa qilinadi.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligini (R_m) aniqlash uchun sotishdan olingan yalpi foyda summasini sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga (TN) bo'lish kerak:

$$R_m = \frac{YaF}{TN}.$$

Bu koeffitsient bir so'mlik xarajat hisobiga olingan foyda summasini ifodalaydi.

Hisobot yilidagi rentabellik darajasini bazis yilidagi yoki rejadagi rentabellik ko'rsatkichiga solishtirib, uning o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{YaF_1}{TN_1} - \frac{YaF_0}{TN_0} = \pm \Delta TN, YaF.$$

Rentabellikning ushbu o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

- 1) sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi;
- 2) sotilgan mahsulotlar bo'yicha olingan yalpi foyda summasining o'zgarishi.

Omillar ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli orqali hisoblanadi. Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin «shartli rentabellik koeffitsienti» aniqlab olinadi. Buni hisoblash uchun bazis yilidagi yalpi foyda (YaF_0) summasini hisobot yilidagi mahsulot tannarxiga (TN_1) bo'lish kerak:

$$R_{msh} = \frac{YaF_0}{TN_1}.$$

Shundan so'ng rentabellikning o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagi tartib bo'yicha aniqlanadi:

1-omilning, ya'ni «ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishi»ning ta'sirini aniqlash uchun «shartli rentabellik koeffitsienti»dan rejadagi rentabellik koeffitsienti (yoki bazis davridagi rentabellik koeffitsienti)ni chegirib tashlash kerak:

$$\frac{YaF_0}{TN_1} - \frac{YaF_0}{TN_0} = \pm \Delta TN.$$

2-omilning, ya'ni «yalpi foyda summasi o'zgarishi»ning ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi rentabellik darajasidan shartli rentabellik darajasini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{YaF_1}{TN_1} - \frac{YaF_0}{TN_0} = \pm \Delta YaF.$$

Shu ikki omil ta'sirining yig'indisi sotilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari rentabelligi o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta TN \pm \Delta YaF = \Delta TN, YaF.$$

Shundan keyin rentabellik o'zgarishiga baho beriladi va xulosa qilinadi.

Endi, xo'jalikning hisobot ma'lumotlari asosida, sotilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari rentabelligi tahlilini sotilgan bug'doy misolida ko'rib chiqamiz (32-jadval).

32-jadval

Sotilgan bug'doy rentabelligining tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi tannarx va bazis yilidagi yalpi foyda bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, o'zgarishi	
					tannarx hisobiga	foyda hisobiga
Sotilgan bug'doyning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	55047	112226	112226	+ 57179	x	x
Sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	22413	22413	3757	- 18656	x	x
Rentabellik, %	40,7	20,0	3,3	- 37,4	- 20,7	- 16,7

32-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sotilgan bug'doy bo'yicha rentabellik darajasi hisobot yilida 3,3 % ni tashkil qilgan bo'lib, bazis yilidagi rentabellik darajasiga nisbatan u 37,4 % ga kamaygan:

$$\frac{YaF_1}{TN_1} - \frac{YaF_0}{TN_0} = (3757 : 112226) - (22413 : 55047) = 0,033 - 0,407 = -0,374 \text{ yoki } -37,4\%.$$

Ushbu o'zgarishga ikki omil salbiy ta'sir qilgan.

Sotilgan bug'doyning ishlab chiqarish tannarxi hajmi hisobot yilida 112226 ming so'mni tashkil qilgan bo'lib, bazis yiliga nisbatan uning summasi 57179 ming so'mga yoki 103,9 % ga oshgan (boshqacha aytganda, ikki barobardan ziyodga oshgan), natijada, shu omil hisobiga rentabellik darajasi 20,7 % ga pasaygan:

$$\frac{YaF_0}{TN_1} - \frac{YaF_0}{TN_0} = (22413 : 112226) - (22413 : 55047) = 0,200 - 0,407 = -0,207 \text{ yoki } -20,7\%.$$

Bug'doyni sotishdan olingan yalpi foyda summasi hisobot yilida 3757 ming so'mga teng bo'lgan. Bu bazis yilidagi foyda summasiga nisbatan 18656 ming so'mga kamaygan, ya'ni uning hajmi olti martaga kamaygan, natijada, shu omil hisobiga bug'doy rentabelligi darajasi hisobot yilida 16,7 % ga pasaygan:

$$\frac{YaF_0}{TN_1} - \frac{YaF_0}{TN_0} = (3757 : 112226) - (22413 : 112226) = 0,033 - 0,200 = -0,167 \text{ yoki } -16,7\%.$$

Ushbu tahliliy hisoblardan ko'rinib turibdiki, bug'doy rentabelligining o'zgarishiga ikki omil ham salbiy ta'sir qilib, rentabellik darajasi 37,4 % ga pasayishiga sababchi bo'lgan.

Demak, rentabellikni oshirish uchun tannarxni kamaytirish va yalpi foydani oshirish imkoniyatlarini aniqlash zarur. Shu nuqtayi nazardan mahsulot bahosining tarkib topishini sifat bilan bog'lab, ishlab chiqarish tannarxini esa, uning tarkibidagi har bir xarajat moddasining o'zgarishi bilan bog'lab, tahlilni amalga oshirish kerak.

Tayanch iboralar

- | | |
|-----------------------------|------------------------------------------------------------|
| ✓ sotilgan mahsulot hajmi | ✓ sotilgan mahsulot rentabelligi |
| ✓ sof pul tushumi | ✓ rentabellik |
| ✓ ishlab chiqarish tannarxi | ✓ yalpi foydaga ta'sir qiluvchi omillar |
| ✓ moliyaviy natijalar | ✓ sotilgan mahsulot rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar |
| ✓ foyda | |
| ✓ yalpi foyda | |
| ✓ sof foyda | |



NAZORAT SAVOLLARI

1. Mahsulotlarni sotishdan olingan sof pul tushumi qanday aniqlanadi va o'zgarishi qaysi usullar yordamida tahlil qilinadi?
2. Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga sotilgan mahsulotlar miqdori o'zgarishi ta'sirini «ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanib aniqlang.
3. Sof pul tushumi hajmining o'zgarishiga sotilgan mahsulot birligining o'r-tacha sotish bahosi o'zgarishi ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usulidan foy-dalanib aniqlang, xulosa qiling.
4. Moliyaviy natijalar deb qanday ko'rsatkichlar tushuniladi, ularning maz-munini tushuntiring.
5. Foyda turlari va ularni aniqlash yo'llarini bayon eting.
6. Yalpi foyda deb nimaga aytiladi? Uning o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi va ularning ta'sir doirasi hajmi qanday aniqlanadi.
7. Rentabellik deb nimaga aytiladi? Rentabellik turlari, ularni aniqlash usullari va mazmunini ta'riflang.
8. Sotilgan mahsulotlar rentabelligining omilli tahlilini «zanjirli bog'lanish» usuli yordamida tushuntiring.
9. Yalpi foydani ko'paytirish va rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlarini bayon qiling, ta'rifini bering.

10-bob. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI MOLIYAVIY HOLATINING TAHLILI

10.1. Qishloq xo'jaligi korxonasida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi tahlili

Korxonaning moliyaviy holati keng qamrovli ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Shunday ko'rsatkichlar jumlasiga korxonada mulki, kapitali va majburiyatlarining umumiy holatini, korxonaning moliyaviy barqarorligini, to'lovga qodirdligini, mablag'larning likvidligini, aylanma mablag'lar va ularning aylanuvchanligini, xususiy kapital, asosiy kapital va ulardan foydalanish ahvolini ifodalovchi koeffitsientlarni kiritish mumkin. Moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlarni batafsil o'rganish asosida uni yanada yaxshilash uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlash tahlilning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tahlilning maqsadi, vazifalari, manbalari, umumiy moliyaviy holatining tahlili, moliyaviy koeffitsientlarning asosiylari tahlili kabilar 6-bobda yetarlicha yoritilgan, shuning uchun bu yerda ularga to'xtalmadik. Moliyaviy holatga baho berishda qo'llaniladigan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, aylanma mablag'lar va ulardan foydalanish samaradorligi hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar samaradorligi deganda, joriy aktivlardan foydalanishdagi iqtisodiy samara tushuniladi. Iqtisodiy samara ko'rsatkichlari tizimi aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi, ta'riflanadi va tahlil qilinadi:

- 1). Bir so'mlik aylanma mablag'lar hisobiga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot va sof foyda hajmi;
- 2). Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti va aylanish davri ko'rsatkichlari.

Bir so'mlik aylanma mablag'lar hisobiga olingan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagi tartibda aniqlanadi:

- 1). Bir so'mlik aylanma mablag' hisobiga to'g'ri keladigan foyda hajmi (KF) sof foyda summasini (SF) aylanma mablag'larning o'rtacha qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$K_F = \frac{SF}{AMQ}$$

2). Bir so'mlik aylanma mablag'lar hisobiga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot hajmini (K_{YaM}) aniqlash uchun yetishtirilgan jami yalpi mahsulot hajmini (YaM) aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak:

$$K_{YaM} = \frac{YaM}{AMQ}$$

3). Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsientini hisoblash uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan sof pul tushumini (ST) aylanma mablag'lar o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak:

$$K_A = \frac{ST}{AMQ}$$

4). Aylanma mablag'larning aylanish davri (K_D) aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatini (AMQ) sotishdan olingan sof tushum (ST)ga bo'lib, natijasi 360 kunga ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$K_D = \frac{AMQ}{ST} \cdot 360$$

yoki 360 kunni aylanma mablag'larning aylanish koeffitsientiga bo'lish orqali aniqlanadi: $360 : K_A$.

Endi, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash va taqqoslama tahlilini hisobot ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz (33-jadval).

33-jadval

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	Farqi (+, -)
1.	Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	166711	254854	+ 88143
2.	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti, ming so'm	395598	659380	+ 263782
3.	Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	487364	833380	+ 346016

4.	Sof foyda, ming so'm	126203	74273	- 51930
5.	Bir so'mlik aylanma mablag' hisobiga olingan: - yalpi mahsulot (2:1), so'm - sof foyda (4:1), so'm	2,37 0,76	2,59 0,29	+0,22 - 0,47
6.	Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti (3/1), marta	2,92	3,27	+ 0,35
7.	Aylanma mablag'larning aylanish davri, kun hisobida (1/3 · 360)	123,1	110,1	- 13,0

33-jadvaldan ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'lardan foydalanish samarasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan oshgan.

Bir so'mlik aylanma mablag' hisobiga olingan yalpi mahsulot summasi 0,22 so'mga (yoki 9,3 % ga), sof tushum summasi 0,35 so'mga (yoki 12 % ga), aylanma mablag'larning aylanish 13 kunga qisqarib, samarasi 11,9 % ga oshgan, ammo bir so'mlik aylanma mablag' hisobiga kamaygan. Shunga qaramasdan, umumiy xulosa shuki, aylanma mablag'lardan foydalanish samarasi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan oshgan.

Endi, samaradorlik o'zgarishiga omillar ta'siri o'zgarishining tahlilini ko'rib chiqamiz.

Bir so'mlik aylanma mablag' hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 0,22 so'mga oshgan.

$$\frac{YaM_1}{AMQ_1} - \frac{YaM_0}{AMQ_0} = (659380:254854) - (395598:166711) = 2,59 - 2,37 = + 0,22 \text{ so'm.}$$

Bu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'lgan. Omillar ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usuli orqali quyidagicha aniqlanadi:

1). Aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatini o'zgarishining samaradorlik darajasini o'zgarishga ta'siri:

$$\frac{YaM_0}{AMQ_1} - \frac{YaM_0}{AMQ_0} = (395598:254854) - (395598:166711) = 1,55 - 2,37 = -0,82 \text{ so'm.}$$

Demak, aylanma mablag'larning o'rtacha yillik hajmi 88143 ming so'mga ko'paygan, natijada, bir so'mlik aylanma mablag' hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi 0,82 so'mga yoki 34,6 % ga kamaygan. Boshqacha aytganda, aylanma mablag'lardan foydalanish darajasi 34,6 % ga pasaygan.

2). Yalpi mahsulot hajmi o'zgarishining aylanma mablag'lar foydalanish samaradorligi o'zgarishiga ta'siri:

$$\frac{YaM_1}{AMQ_1} - \frac{YaM_0}{AMQ_0} = (659380:254854) - (395598:254854) = 2,59 - 1,55 = +1,04 \text{ so'm.}$$

Demak, yalpi mahsulot hajmining 263782 ming so'mga oshishi aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada, 1 so'mlik aylanma mablag' hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmi 1,04 so'mga yoki 67 % ga oshgan.

Ushbu tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'lar samaradorligini oshirish uchun ularning o'rtacha qoldig'i hajmini kamayishiga erishish choralari ko'rish kerak. Aylanma mablag'larning samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, aylanish koeffitsienti hisoblanadi.

Aylanma mablag'larning aylanishi bazis yiliga nisbatan 0,35 koeffitsientga oshgan:

$$\frac{ST_1}{AMQ_1} - \frac{ST_0}{AMQ_0} = (833380:254854) - (487364:166711) = 3,27 - 2,92 = +0,35.$$

Demak, aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti o'tgan yilga nisbatan 0,35 miqdorga oshgan. Boshqacha aytganda, 1 so'mlik aylanma mablag' hisobiga olingan sof tushum hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 0,35 so'mga oshgan. Bu esa aylanma mablag'larning aylanish davrini 13 kunga qisqarishiga sababchi bo'lgan. Boshqacha aytganda, aylanish davri 13 kunga tezlashgan. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti o'zgarishiga ikki omil ta'sir qilgan.

Ushbu omillarning ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlanadi. Buning uchun quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

I. $\frac{ST_0}{AMQ_0}$ – bazis davridagi aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti;

II. $\frac{ST_0}{AMQ_1}$ – aylanma mablag'larning shartli aylanish koeffitsienti;

III. $\frac{ST_1}{AMQ_1}$ – hisobot davridagi aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti.

Shu ko'rsatkichlar asosida aylanma mablag'lar aylanish koeffitsientining o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi.

Aylanish koeffitsienti o'zgarishi aylanma mablag'lar o'rtacha yillik hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash:

$$II - I. \frac{ST_0}{AMQ_1} - \frac{ST_0}{AMQ_0} = (487364 : 254854) - (487364 : 166711) =$$

$$1,91 - 2,92 = -1,01 \text{ yoki } -101\%.$$

Demak, aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'ini oshishi hisobiga aylanish koeffitsienti 101 % ga kamaygan.

Mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum hajmi o'zgarishi aylanma mablag'lar aylanish koeffitsientining o'zgarishiga ta'sirini aniqlang:

$$III - II. \frac{ST_1}{AMQ_1} - \frac{ST_0}{AMQ_1} = (833380 : 254854) - (487364 : 254854) =$$

$$3,27 - 1,91 = +1,36 \text{ yoki } 136\%.$$

Demak, mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum hajmi keskin oshishi natijasida aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti 1,36 miqdorga oshgan. Xullas, aylanma mablag'lar aylanish koeffitsienti o'zgarishi bir omilning ijobiy va bir omilning salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Ushbu koeffitsientni yanada oshirish uchun aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

10.2. Buxgalteriya balansi asosida moliyaviy barqarorlik koeffitsientining tahlili

Xo'jalikning moliyaviy barqarorligi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi hamda ular orqali tahlil etiladi, xulosalar chiqariladi. Korxonani qay vaqtda moliyaviy barqaror xo'jalik, deb atash mumkin? Korxonaning moddiy aylanma mablag'larini tashkil qiluvchi manbalari bilan to'liq qoplangan taqdirda, uni moliyaviy barqaror xo'jalik, deb atash mumkin. Demak, moliyaviy barqarorlik deganda, moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi manbalari bilan ishlab chiqarish zaxira va sarflari hajmining to'liq ta'minlanishi darajasini tushunmoq kerak.

Moliyaviy barqarorlik ahvolini o'rganish va tahlil etishning asosiy manbai buxgalteriya balansi netto hisoblanadi. Buxgalteriya balansi — nettoning quyidagi modeli asosida moliyaviy barqarorlikni aniqlash va tahlil etish yo'llarini ko'rib chiqamiz:

$$U+Z+P+D=O'+Q+B+K,$$

bu yerda, U — uzoq muddatli aktivlar; Z — zaxira va sarflar (moddiy aylanma mablag‘lar); P — pul mablag‘lari va qimmatli qog‘ozlar; D — debitorlik qarzlari; O' — o‘z mablag‘larining manbalari; Q — uzoq muddatli qarzarlar va kreditlar; B — banklar va boshqa tashkilotlarning qisqa muddatli kreditlari, qarzlari; K — kreditorlik qarzlari.

Ushbu modeldagi $Z+P+D$ belgilari aylanma aktivlarni, $Q+B+K$ belgilari majburiyatlarni bildiradi.

Buxgalteriya balansi — netto modelidan ko‘rinib turibdiki, aktivlar (xo‘jalik mablag‘lari) ikki manba hisobiga, ya‘ni o‘z va qarz mablag‘lari hisobiga tashkil bo‘ladi. Qarz mablag‘lari o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi:

- 1) uzoq muddatli majburiyatlar;
- 2) qisqa muddatli majburiyatlar.

Uzoq muddatli majburiyatlar asosiy vositalarni tashkil etish manbalaridan biri hisoblanadi. Qisqa muddatli majburiyatlar aylanma aktivlarni tashkil qilish manbalaridan biridir. Demak, aylanma aktivlar ikki manba hisobiga tashkil bo‘ladi. Buni yuqorida keltirilgan buxgalteriya balansi — netto modelidan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$Z+P+D=(O'+Q-U)+B+K.$$

Ushbu ifodadan xo‘jalikning aylanma aktivlari ikki manba hisobiga, ya‘ni o‘z aylanma aktivlari manbalari ($O'+Q-U$) bilan qisqa muddatli qarz mablag‘lari ($B+K$) hisobiga tashkil bo‘lishligi ko‘rinib turibdi.

Moliyaviy barqarorlik mezoniga ko‘ra, moddiy aylanma mablag‘lari hajmi o‘z aylanma mablag‘lari manbalari bilan to‘la qoplansa, moliyaviy barqaror korxonaga bo‘lib, u qisqa muddatli qarzlarini to‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi, ya‘ni to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan korxonaga hisoblanadi. Boshqacha aytganda, korxonada moliyaviy barqarorlik mavjud ekanligi yoki unda uning mustahkamligini ko‘rsatadi.

Moddiy aylanma mablag‘lari hajmi korxonaning o‘z aylanma mablag‘larini tashkil qilish manbalari bilan to‘liq qoplansa yoki oshsa, korxonaga moliyaviy barqaror xo‘jalik hisoblanadi, ya‘ni u qisqa muddatli majburiyatlarni uzish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday korxonaga to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan korxonaga deyiladi. Bu holatni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Z \leq O'+Q-U.$$

Agar o'z aylanma mablag'larini tashkil etuvchi manbalar summasi ishlab chiqarish zaxira va sarflari summasiga teng bo'lsa ($Z=O'+Q-U$), pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va debitorlik qarzlarning birgalikdagi jami summasi ($P+D$) qisqa muddatli kreditlar va qarzar bilan kreditorlik qarzlarning jami summasiga ($B+K$) teng bo'ladi:

$$P+D=B+K.$$

Agar o'z aylanma mablag'larini tashkil qiluvchi manbalar summasi ishlab chiqarish zaxira va sarflari summasidan oshsa ($Z \leq O'+Q-U$), pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar hamda debitorlik qarzlarning jami summasi ($P+D$) qisqa muddatli majburiyatlar jami summasidan ($B+K$) katta bo'ladi:

$$P+D > B+K.$$

$P+D$ hajmi $B+K$ hajmidan katta yoki unga teng bo'lsa, korxonaga qisqa muddatli majburiyatlarini uzish (to'lash) qurbiga yetarli darajada ega bo'ladi. Shunday qilib, moddiy aylanma mablag'larining tashkil qilish manbalari hajmi bilan ishlab chiqarish zaxira va sarflari orasidagi o'zaro bog'liqlik nisbati koeffitsienti moliyaviy barqarorlik darajasi holatini belgilaydi.

Moddiy aylanma mablag'larni tashkil etuvchi manbalar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

- 1) o'z aylanma mablag'larining manbalari;
- 2) moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi asosiy manbalar.

Korxonaning o'z aylanma mablag'larini aniqlash uchun o'z mablag'lari manbalariga (O') uzoq muddatli qarzarlar va kreditlarni (Q) qo'shib, ularning jami summasidan uzoq muddatli aktivlar summasi (U) chegirib tashlanadi:

$$Z_o = O' + Q - U,$$

bu yerda, Z_o — o'z aylanma mablag'lari manbalari summasini ($O'+Q-U$) bildiradi.

So'ngra ushbu ko'rsatkich mavjud ishlab chiqarish zaxira va sarflari hajmiga solishtirish orqali moliyaviy barqarorlik darajasi tahlil etiladi. Buning uchun manbalar summasidan mavjud zaxira va sarflar summasini chegirib, o'zgarishi (kam yoki ko'pligi) aniqlanadi, xulosa qilinadi.

Korxonaning moddiy aylanma mablag'lari (zaxira va sarflari) tashkil bo'lishida o'z aylanma mablag'lari bilan bir qatorda qarzar

mablag'lari, birinchi navbatda qisqa muddatli bank kreditlari ishtirok etadi. Shu manbalar yig'indisi asosiy manbalar tushunchasini beradi.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Z_o + B = (O' + Q - U) + B,$$

bu yerda, B — banklar va boshqa tashkilotlarning qisqa muddatli kreditlari hamda qarzlari.

Asosiy manbalar jami summasini mavjud aylanma mablag'lari summasiga (Z) solishtirib, o'zgarishi (ko'p yoki kamligi) aniqlanadi, natijada, ushbu ko'rsatkichlar orqali xo'jalikning moliyaviy barqarorligiga baho beriladi. Tahlil gorizontal va vertikal usullar yordamida amalga oshiriladi. Tahlil davr boshi va oxiridagi ko'rsatkichlar hamda davr oxirini davr boshidagi ko'rsatkichlarga qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, aylanma mablag'larning ham davr boshida, ham davr oxirida manbalar bilan ta'minlanish darajasi hamda ularning davr oxirida davr boshiga nisbatan o'zgarishlari batafsil tahlil etilishi kerak.

Moliyaviy barqarorlik tahlilini yuqorida bayon qilingan qoidalarga amal qilib, 34-tahliliy jadval ko'rsatkichlari asosida amalga oshirish mumkin.

34-jadval

Q. Rajabov nomli shirkat xo'jaligi bo'yicha moliyaviy barqarorlik darajasi tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Yil boshi, ming so'm	Yil oxiri, ming so'm	O'zgarishi (+, -)
1.	O'z mablag'larining manbalari (O')	125651	249274	+ 123623
2.	Uzoq muddatli qarzlari va bank kreditlari (Q)	47817	37509	- 10305
3.	Uzoq muddatli aktivlar (U)	125713	233549	+ 108375
4.	O'z aylanma mablag'lari ($Z_o = O' + Q - U$)	48292	53234	+ 4942
5.	Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlari (B)	1509	5000	+ 3491
6.	Zaxira va sarflarni tashkil qiluvchi asosiy manbalar jami ($Z_o + B$)	49801	58234	+ 8433
7.	Balans bo'yicha mavjud bo'lgan zaxira va sarflarning jami summasi (Z)	74427	108364	+ 33937
8.	O'z aylanma mablag'lari manbalarining zaxira va sarflarga nisbatan ko'p (+), kamligi (-) ($Z_o - Z$)	- 26135	- 55130	- 28995
9.	Asosiy manbalar summasining zaxira va sarflar hajmiga nisbatan ko'p (+), kamligi (-) ($Z_o + B - Z$)	- 24626	- 50130	- 25504

34-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xo'jalik moliyaviy jihatdan zaif bo'lgan, sinish holiga tushgan. Yil boshida ham, yil oxirida ham mavjud moddiy aylanma mablag'lar tegishli manbalar bilan qoplangan, yil oxirida yanada qoplanmaslik darajasi oshgan.

O'z aylanma mablag'lari manbalarining moddiy aylanma mablag'lar hajmiga nisbatan yetishmovchiligi yil boshida 26135 ming so'mni (35,1 % ni), yil oxirida 55130 ming so'mni (50,8 % ni) tashkil qilgan, yil oxiriga kelib, yetishmovchilik ikki barobardan ziyodroq oshgan. Bu qiyin holatdan chiqish uchun korxonada o'z mablag'lari manbalarini kengaytirish yo'llarini izlab topishi zarur. Shu bilan bir qatorda, xo'jalik uchun keraksiz bo'lgan asosiy vositalarni sotishi kerak. Bundan tashqari, qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni hisobiga aylanma mablag'larni qoplay olish choralari ko'rilishi lozim.

10.3. Balans likvidligi ko'rsatkichlari asosida to'lovga qodirlik darajasi tahlili

Balans asosida xo'jalik aktivlari holatini o'rganishda ularning pul shakliga aylanish tezligi (likvidlik darajasi)ga va to'lovga qodirlik darajasiga baho berish tahlilining muhim vazifasi hisoblanadi.

Balans likvidligi deganda nima tushuniladi? Balans likvidligi deganda, korxonada qisqa muddatli majburiyatlarini aylanma aktivlar bilan qoplanish darajasi tushuniladi. Boshqacha aytganda, balans likvidligi qisqa muddatli majburiyatlarni to'lash uchun mavjud bo'lgan qurbi (quvvati)ning darajasini ifodalaydi.

Korxonada aylanma aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlariga bo'lish orqali balansning likvidlik darajasi aniqlanadi:

$$B_1 = \frac{\text{Aylanma aktivlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$$

Aktivlar likvidligi deb nimaga aytiladi? Aktivlar likvidligi deb, ularning vaqt bo'yicha pulga aylanishiga (pul shakliga o'tishiga) aytiladi. Aktivlarning pulga aylanishi uchun ketadigan vaqt ularning tezligini ifodalaydi. Ushbu vaqt qancha kam bo'lsa, aktivlarning likvidligi shuncha yuqori bo'ladi.

Balans aktivlari pulga aylanish tezligi (likvidlik darajasi) bo'yicha quyidagi to'rt guruhga bo'linib, tahlil etiladi:

A1 — eng yuqori likvidli aktivlar. Bu guruhga korxonaning barcha pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlari kiradi.

A2 — tez sotiluvchi aktivlar. Ushbu guruhga barcha debitorlik qarzlari kiritiladi.

A3 — sekinlik bilan sotiluvchi aktivlar. Bu guruhga ishlab chiqarish zaxira va sarflari kiritiladi.

A4 — qiyinchilik bilan sotiluvchi aktivlar. Bu guruhga «Uzoq muddatli aktivlar» kiritiladi. Ushbu aktivlarning pulga aylanishi uzoq davrni tashkil etadi. Ushbu aktivlarning to'lov majburiyatlarini qoplashga yo'naltirishni faqat ortiqcha asosiy vositalarda ko'rish mumkin.

Balans passivlari «To'lov muddati» bo'yicha quyidagi to'rt guruhga bo'lib, tahlil etiladi:

P1 — eng yuqori muddatli majburiyatlar (muddati yetib kelgan to'lov majburiyatlari). Bu guruhga kreditorlik qarzlari hamda o'z muddatida to'lanmagan bank ssudalari kiritiladi.

P2 — qisqa muddatli passivlar. Ushbu guruhga to'lash muddati o'tib ketgan bank ssudalaridan tashqari, qisqa muddatli kreditlar va qisqa muddatli qarzlarni kiradi.

P3 — uzoq muddatli passivlar. Ushbu guruhga uzoq muddatli kreditlar va uzoq muddatli qarzlarni kiradi.

P4 — doimiy passivlar. Bu guruhga o'z mablag'larining manbalari to'liq kiritiladi.

Balans mutlaq likvidli bo'lishi mumkin, agar aktiv va passiv guruhlar orasidagi bog'liqlik quyidagi ko'rinishga ega bo'lsa:

$$A1 \geq P1, A2 \geq P2, A3 \geq P3, A4 \leq P4.$$

Balansning ham, aktivi ham passivi maxsus guruhlarga bo'lingandan keyin, likvidlik ko'rsatkichlari aniqlanadi va tahlil etiladi. Balans bo'yicha korxonaning to'lovga qodirligi darajasiga baho berish uchun quyidagi likvidlik ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

1. Mutlaq likvidlik ko'rsatkichi.
2. Zudlik likvidlik ko'rsatkichi.
3. Joriy likvidlik ko'rsatkichi.

Mutlaq likvidlik koeffitsientini aniqlash uchun «Eng yuqori likvidli aktivlar»ni (*A1*) «Qisqa muddatli majburiyatlar»ning («Eng yuqori muddatli majburiyatlar» (*P1*) bilan «Qisqa muddatli passivlar» (*P2*) summalarining yig'indisiga bo'lish kerak:

$$K_{ML} = \frac{A1}{P1 + P2}.$$

Mutlaq likvidlik koeffitsienti nimani bildiradi? Ushbu koeffitsient yaqin vaqtlar ichida xo'jalik o'zining qisqa muddatli qarzlari qancha qismini qaytara olishi (yoki to'lay olishi) mumkinligini bildiradi. Ushbu koeffitsient 0,2 dan 0,5 gacha bo'lsa, mo'tadil ko'rsatkich bo'lishi mumkin:

$$K_{ML} = 0,2-0,5.$$

Zudlik (tez) likvidlik koeffitsientini aniqlash uchun «Eng yuqori likvidli aktivlar»ga «Tez sotiluvchi aktivlar» summasini qo'shib, yig'indisini «Qisqa muddatli majburiyatlar» summasiga bo'lish kerak:

$$K_{ZL} = \frac{A1 + A2}{P1 + P2}.$$

Agar ushbu koeffitsient «1» ga teng yoki undan ortiq bo'lsa, mo'tadil ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi:

$$K_{ZL} \geq 1.$$

Demak, ushbu koeffitsient shunday bo'lgan taqdirda, korxonada mavjud pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar (qimmatli qog'ozlar) va debitorlik qarzlariidagi mablag'lari bilan kreditorlik qarzlari, qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni qiynalmasdan, bimalol to'lay olish qurbi (qobiliyati)ga ega bo'ladi.

Joriy likvidlik koeffitsientini aniqlash uchun «Eng yuqori likvidli aktivlar» bilan «Tez sotiluvchi aktivlar» tarkibiga «Sokinlik bilan sotiluvchi aktivlar»ni qo'shib, ularning yig'indisi «Qisqa muddatli majburiyatlar»ga bo'linadi:

$$K_K = \frac{A1 + A2 + A3}{P1 + P2}.$$

Joriy likvidlik koeffitsienti nimani bildiradi? Bu koeffitsient xo'jalik debitorlik qarzlari o'z vaqtida undirolsa, tayyor tovar mahsulotlarini mo'tadil holatda sota olsa hamda boshqa aylanma aktivlarining ayrim turlarini zarurat bo'lganda sota olsa, korxonada aylanma aktivlari bilan qisqa muddatli majburiyatlarini qoplay (to'lay) olish imkoniyatiga ega bo'lishini bildiradi.

Joriy likvidlik koeffitsienti 2 va undan ortiq bo'lsa, u mo'tadil ko'rsatkich hisoblanadi:

$$K_x \geq 2.$$

Likvidlik ko'rsatkichlarini tahlil etishda, iqtisodiy tahlilning solishtirish va «zanjirli bog'lanish» usullaridan foydalaniladi. Solishtirish usulidan foydalanib, likvidlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi aniqlanadi. Hisobot davrining oxiridagi likvidlik koeffitsientini davr boshidagi koeffitsienti (yoki belgilangan me'yor koeffitsienti)ga solishtirib, uning o'zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi. So'ngra o'zgarishning sabablari aniqlanib, tahlil qilinadi. O'zgarishning sabablari «zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi.

Mutlaq likvidlik koeffitsientining o'zgarishiga yuqorida keltirilgan ifodadan ko'rinib turibdi, uch omil ta'sir qiladi:

1. Eng yuqori muddatli majburiyatlar hajmining o'zgarishi (PI).
2. Qisqa muddatli passivlar summasining o'zgarishi ($P2$).
3. Eng yuqori likvidli aktivlar summasining o'zgarishi (AI).

Ushbu omillarning ta'sirini aniqlashdan oldin, quyidagi to'rt «zanjirli bog'lanish» ko'rsatkichlari aniqlab olinadi:

$$1. \quad K_{ML_0} = \frac{AI_0}{PI_0 + P2_0}; \quad 2. \quad K_{ML_{SH1}} = \frac{AI_0}{PI_1 + P2_0};$$

$$3. \quad K_{ML_{SH2}} = \frac{AI_0}{PI_1 + P2_1}; \quad 4. \quad K_{ML_1} = \frac{AI_1}{PI_1 + P2_1}.$$

Ushbu koeffitsientlardan foydalanib, mutlaq likvidlik koeffitsientining o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi.

Ikkinchi bog'lanish ko'rsatkichidan (1-shartli bog'lanish koeffitsientidan) davr boshidagi mutlaq likvidlik koeffitsientini ayirish orqali koeffitsientning o'zgarishiga eng yuqori muddatli majburiyatlar hajmi o'zgarishi ta'siri aniqlanadi. Ushbu omilning hajmi nisbatan oshsa, koeffitsient kamayishiga olib keladi, agar kamaysa — oshishiga olib keladi.

Koeffitsientning o'zgarishiga qisqa muddatli passivlar summasi o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun uchinchi «zanjirli bog'lanish» ko'rsatkichidan 2-koeffitsientni ayirib tashlash kerak. Eng yuqori likvidli aktivlar summasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 4-bog'lanish ko'rsatkichidan (davr oxiridagi likvidlik koeffitsientidan) 3-bog'lanish ko'rsatkichini ayirib tashlash kerak.

Omllarning ta'siri yig'indisi mutlaq likvidlik koeffitsienti umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Omllarning har biri ta'siriga baho berilib, imkoniyatlari ko'rsatilishi kerak.

Zudlik likvidlik koeffitsientining o'zgarishiga uning ifodasi-dan ko'rinib turibdiki, to'rt omil ta'sir qiladi:

1. Eng yuqori muddatli majburiyatlar hajmining o'zgarishi ($P1$).
2. Qisqa muddatli passivlar summasining o'zgarishi ($P2$).
3. Eng yuqori likvidli aktivlar summasining o'zgarishi ($A1$).
4. Tez sotiluvchi aktivlar summasining o'zgarishi ($A2$).

Keltirilgan ifodadan foydalanib, «zanjirli bog'lanish» usulini qo'llab, «zudlik likvidlik koeffitsienti»ning o'zgarishiga yuqoridagi omillar ta'siri aniqlanadi. Tahlil etish tartibi mutlaq likvidlik koeffitsientining o'zgarishini tahlil etish tartibiga o'xshaydi. Shuning uchun bu joyda unga to'xtalmadik.

Joriy likvidlik koeffitsientining o'zgarishiga yuqorida keltirilgan ifodadan ko'rinib turibdiki, besh omil ta'sir qiladi, shulardan to'rttasi «zudlik likvidlik koeffitsienti»ning tahlili qismida ko'rsatilgan. Beshinchi omil bo'lib, sekinlik bilan sotiluvchi aktivlar ($A3$) hisoblanadi.

Ushbu omillarning ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Omillar ta'sirini aniqlab olgunga qadar, quyidagi «zanjirli bog'lanish» ko'rsatkichlarini aniqlab olish zarur:

$$\begin{array}{ll}
 1. \quad K_{K_0} = \frac{A1_0 + A2_0 + A3_0}{P1_0 + P2_0}; & 2. \quad K_{K_{SH1}} = \frac{A1_0 + A2_0 + A3_0}{P1_1 + P2_0}; \\
 3. \quad K_{K_{SH2}} = \frac{A1_0 + A2_0 + A3_0}{P1_1 + P2_1}; & 4. \quad K_{K_{SH3}} = \frac{A1_1 + A2_0 + A3_0}{P1_1 + P2_1}; \\
 5. \quad K_{K_{SH4}} = \frac{A1_1 + A2_1 + A3_0}{P1_1 + P2_1}; & 6. \quad K_{K_I} = \frac{A1_1 + A2_1 + A3_1}{P1_1 + P2_1}.
 \end{array}$$

Yuqoridagi «zanjirli bog'lanish» ko'rsatkichlari asosida «joriy likvidlik koeffitsienti»ning o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi va xulosalar chiqariladi. Bu ko'rsatkichning tahlili ham mutlaq likvidlik koeffitsienti tahliliga o'xshaydi. Shuning uchun omillar ta'sirini aniqlash tartibiga to'xtalmadik.

Endi, likvidlik ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil etish tartibini Paxtachi tumanidagi Q. Rajabov nomli shirkat xo'jaligi balansi ma'lumotlari asosida yoritamiz.

Likvidlik ko'rsatkichlarining hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri
Pul mablag'lari	—	2
Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar	7963	4225
A1 jami	7963	4227
Xaridorlar bilan hisoblashuvlar	40088	76820
Bo'nak to'lovlari	16314	5124
Boshqa debitorlar	94	—
A2 jami	56496	81944
Ishlab chiqarish zaxiralari	43288	61803
Tugallanmagan ishlab chiqarish	25267	45694
Tayyor mahsulot	3667	867
Sotish uchun olingan tovarlar	2205	—
A3 jami	74427	108364
Mol yetkazib beruvchilar	13353	67243
Budjet bo'yicha qarzlilar	7409	1688
Mehnat haqi bo'yicha qarzlilar	1628	14279
Boshqa qarzlilar	5816	8238
P1 jami	28206	91448
Qisqa muddatli qarzlilar	62389	—
Qisqa muddatli kreditlar	—	49883
P2 jami	62389	49883
Mutlaq likvidlik koeffitsienti $\left(\frac{A1}{P1+P2} \right)$	0,09	0,03
Zudlik likvidlik koeffitsienti $\left(\frac{A1+A2}{P1+P2} \right)$	0,71	0,61
Joriy likvidlik koeffitsienti $\left(\frac{A1+A2+A3}{P1+P2} \right)$	1,53	1,38

35-jadval ma'lumotlari asosida mutlaq likvidlik koeffitsienti o'zgarishining omilli tahlilini ko'rib chiqamiz.

Koeffitsiyentning umumiy o'zgarishi:

$$\frac{A1_1}{P1_1 + P2_1} - \frac{A1_0}{P1_0 + P2_0} = [4227 : (91448 + 49883)] - [7963 : (28206 + 62389)] =$$

$$0,03 - 0,088 = -0,058 \text{ yoki } -5,8\%$$

Demak, mutlaq likvidlik koeffitsienti yil oxirida yil boshiga nisbatan 5,8 % ga pasaygan, ya'ni qisqa muddatli majburiyatlarni eng yuqori likvidliktivlar hisobiga qoplash (to'lash) darajasi uch marta pasaygan ($0,088 : 0,03 = 3$ marta).

Ushbu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Eng yuqori muddatli majburiyatlar hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash:

$$II - I. \frac{AI_0}{P_{I_1} + P_{2_0}} - \frac{AI_0}{P_{I_0} + P_{2_0}} = [7963 : (91448 + 62389)] - [7963 : (28206 + 62389)] = \\ (7963 : 153837) - (7963 : 90595) = 0,052 - 0,088 = -0,036 \text{ yoki } -3,6 \%$$

Demak, eng yuqori muddatli majburiyatlar summasining 63243 ming so'mga oshishi koeffitsient o'zgarishiga salbiy ta'sir qilgan, natijada, shu omil hisobiga koeffitsient 3,6 % ga pasaygan.

2. Qisqa muddatli passivlar summasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash:

$$III - II. \frac{AI_0}{P_{I_1} + P_{2_1}} - \frac{AI_0}{P_{I_1} + P_{2_0}} = [7963 : (91448 + 49783)] - [7963 : (91448 + 62389)] = \\ (7963 : 141331) - (7963 : 153837) = 0,056 - 0,052 = +0,004 \text{ yoki } 0,4 \%$$

Demak, qisqa muddatli passivlar summasining 12506 ming so'mga kamayishi koeffitsient o'zgarishi ijobiy ta'sir qilgan, natijada, shu omil hisobiga koeffitsient 0,4 % ga oshgan.

3. Eng yuqori likvidli aktivlar summasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash:

$$IV - III. \frac{AI_1}{P_{I_1} + P_{2_1}} - \frac{AI_0}{P_{I_1} + P_{2_1}} = [4227 : (91448 + 49883)] - [7963 : (91448 + 49883)] = \\ (4227 : 141331) - (7963 : 141331) = 0,030 - 0,056 = -0,026 \text{ yoki } -2,6 \%$$

Demak, eng yuqori likvidli aktivlar summasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 3736 ming so'mga kamaygan, natijada, ushbu koeffitsient shu omil hisobiga 2,6 % ga pasaygan.

Xullas, ikki omilning salbiy va bir omilning ijobiy ta'siri ostida korxonaning to'lov layoqati 5,8 % ga pasaygan, ya'ni pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar bilan qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash darajasi 8,8 % ga pasaygan, ya'ni ushbu koeffitsient shu guruhdagi to'lov mablag'lari to'lov majburiyatlarini qoplashga mutlaq yetarli emasligini bildiradi.

Zudlik va joriy likvidlik koeffitsientlari omilli tahlilini bajarish tartibi mutlaq likvidlik koeffitsienti tahlilining tartibiga o'xshaydi, shuning uchun bu yerda ularni keltirmadik. Ammo yuqorida bayon qilingan usullar va keltirilgan balans ma'lumotlari asosida mustaqil bajarishni tavsiya etamiz.

10.4. Debitorlik qarzlari o'zgarishining xo'jalik moliyaviy holatiga ta'siri

Debitorlik qarzlarning ko'payishi yoki kamayishi aylanma aktivlarga yo'naltirilgan kapitalning aylanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Demak, ushbu qarzlarning ko'payishi yoki kamayishi korxonaning moliyaviy holatiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Debitor qarzlari va ularning aylanma aktivlardagi hissasining keskin oshib ketishi o'z aylanma mablag'larini yetishmasligiga sababchi bo'ladi, natijada, kreditorlik qarzlarning ham oshib ketishiga olib keladi, penya va jarimalar ko'payishiga sababchi bo'ladi, natijada, moliyaviy ahvolga salbiy ta'sir qilib, uning yomonlashuviga olib keladi.

Debitorlik qarzlarning oshishini har doim salbiy baholab bo'lmaydi. Shuning uchun debitorlik qarzlarni mo'tadil va nomo'tadil qarzlarga bo'lgan holda o'rganib, ularning holatiga baho berish zarur. Mo'tadil debitorlik qarzlari korxonaning mo'tadil faoliyati natijasidir. Bu yerda xaridorlar bilan qonuniy moliyaviy munosabatlar asosida paydo bo'lgan qarzlardir. Shuning uchun ular mo'tadil debitorlik qarzlari bo'lib hisoblanadi. Bunday qarzlarning o'sishini salbiy holat, deb hisoblash mumkin emas. Demak, moliyaviy holatga salbiy ta'sir qiladi, deb ham qayd qilish mumkin emas. Bunday xulosa qilish, faqat nomo'tadil qarzlarga tegishli bo'ladi.

Nomo'tadil debitorlik qarzlari deganda nima tushuniladi? Moliyaviy munosabatlarning buzilishi natijasida, yuzaga kelgan qarzlarni nomo'tadil debitorlik qarzlari, deb tushuniladi.

Nomo'tadil debitorlik qarzlarning paydo bo'lishi moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, ya'ni korxonada ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olish, ish haqini to'lash va boshqa to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha moliyaviy resurslar yetishmovchiligi yuzaga keladi. Bundan tashqari, mablag'larning debitorlik qarzlari uzoq muddatga ushlanib qolishi aylanma kapitalning aylanuvchanligini sekinlashtiradi. Muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlari o'z majburiyatlarini to'lay olmaslik va foydani kamaytirish xavfini kuchaytiradi.

Shuning uchun debitorlik qarzlarni, ayniqsa, to'lov muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlarni chuqur tahlil qilish zarur. Tahlil jarayonida debitorlik qarzlarni quyidagi tartibda o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) debitorlik qarzlari tarkibi bo'yicha dinamikasini o'rganish;
- 2) davrlar bo'yicha qarzlarni paydo bo'lish sabablarini aniqlash;
- 3) qarzlarni tarkibidagi undirish uchun real bo'lmagan qarzlarning bor-yo'qligini aniqlash;
- 4) da'vo qilish muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlari aniqlash va undirish choralarini ishlab chiqish.

Debitorlik qarzlari tahlil etish uchun buxgalteriya balansiga ilova «Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnoma» (2a-shakli)dan hamda buxgalteriya hisobining dastlabki va tahliliy hisobi schotlari ma'lumotlaridan foydalaniladi. Debitorlik qarzlari to'liq tahlili 6.6-bandda keltirilgan, shuning uchun bu yerda qarzlarning paydo bo'lish davri bo'yicha hajmi tahlili yoritildi. Debitorlik qarzlari paydo bo'lish davri bo'yicha hajmining qiyoslama tahlilini 36-jadval asosida amalga oshirish mumkin.

36-jadval

Debitorlik qarzlari paydo bo'lish davri bo'yicha hajmining tahlili

Debitorlik qarzlarning turlari	Summasi, ming so'm	Shu jumladan, to'lash davri bo'yicha			
		3 oygacha	3 oydan 6 oygacha	6 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortiq
Xaridorlar bilan hisoblashuv	76820	70000	4000	2820	—
Bo'nak to'lovlari	5124	5124	—	—	—
Jami	81944	75124	4000	2820	—

36-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yil oxirida mavjud bo'lgan debitorlik qarzlari 81944 ming so'mni tashkil qilgan, shundan mo'tadil debitorlik qarzlari 75124 ming so'mni yoki 95,8 % ni, to'lov muddati o'tgan (nomo'tadil) qarzlari 6820 ming so'mni yoki 4,2 % ni. Muddati o'tgan qarzlardan 3 oydan 6 oygacha bo'lgan qarzlarni 4000 ming so'mni, 6 oydan 1 yilgacha bo'lgan qarzlarni 2820 ming so'mdan iborat.

Muddati o'tgan debitorlik qarzlari undirib olib, ishga solish choralarini ko'rish zarur. Buning uchun o'zaro dalolatnoma tuzib, mavjudligini tasdiqlab, undirish chorasini ko'rish kerak, agar tan olmasa, ularni hujjatlar asosida rasmiylashtirib, xo'jalik sudi orqali undirib olish olishga erishish zarur.

Tayanch iboralar

- | | |
|------------------------------------|--------------------------------------|
| ✓ buxgalteriya balans | ✓ joriy likvidlik |
| ✓ balans aktivi | ✓ qisqa muddatli majburiyatlar |
| ✓ balans passivi * | ✓ eng yuqori likvidli aktivlar |
| ✓ aylanma mablag'lar | ✓ tez sotiluvchi aktivlar |
| ✓ aylanma mablag'lar samaradorligi | ✓ sekinlik bilan sotiluvchi aktivlar |
| ✓ moliyaviy barqarorlik | ✓ eng yuqori muddatli majburiyatlar |
| ✓ balans likvidligi | ✓ qisqa muddatli passivlar |
| ✓ aktivlar likvidligi | ✓ debitorlik qarzlari |
| ✓ mutlaq likvidlik | |

? NAZORAT SAVOLLARI

1. Moliyaviy tahlil deb nimaga aytiladi?
2. Moliyaviy tahlilning maqsadi nimadan iborat?
3. Buxgalteriya balansida nimalar hisobga olinadi?
4. Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini ta'riflang.
5. Aylanma mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsienti qanday hisoblanadi va u nimani bildiradi?
6. Aylanma mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsienti o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
7. Moliyaviy barqarorlik deb nimaga aytiladi?
8. Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti qanday aniqlanadi?
9. Balans likvidligi deb nimaga aytiladi?
10. Aktivlar likvidligi deganda nimani tushuniladi?
11. Mutlaq likvidlik koeffitsienti qanday hisoblanadi?
12. Zudlik likvidlik koeffitsienti qanday aniqlanadi, uning mazmunini tushuntiring.
13. Joriy likvidlik koeffitsienti nimani bildiradi?
14. Joriy likvidlik koeffitsientining o'zgarishiga necha omil ta'sir qiladi va qaysi usul bilan ularning ta'siri aniqlanadi?
15. Debitorlik qarzlari nimani bildiradi?
16. Debitorlik qarzlarning mavjudligi moliyaviy holatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

11-bob. SAVDO KORXONALARIDA TOVAR AYLANMASINING TAHLILI

11.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari

Tovarlarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha bo'lgan oraliqdagi vositachilik harakati savdo faoliyatini ifodalaydi. Savdo faoliyati tahlilining asosiy mazmuni shundan iboratki, u tovarlar aylanishini muomala xarajatlarining moliyaviy natijalari va korxonaning moliyaviy holati hamda ularning darajasini belgilovchi omillar ta'sirini har tomonlama o'rgangan holda chora-tadbirlar belgilashdir.

Tahlilning asosiy maqsadi bo'lib, savdo faoliyatini o'rganish asosida ushbu faoliyatning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini topish va jalb etish yo'llarini ko'rsatish hisoblanadi.

Maqsadga erishish uchun tahlil quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishi kerak:

- 1) xo'jalik va har bir tarmoq guruhlarini bo'yicha tovarlar aylanmasi dinamikasi va rejasining bajarilishini o'rganish;
- 2) tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash;
- 3) tovar aylanmasi hajmini ko'paytirish imkoniyatlarini topish;
- 4) aniqlangan imkoniyatlarni faoliyatga jalb qilish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish.

Tahlilning asosiy axborot manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- 1). «Tovar aylanmasi va tovar zaxiralari statistik hisoboti» (1-shakl);
- 2). «Sotilgan va sotilmagan tovar to'g'risida hisobot» (3-shakl);
- 3). Buxgalteriya hisobining ma'lumotlari;
- 4). Biznes-reja ma'lumotlari.

11.2. Savdo korxonasida tovar aylanmasi rejasining bajarilishi

Savdo korxonalarini xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, tovar aylanishi hisoblanadi. Tovar aylanishi deganda nima tushuniladi? Tovar aylanishi deganda, hisobot davri davomida sotilgan

jami tovarlarning hajmi (qiymati) tushuniladi. Tovar aylanishi joriy va taqqoslama baholarda hisoblanadi, ta'riflanadi. Bu ko'rsatkich savdo korxonasi faoliyatining hajmi to'g'risida umumiy tushunchani beradi.

Savdo korxonasi faoliyatining barcha asosiy ko'rsatkichlari savdo aylanmasi hajmi bilan bevosita bog'liqdir. Savdo aylanmasining hajmiga bog'liq bo'lgan asosiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: muomala xarajatlari hajmi va darajasi, yalpi daromad hajmi va darajasi, foyda hajmi, rentabellik darajasi hamda moliyaviy ahvolini ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlar darajasi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Tovar aylanishi sotish turlari bo'yicha uchga bo'linadi: *ulgurji savdo*, *mayda ulgurji savdo* va *chakana savdo*. Biz chakana savdo faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari tahliliga to'xtaldik. Ushbu bo'limda chakana tovar aylanmasi rejasining bajarilishini tahlil qilish yo'llarini keltirdik.

Tahlil chakana tovar aylanmasining haqiqiy hajmini rejadagi hajmiga qiyoslash orqali o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Hisobot davridagi tovar aylanmasining haqiqiy hajmidan reja bo'yicha ko'zda tutilgan hajmini chegirish orqali uning o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi. Tovar aylanmasi rejasining bajarilishi tahlilini 37-jadvalda ko'rish mumkin.

37-jadval

Chakana savdo tovar aylanmasi rejası bajarilishining taqqoslama tahlili

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		Rejaga nisbatan o'zgarishi (+, -)	
	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Mutlaq summada	Foizda
Jami tovar aylanishi, ming so'm	253200	255400	+ 2200	+ 0,9
Shu jumladan,				
• naqd pulga sotilgan	248450	250600	+ 2150	+ 0,9
• kreditga berilgan	2750	3000	+ 250	+ 9,1
• mayda ulgurji sotilgan	2000	1800	- 200	- 10,0

37-jadvadan ko'rinib turibdiki, hisobot davrida tovar aylanmasining haqiqiy hajmi rejadagi hajmiga nisbatan 2200 ming so'mga yoki 0,9 % ga oshgan. Shu jumladan, naqd pulga sotilgan tovarlar aylanmasi hajmi 2150 ming so'mga yoki 0,9 % ga, kreditga berilgan tovarlar qiymati bo'yicha tovar aylanmasi 250 ming so'mga yoki 9,1 % ga oshgan, faqat mayda ulgurji savdo bo'yicha sotilgan tovarlar hajmi 200 ming so'mga yoki 10 % ga kamaygan.

Shundan keyin tovar aylanmasining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlanib, unga baho beriladi. Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi bir necha omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Shunday omillar bo'lib, tovar balansi ko'rsatkichlari hisoblanadi. Demak, tovar balansi ko'rsatkichlarining o'zgarishi tovar aylanmasiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardir. Bu yerda tovar balansi bilan tovar aylanmasi bog'liqligi tahlilini ko'rib chiqamiz.

Tovar balansi shakli quyidagicha ifodalanadi:

$$T1+TK=TO+TCh+T2,$$

bu yerda, $T1$ — yil boshidagi zaxira tovarlar qoldig'i; $T2$ — yil oxiridagi zaxira tovarlar qoldig'i; TK — tovarlar kirimi; TO — sotilgan tovarlar (tovar aylanmasi); TCh — tovarlarning har xil chiqimi.

Bunda tovar aylanmasi teng bo'ladi:

$$TO = T1+ TK-TCh-T2.$$

Demak, tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga to'rt omil ta'sir qiladi:

- 1) yil boshidagi tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi ($T1_1-T1_0$);
- 2) tovar kirimining o'zgarishi (TK_1-TK_0);
- 3) har xil tovar chiqimi hajmining o'zgarishi (TCh_1-TCh_0);
- 4) yil oxiridagi tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi ($T2_1-T2_0$).

Bu yerda, 1 — haqiqiy ko'rsatkich; 0 — rejadagi ko'rsatkich.

Ushbu omillarning tovar aylanmasi hajmi o'zgarishiga ta'siri solishtirish yoki «zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Birinchi navbatda solishtirish usuli orqali aniqladik. Buning uchun har bir omilning haqiqiy ko'rsatkichini rejadagi ko'rsatkichiga solishtirib, ta'sirini aniqladik. Buni 38-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

38-jadval

Tovar aylanmasi rejasining bajarilishini tovar balansi asosida tahlil qilish

Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Farqi (+, -)	Tovar aylanmasiga omillarning ta'siri	
				so'm hisobida	foiz hisobida
Yil boshidagi tovar zaxiralari qoldig'i	45600	40100	- 5500	- 5500	- 2,2

38-jadval ma'lumotlari asosida tovar aylanmasining omilli tahlilini «zanjirli bog'lanish» usuli orqali ko'rib chiqamiz. Tovar aylanmasining rejaga nisbatan umumiy o'zgarishi:

$$\begin{aligned} & (T1_1+TK_1-TCh_1-T2_1)-(T1_0+TK_0-TCh_0-T2_0) = \\ & (40100+256600-2700-38600)-(45600+255800-2000-46200) = \\ & 255400-253200 = + 2200 \text{ ming so'm.} \end{aligned}$$

Shu jumladan, omillar ta'siri:

1-omil. Yil boshidagi tovar zaxiralari qoldig'ining rejaga nisbatan o'zgarishi ta'siri:

$$\begin{aligned} & (T1_1+TK_0-TCh_0-T2_0)-(T1_0+TK_0-TCh_0-T2_0) = \\ & (40100+255800-2000-46200)-(45600+255800-2000-46200) = \\ & 247700-253200 = - 5500 \text{ ming so'm.} \end{aligned}$$

Demak, yil boshidagi tovar zaxiralari haqiqiy qoldig'i rejaga nisbatan 5500 ming so'mga kam bo'lganligi uchun tovar aylanishi summasiga salbiy ta'sir qilib, uning hajmini shu summaga (ya'ni, 5500 ming so'mga) kamaytirilgan.

2-omil. Tovarlar kirimi hajmining rejaga nisbatan o'zgarishi ta'siri:

$$\begin{aligned} & (T1_1+TK_1-TCh_0-T2_0)-(T1_1+TK_0-TCh_0-T2_0) = \\ & (40100+256600-2000-46200)-(40100+255800-2000-46200) = \\ & 248500-247700 = + 800 \text{ ming so'm.} \end{aligned}$$

Demak, tovarlarning kirimi bo'yicha hajmi rejaga nisbatan 800 ming so'mga oshganligi tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir qilib, uning hajmi 800 ming so'mga oshishiga olib kelgan.

3-omil. Har xil tovar chiqimlari hajmining o'zgarishi ta'siri:

$$\begin{aligned} & (T1_1+TK_1-TCh_1-T2_0)-(T1_1+TK_1-TCh_0-T2_0) = \\ & (40100+256600-2700-46200)-(40100+255600-2000-46200) = \\ & - 247800 - 248500 = -700 \text{ ming so'm.} \end{aligned}$$

Demak, har xil tovar chiqimlarining rejaga nisbatan 700 ming so'mga oshishi, tovar aylanmasiga salbiy ta'sir qilgan, natijada, shu omil hisobiga tovar aylanmasi hajmi 700 ming so'mga kamaygan.

4-omil. Yil oxiridagi tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi ta'sir

$$(T1_1+TK_1-TCh_1-T2_1)-(T1_2+TK_2-TCh_2-T2_2) = \\ (40100+256600-2700-38600)-(40100+256600-2700-46200) = \\ 255400 - 247800 = +7600 \text{ ming so'm.}$$

Demak, yil oxiridagi tovar zaxiralari qoldig'ining rejaga nisbatan 7600 ming so'mga kamayishi tovarlarni ortiqcha sotilganligin bildiradi. Shuning uchun uning kamayishi tovar aylanmasiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada, shu omil hisobiga uning hajmi 7600 ming so'mga oshgan.

Xullas, tovar aylanmasi rejasining bajarilishiga ikki omil ijobiy, ikki omil salbiy ta'sir qilgan, natijada, 2200 ming so'mga yoki 0,9 % ga oshgan.

11.3. Savdo korxonasi tovar zaxiralari bilan ta'minlanishi va tovarlar aylanishini tahlil qilish

Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishini o'rganish bilan bir qatorda, korxonaning tovar zaxiralari bilan ta'minlanishi va tovarlar aylanishi holatini tahlil qilish zarur. Chunki tovar aylanmasi hajmi, muomala xarajatlari, moliyaviy natijalarning o'zgarishi ko'p jihatdan shularga ham bog'liq bo'ladi.

Tovar aylanmasi rejasining mo'tadil bajarilishi uchun tovar zaxiralari optimal darajada bo'lmog'i zarur. Zaxiralarning yetishmovchiligi yoki yetarli darajada bo'lmasligi tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga salbiy ta'sir qiladi, uning hajmi kamayishiga sababchi bo'ladi. Tovar zaxiralarning hajmi har vaqt me'yor atrofi (belgilangan reja darajasi)da bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tovar zaxiralari holatiga baho berish uchun xo'jalik bo'yicha ham va tovar guruhlari bo'yicha ham zaxiralarning o'rtacha yillik hajmi hisoblanadi va tahlil qilinadi. Tovar zaxiralarning o'rtacha yillik haqiqiy hajmini rejadagi (normativ)dagi hajmiga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi. Farqi — tovarlar aylanmasi hajmi va tovarlar aylanish tezligiga bog'liq bo'ladi.

Tovar zaxiralarning o'rtacha yillik hajmini statistik o'rtacha xronologik usul bilan aniqlash mumkin:

$$Z_u = \frac{\frac{Z_1}{2} + Z_2 + Z_3 + \dots + \frac{Z_n}{2}}{n - 1},$$

bu yerda, $Z_1, Z_2, Z_3, \dots, Z_n$ — aniq sanaga tovar zaxiralari hajmi; n — canalar soni.

Tovar zaxiralari tahlili bilan bir qatorda, tovarlar kirimi rejasining bajarilishi ham tahlil qilinadi. Tovarlarining savdo korxonasiga mo'tadil kelib tushushi, savdo aylanmasi hajmining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Tovarning kirimi bo'yicha reja bajarilishini tahlili jami, tovar guruhlar va har bir turi bo'yicha amalga oshirilishi kerak. Buning uchun kelib tushgan tovarlar haqiqiy hajmini rejadagiga solishtirib, rejaning bajarilishidagi o'zgarish (mutlaq va nisbiy miqdorlarda) aniqlanada va baho beriladi.

Tovar zaxiralari bilan ta'minlanish darajasi tovarlar kirimini o'rganish bilan bir vaqtda tovarlar aylanishi darajasi o'zgarishini ham o'rganish katta ahamiyatga ega, chunki tovarlar aylanmasi hajmining oshishi yoki kamayishi ko'p jihatdan shu ko'rsatkich o'zgarishiga bog'liq.

Tovarlar aylanishi uch ko'rsatkich orqali ifodalanadi:

- 1-tovarlarining aylanuvchanlik koeffitsienti;
- 2-tovarlarining aylanish davri (davomiyligi, kun hisobida);
- 3-tovarlar aylanmasining tovar zaxiralari bilan ta'minlanish koeffitsienti.

Tovarlarining aylanuvchanlik koeffitsienti tovar aylanmasi hajmi (summasi)ni (TO) tovar zaxiralari o'rtacha qoldig'iga (Zo') bo'lish orqali aniqlanadi:

$$Kta = \frac{TO}{Zo'}$$

Bu koeffitsient tovarlarga yo'naltirilgan mablag'larning bir yilda necha marta aylanganligini bildiradi, ya'ni bir so'mlik tovar zaxirasiga necha so'mlik sotilgan tovar summasi to'g'ri kelishini anglatadi.

Tovar aylanish davri (kun hisobida). Bu sotilgan tovarlar necha kunda bir marta aylanganligini bildiradi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun tovar zaxiralarning o'rtacha qoldiq summasini davrdagi kunlar soniga ko'paytirib, natijani hisoblash davridagi tovar aylanmasi hajmiga bo'lish kerak:

$$ADK = \frac{Zo' \cdot 360}{TO}$$

Tovar aylanmasining tovar zaxiralari bilan ta'minlanish koeffitsienti bir so'mlik tovar aylanishi summasi hisobiga necha so'mlik tovar zaxirasi to'g'ri kelishini bildiradi. Ushbu koeffitsient tovar zaxiralarning o'rtacha qoldiq summasini (Zo') tovar aylanma summasiga (TO) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$K_{tz} = \frac{Zo'}{TO}$$

Tovar aylanishi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar aniqlangandan keyin, ularning haqiqiy ko'rsatkichlarini o'tgan yildagi yoki rejadagi ko'rsatkichga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi va unga ta'sir qiluvchi omillar ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli bilan hisoblanib topiladi.

Endi, savdo tashkilotining hisobot materiallari asosida tovarlar aylanishi ko'rsatkichlari tahlilini ko'rib chiqamiz (39-jadval).

39-jadval

Tovar aylanishi ko'rsatkichlarining taqqoslama tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	O'zgarishi (+,-)
1.	Tovar aylanmasi, ming so'm	253200	255400	+ 2200
2.	Tovarlar zaxiralarning o'rtacha hajmi, ming so'm	45900	39350	- 6550
3.	Tovarlarning aylanuvchanlik koeffitsienti (1:2)	5,5	6,5	+ 1,0
4.	Tovarlarning aylanish davri, kun hisobiga (2:1) · 360	65,4	55,4	- 10,0
5.	Tovarlar zaxiralari bilan ta'minlanish darajasi (2:1):100	18,1	15,4	- 2,7

39-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, tovarlarning aylanuvchanlik koeffitsienti tahlilini ko'rib chiqamiz. Tovarlarning aylanuvchanlik koeffitsienti hisobot yilida rejaga nisbatan 1 koeffitsientga yuqori bo'lgan, ya'ni tovar holatidan pulga aylanish davri qisqargan, tezlashgan. Bu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'lgan:

- 1) tovarlar zaxirasi o'rtacha qoldig'i o'zgarishi hisobiga;
- 2) tovarlar aylanishi hajmining o'zgarishi hisobiga.

Tovarlar aylanuvchanlik koeffitsientining o'zgarishiga tovarlar zaxirasi o'rtacha qoldig'i o'zgarishi ta'sirini aniqlash ba'zi tovarlar shartli aylanuvchanlik koeffitsientidan rejadagi aylanuvchanlik koeffitsientini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{TO_0}{Zo'_1} - \frac{TO_0}{Zo'_0} = \frac{253200}{39350} - \frac{253200}{45900} = 6,4 - 5,5 = 0,9.$$

Demak, tovarlar zaxirasi o'rtacha qoldig'ining rejaga nisbatan 6550 ming so'mga kamayishi natijasida tovarlarning aylanishi 0,9 marta tezlashgan.

Tovarlar aylanuvchanlik koeffitsientining o'zgarishiga tovar aylanmasi hajmi o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi haqiqiy aylanuvchanlik koeffitsientidan shartli aylanuvchanlik koeffitsienti chegirib tashlanadi:

$$\frac{TO_1}{Zo'_1} - \frac{TO_0}{Zo'_1} = \frac{255400}{39350} - \frac{253200}{39350} = 6,5 - 6,4 = +0,1.$$

Demak, tovarlar aylanmasi hajmining 2200 ming so'mga oshishi tufayli tovarlar aylanishi 0,1 marta tezlashgan.

Xullas, ikki omil ham tovarlar aylanmasining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada, aylanuvchandik koeffitsienti bir martaga tezlashgan. Boshqacha aytganda, tovarlarning bir marta aylanish davri 10 kunga qisqargan. Bu esa o'z navbatida tovar aylanishining oshishiga va muomala xarajatlarining kamayishiga sababchi bo'luvchi omildir.

11.4. Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi mehnat omillari ta'siri

Mehnat resurslari bilan yetarli darajada ta'minlanish va ular-dan samarali foydalanish tovar aylanmasi hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi mehnat omillari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- 1) savdo xodimlari o'rtacha yillik sonining o'zgarishi;
- 2) o'rtacha bir savdo xodimi tomonidan bir yilda ishlagan kunlari sonining o'zgarishi;
- 3) o'rtacha ish kuni davomiyligining o'zgarishi;
- 4) bir xodimning o'rtacha soatlik mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishi (xodimning o'rtacha bir soatga to'g'ri keladigan tovar aylanmasi hajmi o'zgarishi).

Ushbu omillarning ta'siri «ko'rsatkichlar farqi» va «zanjirli bog'lanish» usullarni qo'llash orqali aniqlanadi. Biz «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, tahlilni amalga oshirdik.

Yuqoridagi omillar ko'paytmasining yig'indisi har doim tovar aylanmasi hajmiga teng bo'lishi kerak:

$$TO = T \cdot K \cdot D \cdot M,$$

bu yerda, T — xodimlarning o'rtacha yillik soni; K — o'rtacha bir xodimning bir yilda ishlagan kunlari soni; D — ish kunining o'rtacha davomiyligi (soat hisobida); M — o'rtacha bir xodimning bir soatlik mehnat unumdorligi.

Tovar aylanmasi o'zgarishiga omillarning ta'sirini hisoblashdan oldin quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlaridan aniqlab olish kerak:

- I. $TO_0 = T_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0$ — bazis yilidagi yoki rejadagi tovar aylanmasi.
- II. $TO_{sh1} = T_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0$ — 1-shartli tovar aylanmasi.
- III. $TO_{sh2} = T_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot M_0$ — 2-shartli tovar aylanmasi.
- IV. $TO_{sh3} = T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_0$ — 3-shartli tovar aylanmasi.
- V. $TO_1 = T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_1$ — hisobot yilidagi haqiqiy tovar aylanmasi.

Ushbu ko'rsatkichlarni o'zaro ketma-ketlikda qiyoslash orqali tovar aylanmasi o'zgarishi va unga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir doirasi aniqlanadi.

Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi:

$$V-I. T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_1 - T_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0 = \pm \Delta TKDM.$$

Tovar aylanmasi o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash.

1-omil. «Xodimlar o'rtacha yillik soni» o'zgarishining ta'siri:

$$II-I. T_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0 - T_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0 = \pm \Delta T.$$

2-omil. «O'rtacha bir xodimning bir yilda ishlagan kunlari soni o'zgarishi» ta'siri:

$$III-II. T_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot M_0 - T_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0 = \pm \Delta K.$$

3-omil. «O'rtacha ish kuni davomiyligining o'zgarishi» ta'siri:

$$IV-III. T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_0 - T_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot M_0 = \pm \Delta D.$$

4-omil. «Bir xodimning o'rtacha soatlik mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishi» ta'siri:

$$V-IV. T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_1 - T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_0 = \pm \Delta M.$$

To'rt omil ta'sirining yig'indisi tovar aylanmasi hajmi o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta T \pm \Delta K \pm \Delta D \pm \Delta M = \Delta TKDM.$$

Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, aylanmaning o'zgarishiga mehnat omillari ta'siri tahlilini ko'rib chiqamiz:

40-jadval

Tovar aylanmasining tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	O'zgarishi (+,-)
1.	Tovar aylanmasi hajmi, ming so'm	253200	255400	+ 2200
2.	Savdo xodimlari o'rtacha soni, kishi	500	490	- 10
3.	Savdo xodimlari ishlagan jami kishikunlari, ming k/k hisobida	160	151,9	- 8,1
4.	O'rtacha bir xodim bir yilda ishlagan kunlari soni	320	310	- 10
5.	Savdo xodimlari ishlagan jami kishisoatlari, ming k/s hisobida	1760	1822,8	+ 62,8
6.	O'rtacha ish kunining davomiyligi, soat hisobida	11,0	12,0	+ 1,0
7.	Bir xodimning o'rtacha soatlik mehnat unumdorligi (so'm)	143,9	140,1	- 3,8

Hisobot yilida tovar aylanmasi hajmi rejaga nisbatan 2200 ming so'mga oshgan, bu uch omilning salbiy va bir omilning ijobiy ta'siri ostida yuzaga kelgan.

Savdo xodimlari soni rejaga nisbatan 10 kishiga kamaygan, natijada, shu omil hisobiga tovar aylanmasi 5002 ming so'mga kamaygan:

$$(T_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0) - (T_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0) = (490 \cdot 320 \cdot 11 \cdot 0,1439) - (500 \cdot 320 \cdot 11 \cdot 0,1439) = 248198 - 253200 = -5002 \text{ ming so'm.}$$

Bir xodimning bir yilda ishlagan kunlari soni rejaga nisbatan 10 kunga qisqargan, natijada, shu omil hisobiga tovar aylanmasi 7756 ming so'mga kamaygan:

$$(T_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot M_0) - (T_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0) = (490 \cdot 310 \cdot 11 \cdot 0,1439) - (490 \cdot 320 \cdot 11 \cdot 0,1439) = 240442 - 248198 = -7756 \text{ ming so'm.}$$

O'rtacha ish kunining davomiyligi hisobot yilida rejaga nisbatan bir soatga cho'zilgan (oshgan), natijada, shu omil hisobiga tovar aylanmasi 21858 ming so'mga ko'paygan:

$$(T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_0) - (T_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot M_0) = (490 \cdot 310 \cdot 12 \cdot 0,1439) - (490 \cdot 310 \cdot 11 \cdot 0,1439) = 262300 - 240442 = +21858 \text{ ming so'm.}$$

Bir xodimning o'rtacha soatlik mehnat unumdorligi darajasi (1 soatdagi savdo aylanmasining hajmi) hisobot yilida rejaga nisbatan pasaygan, ya'ni bir soatda sotgan tovarlar hajmi 3,8 so'mga kamaygan, natijada, shu omil hisobiga tovar aylanmasi hajmi 6900 ming so'mga kamaygan:

$$(T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_1) - T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_0 = (490 \cdot 310 \cdot 12 \cdot 0,1401) - (490 \cdot 310 \cdot 11 \cdot 0,1439) = 255400 - 262300 = -6900 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tovar aylanmasining o'zgarishiga uch omil salbiy, bir omil ijobiy ta'sir qilgan. Ijobiy ta'sir qilgan omilning ta'sir doirasi hajmi qolgan uch omil ta'sirlarining yig'indisiga nisbatan ko'p bo'lganligi uchun ham tovar aylanmasi rejaga nisbatan 2200 ming so'mga oshgan.

Omillar ta'sirini quyidagi umumlashgan holatda ko'rish mumkin:

- 1) savdo xodimlari soni o'zgarishining ta'siri (salbiy) – 5002;
- 2) ishlagan kunlar soni o'zgarishining ta'siri (salbiy) – 7756;
- 3) o'rtacha ish kuni davomiyligi o'zgarishining ta'siri (ijobiy) + 21854;
- 4) soatliq mehnat unumdorligi o'zgarishining ta'siri (salbiy) – 6900.

Tovar aylanmasining o'zgarishi + 2200.

Ushbu ko'rsatkichlardan ma'lumki, tovar aylanmasi hajmini oshirish imkoniyatlaridan korxonaga yetarli foydalanmagan. Tovar aylanmasi hajmini oshirish uchun rejalashtirilgan ish kunlari sonining kamayishi va mehnat unumdorligining pasayishiga yo'l qo'y-maslik choralari ko'rish zarur.

Mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

Tayanch iboralar

- | | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> ✓ tovar aylanmasi ✓ tovar zaxiralari ✓ tovar aylanishi koeffitsienti ✓ tovar aylanishi davri ✓ tovar balansi | <ul style="list-style-type: none"> ✓ tovar aylanmasiga ta'sir qiluvchi omillar ✓ zaxiralar bilan ta'minlanish koeffitsienti ✓ mehnat omillari |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

? NAZORAT SAVOLLARI

1. Tovar aylanmasi rejasi bajarilishini tahlil qilishning maqsadi nimadan iborat?
2. Tovar aylanmasi rejasining bajarilishini tahlili deganda nimani tushunasiz?
3. Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
4. Tovar balansi qaysi ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi?
5. Tovar balansi ko'rsatkichlari tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib hisoblanadimi?
6. Tovarlar aylanishi qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
7. Tovarlar aylanishi koeffitsienti qanday hisoblanadi va u nimani bildiradi?
8. Tovarlar aylanishi koeffitsientining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
9. Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi va ta'sir qiluvchi mehnat omillarini tushuntiring.

12-bob. SAVDO KORXONASIDA MUOMALA XARAJATLARINING TAHLILI

12.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari

Tovarlarni mahsulot ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha yetkazish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar savdo korxonasining muomala xarajatlari hisoblanadi. Muomala xarajatlari tovarlarni tashib keltirish, saqlash va sotish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Muomala xarajatlari mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Muomala xarajatlarining nisbiy ko'rsatkichi bo'lib, tovarlar aylanmasiga nisbatan hisoblanadigan darajasi hisoblanadi.

Muomala xarajatlari darajasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$MXD = \frac{MX}{TO} \cdot 100,$$

bu yerda, MXD — muomala xarajatlari darajasi, % hisobida; MX — muomala xarajatlari summasi; TO — tovar aylanmasi.

Muomala xarajatlari darajasi tovar xarajatlari sig'imini tavsiflaydi. Bu ko'rsatkich sotilgan tovarlar qiymatida tovar aylanmasidagi muomala xarajatlari ulushi (hissasi)ni bildiradi. Muomala xarajatlari darajasi savdo korxonasining moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish samarasini ifodalaydi.

Muomala xarajatlari korxonaning moliyaviy natijasiga salmoqli ta'sir qiluvchi omillardan biridir. Shuning uchun ham muomala xarajatlarini tahlil qilish katta ahamiyatga egadir.

Tahlilning maqsadi nimadan iborat?

Tahlilning maqsadi bo'lib, muomala xarajatlarini chuqur o'rganish asosida uning darajasini pasaytirish imkoniyatlarini topish va savdo faoliyatiga jalb etish yo'llarini ko'rsatish hisoblanadi.

Muomala xarajatlarini tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- 1). Muomala xarajatlarining hajmi va darajasini o'rganish hamda o'zgarishini aniqlash;
- 2). Muomala xarajatlarining umumiy hajmi va darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda ta'sir darajasini tahlil qilish;
- 3). Muomala xarajatlari darajasini pasaytirish imkoniyatlarini izlab topish va ulardan foydalanish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish.

Muomala xarajatlarini tahlil qilishning asosiy manbai buxgalteriya va statistik hisoblarning ma'lumotlari, buxgalteriya hisobining bosh va analitik schotlari ma'lumotlari, biznes-reja ma'lumotlari hisoblanadi.

12.2. Muomala xarajatlarining umumiy hajmi va darajasining o'zgarishi

Muomala xarajatlarining tahlili hisobot davridagi haqiqiy ko'rsatkichlarni rejadagi yoki bazis davridagi ko'rsatkichlariga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Tahlilda, avvalo, muomala xarajatlarining umumiy hajmi va darajasining o'zgarishi, so'ngra xarajat moddalari bo'yicha o'zgarish o'rganiladi.

Tahlil jarayonida hisobot yilidagi muomala xarajatlarining haqiqiy hajmini (MX_1) rejadagi hajmiga yoki o'tgan yildagi hajmiga (MX_0) solishtirib, umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$MX_1 - MX_0 = \pm \Delta. \quad (1)$$

So'ngra ushbu o'zgarishga omillarning ta'siri aniqlanib, baho beriladi.

Muomala xarajatlari summasining o'zgarishiga ko'p omillar ta'sir qiladi, lekin ular tahlil nuqtayi nazaridan umumlashtirilib, quyidagi ikki omilda ifoda etiladi:

- 1) tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi;
- 2) muomala xarajatlari o'rtacha darajasining o'zgarishi.

Ushbu ikki omil ko'paytmasining yig'indisi muomala xarajatlari hajmiga teng bo'ladi:

$$TO \cdot MXD = MX, \quad (2)$$

bu yerda, TO — tovar aylanmasi hajmi; MXD — muomala xarajatlari darajasi.

Muomala xarajatlari darajasi (MXD) ushbu aylanmada koefitsient tariqasida ifodalandi. Ushbu yondashish muomala xara-

jatlari hajmini aniqlashda ham qulaylik tug'diradi. O'zgarishga baho berishda, xulosa qilishda foiz orqali tavsiflanadi.

Omillar muomala xarajatlari hajmi (summasi)ning o'zgarishiga ta'siri «ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanib, aniqlanadi. Ushbu ifodadan (2) foydalanib, muomala xarajatlari hajmining o'zgarishini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu yerda uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar aniq ko'rinib turadi. Birinchi ifoda ($MX_1 - MX_0 = \pm \Delta$)da omillar ko'rinmaydi.

Muomala xarajatlari hajmining o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$(TO_1 \cdot MXD_1) - (TO_0 \cdot MXD_0) = \pm \Delta TO, MXD.$$

Muomala xarajatlari hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagi tartibda aniqlanadi:

1-omil. «Tovar aylanmasi hajmi o'zgarishi»ning ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi haqiqiy tovar aylanmasi hajmi (TO_1) bilan rejadagi yoki o'tgan yildagi tovar aylanmasi hajmi (TO_0) orasidagi farqni ($TO_1 - TO_0$) rejadagi (yoki o'tgan yildagi) muomala xarajatlarining o'rtacha darajasi (MXD_0)ga ko'paytirish kerak:

$$(TO_1 - TO_0) \cdot MXD_0 = \pm \Delta TO.$$

2-omil. «Muomala xarajatlari o'rtacha darajasi» o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi haqiqiy muomala xarajatlari darajasi (MXD_1) bilan rejadagi yoki o'tgan yildagi muomala xarajatlari darajasi (MXD_0) orasidagi farq ($MXD_1 - MXD_0$)ni hisobot yilidagi haqiqiy tovar aylanmasi summasiga (TO_1) ko'paytirish kerak:

$$(MXD_1 - MXD_0) \cdot TO_1 = \pm \Delta MXD.$$

Shu ikki omil ta'siri yig'indisi muomala xarajatlari summasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta TO \pm \Delta MXD = \Delta TO, MXD.$$

Endi, yuqoridagi usul asosida muomala xarajatlari hajmining rejaga nisbatan o'zgarish tahlilini 41-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, amalga oshiramiz.

41-jadvaldan ma'lumki, muomala xarajatlarining haqiqiy summasi rejalashtirilgan summasiga nisbatan 1427 ming so'mga oshgan:

$$(TO_1 \cdot MXD_1) - (TO_0 \cdot MXD_0) = (255400 \cdot 0,189) - (253200 \cdot 0,185) = 48271 - 46844 = +1427 \text{ ming so'm}.$$

Muomala xarajatlari umumiy hajmi rejasining bajarilishi tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	O'zgarishi (+, -)
1.	Tovar aylanmasi, ming so'm	253200	255400	+ 2200
2.	Muomala xarajatlari darajasi, koeffitsient hisobida	0,185	0,189	+ 0,004
3.	Muomala xarajatlari summasi, mln so'm Shu jumladan, o'zgarishga omillar ta'siri: 1) tovar aylanmasi hajmi o'zgarishi ta'siri, $(TO_1 - TO_0) \cdot MXD_0$ 2) muomala xarajatlari darajasi o'zgarishi ta'siri, $(MXD_1 - MXD_0) \cdot TO_1$	46844	48271	+ 1427
		x	x	+ 407
		x	x	+ 1020

Muomala xarajatlari hajmining oshishiga ikki omil ham sababchi bo'lgan. Tovar aylanmasi hajmining rejaga nisbatan 2200 ming so'mga oshishi, muomala xarajatlari summasining 407 ming so'mga ko'payishiga sababchi bo'lgan:

$$(TO_1 - TO_0) \cdot MXD_0 = (255400 - 253200) \cdot 0,185 = + 2200 \cdot 0,185 = + 407 \text{ ming so'm.}$$

Haqiqiy muomala xarajatlarining o'rtacha darajasi rejaga nisbatan 0,4 % ga (yoki 0,004 koeffitsientga) oshgan, natijada, muomala xarajatlari hajmiga salbiy ta'sir qilib, ularning hajmi 1020 ming so'mga oshishiga sababchi bo'lgan:

$$(MXD_1 - MXD_0) \cdot TO_1 = (0,189 - 0,185) \cdot 255400 = +0,004 \cdot 255400 = +1020 \text{ ming so'm.}$$

Ikki omil ta'siri yig'indisi muomala xarajatlari hajmining o'zgarishiga teng keladi:

- 1). Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi ta'siri + 407 ming so'm.
- 2). Muomala xarajatlari darajasining o'zgarishi ta'siri + 1020 ming so'm.

Muomala xarajatlari hajmining o'zgarishi +1427 ming so'm.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, muomala xarajatlari summasini kamaytirishning asosiy zaxirasi bo'lib, ularning darajasini kamaytirish hisoblanadi. Shuning uchun muomala xarajatlari tarkibini xarajat moddalari bo'yicha tahlil qilish zarur.

Muomala xarajatlari darajasining tahlilini «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlil quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi.
Muomala xarajatlari darajasining o'zgarishini aniqlash:

$$\frac{MX_1 \cdot 100}{TO_0} - \frac{MX_0 \cdot 100}{TO_0} = \pm \Delta TO, MX.$$

Muomala xarajatlari darajasining o'zgarishiga tovarlar aylanmasi hajmi o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun shartli muomala xarajatlari darajasidan rejadagi muomala xarajatlari darajasini chegirib tashlash:

$$\frac{MX_0 \cdot 100}{TO_1} - \frac{MX_0 \cdot 100}{TO_0} = \pm \Delta TO.$$

Muomala xarajatlari darajasining o'zgarishiga muomala xarajatlari hajmi o'zgarishi ta'sirini aniqlash uchun haqiqiy muomala xarajatlari darajasidan shartli muomala xarajatlari darajasini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{MX_1 \cdot 100}{TO_1} - \frac{MX_0 \cdot 100}{TO_1} = \pm \Delta MX.$$

Ikki omil ta'siri yig'indisi muomala xarajatlari darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi lozim:

$$\Delta TO \pm \Delta MX = \Delta TO, MX.$$

Shundan keyin omillar ta'sirlariga baho berib, xulosa qilinadi.

Muomala xarajatlari umumiy hajmi va darajasining tahlilidan keyin, ularning xarajat moddalari tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

12.3. Muomala xarajatlarini moddalar bo'yicha tahlil qilish

Savdo korxonasi muomala xarajatlari o'zgarishi (oshishi yoki kamayishi) sababini aniq bilish uchun ularning tarkibini xarajat moddalari bo'yicha ham o'rganish zarur.

Bevosita tahlil qilishga o'tishdan oldin har modda bo'yicha xarajatlarning tovar aylanmasi hajmiga bog'liqligiga qarab, ularni o'zgaruvchan va shartli-doimiy (o'zgarmas) xarajatlar guruhlariga bo'lib olish kerak. Shundan keyin xarajat moddalarining tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zgaruvchan muomala xarajatlari hajmi bevosita tovar aylanmasi hajmiga bog'liq bo'ladi. Tovar aylanmasi hajmi oshgan sayin, o'zgaruvchan muomala xarajatlari hajmi ham oshib boradi, ammo darajasi o'zgarimasdan qoladi.

O'zgaruvchan muomala xarajatlari tarkibiga quyidagi xarajat moddalari kiradi:

- 1) transport xarajatlari;
- 2) savdoda bevosita band bo'lgan xodimlar ish haqi;
- 3) ijtimoiy sug'urta xarajatlari;
- 4) tovarlarni saqlash, qayta ishlash, qayta saralash va joylash xarajatlari;
- 5) reklama xarajatlari;
- 6) idish-taralar uchun qilingan xarajatlar;
- 7) me'yor chegarasidagi nobudgarchiliklar.

Shartli-doimiy xarajatlar summasi tovar aylanmasi hajmiga bog'liq bo'lmaydi, faqat ularning darajasi bog'liq bo'ladi, ya'ni tovar aylanmasi hajmi oshsa, darajasi pasayadi, ammo summasi o'zgarimasdan qoladi. Shartli-doimiy xarajatlarga quyidagilar kiritildi:

- 1) imorat, inshoot va jihozlarni ijaraga olish xarajatlari;
- 2) asosiy vositalar amortizatsiyasi;
- 3) asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;
- 4) ma'muriy-boshqaruv xodimlari mehnat haqi;
- 5) maxsus kiyimlar, kam baholi va tez eskiradigan buyumlarining eskirishi;
- 6) mehnatni muhofaza qilish xarajatlari;
- 7) savdoni tashkil qilish, boshqarish xarajatlari va boshq.

Xarajatlarni o'zgaruvchan va shartli-doimiy xarajatlarga bo'lib o'rganishdan maqsad nima?

Tahlilning maqsadi, har ikki guruh ko'rsatkichlari bo'yicha mutlaq va nisbiy o'zgarishlarni aniqlab, muomala xarajatlarini umumiy holatiga obyektiv baho berish hisoblanadi.

Muomala xarajatlari bo'yicha mutlaq o'rganish haqiqiy muomala xarajatlari summasidan rejadagi xarajatlar summasini chegirib tashlash orqali aniqlandi.

Muomala xarajatlari bo'yicha nisbiy o'zgarishi qanday aniqlanadi?

Hisobot yilidagi haqiqiy muomala xarajatlari hajmidan qayta hisoblangan «shartli muomala xarajatlari» hajmini chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Nisbiy o'zgarishni aniqlashdan oldin o'zgaruvchi muomala xarajatlari bo'yicha «shartli o'zgaruvchan muomala xarajatlari» summasini hisoblab olish kerak. Hisobot yilidagi haqiqiy tovar aylanmasi hajmini rejadagi o'zgaruvchan muomala xarajatlari darajasi koeffitsientiga ko'paytirish orqali reja bo'yicha qayta hisoblanganda, «shartli o'zgaruvchan muomala xarajatlari» summasi aniqlanadi. So'ngra hisobot yilidagi haqiqiy o'zgaruvchan muomala xarajatlari summasidan «shartli o'zgaruvchan xarajatlar» summasini chegirib tashlash orqali o'zgaruvchan muomala xarajatlarning nisbiy o'zgarishi aniqlanadi. Shundan so'ng muomala xarajatlarning jami bo'yicha nisbiy o'zgarishi quyidagi tartibda hisoblanadi. Birinchi navbatda reja bo'yicha qayta hisoblangan «shartli muomala xarajatlari» summasi aniqlandi. Buni aniqlash uchun «shartli doimiy xarajatlar»ning rejadagi summasini qo'shib, «shartli muomala xarajatlari jami summasi» aniqlanadi. Shundan so'ng, haqiqiy muomala xarajatlari jamidan «shartli muomala xarajatlari»ning jamini chegirish orqali nisbiy o'zgarishi aniqlandi.

Natija minus bilan chiqsa, u muomala xarajatlari bo'yicha tejalgan mablag'lar hajmini bildiradi, aksincha bo'lsa, ortiqcha sarf-xarajat qilinganligini ko'rsatadi. Shunday bo'lgan taqdirda, savdo korxonasiining birinchi holatda foydasi ortadi, ikkinchi holatda foydasi kamayadi, oqibatda, moliyaviy holatga ijobiy yo salbiy ta'sir qiladi.

Muomala xarajatlari moddalar bo'yicha rejaning bajarilishi tahlili 42-jadvalda ko'rib chiqiladi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, muomala xarajatlari hisobot yilida rejaga nisbatan 1427 ming so'mga oshgan, shu jumladan, o'zgaruvchan xarajatlar summasi 1005 ming so'mga, shartli doimiy xarajatlar summasi 422 ming so'mga oshgan.

Muomala xarajatlari hajmi tovar aylanmasi hajmining oshishi hisobiga 265 ming so'mga, xarajatlar darajasi hisobiga 1162 ming so'mga oshgan. Ushbu ma'lumotlardan shu narsa ma'lumki, muomala xarajatlari bo'yicha rejaga nisbatan ortiqcha xarajat sodir bo'lishiga yo'l qo'yilgan. Buni mutlaq va nisbiy o'zgarishlar ko'rsatib turibdi. Hisobot yilidagi mutlaq ortiqcha xarajat hajmi 1427 ming so'mni, nisbiy ortiqcha xarajat hajmi esa 1162 ming so'mni tashkil qiladi. Demak, hisobot yilida rejaga nisbatan asossiz ortiqcha qilingan xarajat, bu — nisbiy ortiqcha xarajat summasi. Ushbu ortiqcha muomala xarajatlarning 740 ming so'mi o'zgaruvchan xarajatlar hisobiga, 422 ming so'mi doimiy xarajatlar hisobiga yuzaga kelgan.

Demak, muomala xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlaridan korxonada foydalana olgan emas.

Xarajat moddolari bo'yicha reja bajarilishining tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar		Reja bo'yicha		Shartli xarajat		Haqiqatda		O'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, omillar ta'siri	
			Sum- masi, ming so'm	Dara- jasi, % %	Sum- masi, ming so'm	Dara- jasi, % %	Sum- masi, ming so'm	Dara- jasi, % %		tovar aylanmasi hisobiga	xarajat darajasi hisobiga
1.	Tovarlarni tashish xarajatlari		3798	1,50	3831	1,50	3959	1,55	+ 161	+ 33	+ 126
2.	Mehnat haqi xarajati, ijtimoiy sug'urta		24054	9,50	24263	9,50	24774	9,70	+ 720	+ 209	+ 511
3.	Tovarlarni saqlash, qayta ishlash va joylashtirish xarajatlari		760	0,30	766	0,30	638	0,25	- 122	+ 6	- 128
4.	Savdo reklamasi		633	0,25	639	0,25	715	0,28	+ 82	+ 6	+ 76
5.	Tovarlarni tashish, saqlash va sotish paytidagi yo'qotishlar		127	0,05	128	0,05	179	0,07	+ 52	+ 1	+ 51
6.	Idish xarajatlari		886	0,35	894	0,35	1021	0,40	+ 135	+ 8	+ 127
7.	Boshqa xarajalar (50 %)		253	0,10	255	0,10	230	0,09	- 23	+ 2	- 25
	O'zgaruvchan xarajalar jami		30511	12,05	30776	12,05	31516	12,34	+ 1005	+ 265	+ 740
	Shartli doimiy xarajalar jami		16333	6,45	16333	6,39	16755	6,56	+ 422	-	+ 422
	Muomala xarajatlari jami		46844	18,50	47109	18,44	48271	18,90	+ 1427	+ 265	+ 1162
	Tovar aylanmasi hajmining jami		129000	50,95	133854	51,07	127342	49,86	- 1658	-	-
	Jami		253200	100	255400	100	255400	100	+ 2200	-	-

12.4. O'zgaruvchan mehnat haqi fondining omilli tahlili

Savdo korxonasida bevosita tovarlarni sotish bilan band bo'lgan sotuvchilarga to'langan mehnat haqi summasi o'zgaruvchan muomala xarajatlarining asosiy qismi (50–60 %)ni tashkil qiladi. Shuning uchun ham «Mehnat haqi xarajatlari» moddasi o'zgarishi omilini tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Hisobot yilida hisoblangan haqiqiy ish haqi hajmini rejalashtirilgan ish haqi hajmiga solishtirib, o'zgarishi (tejalgan yoki ortiqcha xarajat bo'lganligi) aniqlandi. So'ngra ushbu o'zgarishga omillarning ta'siri aniqlanib, omilli tahlil qilinadi.

O'zgaruvchan mehnat haqi hajmining o'zgarishiga bevosita uch omil ta'sir qiladi:

- 1) tovar aylanmasi hajmining o'zgartirishi;
- 2) savdo xodimlari mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishi;
- 3) bir sotuvchining o'rtacha ish haqi darajasi o'zgarishi.

Ushbu omillarning ta'siri «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib hisoblanadi. Omillar ta'siri aniqlangunga qadar, quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari hisoblab olinadi:

- I. $UF_0 = TO_0 : MU_0 \cdot O'MX_0$ — bazis yilidagi yoki rejadagi sotuvchi xodimlarning ish haqi fondi;
- II. $UF_{sh1} = TO_1 : MU_0 \cdot O'MX_0$ — 1-shartli ish haqi fondi;
- III. $UF_{sh2} = TO_1 : MU_1 \cdot O'MX_0$ — 2-shartli ish haqi fondi;
- IV. $UF_1 = TO_1 : MU_1 \cdot O'MX_1$ — hisobot yilidagi haqiqiy ish haqi fondi.

Bu yerda, UF — ish haqi fondi; MU_1, MU_0 — mos holda hisobot va bazis yillaridagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari; $O'MX_1, O'MX_0$ — mos holda hisobot va bazis yillaridagi yoki rejadagi o'rtacha mehnat haqi darajasi.

Ushbu bog'lanish ko'rsatkichlari yordamida mehnat haqi fondining tahlili quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Mehnat haqi fondining umumiy o'zgarishi:

$$(TO_1 : MU_1 \cdot O'MX_1) - (TO_0 : MU_0 \cdot O'MX_0) = \pm \Delta TO, MU, UMX.$$

Ushbu o'zgarishga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi.

1-omil. «Tovar aylanmasi hajmi o'zgarishi»ning mehnat haqi fondi (xarajat)ning ta'sirini aniqlash uchun II bog'lanish ko'rsatkichidan I bog'lanish ko'rsatkichi chegirib tashlanadi:

$$(TO_1 : MU_0 \cdot O'MX_0) - (TO_0 : MU_0 \cdot O'MX_0) = \pm \Delta TO.$$

Tovar aylanmasi hajmi oshsa, mehnat haqi summasi ham mu-
tanosib ravishda oshadi.

2-omil. «Mehnat unumdorlik darajasi» o'zgarishining mehnat
haqi fondi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun III bog'lanish ko'r-
satkichidan II bog'lanish ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$(TO_1 : MU_1 \cdot O'MX_0) - (TO_1 : MU_0 \cdot O'MX_0) = \pm \Delta MU.$$

Mehnat unumdorligi darajasi oshsa, mehnat haqi uchun bo'-
ladigan xarajat summasi kamayadi.

3-omil. «O'rtacha ish haqi darajasi» o'zgarishining mehnat haqi
summasi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun IV bog'lanish ko'r-
satkichidan III bog'lanish ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$(TO_1 : MU_1 \cdot O'MX_0) - (TO_1 : MU_0 \cdot O'MX_0) = \pm \Delta O'MX.$$

O'rtacha ish haqi darajasi oshsa, mehnat haqi summasi ham
oshadi.

Ushbu uch omil ta'sirining yig'indisi «Mehnat haqi xarajatlari»
moddasi bo'yicha bo'lgan xarajat hajmining ulushi o'zgarishi
(sotuvchilar mehnat haqi fondi o'zgarishi)ga teng kelishi lozim:

$$\Delta TO \pm \Delta MU \pm \Delta O'MX = \Delta TO, MU, O'MX.$$

O'zgaragan mehnat haqi fondining («Mehnat haqi xarajatlari»
moddasi bo'yicha xarajatlar hajmi o'zgarishi tahlilini quyidagi
ma'lumotlardan foydalanib, ko'rib chiqamiz (43-jadval):

43-jadval

O'zgaruvchan mehnat haqi fondining omilli tahlili uchun
zarur bo'ladigan ma'lumotlar

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	O'zgarishi (+, -)
1.	Tovar aylanmasi hajmi, ming so'm	253200	255400	+ 2200
2.	Mehnat unumdorligi darajasi (bir sotuvchi hisobiga to'g'ri keladigan aylanma summasi), ming so'm	1583	1576	- 70
3.	Bir sotuvchining o'rtacha yillik mehnat haqi, ming so'm	144	145	+ 1,0
4.	O'zgaruvchan mehnat haqi fondi, ming so'm	23000	23500	+ 500

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sotuvchilarning mehnat haqi fondi hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 500 ming so'mga oshgan.

$$\begin{aligned} (TO_1 : MU_1 \cdot O'MX_1) - (TO_0 : MU_0 \cdot O'MX_0) = \\ (255400 : 1577 \cdot 145) - (253200 : 1583 \cdot 144) = \\ 23500 - 23000 = +500 \text{ ming so'm.} \end{aligned}$$

Ushbu o'zgarishga 1-omil — «Tovar aylanmasi hajmi» o'zgarishining ta'sirini aniqlash:

$$\begin{aligned} (TO_1 : MU_0 \cdot O'MX_0) - (TO_0 : MU_0 \cdot O'MX_0) = \\ (255400 : 1583 \cdot 144) - (253200 : 1583 \cdot 144) = \\ 23233 - 23000 = +233 \text{ ming so'm.} \end{aligned}$$

Demak, tovar aylanmasining haqiqiy hajmi rejaga nisbatan 2200 ming so'mga yoki 0,9 % ga oshgan, natijada, shu omil hisobiga mehnat haqi fondi hajmi 233 ming so'mga oshgan.

2-omil. «Mehnat unumdorligi darajasi» o'zgarishi ta'sirini aniqlash:

$$\begin{aligned} (TO_1 : MU_1 \cdot O'MX_0) - (TO_1 : MU_0 \cdot O'MX_0) = \\ (255400 : 1576 \cdot 144) - (255400 : 1583 \cdot 144) = \\ 23336 - 23233 = +103 \text{ ming so'm.} \end{aligned}$$

Demak, mehnat unumdorligi darajasi rejaga nisbatan 70 ming so'mga yoki 0,4 % ga pasaygan, natijada, shu omil hisobiga ish haqi uchun bo'lgan xarajat summasi 103 ming so'mga oshgan. Ushbu omil darajasining pasayishi ish haqi fondi o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

3-omil. «O'rtacha ish haqi darajasi» o'zgarishining ta'sirini aniqlash:

$$\begin{aligned} (TO_1 : MU_1 \cdot O'MX_0) - (TO_1 : MU_1 \cdot O'MX_0) = \\ (255400 : 1576 \cdot 145) - (255400 : 1576 \cdot 1583) = \\ 23500 - 23336 = +164 \text{ mig so'm.} \end{aligned}$$

Demak, hisobot yilida rejaga nisbatan bir xodim o'rtacha yillik mehnat haqi darajasi rejaga nisbatan 1,0 ming so'mga oshgan, natijada, shu omil hisobiga mehnat haqi fondining jami summasi 164 ming so'mga ko'paygan.

Ushbu uch omil ta'sirining yig'indisi mehnat haqi fondi umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

- 1) tovar aylanmasi hajmi o'zgarishining ta'siri + 233 ming so'm;
 - 2) mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishining ta'siri + 103 ming so'm;
 - 3) o'rtacha ish haqi darajasi o'zgarishining ta'siri + 164 ming so'm.
- Mehnat haqi summasining jami o'zgarishi + 500 ming so'm.

Ushbu tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, savdo xodimlarining ish haqi xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari bor. Bu — savdo xodimlarining mehnat unumdorligini keskin oshirish.

Tayanch iboralar

- | | |
|--------------------------------------|----------------------------------------|
| ✓ muomala xarajatlari | ✓ mutlaq o'zgarish |
| ✓ o'zgaruvchan muomala xarajatlari | ✓ xarajatlar hajmi |
| ✓ shartli-doimiy muomala xarajatlari | ✓ nisbiy o'zgarish |
| ✓ xarajat moddalari | ✓ mehnat haqi fondi |
| ✓ xarajatlar darajasi | ✓ shartli muomala xarajatlari |
| | ✓ xarajatlarga ta'sir qiluvchi omillar |

?

NAZORAT SAVOLLARI

1. Muomala xarajatlarini tahlil qilishdan maqsad nima?
2. Muomala xarajatlari deganda nima tushuniladi?
3. Muomala xarajatlari hajmi va darajasi nimani bildiradi hamda ular qanday hisoblanadi?
4. Muomala xarajatlari hajmi o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
5. Muomala xarajatlari hajmi o'zgarishiga tovar aylanmasi hajmi o'zgarishining ta'siri qanday aniqlanadi?
6. O'zgaruvchan muomala xarajatlari deb nimaga aytiladi va qaysi xarajat moddalari ushbu xarajat tarkibiga kiradi?
7. Shartli-doimiy xarajatlar mazmunini tushuntiring.
8. Har bir modda summasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni bilasizmi?
Ular qaysilar?
9. Mehnat haqi xarajatining omilli tahlili mazmunini tushuntiring.

13-bob. SAVDO KORXONASINING MOLIVAVIY HOLATI TAHLILI

13.1. Savdo korxonasi yalpi daromadi rejasining bajarilishini tahlil qilish

Tovarlarni sotish natijasida olingan savdo chegirmalarining yig'indisi — savdo korxonasining yalpi daromadi hisoblanadi. Yalpi daromad mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Yalpi daromadning nisbiy ko'rsatkichi uning darajasini koeffitsientda yoki foizda ifodalaydi. Yalpi daromad tovar aylanmasiga nisbatan hisoblanadi.

Yalpi daromad hajmining tahlili uning mutlaq o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Hisobot yilidagi yalpi daromadning haqiqiy summasini (YaD) rejadagi (yoki o'tgan yildagi) summasiga (YaD) solishtirib, mutlaq o'zgarishi (ko'paygan yoki kamaygan summasi) aniqlanadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$YaD_1 - YaD_0 = \pm \Delta (1); \quad \frac{TO_1 \cdot YaDD_1}{100} - \frac{TO_0 \cdot YaDD_0}{100} = \pm \Delta TO, YaDD (2),$$

bu yerda, TO_1, TO_0 — mos holda hisobot va bazis yili (yoki haqiqiy va reja)dagi tovar aylanmasi; $YaDD_1, YaDD_0$ — mos holda hisobot va bazis yili (yoki haqiqiy va reja)dagi yalpi daromad darajasi.

Yalpi daromad hajmining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi. Bular quyidagilar:

- 1). Tavar aylanmasi hajmining o'zgarishi.
- 2). Yalpi daromad darajasining o'zgarishi.

Ushbu omillarning ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usulini qo'llash orqali aniqlash qulayroq bo'ladi. Biz bu bo'limda yalpi daromad rejasining bajarilishini omilli tahliliga to'xtaldik.

Omillar ta'sirini aniqlagunga qadar, uch bog'lanishning ko'rsatkichi aniqlanadi:

$$1. YaD_0 = \frac{TO_0 \cdot YaDD_0}{100} \text{ — rejadagi yalpi daromad summasi;}$$

$$2. YaD_{SH} = \frac{TO_1 \cdot YaDD_0}{100} \text{ — shartli yalpi daromad summasi};$$

$$3. YaD_1 = \frac{TO_1 \cdot YaDD_1}{100} \text{ — hisobot yilidagi yalpi daromad summasi}.$$

Shundan keyin, omillarning yalpi daromad summasi o'zgarishiga ta'siri aniqlanadi.

1-omil. «Tovar aylanmasi hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli yalpi daromad summasi» (2-bog'lanish)dan rejadagi yalpi daromad summasi (1-bog'lanishni) chegirib tashlash kerak:

$$YaDD_{sh} - YaD_0 = \frac{TO_1 \cdot YaDD_0}{100} - \frac{TO_0 \cdot YaDD_0}{100} = \pm \Delta TO.$$

Tovar aylanmasi hajmi rejaga nisbatan oshsa, yalpi daromad hajmiga ijobiy ta'sir qiladi, natijada, uning hajmini oshiradi

2-omil. «Yalpi daromad darajasi o'zgarishi» ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi yalpi daromadning haqiqiy hajmi (3-bog'lanish)dan shartli yalpi daromad hajmi (2-bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$YaD_1 - YaD_{SH} = \frac{TO_1 \cdot YaDD_1}{100} - \frac{TO_1 \cdot YaDD_0}{100} = \pm \Delta YaDD.$$

Ushbu ikki omil ta'sirlari yig'indisi yalpi daromad hajmining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart:

$$\Delta TO \pm \Delta YaDD = \Delta TO, YaDD.$$

Endi, yalpi daromad hajmi o'zgarishining omilli tahlilini yuqoridagi «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, ko'rib chiqamiz (44-jadval).

44-jadval

Savdo korxonasi yalpi daromad hajmining qiyoslama tahlili

Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqiy tovar aylanmasi va rejadagi yalpi daromad darajasi	Haqiqatda	O'zgarishi (+, -)	Shu jumladan, o'zgarishi	
					tovar aylanmasining o'zgarishi hisobiga	yalpi daromad darajasi o'zgarishi hisobiga
Tovar aylanmasi, ming so'm	253200	255400	255400	+ 2200	x	x

O'rtacha yalpi daromad darajasi, %	22,0	22,0	23,5	+ 1,5	x	x
Yalpi daromad hajmi, ming so'm	55704	56188	60019	+ 4315	+ 484	+ 3831

44-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yalpi daromad hajmi rejadagi hajmiga nisbatan 4315 ming so'mga yoki 7,7 % ga oshgan:

$$\frac{TO_1 \cdot YaDD_1}{100} - \frac{TO_0 \cdot YaDD_0}{100} = \frac{255400 \cdot 23,5}{100} - \frac{253200 \cdot 22,0}{100} = 60019 - 55704 = + 4315 \text{ ming so 'm.}$$

Demak, tovar aylanmasi hajmi oshishi va yalpi daromad darajasining yuqori bo'lishi natijasida, yalpi daromad summasi rejaga nisbatan 4315 ming so'mga ko'paygan. Ikki omil ham ushbu o'zgarishga ijobiy ta'sir qilgan. Tovar aylanmasi hajmi rejaga nisbatan 2200 ming so'mga oshgan, natijada, tovarlarni sotishdan olingan yalpi daromad summasi shu omil hisobiga 484 ming so'mga ko'paygan:

$$\frac{TO_1 \cdot YaDD_0}{100} - \frac{TO_0 \cdot YaDD_0}{100} = \frac{255400 \cdot 22,0}{100} - \frac{253200 \cdot 22,0}{100} = 56188 - 55704 = + 484 \text{ ming so 'm.}$$

Yalpi daromad darajasi rejaga nisbatan 1,5 % yuqori bo'lgan, natijada, shu omil hisobiga yalpi daromad summasi 3831 ming so'mga ko'paygan:

$$\frac{TO_1 \cdot YaDD_1}{100} - \frac{TO_1 \cdot YaDD_0}{100} = \frac{255400 \cdot 23,5}{100} - \frac{255400 \cdot 22,0}{100} = 60019 - 56188 = + 3831 \text{ ming so 'm.}$$

Ushbu omillar ta'sirning yig'indisi yalpi daromad hajmi o'zgarishiga teng kelishi kerak:

- 1). Tovar aylanmasi hajmi o'zgarishining ta'siri (ijobiy)
+ 484 ming so'm.
- 2). Yalpi daromad o'rtacha darajasi o'zgarishining ta'siri (ijobiy)
+3831 ming so'm.

Yalpi daromad hajmi oshishi tovarlarni sotishdan olingan foydaning ko'payishiga sababchi bo'luvchi asosiy omillardan biridir. Demak, yalpi daromad hajmi oshishi xo'jalik moliyaviy faoliyatining mustahkamlashida ma'lum darajada ijobiy rol o'ynaydi.

13.2. Savdo korxonasi foydasi rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlil qilish

Savdo korxonasining foydasi yalpi daromad summasi bilan muomala xarajatlari summasi orasidagi farqqa teng bo'ladi. Yalpi daromad summasini (YaD) aniqlash uchun tovar aylanmasi hajmini (TO) yalpi daromadning o'rtacha darajasiga ($YaDD$) ko'paytirish kerak:

$$YaD = TO \cdot YaDD.$$

Muomala xarajatlari summasini (MX) aniqlash uchun tovar aylanmasi hajmini (TO) muomala xarajatlari darajasiga (MXD) ko'paytirish kerak:

$$MX = TO \cdot MXD.$$

Savdo faoliyati foydasi hajmi teng bo'ladi:

$$F = YaD - MX \quad (1); \quad F = (TO \cdot YaDD) - (TO \cdot MXD) \quad (2);$$

$$F = TO \cdot (YaDD - MXD) \quad (3).$$

Tahlil nuqtayi nazaridan 3-ifodadan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki bu yerda foydaga ta'sir qiluvchi omillar aniq ko'rinib turadi. Demak, foydaga quyidagi uch omil ta'sir qiladi:

- 1) tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi;
- 2) yalpi daromad o'rtacha darajasining o'zgarishi;
- 3) muomala xarajatlari o'rtacha darajasining o'zgarishi.

Foyda summasining o'zgarishiga omillar ta'siri «ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanish orqali hisoblanadi. Haqiqiy foyda summasining rejadagi summasiga nisbatan o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{TO_1 \cdot (YaDD_1 - MXD_1)}{100} - \frac{TO_0 \cdot (YaDD_0 - MXD_0)}{100} = \pm \Delta TO, YaDD, MXD.$$

bu yerda, TO_1, TO_0 — mos holda haqiqiy va rejadagi tovar aylanmasi hajmi; $YaDD_1, YaDD_0$ — mos holda haqiqiy va rejadagi yalpi daromad, % da; MXD_1, MXD_0 — mos holda haqiqiy va rejadagi muomala xarajatlari darajasi, % da.

Shundan so'ng muomala xarajatlari o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi. Tovar aylanmasi hajmi o'zgarishining foyda hajmi o'zgarishiga ta'sirini hisoblash uchun haqiqiy tovar aylanmasi bilan

rejadagi tovar aylanmasi (TO_0) orasidagi farqni ($TO_1 - TO_0$) rejadagi foyda darajasiga ko'paytirilib, 100 % ga bo'lish kerak:

$$\frac{(TO_1 - TO_0) \cdot (YaDD_0 - MXD_0)}{100} = \pm \Delta TO.$$

Tovar aylanmasi hajmi oshsa, foyda summasi ham oshadi, kamaysa, foyda ham kamayadi.

Yalpi daromad o'rtacha darajasi ($YaDD$) o'zgarishining foyda hajmi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun yalpi daromadni haqiqiy o'rtacha darajasi ($YaDD_1$) bilan rejadagi o'rtacha darajasi ($YaDD_0$) orasidagi farqni ($YaDD_1 - YaDD_0$) hisobot yilidagi haqiqiy tovar aylanmasi hajmiga (TO_1) ko'paytirib, 100 % ga bo'lish darkor:

$$\frac{(YaDD_1 - YaDD_0) \cdot TO_1}{100} = \pm \Delta YaDD.$$

Yalpi daromadning haqiqiy darajasi rejadagi darajasiga nisbatan oshsa, foyda hajmining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qiladi, natijada, uni ko'payishiga sababchi bo'ladi. Muomala xarajatlari o'rtacha darajasi (MXD) o'zgarishining foyda hajmi o'zgarishiga ta'sirini hisoblash uchun hisobot yilidagi haqiqiy muomala xarajatlarining o'rtacha darajasi (MXD_1) bilan rejadagi o'rtacha darajasi (MXD_0) orasidagi farqni ($MXD_1 - MXD_0$) hisobot yilidagi tovar aylanishining haqiqiy hajmiga (TO_1) ko'paytirib, 100 % ga bo'lish lozim:

$$\frac{(MXD_1 - MXD_0) \cdot TO_1}{100} = \pm \Delta MXD.$$

Muomala xarajatlari darajasi rejaga nisbatan yuqori bo'lsa, foyda summasining o'zgarishiga salbiy ta'sir qiladi. Natijada, uning kamayishiga sababchi bo'ladi, aksincha bo'lsa, foyda summasi oshib, xo'jalik moliyaviy jihatdan mustahkamlanadi. Ushbu omillar ta'sirining yig'indisi savdo faoliyati foydasi umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart:

$$\Delta TO \pm \Delta YaDD \pm \Delta MXD = \Delta TO, YaDD, MXD.$$

Endi, yuqorida qayd qilingan qoidalar asosida savdo foydasi rejasining bajarilishi tahlilini quyidagi 45-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, amalga oshirish mumkin:

Foyda va unga ta'sir qiluvchi omillarning qiyoslama tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Farqi (+, -)	Rejaning bajarilishi, %
1.	Tovar aylanmasi hajmi, ming so'm	253200	255400	+ 2200	100,9
2.	Yalpi daromad, ming so'm	55704	60019	+ 4315	107,7
3.	Muomala xarajatlari, ming so'm	46844	48271	+ 1427	103,0
4.	Foyda, ming so'm	8860	11748	+ 2888	132,6
5.	O'rtacha yalpi daromad darajasi, %	22,0	23,5	+ 1,5	106,8
6.	O'rtacha muomala xarajatlari darajasi, % ga	18,5	18,9	+ 0,4	102,2
7.	O'rtacha foyda darajasi, % ga	3,5	4,6	+ 1,1	131,4

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, tovarlarni sotishdan olingan foyda rejada ko'zda tutilgan foydaga nisbatan 2888 ming so'mga yoki 32,6 % ga ko'paygan:

$$\frac{TO_1(YaDD_1 - MXD_1)}{100} - \frac{TO_0(YaDD_0 - MXD_0)}{100} = \frac{255400 \cdot (23,5 - 18,9)}{100} - \frac{253200 \cdot (22,0 - 18,5)}{100} = \frac{255400 \cdot 4,6}{100} - \frac{253200 \cdot 3,5}{100} = 11748 - 8860 = + 2888 \text{ ming so'm.}$$

Bu o'zgarish ikki omilning ijobiy, bir omilning salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Tovar aylanmasi hajmi rejaga nisbatan 2200 ming so'mga oshgan, natijada, shu omil hisobiga foyda summasi 77 ming so'mga ko'paygan.

$$\frac{(TO_1 - TO_0) \cdot (YaDD_0 - MXD_0)}{100} = \frac{(255400 - 253200) \cdot (22,0 - 18,5)}{100} = \frac{2200 \cdot 3,5}{100} = + 77 \text{ ming so'm.}$$

Yalpi daromadni o'rtacha darajasi rejaga nisbatan 1,5 % ga oshgan. Bu esa o'z navbatida foyda hajmining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada, foyda summasi 3831 ming so'mga ko'paygan:

$$\frac{(YaDD_1 - YaDD_0) \cdot TO_1}{100} = \frac{(23,5 - 22,0) \cdot 255400}{100} = \frac{1,5 \cdot 255400}{100} = \frac{383100}{100} = + 3831 \text{ ming so'm.}$$

Muomala xarajatlarning o'rtacha darajasi rejaga nisbatan 0,4 % ga oshgan. Bu esa foyda hajmining o'zgarishiga salbiy ta'sir qilgan, natijada, foyda summasi shu omil hisobiga 1020 ming so'mga kamaygan:

$$\frac{(MXD_1 - (MXD_0)) \cdot TO_1}{100} = \frac{(18,9 - 18,5) \cdot 255400}{100} = \frac{0,4 \cdot 255400}{100} = -1020 \text{ ming so'm.}$$

Demak, xarajatlar 1020 ming so'mga oshgan, natijada, shu summaga foyda hajmi kamaygan, shuning uchun natija minus belgisi bilan ifodalangan. Ushbu omillar ta'siri yig'indisi foydaning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

- 1) tovar aylanmasi hajmi o'zgarishi ta'siri (ijobiy) + 77 ming so'm;
- 2) yalpi daromad darajasi o'zgarishi ta'siri +3831 ming so'm;
- 3) muomala xarajatlari darajasi o'zgarishi ta'siri -1020 ming so'm.

Foyda summasining o'zgarishi + 2888 ming so'm.

Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatib turibdiki, savdo faoliyati foydasini oshirish uchun muomala xarajatlari darajasini keskin pasaytirish va tovar aylanmasi hajmini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish choralari zarur.

13.3. Sotilgan tovarlar rentabelligi

Rentabellik — savdo korxonasi faoliyatining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich. Rentabellik resurslardan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Rentabellik darajasi qancha yuqori bo'lsa, korxonada moliyaviy jihatdan shuncha mustahkam bo'ladi, xodimlarning moddiy manfaatdorligi oshadi, oqibatda, xo'jalik faoliyati mustahkamlanadi. Shuning uchun rentabellik holatini o'rganish va uni oshirish imkoniyatlaridan aniqlash katta ahamiyatga ega.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligi darajasi qanday aniqlandi? Tovarlarini sotishdan olingan foydani (F) 100 % ga ko'paytirib, natijasini tovar aylanmasi hajmiga bo'lish orqali rentabellik darajasi aniqlandi:

$$Kr = \frac{F \cdot 100}{TO}$$

Ushbu ko'rsatkich bir so'mlik tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri keladigan foyda summasini ifodalaydi. Buning oshishi foyda oshganligini ko'rsatadi.

Rentabellik darajasining tahlili hisobot yilidagi haqiqiy rentabellik darajasini rejadagi rentabellik darajasiga yoki o'tgan yildagi rentabellik darajasiga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi:

$$Kr_1 - Kr_0 = \frac{F_1 \cdot 100}{TO_1} - \frac{F_0 \cdot 100}{TO_0} = \pm \Delta TO_r$$

Ushbu ifodadan ko'rinib turibdiki, sotilgan mahsulot rentabelligi darajasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

- 1). Tovar aylanmasi hajmi (sotilgan tovar qiymati)ning o'zgarishi.
- 2). Tovarni sotishdan olingan foyda summasining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'siri «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanish orqali aniqlanadi va tahlil qilinadi. Omillar ta'sirini hisoblashdan oldin «shartli rentabellik darajasi» hisoblab olinadi. Buni hisoblash uchun bazis davri (yoki reja)dagi foyda summasi yuz foizga ko'paytirib, natijasini hisobot davridagi tovar aylanmasining haqiqiy hajmiga bo'linadi:

$$Kr = \frac{F_0 \cdot 100}{TO_1}$$

Shundan keyin rentabellik darajasining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

1-omil. «Tovar aylanmasi hajmi» o'zgarishining rentabellik darajasi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «shartli rentabellik darajasidan» reja (yoki bazis davri)dagi rentabellik darajasi chegirib tashlanadi:

$$Kr_{sh} - Kr_0 = \frac{F_0 \cdot 100}{TO_1} - \frac{F_0 \cdot 100}{TO_0} = \pm \Delta TO$$

Tovar aylanmasi hajmi oshsa, rentabellik darajasining pasayishiga sababchi bo'ladi

2-omil. Tovarni sotishdan olingan foyda summasi o'zgarishining rentabellik darajasi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi haqiqiy rentabellik darajasidan reja (yoki o'tgan yil)dagi rentabellik darajasi chegirib tashlanadi:

$$Kr_1 - Kr_{sh} = \frac{F_1 \cdot 100}{TO_1} - \frac{F_0 \cdot 100}{TO_1} = \pm \Delta F$$

Ushbu ikki omil ta'siri yig'indisi rentabellik darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta TO \pm \Delta F = \Delta TO, F.$$

Endi, yuqorida qayd qilingan «zanjirli bog'lanish» usuliga amal qilib, savdo korxonasi ma'lumotlari asosida rentabellikning amaliy tahlilini ko'rib chiqamiz. Buning uchun 46-jadval ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

46-jadval

Sotilgan tovarlar rentabelligining tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqiy tovar aylanmasi va rejadagi foyda summasi bo'yicha	Haqiqatda	O'zgarishi (+, -)	O'zgarishi	
						tovar aylanmasining o'zgarishi hisobiga	foydaning o'zgarishi hisobiga
1.	Tovar aylanmasining hajmi, ming so'm	253200	255400	255400	+ 2200	x	x
2.	Tovarni sotishdan olingan foyda, ming so'm	8860	8860	11748	+ 2888	x	x
3.	Rentabellik darajasi, % da	3,50	3,47	4,60	+ 1,10	- 0,03	+ 1,13

Ushbu jadvalda ko'rinib turibdiki, hisobot yilidagi haqiqiy rentabellik darajasi rejadagiga nisbatan 1,1 % oshgan:

$$\frac{F_1 \cdot 100}{TO_1} - \frac{F_0 \cdot 100}{TO_0} = \frac{11748 \cdot 100}{255400} - \frac{8860 \cdot 100}{253200} = 4,60 - 3,50 = + 1,1\%.$$

Ushbu o'zgarish ikki omil ta'siri ostida yuzaga kelgan, shu jumladan, tovar aylanmasi hajmi o'zgarishi salbiy, foyda hajmining o'zgarishi ijobiy ta'sir qilgan.

Tovar aylanmasi hajmining 2200 ming so'm yoki 0,9 % ga oshishi hisobiga rentabellik darajasi 0,03 % ga pasaygan:

$$\frac{F_1 \cdot 100}{TO_1} - \frac{F_0 \cdot 100}{TO_0} = \frac{8860 \cdot 100}{255400} - \frac{8860 \cdot 100}{253200} = 3,47 - 3,50 = - 0,03\%.$$

Sotishdan olingan foyda hajmi 2288 ming so'mga yoki 25,8 % ga oshishi rentabellik darajasining 1,13 % ga oshishga sababchi bo'lgan:

$$\frac{F_0 \cdot 100}{TC_1} - \frac{F_0 \cdot 100}{TC_0} = \frac{11748 \cdot 100}{255400} - \frac{8860 \cdot 100}{253200} = 4,60 - 3,47 = + 1,13\%.$$

Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, rentabellik darajasining oshishiga asosiy sabab, bu — yalpi daromad darajasining muomala xarajatlari darajasiga nisbatan yuqori bo'lishligi. Demak, rentabellikni oshirish uchun tovarlarga beriladigan chegirma darajasini oshirish va muomala xarajatlari darajasini kamaytirish hisoblanadi.

Rentabellik darajasi o'zgarishining tahlilini muomala xarajatlariga nisbatan ham hisoblab amalga oshirish mumkin. Bu muomala xarajatlari rentabelligi bo'lib hisoblanadi. Buni aniqlash uchun tovarlarni sotishdan olingan foydani (F) 100 % ga ko'paytirib, natijasini muomala xarajatlari hajmiga (MX) bo'lish kerak:

$$Kr = \frac{F \cdot 100}{MX_0}.$$

Tahlilni «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish zarur.

Muomala xarajatlari rentabelligining umumiy o'zgarishi:

$$\frac{F_1 \cdot 100}{MX_1} - \frac{F_0 \cdot 100}{MX_0} = \pm \Delta MX, F.$$

Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

- 1). Muomala xarajatlari hajmining o'zgarishi.
- 2). Foyda hajmining o'zgarishi.

Muomala xarajatlari o'zgarishining rentabellik darajasi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash:

$$\frac{F_0 \cdot 100}{MX_1} - \frac{F_0 \cdot 100}{MX_0} = \pm \Delta MX.$$

Muomala xarajatlarning hajmi nisbatan oshsa, rentabellik darajasining o'zgarishiga salbiy ta'sir qiladi, aksincha, xarajatlar hajmi pasaysa, ijobiy ta'sir qiladi.

Foyda hajmi o'zgarishi rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash:

$$\frac{F_1 \cdot 100}{MX_1} - \frac{F_0 \cdot 100}{MX_1} = \pm \Delta F.$$

Foyda hajmining oshishi rentabellik darajasi o'zgarishiga ijobiy ta'sir qiladi. Shu ikki ta'sirning yig'indisi muomala xarajatlari rentabellik darajasi umumiy o'zgarishiga teng kelishi lozim:

$$\Delta MX \pm \Delta F = \Delta MXF.$$

Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib, rentabellik bo'yicha umumiy xulosa qilinishi kerak.

13.4. Moliyaviy holatni ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlar tahlili

Moliyaviy holatning barqarorligi mutlaq miqdorlar bilan bir qatorda moliyaviy nisbiy ko'rsatkichlar bilan ham tavsiflanadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar *moliyaviy koeffitsientlar*, deb yuritiladi. Bular buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo korxonalarining moliyaviy holatini mustahkamlash uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlash katta ahamiyatga ega. Shuning uchun moliyaviy holatni tavsiflovchi va unga baho beruvchi moliyaviy koeffitsientlarni aniqlash hamda tahlil qilish zarur.

Korxonaning moliyaviy holati quyidagi moliyaviy koeffitsientlar orqali tavsiflanadi va ular asosida unga baho beriladi:

- 1). To'lovga qodirlik koeffitsienti;
- 2). Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti;
- 3). Moliyaviy qaramlik (tobelik) koeffitsienti;
- 4). Korxonaning qarz va o'z mablag'lari yoki o'z va qarz mablag'larining o'zaro nisbati koeffitsienti;
- 5). O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti;
- 6). Ishchanlik faoliyati koeffitsientlari;
- 7). Rentabellik koeffitsientlari.

To'lovga qodirlik koeffitsienti savdo korxonasining qisqa mudatli majburiyatlarini qoplay olish qobiliyatini bildiradi. Bu koeffitsient *joriy likvidlik koeffitsienti*, deb ham aytiladi. Ushbu koeffitsientni aniqlash uchun aylanma aktivlar summasini qisqa mudatli majburiyatlar summasiga bo'lish kerak:

$$K_{tq} = \frac{A2}{P2 - UQK - MUQ},$$

bu yerda, $A2$ — aylanma aktivlar jami; $P2$ — majburiyatlar jami;

UQK — uzoq muddatli qarz va kreditlar; *MUQ* — hukumat qarori bilan to'lash muddati uzaytirilgan qarzarlar.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti savdo korxonasining o'z mablag'lari balansdagi jami mablag'larga nisbatan necha foizni tashkil qilishini ifodalaydi. Bu koeffitsientni aniqlash uchun korxonaning o'z mablag'lari manbalari jamini balans jamiga bo'lish kerak:

$$QMM = \frac{P1}{Bj},$$

bu yerda, *P1* — o'z mablag'lari manbalari jami; *Bj* — balans jami.

Bu koeffitsientning minimal qiymati 0,5 miqdordan kam bo'lmasligi kerak.

Moliyaviy tobelik koeffitsienti. Bu koeffitsient qarz kapitali (*P2*) balansning jamiga (*Bj*) nisbatan egallangan hissasini bildiradi. Bu koeffitsient qarz kapitali jamini (*P2*) balansning jami summasiga (*Bj*) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$Qmm = \frac{P2}{Bj}.$$

Korxonaning qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsienti (moliyaviy tavakkalchilik koeffitsienti). Bu koeffitsient qarz mablag'lari jami summasini o'z mablag'lari manbalarining jami summasiga bo'lish orqali aniqlanadi. Bu koeffitsientning qiymati 0,5 koeffitsientgacha bo'lsa, mo'tadil hisoblanadi. Agar ushbu koeffitsient o'z mablag'lari jamini qarz mablag'larining jamiga nisbati tariqasida aniqlansa, uning mustaqil qiymati 0,5 va undan yuqori bo'lishi kerak. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Qqo' = \frac{P2}{P1}; \quad Qo'q = \frac{P1}{P2}.$$

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti. Ushbu koeffitsient o'z aylanma mablag'lari manbayining jami aylanma mablag'lar hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$Qo'a = \frac{P1 + UQK - A1}{A2} = \frac{\text{O'z aylanma mablag'lari manbayi}}{\text{Aylanma mablag'lar jami}},$$

bu yerda, *A1* — uzoq muddatli aktivlar jami.

Bu koeffitsient korxonaning o'z aylanma mablag'lari jami aylanma mablag'larga nisbatan tutgan o'rnini, ulushini bildiradi, boshqacha aytganda, korxonadagi mavjud aylanma mablag'lar qanchasi (necha foizi) o'z aylanma mablag'lari hisobiga tashkil bo'lganligini bildiradi. Koeffitsientni minimal qiymati 0,1 dan kam bo'lmasligi kerak.

To'lovga qodirlikning, moliyaviy mustaqillik, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsientlarini tahlil qilish usullari va amaliy bajarish yo'llari 6.3, 6.4 va 6.5-bandlarda to'liq yoritilgan, shuning uchun bu bo'limda ularning tahliliga to'xtalmadik. Bu yerda moliyaviy qaramlik (tobelik) koeffitsientining tahlili bayon etildi.

Moliyaviy qaramlik koeffitsientining tahlili. Hisobot davrining oxiridagi koeffitsientni yil boshidagi koeffitsientiga solishtirish orqali o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{UQK_1 + KMQ_1}{B_{j_1}} - \frac{UQK_0 + KMQ_0}{B_{j_0}} = \pm \Delta BJ, UQK, KMQ.$$

Ushbu koeffitsientning o'zgarishiga uch omil ta'sir qiladi. Omillar ta'siri «zanjirli bog'lanish» usulini qo'llash orqali quyidagi tartibda hisoblanadi.

1-omil. Balans jami o'zgarishining moliyaviy qaramlik koeffitsienti o'zgarishiga ta'siri:

$$\frac{UQK_0 + KMQ_0}{B_{j_1}} - \frac{UQK_0 + KMQ_0}{B_{j_0}} = \pm \Delta Bj.$$

Balansning jami davr oxirida davr boshiga nisbatan oshsa, koeffitsient pasayadi, demak, ushbu omil uning o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan bo'lib hisoblanadi

2-omil. «Uzoq muddatli qarzlar va kreditlar» hajmi (UQK) o'zgarishining qaramlik (Qk) koeffitsienti o'zgarishiga ta'siri:

$$\frac{UQK_1 + KMQ_0}{B_{j_1}} - \frac{UQK_0 + KMQ_0}{B_{j_1}} = \pm \Delta UQK.$$

Uzoq muddatli qarzlar summasi oshgan sayin ushbu koeffitsient ham o'shadi, demak, qaramlik darajasi oshadi.

3-omil. «Qisqa muddatli kredit va qarzlar» hajmi o'zgarishining qaramlik koeffitsienti o'zgarishiga ta'siri:

$$\frac{UQK_1 + KMQ_1}{B_{j1}} - \frac{UQK_0 + KMQ_0}{B_{j0}} = \pm \Delta KMQ.$$

Qisqa muddatli qarz va kreditlar hajmining oshishi ushbu koeffitsient o'zgarishiga salbiy ta'sir qiladi. Omillar ta'sirining yig'indisi moliyaviy qaramlik koeffitsienti umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Shundan keyin har bir omil ta'siriga baho berilib, xulosa qilinishi zarur.

Yuqorida qayd qilingan koeffitsientlar orasida korxonaning moliyaviy holati barqarorligini baholashda, asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi:

- 1). Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti.
- 2). Moliyaviy qaramlik koeffitsienti.
- 3). Moliyaviy tavakkalchilik koeffitsienti (korxonaning qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsienti).

Birinchi koeffitsientning qiyoslama darajasi yuqori bo'lib, ikkinchi va uchinchi ko'rsatkichlarniki past bo'lsa, bu korxonaning moliyaviy ahvoli mustahkamligidan, moliyaviy tavakkalchilik darajasi pastligidan dalolat beradi. Agar aksincha bo'lsa, moliyaviy holat zaiflashganligi va moliyaviy tavakkalchilik darajasi (xavfi) oshganligini ko'rsatadi.

Ushbu koeffitsientlar asosida moliyaviy holat darajasiga baho berish uchun quyidagi qiyoslama tahlil bajarildi (47-jadval):

47-jadval

Xo'jalik moliyaviy holatining qiyoslama tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi (+, -)
1.	O'z mablag'lari manbalarining jami, ming so'm	170738	209398	+ 38660
2.	Qarz mablag'lari, ming so'm	46088	70279	+ 24191
2.1.	Uzoq muddatli passivlar, ming so'm	3095	9638	+ 6543
2.2.	Qisqa muddatli passivlar (kredit va qarzlari), ming so'm	1200	1400	+ 200
2.3.	Kreditorlik qarzlari, ming so'm	41793	59241	+ 17448
3.	Balansning jami, ming so'm	216826	279677	+ 62851
4.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, % (P1 : Bj)	78,7	74,9	- 3,8
5.	Moliyaviy tobelik koeffitsienti, % (P2 : Bj)	21,3	25,1	+ 3,8
6.	Moliyaviy tavakkalchilik koeffitsienti, % (P2 : P1)	27,0	33,6	+ 6,6

47-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xo'jalik moliyaviy holatida zaiflashish sodir bo'lgan, ammo shuni qayd qilish kerakki, u hali mustahkam, chunki uning balansi jamiga nisbatan ulushi 74,9 % ni tashkil qiladi. 47-jadvaldan ko'rinib turibdiki, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti 3,8 bandga pasaygan, moliyaviy tobelik shu bandga oshgan, tavakkalchilik koeffitsienti 6,6 bandga yuqori bo'lgan. Ushbu ma'lumotlar xo'jalik moliyaviy holatining biroz zaiflashidan dalolat beradi.

13.5. Debitorlik va kreditorlik qarzlari

Savdo korxonasining moliyaviy holati darajasi debitorlik va kreditorlik qarzlarning darajasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun debitorlik va kreditorlik qarzlarni chuqur o'rganish zarur. Debitor va kreditor qarzlarni tahlil qilishning asosiy vazifasi quyidagilar hisoblanadi:

- 1). Qarzlarning miqdorini aniqlash.
- 2). Qarzlarning paydo bo'lish sabablarini ko'rsatish.
- 3). To'lov intizomini mustahkamlash bo'yicha choralar belgilash.

Shu yo'nalish bo'yicha qarzlarni mo'tadil va mo'tadil bo'lmagan turlarga bo'lib o'rganish zarur.

Ushbu qarzlarni tahlil qilish tartibi 6.6 va 10.4-bandlarda yoritilgan. Shuning uchun bu bo'limda ularga to'xtalmadik. Ushbu bo'limda debitorlik, kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Debitorlik, kreditorlik qarzlari aylanish tezligi darajasining o'zgarishi moliyaviy holatiga ma'lum darajada ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik tezligi quyidagi ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi va tahlil qilinib baholanadi:

1) debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi ($QDQa$). Bu koeffitsientni aniqlash uchun tovar aylanmasi summasini (TO) debitorlik qarzlari (DQ) jamiga bo'lish kerak:

$$QDQa = \frac{TO}{DQ}$$

2) debitorlik qarzlarning aylanish davri ko'rsatkichi.

Bu ko'rsatkichni ikki usul bilan aniqlash mumkin.

Birinchi usul: tovar aylanmasi summasi (TO) debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsientiga ($QDQa$) bo'lish orqali ularning aylanishi davri (kun hisobida) aniqlanadi:

$$Adq = \frac{TO}{QDQa}$$

Ikkinchi usul: debitorlik qarzlari jamini (DQ) tovar aylanmasi summasiga (TO) bo'lib, natijasini davr (yil)dagi kalendar kunlar soniga (360) ko'paytirish orqali aylanish davri (kun hisobida) aniqlanadi:

$$Adq = \frac{DQ}{TO} \cdot 360.$$

3) debitorlik qarzlarning aylanish aktivlari salmog'i:

$$QDQs = \frac{DQ}{A2} \cdot 100.$$

4) muddati o'tgan debitorlik qarzlarning ulushi. Bu ko'rsatkich muddati o'tgan debitorlik qarzlari summasini (DMO') debitor qarzlarning jami summasiga (DQ) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$Qdmo' = \frac{DMO'}{DQ} \cdot 100.$$

Quyida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik ko'rsatkichi tahlilini ko'rib chiqamiz (48-jadval).

48-jadval

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik ko'rsatkichi tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)
1.	Debitor qarzlarning jami, ming so'm	24720	24004	- 716
2.	Tovar aylanmasi, ming so'm	248000	255400	+ 7400
3.	Aylanma aktivlar, ming so'm	41200	39350	- 1850
4.	Muddati o'tgan debitorlik qarzlari, ming so'm	8620	8200	- 420
5.	Debitor qarzlarning aylanish koeffitsienti	10,0	10,6	+ 0,6
6.	Debitor qarzlarning aylanish davri (kun hisobida)	35,9	33,8	- 2,1
7.	Aylanma aktivlar tarkibidagi debitor qarzlarning hissasi, % da	60,0	61,0	+ 1,0
8.	Muddati o'tgan debitorlik qarzlarning jami, % da	34,9	34,2	- 0,7

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, debitorlik qarzlarning aylanish tezligi, ya'ni ularning aylanish soni 10 dan 10,6 martaga ko'tarilgan. Bu tovar aylanmasi summasi va debitor qarzlari hajmining o'zgarish hisobiga yuzaga keldi. Ushbu o'zgarish omillar ta'siri «zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Buning uchun birinchi navbatda «Debitor qarzlarning shartli aylanish koeffitsienti»ni hisoblash zarur, ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun hisobot yilidagi tovar aylanmasi hajmini (TO_1) bazis yilidagi debitorlik qarzining jamiga bo'lish kerak:

$$QDQa = \frac{TO_1}{DQ_0}$$

Shundan keyin debitorlik qarzining aylanish koeffitsienti o'zgarishiga omillar ta'sirini bimalol aniqlash mumkin. Debitorlik qarzini aylanish koeffitsientining umumiy o'zgarishi:

$$\frac{TO_1}{DQ_1} - \frac{TO_0}{DQ_0} = \frac{255400}{24001} - \frac{248000}{24720} = 10,6 - 10,0 = + 0,6 \text{ marta.}$$

Demak, debitorlik qarzlarni aylanishi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 0,6 martaga oshgan, ya'ni debitorlik qarzlari undirilishi tezlashgan. Bu quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo'lgan:

1-omil. Tovar aylanmasi summasining o'zgarishi. Bu omilning debitorlik qarzlari aylanish koeffitsienti o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun debitorlik qarzlarni shartli aylanish koeffitsientidan bazis yilidagi koeffitsientni chegirib tashlash kerak:

$$\frac{TO_1}{DQ_0} - \frac{TO_0}{DQ_0} = \frac{255400}{24720} - \frac{248000}{24720} = 10,3 - 10,0 = + 0,3 \text{ marta.}$$

Demak, tovar aylanmasi hajmining 7400 ming so'mga ($255400 - 248000 = +7400$ ming so'm) oshishi natijasida debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti 0,3 martaga tezlashgan.

2-omil. Debitorlik qarzlari hajmining o'zgarishi. Bu omilning aylanish koeffitsienti o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi aylanish koeffitsientidan shartli aylanish koeffitsientini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{TO_1}{DQ_1} - \frac{TO_1}{DQ_0} = \frac{255400}{24004} - \frac{255400}{24720} = 10,6 - 10,3 = + 0,3 \text{ marta.}$$

Demak, tahlil qilinayotgan davrda debitorlik qarzlari summasining 716 ming soʻmga kamayishi natijasida debitorlik qarzlari aylanish koeffitsienti 0,3 marta oshgan, yaʼni debitorlik qarzlari undirib olish darajasi tezlashgan.

Xullas, debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsientiga ikki omil ham ijobiy taʼsir qilgan, natijada, debitorlik qarzlari undirib olish darajasi 0,6 martaga tezlashgan. Debitorlik qarzlarning aylanish davri hisobot davrida oʻtgan davrga nisbatan 2,1 kunga qisqargan:

$$\frac{DQ_1 \cdot 360}{TO_1} - \frac{DQ_0 \cdot 360}{TO_0} = \frac{24004 \cdot 360}{255400} - \frac{24720 \cdot 360}{248000} = 33,8 - 35,9 = - 2,1.$$

Ushbu oʻzgarishga ikki omil ham ijobiy taʼsir qilgan.

1-omil. Tovar aylanmasi hajmining oʻzgarishi. Bu omilning debitorlik qarzlari aylanish davri oʻzgarishiga taʼsirini aniqlash uchun «shartli aylanish davri» koʻrsatkichidan bazis davridagi debitorlik qarzlarning aylanish davri koʻrsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{DQ_0 \cdot 360}{TO_1} - \frac{DQ_0 \cdot 360}{TO_0} = \frac{24720 \cdot 360}{255400} - \frac{24720 \cdot 360}{248000} = 34,8 - 35,9 = - 1,1.$$

Hisobot yilidagi tovar aylanmasi hajmi bazis yiliga nisbatan 7400 ming soʻmga oshishi debitor qarzining aylanish davri 1,1 kunga qisqarishiga olib keldi. U debitorlik qarzining aylanishini tezlashganidan dalolat beradi, yaʼni qarzlarni undirish tezlashganini koʻrsatadi.

2-omil. Debitorlik qarzlari hajmining oʻzgarishi. Debitorlik qarzlari hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 716 ming soʻmga kamaygan. Bu esa oʻz navbatida debitorlik qarzlarning aylanish davrini qisqarishiga sababchi boʻlgan. Ushbu omilning debitorlik qarzlari aylanish davri oʻzgarishiga taʼsirini aniqlash uchun hisobot yilidagi aylanish davri koʻrsatkichidan shartli aylanish davri koʻrsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{DQ_1 \cdot 360}{TO_1} - \frac{DQ_0 \cdot 360}{TO_1} = \frac{24004 \cdot 360}{255400} - \frac{24720 \cdot 360}{255400} = 33,8 - 34,8 = - 1,0.$$

Demak, debitorlik qarzlari hajmining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 716 ming soʻmga kamayishi debitorlik qarzlarning aylanish davri 1 kunga qisqarishiga sababchi boʻlgan. Xullas, ikki omilning ijobiy taʼsiri ostida debitorlik qarzlari undirib olish muddati 2,1 kunga tezlashgan. Bu esa moliyaviy holatning mustahkamlanishini taʼminlab, xarajatlar kamayishiga, foyda oshishiga, tovar aylanmasi oʻsishiga sababchi boʻladi.

Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik ko'rsatkichlarini moliyaviy holat nuqtayi nazaridan o'rganish katta ahamiyatga ega. Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsientini (KQk_a) aniqlash uchun tovar aylanmasi summasini kreditorlik qarzlari jami summasiga bo'lish kerak:

$$KQk_a = \frac{TO}{KQ}.$$

Hisobot yilidagi kreditorlik koeffitsientning aylanish koeffitsientidan o'tgan yilgi aylanish koeffitsientini ayirish orqali koeffitsientning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{TO_1}{KQ_1} - \frac{TO_0}{KQ_0} = \pm \Delta TO, KQ.$$

Bunga ikki omil ta'sir qiladi. Omillar ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

1). Tovar aylanmasi hajmi o'zgarishining ta'siri

$$\frac{TO_1}{KQ_0} - \frac{TO_0}{KQ_0} = \pm \Delta TO.$$

Tovar aylanmasi hajmi nisbatan oshsa, aylanuvchanlik koeffitsienti ham oshadi. Demak, ushbu omil koeffitsient o'zgarishiga bevosita ta'sir qiladi.

2). Kreditorlik qarzlari hajmi o'zgarishining ta'siri

$$\frac{TO_1}{KQ_1} - \frac{TO_1}{KQ_0} = \pm \Delta KQ.$$

Kreditorlik qarzlari hajmi oshsa, koeffitsient o'zgarishiga salbiy ta'sir qiladi.

Kreditorlik qarzlari aylanish davrining (kun hisobida) umumiy o'zgarishini aniqlash:

$$\frac{KQ_1}{TO_1} \cdot 360 - \frac{KQ_0}{TO_0} \cdot 360 = \pm \Delta TO, KQ.$$

Bu o'zgarish ham yuqoridagi ikki omil hisobiga yuzaga keladi. Omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

1-omil. Tovar aylanmasi hajmi o'zgarishining ta'siri

$$\frac{KQ_1}{TO_1} \cdot 360 - \frac{KQ_0}{TO_0} = \pm \Delta TO.$$

2-omil. Kreditorlik qarzlari summasi o'zgarishining ta'siri

$$\frac{KQ_1}{TO_1} \cdot 360 - \frac{KQ_0 \cdot 360}{TO_1} = \pm \Delta KQ.$$

Tahlil paytida kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsienti va kreditorlik qarzlarning aylanish davri ko'rsatkichi bilan bir qatorda, yana quyidagi ikki koeffitsient aniqlanadi va tahlil qilinadi:

1). Majburiyatlar tarkibidagi kreditorlik qarzlari ulushi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun kreditorlik qarzlarning jami summasini (KQ) 100 % ga ko'paytirib, natijasini majburiyatlar jami summasiga bo'lish kerak

$$KQ_s = \frac{KQ \cdot 100}{P2}.$$

2). Muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning ($KQ_{mo'}$) jami kreditorlik qarzlari (KQ) tarkibidagi ulushi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun muddati o'tgan kreditorlik qarzlari summasini 100 % ga ko'paytirib, natijasini kreditorlik qarzlari jami summasiga bo'lish kerak

$$KQ_{mo's} = \frac{KQ_{mo'} \cdot 100}{KQ}.$$

Ushbu ikki ko'rsatkich o'zgarishi ham «zanjirli bog'lanish» usuli yordamida tahlil qilinadi.

Tayanch iboralar

- | | |
|------------------------|-------------------------------|
| ✓ yalpi daromad | ✓ balans passivi |
| ✓ yalpi foyda | ✓ uzoq muddatli aktivlar |
| ✓ rentabellik | ✓ aylanma aktivlar |
| ✓ debitorlik qarzlari | ✓ majburiyatlar |
| ✓ kreditorlik qarzlari | ✓ uzoq muddatli majburiyatlar |
| ✓ tovar aylanmasi | ✓ qisqa muddatli |
| ✓ muomala xarajatlari | majburiyatlar |
| ✓ balans | ✓ o'z mablag'lari manbalari |
| ✓ balans aktivi | ✓ o'z aylanma mablag'lari |

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yalpi daromad deb nimaga aytiladi va u qanday hisoblanadi?
2. Yalpi daromad rejasining bajarilishi tahlilini tushuntiring.
3. Yalpi daromad hajmining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
4. Savdo faoliyati foydasi qanday aniqlanadi, foyda mazmunini tushuntiring.
5. Foyda hajmining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
6. Sotilgan tovarlar rentabellik darajasi qanday hisoblanadi? Rentabellik mazmuni va ahamyatini tushuntiring.
7. Rentabellik darajasining o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir qiladi?
8. Moliyaviy holatni ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlar deganda, qaysi ko'rsatkichlarni tushunasiz?
9. Moliyaviy koeffitsientlar deganda, qanday ko'rsatkichlar tushuniladi?
10. Debitorlik qarzlarning mazmunini tushuntiring va tahlil qilish yo'llarini bayon qiling.
11. Kreditorlik qarzlarni tushuntiring. Bu yerda qaysi usullardan foydalanib, tahlilni amalga oshirish mumkin?
12. Debitorlik qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsienti qanday hisoblanadi? Ushbu koeffitsientning mazmunini tushuntiring.
13. Kreditorlik qarzlari bo'yicha aylanuvchanlik koeffitsienti qanday hisoblaniladi? Uning mazmunini tushuntiring.
14. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanma mablag'lar va majburiyatlardagi hissasini aniqlab, mazmunini bayon qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami (2-qism). T., 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi, 2012-yil 3-may.
3. *I.A. Karimov*. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. T., «O'zbekiston», 1996.
4. *I.A. Karimov*. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti — to'kin hayot manbayi. T., «O'zbekiston», 1998.
5. *I.A. Karimov*. Iqtisodiyotni erkinlashtirish — farovonlik poydevori. T., «O'zbekiston», 2000.
6. *I.A. Karimov*. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. T., «O'zbekiston», 2002.
7. *I.A. Karimov*. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., «O'zbekiston», 2009.
8. *I.A. Karimov*. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir. T., «O'zbekiston», 2010.
9. *I.A. Karimov*. Asosiy vazifamiz — vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T., «O'zbekiston», 2010.
10. *A.X. Shoalimov*. Sanoat korxonalari xo'jalik faoliyatini tahlil qilish. T., 1992.
11. *A.T. Ibrohimov*. Moliyaviy tahlil. T., «Mehnat», 1995.
12. *K. Rahmonov*. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini tahlil qilish. T., 1996.
13. *M. To'lxo'jayeva*. Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilish. T., 1996.
14. *I.T. Abdulkarimov*. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish. T., 1998.
15. *М.И. Баканов, А.Д. Шермет*. Экономический анализ. М., «Финансы и статистика», 1999.
16. *S. Dehqonov, I. Asrorov*. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. T., 2000.
17. *E. Ergashev*. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. T., «Moliya», 2000.
18. *Y. Abdullayev, A. Ibrohimov, M. Rahimov*. Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob. T., «Mehnat», 2001.
19. *G.V. Савицков*. Анализ хозяйственной деятельности предприятий АПК. Минск, «Новое знание», 2001.
20. *М.С. Абрютин, А.В. Грачев*. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия. М., 2002.

21. *T.Q. Qudratov*. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Muammoli ma'ruza kursi. S., 2002.
22. *T.Q. Qudratov, S.D. Dehqonov*. Qishloq xo'jaligi statistikasi. T., O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004.
23. *M.Q. Pardayev*. Iqtisodiy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004.
24. *A.V. Vahobov va boshq.* Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T., 2005.
25. *T.Q. Qudratov*. Boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. S., 2006.
26. *T.Q. Qudratov*. Moliyaviy tahlil-2. Metodik qo'llanma. S., 2007.
27. *T.Q. Qudratov va boshq.* Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatining tahlili. O'quv qo'llanma. S., «N. Doba» XT, 2008.
28. *T.Q. Qudratov, N. Fayziyeva*. Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatining tahlili. Darslik. S., «N. Doba» XT, 2010.
29. *T.Q. Qudratov*. Iqtisodiy tahlil. Ma'ruza kursi. S., «N. Doba» XT, 2011.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI	
1.1. Iqtisodiy tahlil to'g'risida tushuncha, uning bozor munosabatlari sharoitidagi mazmuni va ahamiyati	5
1.2. «Iqtisodiy tahlil»ning iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'ri	6
1.3. «Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti va uning usullari	7
1.4. Iqtisodiy tahlilning maqsadi va bozor iqtisodiyoti sharoitidagi vazifalari	12
2-bob. KORXONALAR YILLIK HISOBOTLARINING TO'G'RI TUZILGANLIGINI TEKSHIRISH	
2.1. Hisobotlarning tarkibi, mazmuni va ahamiyati	13
2.2. Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlarining o'zaro mosligi va to'g'ri tuzilganligini tekshirish	15
2.3. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro mosligi va to'g'riligini tekshirish	18
2.4. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro mosligi va to'g'riligini tekshirish	21
2.5. Mahsulotlarni sotish to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro mosligi va to'g'riligini tekshirish	23
3-bob. SANOAT MAHSULOTI ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH HAJMIINING TAHLILI	
3.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari	27
3.2. Mahsulotlar turi va assortimenti bo'yicha ishlab chiqarishning taqqoslama tahlili	28
3.3. Mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarilishi va dinamikasining omilli tahlili	31
3.4. Sanoat yalpi mahsuloti hajmining omilli tahlili	33
3.5. Sanoat tovar mahsulotlari sotish rejasining bajarilishi va dinamikasi tahlili	39
3.6. Mahsulot sifatining tahlili	45
4-bob. SANOAT MAHSULOTILARI ISHLAB CHIQARISH TANNARXINING TAHLILI	
4.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari	50
4.2. Mahsulot tannarxi umumiy hajmining tahlili	51
4.3. Bir so'mlik tovar mahsuloti xarajatining omilli tahlili	54
4.4. Mahsulot tannarxi tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlili	58

**5-bob. SANOAT KORXONALARI MOLIVAVIY
NATIJALARINING TAHLILI**

5.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari	61
5.2. Foyda va rentabellik ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash usullari	62
5.3. Sanoat mahsulotini sotishdan olingan yalpi foyda hajmining omilli tahlili	65
5.4. Sotilgan sanoat mahsuloti rentabelligining omilli tahlili	67

**6-bob. SANOAT KORXONALARI MOLIVAVIY
HOLATINING TAHLILI**

6.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari	72
6.2. Buxgalteriya balansi asosida korxonaga mulki, kapitali va majburiyatlari bo'yicha umumiy molivaviy holatini tahlil qilish	73
6.3. Molivaviy mustaqillik koeffitsienti tahlili	75
6.4. Korxonaning to'lovga qodirlik ko'rsatkichi tahlili	78
6.5. Korxonaning o'z aylanma mablag'i bilan ta'minlanish darajasi tahlili	80
6.6. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili	83

**7-bob. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA MAHSULOT
ISHLAB CHIQRISH HAJMINING TAHLILI**

7.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari	90
7.2. Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi tahlili	91
7.3. Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligi tahlili	95
7.4. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining tahlili	97
7.5. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish rejasining bajarilishi tahlili	99

**8-bob. QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI
ISHLAB CHIQRISH TANNARXINING TAHLILI**

8.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari	103
8.2. Ishlab chiqarish xarajatlari umumiy hajmining tahlili	104
8.3. Mahsulot tannarxining tahlili	106
8.4. Xarajat moddalari bo'yicha tannarxning omilli tahlili	109

**9-bob. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING
YALPI PUL DAROMADI VA FOYDASI HAJMINING
TAHLILI**

9.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari	118
9.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida mahsulotlarni sotishdan olingan pul daromadi rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlil qilish	119
9.3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning omilli tahlili	123
9.4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari rentabelligi tahlili	127

**10-bob. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI MOLIVAVIY
HOLATINING TAHLILI**

10.1. Qishloq xo'jaligi korxonasida aylanma mablag'lardan foydalanish samaraqorligi tahlili	132
10.2. Buxgalteriya balansi asosida moliyaviy barqarorlik koeffitsientining tahlili	136
10.3. Balans likvidligi ko'rsatkichlari asosida to'lovga qodirlik darajasi tahlili	140
10.4. Debitorlik qarzlari o'zgarishining xo'jalik moliyaviy holatiga ta'siri	147

11-bob. SAVDO KORXONALARIDA TOVAR AYLANMASINING TAHLILI

11.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari	150
11.2. Savdo korxonasida tovar aylanmasi rejasining bajarilishi	150
11.3. Savdo korxonasining tovar zaxiralari bilan ta'minlanishi va tovarlar aylanishini tahlil qilish	154
11.4. Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi mehnat omillari ta'siri	157

**12-bob. SAVDO KORXONASIDA MUOMALA
XARAJATLARINING TAHLILI**

12.1. Tahlilning maqsadi, vazifalari va manbalari	162
12.2. Muomala xarajatlarining umumiy hajmi va darajasining o'zgarishi	163
12.3. Muomala xarajatlarini moddalar bo'yicha tahlil qilish	166
12.4. O'zgaruvchan mehnat haqi fondining omilli tahlili	170

13-bob. SAVDO KORXONASINING MOLIVAVIY HOLATI TAHLILI

13.1. Savdo korxonasi yalpi daromadi rejasining bajarilishini tahlil qilish	174
13.2. Savdo korxonasi foydasi rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlil qilish	177
13.3. Sotilgan tovarlar rentabelligi	180
13.4. Moliyaviy holatni ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlar tahlili	184
13.5. Debitorlik va kreditorlik qarzlari	188
Foydalanilgan adabiyotlar	195

Q73 **Qudratov T.Q. va boshq. IQTISODIY TAHLIL.**
Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.
(5-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2012. — 200 b.
I. Hammuallif.

УДК: 338 (075)
BBK 65.405 ya722

ISBN 978–9943–303–83–6

T.Q. QUDRATOV, M.M. IBROHIMOV, Z.H. KARIMOVA

IQTISODIY TAHLIL

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

5-nashri


Toshkent — «ILM ZIYO» — 2012

Muharrir *I. Usmonov*
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhah *D. Umarova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-y.
2012-yil 2-oktabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90^{1/16}.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 12,5.
Nashr tabog'i 12,0. 3689 nusxa. Buyurtma № 421
Bahosi shartnoma asosida.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 42 — 2012.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, Shayxontohur ko'chasi, 86-uy.



«ILM ZIYO»

ISBN 978-9943-303-83-6

